

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

K. Abdullayeva. M. Usmonova

XALQ PEDAGOGIKASI

**(5110900-“Pedagogika va psixologiya” yo’nalishi
talabalari uchun o’quv qo’llanma)**

Namangan – 2021

Abdullaeva K. Usmonova M. Xalq pedagogikasi - Qo'llanma.

Ushbu qo'llanma pedagogika va psixologiya yo'nališining "Xalq pedagogikasi" fanining o'quv dasturiga muvofiq tuzilgan. Xalq pedagogikasi, xalqimiz qoldirgan milliy-madaniy merosni, an'ana va umuminsoniy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, uning turlari janrlari, milliy urf-odat, udumlar xalq qo'shiqlarining o'rni hamda xalqimizning ma'naviy axloqiy madaniyatiga bo'lgan munosabati, xalq og'zaki ijodining ahamiyati, fanning shakllanishi, tarixiy tadriji, fannining o'ziga xosliklari, xalq pedagogikasida tarbiya kabi masalalarining umumiylashtirilishini yoritilgan.

Ushbu qo'llanmadan oliy ta'limning bakalavriat bosqichi talabalari, pedagoglar, magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar va pedagogika sohasiga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

5110900 - Pedagogika va psixologiya

Pedagogika fanlari nomzodi

Taqrizchilar: dotsent X.Raxmatova

Falsafa fanlari doktori,

(PhD) A.A.Abdurashidov

К.Абдуллаева. М.Усмонова Народной педагогика - Учебник.

Учебник создано в соответствии с программой направления педагогика и психология бакалавриата высших учебных заведений Общественная педагогика имеет решающее значение для человеческого совершенствования, а также информирует студентов о национально-культурном наследии, традициях и общечеловеческих ценностях, оставленных нашим народом. Связь и развитие узбекской народной педагогики в связи с общественной жизнью Центральной Азии. Достижения народной педагогики в области науки и литературы. Отношение к духовной и нравственной культуре нашего народа в прошлом. Тема народной поэзии, ее типы и жанры.

Данное учебник предназначено для студентов бакалавриата вузов. Учебником могут пользоваться педагоги, молодые преподаватели, желающие повысить профессиональную компетентность, магистранты, научные исследователи и интересующиеся педагогической сферой.

51109000 - педагогика и -психология

Рецензенты:

Кандидат педагогических наук, доцент **Х.А.Рахматова**
Доктор философии (PhD) А.А.Абдурашидов

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
1-MODUL XALQ PEDAGOGIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI, MAZMUNI	9
1.1.Xalq pedagogikasining pedagogika tizimidagi o'rni. Kursning predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari	9
1.2.Xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot bosqichlari. Sharqda ilk uyg'onish davrida Movoraunnahr mutaffakirlarining ta'lim tarbiya haqidagi qarashlari	15
2-MODUL. XALQ PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARINI O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONGA TADBIQ ETISH.....	28
2.1. Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish.....	28
3-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA OILA VA OILAVIY TARBIYANING AKS ETISHI	35
3.1. Xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks etishi	35
3.2. Sharq mutafakkirlari oila haqida	46
4-MODUL.XALQ PEDAGOGIKASIDA YOSHLARNI TARBIYALASHNING METOD, USUL VA VOSITALARI	47
4.1. Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari	47
4.2. Tarbiyalash metodlaridan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish yo'llari	
4.3.Xalq pedagogikasida aqliy va axloqiy tarbiya masalalari. Xalq pedagogikasida jismoniy va mehnat tarbiyasi.....	
5-MODUL XALQ PEDAGOGIKASI VA O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI	68
5.1.Etnopedagogik manbalar tizmi	68
5.2.O'zbek xalqining yozma va og'zaki ijodi	
5.3.Ta'lim tarbiya jarayonida ertaklar , afsona, rivoyat,xikmatlar va maqollardan foydalanish.....	
5.4.Allalarning ahamiyati	
6-MODUL XALQ PEDAGOGIKASI VA XALQ OG'ZAKI IJODIDA DOSTONLAR.....	92
6.1.Xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar	92
6.2.Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati	
7-MODUL.XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY URF-ODATLAR, AN'ANALAR, UDUMLAR, MAROSIMLARNING TARBIYA VOSITASI SIFATIDAGI O'RNI.....	100
7.1. Milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni	100
7.2. Ma'nnaviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyati	
8-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY O'YINLARNING MAZMUNI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	110
8.1. Xalq pedagogikasida milliy o'yinlarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati	110

9-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA DINIY TA'LIMOTLAR	119
9.1. Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar	119
10-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA XALQ AMALIY SAN'ATI VA MADANIYATINING O'RNI.....	134
10.1.Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi	134
11-MODUL O'ZBEK XALQINING MUOMALA MADANIYATI, AXLOQIY ME'YORLARI,TURMUSH KECHIRISH TARTIB QOIDALARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	139
11.1. O'zbek xalqining muomala madaniyati, axloqiy me'yordari, turmush kechirish tartib qidalarining tarbiyaviy ahamiyati	139
12-MODUL MILLIY MUSIQA, QO'SHIQCHILIK VA MILLIY TEATRLAR XALQ PEDAGOGIKASINING TARBIYA VOSITASI SIFATIDA	146
12.1. Milliy musiqa, qo'shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasi sifatida.....	146
13 -MODUL XALQ PEDAGOGIKASI MANBALARIDA USTOZ- O'QITUVCHI KASBINING ULUG'LANISHI.....	151
13.1. Xalq pedagogikasi manbalarida ustoz- o'qituvchi kasbining ulug'lanishi	151
14 -MODUL XALQ TARBIYA NAZARIYASIDA TABIATNI MUXOFAZA QILISH VA SOG'LOM TURMUSH MASALALARI	169
14.1. Xalq tarbiya nazariyasida tabiatni muxofaza qilish va sog'lom turmush masalalari.....	169
GLOSSARIY	183
IIINVALAR	

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	8
1-МОДУЛЬ СОДЕРЖАНИЕ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ	9
1.1.Роль народной педагогики в педагогической системе. Предмет, объект, цели и задачи курса	9
1.2.Этапы исторического развития народной педагогики. Взгляды мыслителей Муваранахра на образование в период раннего Возрождения на Востоке	15
2-МОДУЛЬ. ПРИМЕНЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПЕДАГОГИКИ В УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ.....	28
2.1. Применение дидактического потенциала народной педагогики в учебно-воспитательном процессе	28
3-МОДУЛЬ ОТРАЖЕНИЕ СЕМЬИ И СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ	35
3.1. Отражение семьи и семейного воспитания в народной педагогике	35
3.2. Высказывания Восточных мыслителей о семье.....	46
4-МОДУЛЬ. МЕТОДЫ, СПОСОБЫ И ИНСТРУМЕНТЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ	47
4.1. Методы, способы и инструменты воспитания молодежи в народной педагогике	47
4.2. Способы использования воспитательных приемов в воспитании молодежи.....	
4.3. Проблемы духовно-нравственного воспитания в народной педагогике. Физическое и трудовое воспитание в народной педагогике	
5-МОДУЛЬ НАРОДНАЯ ПЕДАГОГИКА И УЗБЕКСКОЕ НАРОДНОЕ УСТНОЕ ПОВЕСТВОВАНИЕ	68
5.1.Система этнопедагогических источников	68
5.2.Узбекское народное письменное и устное повествование	
5.3.Использование сказок, мифов, легенд, пословиц и поговорок в учебно-воспитательном процессе	
5.4.Роль колыбельных	
6- МОДУЛЬ ПОЭМЫ И ЭПОС В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ И УСТНОМ НАРОДНОМ ТВОРЧЕСТВЕ.....	92
6.1. Поэмы и эпос в народной педагогике и устном народном творчестве	92
6.2.Воспитательная роль народного эпоса.....	
7-МОДУЛЬ. РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБЫЧАЕВ И ЦЕРЕМОНИЙ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ КАК СРЕДСТВО ВОСПИТАНИЯ.....	100
7.1. Роль национальных традиций, обычаев и церемоний в народной педагогике как средство воспитания.....	100
7.2. Роль национальных ценностей в процессе духовного воспитания.....	

8-МОДУЛЬ. СОДЕРЖАНИЕ И ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ.....	110
8.1. Содержание и воспитательная роль национальных игр в народной педагогике	110
9-МОДУЛЬ. РЕЛИГИОЗНЫЕ УЧЕНИЯ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ	
9.1. Религиозные учения в народной педагогике.....	119
10-МОДУЛЬ. РОЛЬ НАРОДНОГО ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА И КУЛЬТУРЫ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ.....	134
10.1.Народное прикладное искусство и народные промыслы	134
11-МОДУЛЬ. ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ РОЛЬ КУЛЬТУРЫ ПОВЕДЕНИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА, ЕГО ЭТИЧЕСКИЕ НОРМЫ, ПРАВИЛА ПОВЕДЕНИЯ В СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ	139
11.1. Воспитательная роль культуры поведения узбекского народа, его этические нормы, правила поведения в семейной жизни.....	139
12-МОДУЛЬ. НАЦИОНАЛЬНАЯ МУЗЫКА, ПЕНИЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ТЕАТРЫ КАК СРЕДСТВО ВОСПИТАНИЯ В НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ.....	146
12.1. Национальная музыка, пение и национальные театры как средство воспитания в народной педагогике	146
13-МОДУЛЬ. ВАЖНОСТЬ И ВЕЛИЧИЕ ПРОФЕССИИ УЧИТЕЛЯ-НАСТАВНИКА В ИСТОЧНИКАХ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ.....	151
13.1.Важность и величие профессии учителя-наставника в источниках народной педагогики	151
14-МОДУЛЬ. ПРОБЛЕМЫ ОХРАНЫ ПРИРОДЫ И ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В ТЕОРИИ НАРОДНОГО ВОСПИТАНИЯ	169
14.1. Проблемы охраны природы и здорового образа жизни в теории народного образования	169
ГЛОССАРИЙ	183
ПРИЛОЖЕНИЯ	

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta’lim-tarbiya sohasida, milliy odob-axloqni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an’analarni joy-joyiga qo‘yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo‘lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odobli qilib tarbiyalash bilan bevosita bog‘liq ekanini yoddan chiqarmaslik lozim.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o‘z nutqida: “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”¹-deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, xalqimiz ulkan ma’naviy me’rosga ega. Ushbu tarixiy merosdan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish, yoshlarda ajdodlar an’analariga sodiqlik va munosib bo‘lish hissini shakllantirish mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Xalq pedagogikasi fani va amaliyotining bugunga kelib, maqsadi tamomila o‘zgardi. U mafkura iskanjasidan xalos bo‘lib, o‘ziga xos milliy qonuniyatlar asosida rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lganligi tufayli bilim berish, mutaxassis tayyorlashni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan pedagogikadan, milliy g‘ururi baland, o‘zbek millatga xos bo‘lgan yuksak fazilatli barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayonga aylanib borayotganligi ko‘rinib turibdi.

O‘zbek xalq pedagogikasi ta’lim-tarbiya sohasida yuksak ma’naviy me’rosga ega. O‘zbek madaniyati, sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti moziygacha borib etgan tarixiy ildizlar orqali oziqlanadi.

Respublikamizda «Xalq pedagogikasi» fanini o‘rganishga katta e’tibor bermoqda. Ayniqsa, bu fan pedagoglar, umumiy ta’lim mакtablarining milliy sinflari o‘qituvchilari uchun, oliy o‘quv yurti talabalari uchun, aspirant va magistrlar uchun zarurdir

“Xalq pedagogikasi” fanini o‘qitishning ustuvor yo‘nalishi: Zamonaviy milliy pedagogika o‘z mazmun va mohiyatini boyitishda, shaxs shakllanishiga ta’sirchanlikni oshirishda xalq pedagogikasi g‘oyalariga tayanadi. Xalq pedagogikasi o‘z nomi bilan xalqchil usullari, qoidalari va tamoyillari bilan yoshlar tarbiyasida asosiy manba hisoblanadi.

¹ Sh. Mirziyoyev.Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43- sessiyasidagi nutqi.

1-MODUL XALQ PEDAGOGIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI ,MAZMUNI

Reja:

- 1.Xalq pedagogikasining pedagogika tizimidagi o'rni.
2. Kursning predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari.
- 3.Xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot bosqichlari .
- 3.Sharqda ilk uyg'onish davrida Mavarounnahr mutafakkirlarining ta'lim tarbiya haqidagi qarashlari.

Tayanch so'zlar: *Xalq pedagogikasi, milliy pedagogika, milliy tarbiya, xalq tajribalari, ta'lim tarixi, tarbiya tarixi, ma'naviy qarashlar, ijtimoiy tuzim, axloqiy ko'nikma, mutafakkir olimlar, tarixiy o'gitlar.*

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Ma'rifatli va ma'naviy komil insonni tarbiyalash "O'zbek xalq pedagogikasi" fanining aosiy maqsadidir hamda uning bosh masalasi va mavzusi tarbiyadir. Tarbiyadan keng ma'no ta'lim rivojlanishi, ma'lumot bilan bog'langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir. Bu o'z navbatida insoniyat yaratgan ilmiy-ma'naviy boyliklarga, insonning o'ziga yangicha munosabat, yondashuvni yuzaga keltirdi.

Bunday yangicha yondashishlar "O'zbek xalq pedagogikasi" fanining ob'ekti va mavzuini kengaytiradi.

Xalq pedagogikasi (Etnopedagogika) – etnomadaniy an'analar, xalqning poetik va badiiy ijodiyotiga asoslangan og'zaki bilimlar, tarbiyaviy (faoliyat) ko'nikmalar majmui, bolalarning bir-birlari va kattalar bilan qiladigan muloqotining barqaror shakllarini o'zida namoyon etuvchi fan.

Xalq pedagogikasining ajralmas qismi bo'lgan "O'zbek xalq pedagogikasi" O'zbek xalqi paydo bo'lgan va yashab kelayotgan butun davrni o'z ichiga oladi. Jumladan, ijtimoiy va maishiy-axloqni, hayotning barcha tomonlarini, Xalq og'zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunoslik va marosimshunoslikning yetakchi yo'nalishlarini, diniy axloqiy ta'limotni o'z ichiga oladi. Demak, "O'zbek xalq pedagogikasi" - bu dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, axloq, odob, insoniy qadriyatlar va uning ma'naviy ustuvorligi, imon- e'tiqodi, butunligi sohasidagi dunyoqarashi, ommaviy faoliyati, usullari, an'analari, tajriba xulosalarining lo'nda, bag'oyat teran, donishmandnoma tarzda ifodalanishidir.

Milliy qadriyatlarning barkamol insonni tarbiyalashdagi roli “O‘zbek xalq pedagogikasi» an'analarida farzandlarning estetik idroki, hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammallashtirish; tarbiyalanuvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, estetik did asoslarini shakllantirish va takomillashtirish; estetik tarbiyada tarbiyalanuvchilar o‘yin folklori-ning o‘rni va ahamiyati, tarbiyalanuvchilar folklor-etnografik dastalari - estetik tarbiya markazi ekanligi, vorislik, ustoz-shogirdlik an'analarining pedagogik, axloqiy-estetik ahamiyati, yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda badiiy-estetik tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha san'ati - sirk, dorbozlik, askiya, baxshi-shoирchilik, dostonchilik, ertakchilik, qiziqchilik, taqlidgo‘ylik, maddohlik, qiraotxonlik, qissaxonlik, otunlik, voizlik, bo‘zaxo‘rlik alyorlari kabi san'atlarining tutgan o‘rni va pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati, xalq an'anaviy sporti, fizkulturachi - farzandlar jismoniy baquvvatligi va yetukligining garovi ekanligi, chaqqonlik, epchillik va har tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligi, tarbiyalanuvchilar o‘yin folklorining pedagogik tarbiyaviy ahamiyati, xalq pedagogik tarbiyasida turizm va sayohatning, savdo-sotiq va tijoratning o‘rni, jismoniy tarbiya va sport ko‘nikmalarida xalq qiziqarli tomosha san'ati, axloq-odob va ta'larning uyg‘unligi va o‘ziga xosligi, xalq sport va jismoniy tarbiyasida jinsiy tafovutlarga ahamiyat berishning axloqiy-aqliy ahamiyati; xalq an'anaviy pedagogikasida tabiat va inson uyg‘unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e'zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, hayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov-daraxtlar, o‘simliklar va giyohlarga ruxsat, suv, borliq-atrofga insoniy munosabat - xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asoslaridan biri ekanligi, odatlar, udumlar, rasm-rusumlar, marosimlar, irim-sirimlar, qarg‘ish va olqish-duolar, tabiat, diniy bayramlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, xalq ommaviy bayram-sayllari “Navro‘z”, “Mehrjon”, “Hayit-ro‘za”, “Hayit bayrami” va boshqalarning, tarbiyalanuvchining dunyoga kelishi, qulog‘iga azon aytish, tish chiqishi, ilk qadami, beshikka solish, birinchi kiyim-bosh kiydirish, besh, yetti kun, o‘n bir kunligi, bir yilligi, uch, to‘rt, besh yilligining alohida bayram qilinishi, o‘quv muassasasiga borishi, sunnat qilinishi, kokil qo‘yish, kokil oldirish, mo‘ylov oshi, uylanish-nikoh to‘yi, birinchi farzand ko‘rish, qirq, ellik, oltmish yoshlar tantanalari, payg‘ambar yoshi, yetmish, sakson, to‘qson yillik yubileyлari, kumush to‘y, oltin to‘y, marvarid to‘y va boshqa bayram-sayllar, to‘y-tomoshalar, odatlar, udumlar, marosimlar va an'analarining ta’lim-tarbiyaviy, pedagogik yo‘nalishi, ahamiyati va shu kabilar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, xalq nazdida, inson ona qornidan yaxshi yo yomon bo‘lib tug‘ilmaydi – u birday tug‘iladi. Yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-on, oila, mahalla-kuy, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat va tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota meros-oilaviy pedagogika, xalq

pedagogikasi, shuningdek udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an'analari, jamiyatning bu sohadagi sa'y-harakatlari hal qiluvchi o'rin tutadi. Xalq ta'kidlashicha, bola boshdan to'g'ri, haqqoniy tarbiyalansa – u kelgusida yaxshi inson bo'lib yetishadi, egri yo'lida tarbiyalansa – yomon kishiga aylanadi. Zero, "ko'chat boshdan, bola yoshdan" maqoliga amal qilish xalq an'anaviy pedagogikasining bosh yo'nalihidir.

El-yurt uchun har tomonlama mukammal insonni tarbiyalashga qaratilgan "O'zbek xalq pedagogikasi" ham ayrim shaxslar yoxud bir-ikki jamoa – ular qanchalik iqtidorli-iste'dodli bo'lishmasin, uni xalqimiz asrlar bilan o'lchanuvchi hayotida o'zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar kamoloti borasida tutgan tutimlari, sa'y-harakatlari, yo'l-yo'riqlari, aql-zakovatlari bilan yaratilgan.

Hamisha safarlarda bo'lib, o'zga yurt kishilarini bilan muloqotlarda bo'lish, izlanishlar olib borishdan toliqmaslik kabi hislatlar o'zbek xalqi xarakteriga xos fazilatlardandir. Insonparvarlik, baynalmilallik, hushyorlik, zukkolik, topqirlik, bilimdonlik, uquvlikni o'ziga e'tiqod qilib olgan o'zbek xalq pedagogikasi ayni choqda Sharq odobnomasi, ibratnomasidan doimiy ravishda bahramand bo'lган, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go'zal namunalarini o'ziga qabul qilib olgan.

O'zbek xalq pedagogikasining asosiy manbasi. O'zbek xalq pedagogikasining manbalarini asosan uch turga bo'lib o'rganish mumkin. Bular quyidagilar:

Xalqimizning buyuk mutafakkirlari tomonidan meros qilib qoldirilgan nasriy va nazmiy asarlar, odobnama va pandnomalar;

Xalqimiz tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodi va folklori namunalari, xalqimizning qadriyatları, urf-odatlari va turli xil marosimlari;

Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni karim", Payg'ambarimizdan meros qilib qoldirilgan hadis namunalari va buyuk islomiy ta'limotlarning namunalari.

Endi biz shular xususida o'zimizning fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo'lmish Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa shu kabi ko'plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari o'zining tarbiyaviy ahamiyatga, ma'rifatni targ'ib etish xususiyatlariga va ibratlilik xususiyatlariga ega ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Bular jumlasiga Navoiyning mashhur "Xamsa" sini, Imom al-Buxoriyning "Assahih" hadislar to'plamini, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi ko'plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlarni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz

tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og‘zaki ijodi namunalarini bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo‘lib, ular ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o‘z navbatida yuqorida sanab o‘tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga yetkazgandir. Shunday ekan biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni izchil ravishda takomillashtirib borishdir.

Ma'lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi Islom dini bilan chambarchas bog‘langandir. Shuning uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarning aksariyati ham va mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviyat sarchashmalari ham aynan ana shu din asosida shakllanib, rivoj topib kelgan. Shunday ekan, biz bu dinning urf-odatlariga oqilona yondashib, ularni to‘g‘ri anglab olishga harakat qilishimiz kerak. Chunki, islom dini yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, doimo millatlar o‘rtasidagi tinchlik-totuvlikni va insoniyatga nisbatan qilinadigan har qanday zo‘ravonlikka qarshi g‘oyalarni targ‘ib etib kelgan.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta’lim-tarbiya sohasida, milliy odob-axloqni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an’analarni joy-joyiga qo`yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo`lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odobli qilib tarbiyalash bilan bevosita bog‘liq ekanini yoddan chiqarmaslik lozim.

O‘zbek xalq pedagogikasi ta’lim-tarbiya sohasida o`ziga xos dorilfunun yaratgan. O‘zbek madaniyati, sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti moziygacha borib etgan tarixiy ildizlar orqali oziqlanadi.

Allomalarimiz «Agar kishiga hayotning o`zi berolmasa ta’lim, unga o`rgata olmas hech bir muallim» deya nasihat qiladilar, bu inson o`z tafakkuri yordamida ta’lim-tarbiya olishi, odob-axloq normalarini egallashi, o`zi yashayotgan jamiyat, insongarchilik xulq-atvoriga xos, ma’naviy-axloqiy ko`nikma va malakalarni o`zida mujassamlashtirish lozimligini taqozo etadi.

Respublikamizda «Xalq pedagogikasi» fanini o`rganishga katta e’tibor bermoqda. Ayniqsa, bu fan pedagoglar, umumiy ta’lim mакtablarining milliy sinflari o`qituvchilari uchun, oliy o`quv yurti talabalari uchun, aspirant va magistrler uchun zarurdir.

Xalq pedagogikasi tarbiyada oilaning muhim qirralarini ochib beradi. Oilada ota-onaning o`rni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining

qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o`rgatish, tarbiyada hamma vaqt samara berib kelgan.

Shu o`rinda Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlab o`tish o`rinli. Buyuk pedagoglar ko`proq xalqning pedagogik tajribalariga e'tibor qaratgan. Chunki xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi va unga tayanch bo`lib xizmat qiladi.

Buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham o`zining faoliyatini xalq og`zaki ijodi, uning urf-odatlari, qadriyatları to`g`risida material to`plashdan boshlagan.

H.H.Niyoziy «Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan» - deb ta`rif beradi. U yana o`zbek xalqi tarbiya sohasida o`ziga xos tizimga ega ekanini aytib o`tadi. H.H.Niyoziy fikricha xalqni tarixiy tarkib topishida xalq tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Hamzaning hikoyalarida, dramalarida, pyesa va povestlarida xalq pedagogikasi o`z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib boyib borishining fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan uning hayotiyligi, ta'sirchanligi serqirra, serma'noligida bo`lsa, ikkinchidan uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot inson muammolarini qamrab olishi tarbiyaning eng dolzarb masalalari echimini hal qilishga qaratilgani uchinchidan, umuminsoniy yo`nalishga, umumbashariy g`oya – maqsadlarga qaratilgan bo`lganligidir.

Xalq pedagogikasi fanining maqsadi-bo`lajak komil shaxs ongida milliy va xalqchil tushunchalarni shakllantirish, baynalmilallik tuyg`ularini tarbiyalash, xalq orzusidagi komil shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishdan iboratdir. Fanning vazifasi esa-mazkur tarbiyaviy sifatlarni shkllantiruvchi pedagogik jarayonga ijobiy ta`sir etish, uning samaradorligini oshirishdan iborat.

Xalq pedagogikasi tarixan xalqning o`zi, uning ijtimoiy ongi, tafakkuri, turmush tarzi bilan qorishiq ravishda shakllangan. U xozirgi zamon pedagogikasi ilmining ibtidosi hisoblanadi. Xalqning o`zi hayot ekan uning pedagogik fikri, o`z milliy pedagogik qarashlari ham yashayveradi.

Xalq pedagogikasi fani orqali, mutafakkir olimlar o`gitlaridan baxra olish va tarbiya jarayoniga tadbiq etish, qadriyatlar, udumlar urf-odatlarga sodiqlik, ilm olish, ustozlar qadriga etish, oila mustahkamligiga erishish, xalqqa muhabbat, hayotni sevish, milliy odob-axloq ma`yorlariga itoat qilish kabi jihatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi.

O`zbek xalqi bugungi mustaqillikni qo`lga kiritgan bir davda ota-bobolar, ajdodlar erishgan yutuqlardan faxrlangan holda ularning boy tajribalarini chuqr tahlil va tadqiq etish puxta o`rganish zarur. Bu esa yoshlarda bobolar ishlaridan, nasl-nasabidan faxrlanish tuyg`ularini vujudga keltiradi va ular o`tmish an'analariga sodiq bo`lishga harakat qiladilar.

Tarbiya – doimiy va izchil takrorlash, ishontirish mevasidir. Boshqacha

aytganda doimiy va izchil takrorlash, dalillar asosida tushuntirish ishonch tuyg‘ulari hosil qilinadi.

Shunday qilib, oliy o`quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalar o`zbek xalq pedagogikasini quyidagi maqsadlarda o`rganish imkoniyatiga ega bo`ladi. birinchidan O`zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida milliy mafkura tamoyillarini egallaydi. Ikkinchidan, mutaxassis sifatida yosh avlodga milliy g‘oya va milliy mafkura mohiyatini tushuntira olish ko`nikmasini hosil qiladi. Prezidentimiz aytganlaridek, biz kelajagimizni bugungi yoshlarga ishonib yashayapmiz. Bugungi talaba ertangi rahbardir. U qanchalik ma’naviy barkamol, qo`li, dili, vijdoni pok bo`lsa, kelajagimiz shu qadar buyuk bo`ladi. bu esa Siz bilan bizga, bo`lg‘usi rahbarlarning tarbiyachilariga ko`p jihatdan bog‘liq.

Har bir shaxs, xalq va millatning o`ziga xos orzu-umidlari va ma’naviy qarashlari bo`ladi. Ular orasida ta’lim va tarbiyaga bo`lgan ehtiyoj alohida o`rinni egallaydi. Chunki har bir sog‘lom insonda tinmay bilim olib turish ehtiyoji mavjud. Aslida fikr doirasi keng va tarbiyalı insongina o`zini erkin va baxtli his qiladi.

Har qanday davlat o`z xalqining taraqqiyot bosqichiga mos ijtimoiy tuzumni tanlab oladi. Davlatning ma’rifat tizimi jamiyat tanlab olgan tuzumning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Bizning bugungi maorif tizimimiz demokratik davlat va bozor munosabatlariiga asoslangan bo`lishi zarur.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov birinchi chaqiriq Respublika Oliy Majlisining birinchi ssesiyasida qilgan ma’ruzasida hur O`zbekistonda Demokratik tuzumni barpo eta borish bilan birga, amalga oshirilayotgan ulkan o`zgarishlarning asosiy ishtirokchilari bo`lgan jamiyatimiz a’zolarining ma’naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish lozimligini aytgan edi. Bu fikrlarni birinchi Prezidentimiz keyingi chiqishlarida ham bir necha bor ta’kidladi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tarixiy o`n to`rtinchi sessiyasida so`zlagan nutqida jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish va qadrlar masalasini O`zbekistonning XXI asrda rivojlanishining eng ustivor yo`nalishlardan biri sifatida olg‘a suradi.

Kelajagi buyuk davlatni qurayotganlar tafakkuri, axloqi yangi iqtisodiy munosabatlarni tarkib toptirishga va moddiy ne’matlar yaratishga astoydil yo`naltirilgan bo`lishi lozim. Mana shunday ijobiy hislatlarga ega bo`lgan insonni tarbiyalash ta’lim-tarbiya tizimi zimmasiga yuklatilgan.

Yaqin o`tmishimizdagи «soviet pedagogikasi»ning ta’lim-tarbiya berish usullari barcha odamlar bir xil qobiliyatga, bir xil dunyoqarashga, bir xil ehtiyojga ega, degan ijtimoiy hayot qonuniyatiga zid, «taqlid qilish» usuliga asoslangan edi. Shu bilan birgalikda, o`qishga hammani jalg qilish maqsadida didaktikaning oltin

qoidasi bo`lgan diqqat qildirish tamoyiliga zid holda o`qitishga harakat qilindi. Vaholanki, pedagogika ilmi va amaliyotining ma'lumotiga qaraganda, o`qituvchi talabalar diqqatini o`ziga qaratib, uni dars oxirigacha saqlab turish uchun sinfdagi bolalar soni 15-20 dan oshmasligi kerak ekan. Aks holda, darslarni ijro bo`lmasligiga, yosh avlodni esa, «maktabga borib keluvchilar», «bitiruvchilar» va «hech narsani bilmaydigan» kishilar toifasiga aylantira boradi.

Undan tashqari, «kommunizm kishisi» andozasidan kelib chiqib, hammani birday tezkorlik bilan bilimdon qilib tarbiyalash maqsadida o`qishning har bir bosqichida haddan tashqari ko`p fanlar kiritilib, hatto o`rtacha qobiliyatga ega bo`lgan bola ham bilimini qabo`l qilish imkoniyatidan mahrum bo`ldi. Natijada o`quvchi va talabalar me'yordan ancha ko`p axborotni ongiga sig`dira olmasdan, bora-bora o`qishga loqayd munosabatda bo`la boshlaganlar. Berilayotgan bilimni to`liq egallayman, degan tirishqoq bolalar bu bilimlarni faqat taqlid usuli orqali yod olib ulgurishgan, xolos. Mexanik ravishda yod olingan bilim turg`un bo`lmay, bola xotirasidan tez o`chib ketadi.

Shu bilan birgalikda «sovet pedagogikasi» o`ta mafkuralashtirilgan bo`lib, faqat materialistik dunyoqarash, sinfiy qarama qarshilik, milliy va hududiy xususiyatlarni hisobga olmaslik va hokazolar barcha fanlar, shu jumladan pedagogika fani mag`iz-mag`ziga singdirilgan edi. Bunday jonsiz nazariy pedagogik adabiyotlarni tubdan qayta ko`rib chiqib, milliy istiqlol mafkurasi va XXI asrdagi O`zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo`nalishlaridan kelib chiqqan holda, jahon ilg`or pedagogik fikrlari asosida milliy pedagogika dastur va darsliklarini yaratish zarur bo`ldi.

Milliy pedagogika deganda davlat konstitutsiyasi, ta`lim to`g`risidagi qonun hamda istiqbol rivojlanish dasturlari, jamiyatning tarixiy taraqqiyot qonuniyatları va jahondagi ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida to`zilgan ta`lim-tarbiya nazariyasi, usul va uslublar majmui tushiniladi.

O`zbekiston xalqi asriy orzusi – mustaqillikka erishib, barqaror taraqqiyot yo`lidan bormoqda. Endilikda xalqimiz o`z taqdirining haqiqiy egasi, o`z tarixinining ijodkori, milliy ma`naviyat va qadriyatlarning chinakam sohibiga aylanmoqda. Milliy ana'nalar, dinimiz, tariximiz qaytadan tiklanmoqda, o`zligimizni tobora chuqr anglab etmoqdamiz.

1.2. Xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot bosqichlari

Xalq pedagogikasi – xalq ma`naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Shunday ekan Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti ham mahalliy xalq ma`naviy madaniyatining o'sishi bilan bog'liqdir. Xalq pedagogikasining rivoji esa nazariy pedagogika ilmi taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Biz ushbu holni Markaziy osiyoda pedagogik fikr taraqqiyoti misolida ko'rishimiz mumkin.

Ibn Sino, Beruniy, Jomiy, Xorazmiy, Dehlaviy, Xayyom, Navoiy, Forobiy, Sa'diy, Nosir Hisrav va boshqa mutafakkirlar ilmiy merozi tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning pedagogik qarashlari bevosita xalq pedagogikasi manbalari tizimi: maqollar, matallar, ertaklar, afsona va rivoyatlar mantiqiga mos keladi. Ayni paytda ko'plab rivoyatlar va ertaklar mazkur mutafakkirlarning hayoti va faoliyati bilan bevosita bog'liq holda vujudga kelgan. Demak, Markaziy Osiyoda ham xalq pedagogikasining ijodkori, yaratuvchisi xalq ommasidir. Uning paydo bo'lishida mehnat hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Mehnat jarayonida odamlar samaradorlikni g'oyat oshiruvchi g'aroyib mashinalar haqida orzu qilganlar: "uchar gilam" lar, "uchar ot" lar, "oynai jahon" lar, "chopqir etik" lar, "sehrli dasturxon", "ur to'qmoq" larni orzu qilganlar. Chunki, ibtidoiy ishlab chiqarish usullari, darajasi kishilarni qoniqtirmagan. Ular bir kechada ko'plab mato to'qishni, bir lahzada uzoqlarga borishni orzu qilib, otga minishni, qayiqda so'zishni, himoyaga bardoshli qasrlar qurishni, kamon otishni, to'quv dastgohlari, charx yasashni o'rganganlar.

Mehnat turli tarmoqlarga bo'lina borib, so'z san'ati xilma – xil harakter kasb eta borgan. Og'zaki so'z paydo bo'lganida ibtidoiy odam so'zning magik (ilohiy) qudratiga sig'inar va o'z mehnati samarasini unga bog'lar edi. Oqibatda so'z bilan marosim bog'lana borib, so'zda u yoki bu marosim mohiyati ifoda etila boshlandi.

Jamiyat taraqqiy etgani sari ommani itoatkorlikka chorlovchi, diniy ruhdagi asarlar paydo bo'la boshladi. Ko'pincha, etnopedagogik asarlarda zulm va yovo'z kuchlar ustidan g'alaba qiluvchi, komil shaxs darajasiga ko'tarilgan qahramonlarni tasvirlash kuchaydi. Ularda eng oliv insoniy (tarbiyaviy) sifatlar: ilm egallah, kasb-hunar o'rganishga undaydi. Adolatli jamiyat va odil hukmdorlar orzu qilindi. Vatanparvarlik, ma'naviy va jismoniy komillik, halollik va adolat, insonparvarlik, do'stlik g'oyalari targ'ib etildi.

Xalq pedagogikasi asarlarida xalq ideal darajadagi fazilatlar sohibi bo'lib, barcha yaxshi va yomon tarbiyaviy sifatlarni ko'ra biladi. SHuning uchun u eng barkamol, ommani ergashtira oluvchi qahramonlarnigina tan oladi. SHuning uchun ularda ijobiy qahramonlar tipiklashtiriladi. Masalan, Alpomish, Go'ro'g'li, Avaz, Ravshanxon, Nasriddin afandi, Aldar ko'sa va boshqalarda yuksak tarbiyaviy sifatlar mujassamlashgan. Dostonlarda qahramon va uning dushmani, ertaklarda dono dehqon va zolim boy, o'gay ona va jafokash qiz kabi obrazlarda xalqona kamtarlik va hukmrona takabburlik zuhr etilgan.

Xalqning yuqorida qayd etilgan azaliy orzu-umidlari aks etgan etnopedagogika manbalari vositasida buyuk mutafakkirlar pedagogik qarashlari ham shakllangan. Chunonchi, Ibn Sino o'zining "Tadbiri manozil" asaridagi "Maktabda bolalarni o'qitish va tarbiyalash" deb nomlangan bobida umumta'lim g'oyasi olg'a suradi. Ta'linda suhbat metodini qo'llashni, aqliy mashg'ulotni

jismoniy mashg‘ulotlar bilan almashib turishni tavsiya etadi. Jamoada o‘qitish afzalliklarini uqtiradi. Bunday ilg‘or pedagogik fikrlarni Beruniy, Forobiy, Rudakiy, Nosir Hisrav, Sa’diy, Yusuf Xos Hojib, Umar Hayyom, Burxoniddin Zarnudjiy, Ahmad Yugnakiy asarlarida ham ko‘rish mumkin. Buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari shakl va mazmuniga ko‘ra xalqning pedagogik donishmandligi bilan uyg‘unlashib ketgan. Ular Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik madaniyatining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Demak, xalq pedagogik g‘oyalari buyuk mutafakkirlar pedagogik qarashlari bilan hamohang shakllanib, ular bir-birini takomillashtirib, boyitib borgan. Donishmandlar asarlarida xalqning amaliy pedagogikaga doir fikrlari ilmiy pedagogik tusga kira borgan. Shu taxlitda pedagogika ilmi takomillasha borgan.

Porloq kelajakka umid ko‘zi bilan boqqan ajdodlarimiz inson qobiliyati va qudratini ideallashtiruvchi mifologik obrazlarni yaratgan. Mifologik obazlarning ilk namunalari qadimiy mif va afsonalarda o‘z aksini topgan.

Mif grekcha “myfhos”-so‘z, rivoyat so‘zidan olingan bo‘lib, dunyoning paydo bo‘lishi, tabiat hodisalari, xudolar, afsonaviy pahlavonlar; goh inson, goh jonzod qiyofasidagi zulmkor dushmanlar haqidagi to‘qima afsonalardir. Mifologiya - miflarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, u ibtidoiy insonning tabiat sirlarini bilishga intilishi tufayli vujudga kelgan.

Insonning tabiat stixiyalariga qarshi kurashdagi ojizligi (bo‘ron, sel, zilzila, dovul...) tufayli ularga qarshi kurasha oluvchi g‘ayritabiyy obrazlar yaratishga ehtiyoj tugilgan. Natijada yaxshilik va yomonlik haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo‘lgan. Olam haqidagi bunday ibtidoiy miflar ta’sirida osmon, oy, quyosh va turli hayvonlar, xudolar, g‘ayritabiyy pahlavonlar haqidagi miflar vujudga keldi. Hayvonlar va tabiat stixiyalariga qarshi kurashga qaratilgan (so‘z kuchi, afsun “avrash” vositasida ularga ta’sir etish tufayli, yovo‘z kuchlarga teng keladigan qurol inson ixtiyorida bo‘lmagan bir paytda) miflar yaratildi. Ko‘rinib turibdiki, miflar insonga osoyishta yashash, yovo‘z kuchlarni engishga ko‘maklashuvchi orzular ifodasidir.

Miflarda yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xudbinlik, yorug‘lik va zulmat orasidagi kurash jarayoni tasvirlanadi. Komil insonlar hamisha yaxshilik, go‘zallik, yorug‘likning tantana qilishi ko‘maklashadi. Aniqroq aytilganda, miflarni o‘qigan o‘quvchi ijobjiy qahramonlarning tarafdoriga aylanadi. “Avesto” da yaxshilik – Axura Mazda, yomonlik – Axriman qiyofasida namoyon bo‘ladi. Kitob g‘oyasiga ko‘ra barcha hodisalar (tabiat va jamiyatdagi) ana shu ikki yaratuvchining o‘zaro kurashidan kelib chiqadi.

Mitra – quyosh va yorug‘lik xudosi, Noxit – obodonlik, farovonlik xudosi, Xumo – baxt, tole xudosi va boshqa yaxshilik tantanasiga ko‘maklashadi. Yomonlik kuchlari: ajdar, dev, jin, yalmog‘iz va boshqa mifologik obrazlarda

tasvirlangan. Shuningdek, Kayumars va Jamshid haqidagi miflar ham O‘rtal Osiyoda qadimdan tarqalgan. Uning turli variantlari mavjud (“Avesto” da, “Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar” da, “Shohnoma” da va b.) Kayumars “G‘iyosul lug‘at” da Govmard (inson - buqa) deb ta’riflanib, Amudaryo bo‘yida yashagan, bo‘yi daryoning narigi betiga etgan va hokazo

Miflardagi ijobiy obrazlar xalq manfaati uchun,adolat, go‘zallik uchun kurashadi. Kishilarga hayotda, kurashda yordam beradi. Ularga oliv insoniy sifatlarda o‘rnak ko‘rsatadi, kasb-kor o‘rgatadi. Demak, miflarda xalq ommasining ilk pedagogik tafakkuri o‘z ifodasini topgan, deyish mumkin.

Jamshid haqidagi mif O‘rtal Osiyo va eronda keng tarqalgan bo‘lib, unda Jamshid najotkor qahramon sifatida ko‘rsatilgan (“Avesto” da).

Jamshidadolatli podsho bo‘lib, uning ming yillik shohlik davrida qahraton sovuq, jazirama issiq, kasalliklar va o‘lim kamaya borgan. Uning erida mollar va odamlar ko‘paya borgach, u erni uch marta ko‘paytiradi, chorva va qushlarni ham ko‘paytiradi. Ammo, to‘satdan qahraton qish, toshqin boshlanadi. Odamlarni qutqarish uchun Jamshid (yima) ariqlar ochadi. Bu afsona A. Navoiyning “Mulki Ajam”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlarida tasvirlangan. Bunday mifologik obrazlar keyinchalik ertak va dostonlarda rivojlantirildi.

“Odami Od” hikoyasida Nuh payg‘ambar bo‘yi bo‘lutga etadigan usta yordamida chinordan kema yasatib, odamlarni kemaga o‘tqazib, o‘zi kemani torta ketibdi (“Od” – fors-tojikcha “ulkan odam”). “Er Xubbi” mifi ham insonga g‘amxo‘rlik timsolidagi etnopedagogik asardir. U Xorazm va Farg‘onada keng tarqalgan. Xubbi insonparvar, daryoning hokimi, Amudaryoda 700 yil yashagan va bu davrda daryoga jinlar yaqinlasha olmagan. Jamshid taxtga o‘tirishi bilan u domdaraksiz g‘oyib bo‘lgan. Bundan Xubbining opasi aza tutgan, u bilan birga daryo, tog‘u-toshlar, qushlar, hayvonlar, odamlar, osmonda farishtalar, er ostida devlar yig‘lagan. Ular Xubbi tirik, qiyomatgacha yashaydi, deb tasavvur qilganlar.

“To‘maris”, “Shiroq” rivoyatlari, Rustam haqidagi epos, qadimgi qo‘shiqlarda ham yuksak tarbiyaviy sifatlar targ‘ib etilgan. Ularda kishilar yaxshilik qilishga, xushxulq bo‘lishga, yomon odatlardan xalos bo‘lishga chorlangan.

Biz oldingi bandda turkiy etnopedagogika manbalari jumlasiga kiruvchi qadimgi miflarda pedagogik fikrlar qay tarzda targ‘ib etilganligini yoritishga harakat qildik. Garchi, mazkur miflarda g‘ayriinsoniy qiyofalar timsolidagi qahramonlar tarbiyaviy sifatlariga doir fikrlar ushbu bandga ham aloqador bo‘lsada, biz bu bandda yoritish ko‘zda tutilgan muammoni etnopedagogikaning boshqa janrlari – dostonlar, maqol va matallar, hikmatli so‘zlar misolida buyuk ajdodlarimiz pedagogik qarashlariga tayangan holda yoritamiz.

Xalq pedagogikasining bosh ob’ekti – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish jarayonidir. Shuning uchun xalq tarbiyaning mohiyatini qanday tushunishi, tarbiya

jarayonida qanday metod va usullardan foydalanishi, tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini qanday talqin etishi haqidagi masalalar qiziqarlidir. SHuningdek, xalq asrlar davomida to‘plangan, ilmiy-pedagogik tushunchalar bilan boyib borgan bilimlarni oilaviy tarbiyaga qanday tadbiq etganligini ham tahlil etish zarur.

Xalq hamisha yosh avlod tarbiyasi mohiyatini to‘g‘ri talqin etgan. Bu yo‘ldagi qiyinchiliklar va quvonchlarni, uning bebafo ish ekanligini to‘g‘ri anglab etgan. Shuning uchun: “Tarbiya – bebafo boylik” deganlar. Turkmanlar: “Bola-aziz, odobi undan aziz” desalar, o‘zbeklar: “Aql bahosiz, tarbiya esa chegarasiz” deb bejiz aytmagan. Chunki tarbiya jarayoni tarkibiga ko‘plab yo‘nalishlar kiradi. Ammo, bunda eng muhim yo‘nalishni aqliy tarbiya tashqil etadi. Shuningdek, tarbiya jarayoni g‘oyat murakkab ish, u alohida e’tibor, bilim va malakani talab etadi. Xalq inson tarbiyasini ona qornidayoq boshlash zarurligini allaqachon anglab etgan. Agar bola tarbiyasida vaqt o‘tkazib qo‘yilgan bo‘lsa, yoki tarbiya noto‘g‘ri olib borilgan bo‘lsa, qayta tarbiyalash zarurligi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta’kidlangan.

Xalq pedagogikasi manbalarida bola tarbiyaviy sifatlarining shakllanishi bevosita ota-onaga bog‘liq ekanligi alohida ta’kidlangan. Chunonchi: “Bolaning qadami oiladan boshlanadi”, “Yomon o‘g‘il uchun ona, yomon nabira uchun buvi javobgar”, “Sababi otada, natijasi bolada”, kabi maqollar shular jumlasidandir.

Buyuk mutafakkir Ibn Sino ham bola tarbiyasida ota-onaning tutgan o‘rnini yuqori baholab, “Tadbiri manozil” asarida: “Agar oila tarbiya metodlaridan to‘g‘ri foydalansa, u hayotda baxtga erishadi. Oilada bosh tarbiyachi – otadir, onaning yumshoq ko‘ngilliligi bola harakterini buzadi”, - deydi.

Xalq bola tarbiyasida ijtimoiy muhitning ahamiyatini ham hayratlanarli darajada to‘g‘ri tushunadi. Shuning uchun yomon hislatli bolalar muhitni bola tarbiyasini buzib qo‘yishi mumkinligi quyidagiga ta’kidlanadi: “Qovun-qovundan rang oladi”, “Oriyatsiz odamdan qoch!” “Yomon bilan yursang qolarsan uyatga, yaxshi bilan yursang yetarsan murodga”, “Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqar” kabilar. Shuning uchun Ibn Sino pedagogik jarayonni yaxshi xulqli bolalar jamoasida olib borishni tavsiya etib: “Barcha turdagil o‘quv mashg‘ulotlarini jamoada olib borish zarur. Chunki bolalar jamoa muhitida do‘stlashadilar, bir-birlarini hurmat qilishni o‘rganadilar, yaxshi hislatlarni ham bir-birlaridan o‘rgandilar”-degan edi. (“Tadbiri manozil” asaridan).

Bola tarbiyasida yomon tomonga og‘ish yuz berishi ham mumkinligini to‘g‘ri his etgan xalq, ularni qayta tarbiyalashga oid qator metodlarni tavsiya etadi: “Buyumni suv bilan, insonni o‘rgatish bilan tozalashadi”. Lekin, Rudakiy ta’kidlaydiki: “Agar kim olmasa hayotdan ta’lim, unga o‘rgatolmas hech bir muallim”. Yoki: “Tarbiyasizlikning davosi bor, axmoqlikning davosi yo‘q.”, “Toptalgan o‘tloqda ham gul unadi” va boshqalar shular jumlasidandir.

Muslihiddin Shayx Sa'diy bolani oilada yoshlikdan tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolani yoshligida istalgan maqsad yo'nalishida tarbiyalash mumkin. Chunki, bola yoshligida ho'l novda singari tarbiyaviy ta'sirga tez beriladi. Shuning uchun: "Ho'l novda egilar qay holda egsang, qurigach to'g'rilan uni o't-otash," -deydi Shuningdek, u hatto: "Temirchining bolasi o'qisa bo'lur olim"-deb ta'kidlaydi. Xalq pedagogikasi manbalarida ta'kidlanganidek: "Bir otaning bolalari ham har xil bo'ladi", "Beshta barmoq teng emas" kabi maqollar mazmuniga tayanab ish ko'rgan.

Xalq pedagogikasida tarbiya jarayonida uning mezonlariga amal qilish lozimligi ko'rsatib o'tilgan, kattalarning o'rnak bo'lishi, o'z-o'zini tarbiyalash singari metodlar ham e'tibordan chetda qolmagan. Shuningdek, tarbiyada bolaning ruhiy va yosh xususiyatlari ham inobatga olingan: jumladan: "Bola tarbiyasini beshikdaligidan, buzoqnikini qoziqdaligidan boshla!,-" maqoli ushbu fikrning isboti bo'la oladi.

Jamiyatning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy ong teranligi, inson kamolotini ta'minlashda etnopedagogika asarlarning ahamiyati beqiyosdir. SHuning uchun o'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'lini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadim zamonlaridayoq tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar mualliflari turli maqsadlarda folklor asarlariga murojaat etib, ularni yozib olganlar. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) "Devoni lug'otit turk" asari shular jumlasidandir. Mazkur manbalarda pedagogik g'oyalar targ'ib etilgan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida etnopedagogika asarlari takomil topib, bizgacha etib keldi. Mehnat jarayonida va ongning rivojlanishi tufayli ilk etnopedagogika asarlari namunalari badiiy jihatdan mukammallahib borgan. Dastlab, kichik hajmli naql va miflar, mehnatni engillashtiruvchi, rujni tetiklashtiruvchi ertak va afsonalar yaratilgan, qo'shiqlar paydo bo'lgan.

Demak, o'zbek xalq pedagogikasi manbalari yozuv yuzaga kelishidan ancha oldin paydo bo'lib, yozma adabiyotning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Qadimiy etnopedagogik manbalar bizgacha asl holida etib kelmagan. Chunki ular ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida o'zgarib, sayqal topib borgan. Eng qadimgi etnopedagogik manbalar miflar, jangnomalar, rivoyat, ertak, naqlar, qo'shiqlardan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyoda feodalizm davri (XI-XX asr boshigacha) g'oyat ziddiyatli taraqqiyot bosqichi bo'lib, bu davr xususiyatlari etnopedagogika manbalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ammo bu davrga xos ma'lumotlar bizgacha to'la etib kelmagan. Mavjud taraqiqotlarda ko'rsatilishicha, eng qadimgi davrlarda miflar, rivoyatlar, aytimlar, mehnat va marosim qo'shiqlarida pedagogik fikrlar targ'ib etilgan. Ayniqsa, dostonchilik vujudga kelgach, kishilar ularda madh etiluvchi

qahramonlarning tarbiyaviy sifatlaridan ruhiy madad, zavq olganlar. YOshlar halollik, ma’naviy va jismoniy etuklik timsolini his etganlar. Etnopedagogika manbalarining ilk yozma nusxasi O’rta Osiyoda XII asrda (“Abu Muslim” kitobi) yozilgan. XIV asrda Amir Temur o‘z g‘olibona yurishlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan.

Manbalarda o‘zbek dostonchiligining ilk bo‘g‘ini ergash Jumanbo‘lbo‘l o‘g‘lining etti ota-bobosi (XVI asr) aytgan dostonlarga borib taqalishi ta’kidlangan.

XVII-XVIII asrlar dostonchilik taraqqiyotida gullagan davr bo‘ldi. Bu davrda “Chambil qamali”, “Rayhon arab”, “Tulumbiy”, “Shayboniyxon”, “To‘lg‘anoy” singari vatanparvarlik, mardlik, halollik, insonparvarlik, aqliy va jismoniy komillikni madh etuvchi asarlar, shu ruhdagi maqollar, matallar, xalq qo‘sishlari yuzaga keldi.

Ko‘rinib turibdiki, XX asr arafasida tarixiy qo‘sishlarga ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash ruhi kirib kela boshlagan. Bosqinchilik va zulmga nisbatan nafrat ruhi targ‘ib etilgan, milliy ozodlik orzusi vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari kuchaya borgan.

Sho‘rolar tuzumi davrida etnopedagogika manbalarini to‘plash, yozib olish, nashr etishga etibor kuchaygan bo‘lsada, mavjud tuzum ruhiga mos kelmagan manbalarni o‘qish, ulardan foydalanish o‘tmish va din sarqiti nomi bilan taqiqlab qo‘yildi.

Faqat milliy istiqlol tufayli xalq pedagogikasi manbalaridan keng miqyosda foydalanish imkoniyati tug‘ildi. Xalqning madaniy merosini, tarixiy haqiqatni qayta tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Biroq, etnopedagogika Respublikamizda alohida fan sifatida endigina shakllanish arafasidadir. Uning manbalarga g‘oyat boy tarixiy taraqqiyot yo‘lini ilmiy pedagogik jihatdan puxta o‘rganish va tizimga solish ishlari o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Sharq “Uyg’onish davri”, Arab muslimmonlar olami, fiqh, notiqlik, geodeziya, farmakologiya.

Sharqda ilm-fanning taraqqiy etishini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy omillari. Arab xalifaligida yuz bergen ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, yagona islom dinining tarkib topishi, ma’naviy hayotga ham ta’sir etdi. Unda katta ko’tarinkilik ruhini paydo qildi.

Bu ko’tarinkilik butun arab xalifaligini, Yaqin va O’rta sharqni qamrab olganligi uchun Sharq Uyg’onish davri xalifalikning Bog’dod, Damashq, Xalob shaharlarida boshlanib, XV-XVI asrlargacha davom etdi.

Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg’onish davri xalifalikning Bog’dod, Damashq, Xalob shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy

hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Halifalikni yemirilishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi bo'ldi.

Xalifalik Xorun ar – Rashid (786-833) va uning o'g'li Ma'mun davrida Bog'dodda "Baytul hikma" ("Donishmandlik uyi" hozirgi Akademiya ma'nosi) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm sohiblari to'plangan markazga aylandi. Uning qoshida jahon kutubxonasi tashkil etilgan, rasadxona ham bo'lган, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va G'arbda ilm – fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotni yuksalishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda xalifa al-Ma'mun ilm-fan ravnaqida ko'rsatgan homiyligini alohida ta'kidlash joiz.

Zero, xalifa al-Ma'mun ilm-fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlarida xalifalikni Xurosondagi noibi bo'lган vaqtida ham Movoraunnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergen. Bular orasida al Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Farg'oniy, al-Marvaziy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lган, al-Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach, u olimlarning barchasini chaqirib oladi.

Shuningdek, qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movaraunnahr va Xuroson xalqlarining eng qadimgi antic davrlar madaniyati bo'lsin, uyg'onish davri madaniyatining yaratilish va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yaqin va O'qta Sharqda, jumladan, Eron, Kavkaz orti va O'rta Osiyoda savdo aloqalarining rivojlanganligi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiyl rivojlanishiga ta'sir etdi.

M. Xayrullayev ta'kidlaganidek, "Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi madaniy yuksalishga olib kelgan asosiy sabab feudal munosabatlar yangi bosqichi bo'ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida arab xalifaligiga bo'ysungan mamlakatlarning xo'jalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va buning oqibatida turli madaniyatlar – hind, O'rta Osiyo, Eron, arab, yunon, rim madaniyatlarining yaqindan o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'sir etib borishi katta rol o'ynaydi".

X asrdan boshlab Movaraunnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar – Tohiriyalar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi ham madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar, albatta madaniy hayotga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlaridan sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi, maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy xujjatlar, sharoit qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o'rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshladi, ammo yoziladigan hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo'lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan, kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy baxs, munozaralar o'tkazganlar.

XI asr Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma'mun o'z saroyiga eng zabardast shoirlarni taklif etadi. U tashkil etgan "Baytul hikma" – "Donishmandlik uyi"da qomusiy olimlar – Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Saxl al-Masihiy, tabib Abdulhayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug'ullanganlar, lekin toju-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatadi.

Sharq "Uyg'onish davrida" uch yo'nalishda o'rganilgan.

Birinchi yo'nalish – matematika-tibbiyot yo'nalishi bo'lib, bulargaibbiyot farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniylar matematikaga oid, Zakariyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, Ibn Sino, Jurjoniy tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy Jurjoniy tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinci yo'nalish – Ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, tarix, mantiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va boshqa fanlar bo'lib, bu sohada Farobi, al-Kindiy, Ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshahiy va boshqalar faoliyat ko'rsatganlar.

Mutafakkirlarning o'z ishlarida o'qitish va ta'lim-tarbiyaga e'tibor natijasida, pedagogika va didaktika masalalariga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o'qitishning usuli masalalariga ayniqsa e'tibor kuchaydi. Pedagogika sohasida inson va uni kamolga yetkazish bilan bog'liq muammo asosiy o'rinni egalladi.

Mutafakkirlar ta'lim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamoloti majmuasini baxtsaodatga erishish uchun sharoit yaratish degan g'oyani ilgari surish bilan bog'lab talqin etdilar. "Farobi, Nizomiy, Jomiy, Navoiy asarlarida odob-axloq, ma'rifatga, ma'naviy erkinlikka erishuv baxtsaodat, deb talqin etildi va bu baxtsaodat adolatli, zulmdan holi, ideal yetuk jamoa va ideal rahbar, hokim bilan bog'liq holda tasavvur etildi. Yetuk jamoa haqidagi utopiya Sharq uyg'onish davri satsial-yetuk fikri taraqqiyotining eng katta yutuqlaridan biri bo'ldi", - Farobiyshunos olim M.Xayrullayev.

Sharq uyg'onish davri ta'limiy-didaktik asarlarida inson shaxsining kamol topishi yo'llari, usullari bayon etildi. Haqiqiy yuksak axloqli inson hislatlari haqida fikr yuritilganda birinchi o'rinda adolatparvarlik g'oyasi yotadi. Masalan, adolatli

hukmdor haqida so'z yuritilar ekan, agar hukmdoradolatli bo'lsa, uning qo'l ostidagi fuqorolar ham baxt-saodatli hayot kechiradi, deyiladi.

Bundan tashqari, insonni kamolatga yetkazuvchi axloqiy hislatlar sifatida do'stlik, saodat va vafo, sevgi va muhabbat, vatanparvarlik, samimiylilik, saxovat, muruvvat, erkinlik, irodalilik, jasurlik kabilar ilgari suriladi. Salbiy hislatlar sifatida rashk, riyokorlik, hudbinlik, ochko'zlik, xirs, sotqinlik kabilar qoralanadi.

Uyg'onish davri pedagogikasida kasb-hunar o'rganish ilm o'rganish bilan bab-barobar talab etiladi. Har bir yosh yigit, u qaysi tabaqa farzandi bo'lmasin, kasb-hunar o'rganishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Har bir hunarmand mehnat madaniyatini, o'z kasbiga e'tiqod va hurmatni tarkib toptirish, tejamkorlikka rioya etish, o'z ishini sifatli bajarishga yo'llangan.

Arab musulmon olami. Asr boshlarida islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o'z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabit etishni boshladi. Butun Arabiston yarim oroli shuningdek, Eron, Kavkaz oroli, Suriya, Shimoliy Afrika, Janubiy Ispaniya xalifalik tarkibiga kiritildi. VII asr o`rtalaridan boshlab arablar Movaraunnahrqa ham hujum qilish rejasini tuza boshladilar.

Arab istelochilarining birinchi yurishi 651 – yilda Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida amalga oshirildi. 676 – yilda esa Said ibn Usmon rahbarligida Buxoro, So`g`duyona, Kesh, Nasaf shaharlariiga hujum qilinadi.

VIII asrning o`rtalariga kelibgina arablar Movaraunnahrni zabit etishga to`la erishdilar.

Arab istelochilari bosib olingan yerlarda xalqni islom diniga kirta bohladilar. Tarixchi at – Tabariyning “At – tabariy tarixi”, Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, B.B.Bartoldning tarixiy asarlarida keltirilishicha , arab istelochilarining Movaraunnahr xalqini islom diniga kiritish jarayoni qiyin kechgan va bir necha yillarga cho`zilgan. Chunki, Movaraunnahr arab istelochilariga ham ma`naviy, ham iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakat bo`lib, uning aholisi arab bosinchilariga tezda bo`ysuna qolmadi. Aholining istelochilariga bo`ysunishni istamaganlarining asosiy sabablaridan biri biri istebdod va qatag`onlar bilan bir qatorda , bosqinchilarining mahalliy xalqning yillar davomida tarkib topgan boy ma`naviy merosi – san`ati, adabiyoti, yozuvini, asori – atiqalarini poymol etishga harakat qilganlari ham bo`ldi. Shuning uchun ham arab istelochilari xalqni bo`ysundirish harbiylar bilan bir qatorda , islom dini targ`ibotchilaridan ham foydalanadilar va asta – sekin ma`lum natijalarga erisha boshladilar. Chinki, Movaraunnahrda aholi islomga qadar har xil hudolarga, Quyosha, Ko`k dinga (shaman), muqaddas narsalarga topinar, ma`lum bir g`oyaviy e`tiqod butun bir o`lkada tarkib topmagan edi. Shuning uchun ham islom dinining yoyilish va u bilan birga shariat qonun qoidalari, aqidalariga rioya etish, yagona allohga

sig`inish va Allohning rasuli Muhammad Alayhissalom ko`rsatmalariga amal qilish xalqning ongiga ta`sir etib, ularning bu dinni qabul eta boshlashiga olib keldi va islomiy qadryatlar tarkib topishiga yo`l ochdi.

Arablar islom dinini tarqatishda turli usullardan foydalandilar, jumladan, islom dinini qabul qilganlar soliqlardan ozod etildi.

Narshaxiy arab istelochilarining aholini islomlashtirishga oid xatti – harakatlarni quyidagicha bayon etdi: “Buxoro aholisi har safar (islom lashkarlari kelganda) musulmon bo`lar, arablar qaytib ketganida esa ular yana dindan qaytar edilar. Qutayba ibn Muslim ularni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana dindan qaytib, yana kofir bo`lgan edilar. Bu to`rtinchi marta (kelganida) Qutayba jang qilib, Buxoro shahrini oldi, ko`p qiyinchilikdan keyin (bu yerda) islom dinini yuzaga chiqardi va har turli yo`llar bilan ulkarga qiyinchilik tug`dirib dillariga musulmonchilikni o`rnashtirdi. Ular esa islom dinini yuzakigina qabul etib, haqiqatda butparastlik qilar edi. Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga turib, ularning xatti – harakatlaridan xabardor bo`lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo`ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisiga o`z uylarining yarmini arablarga berishgq undab buyruq chiqarishni to`g`ri deb topib va shu yo`l bilan u musulmonchilikni o`rnatdi hamda sharoit hukmlarini bajarishga majbur qildi. Qutayba masjidlar bino qildi, kofirlik va otashparastlikga oid kitoblarni yo`qotdi. U ko`p jiddu jahd qilib, kimda shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo`lsa, uni jazolar edi. U masjide jome bino qildi va odamlarga juma namozini o`qishga buyruq berdi”.

Islom dini ana shunday g`oyaviy – siyosiy kurash jarayonida shakllandidi va rivojlandi.

Islomshunoslar tomonidan shu paytgacha Arabiston madaniy jihatdan istelo qilgan mamlakatlardan orqada edi, talqin etilishi o`laroq, hozirgi davr olimlari masalaga bir muncha boshqacha yondashmoqdalar.

Xalifalar istelochilik siyosatini o`tkazar ekanlar, barcha xalqlar ustidan madaniy ustunlikni o`rnatishga harakat qildilar. Chunki arab xalqi VII asr boshlarida o`ziga xos madaniyati, adabiy tilini yaratgan bo`lib, unda notiqlik va she`riyat yuqori darajada qadrlangan. Qur`onning o`zi ajoyib adabiy fazilatlarga ega bo`lib, u o`rta asr arab adabiyotining eng nodir adabiy yodgorliklari orasidan o`rin olgan. IX asrda tarkib topgan “Ming bir kecha ertaklari” esa jahon mamalakatlari durdonalaridan biri sanaladi.

Arab tili ham, o`z navbatida yangi madaniy tili bo`lib maydonga chiqdi. Bu madaniyat ham qadimgi arab madaniyat, shuningdek, arab davla hududida yashagan boshqa xalqlar madaniyatining majmuasi edi. Arablar yunon fanining yutuqlaridan amaliy foydalandilar, ularning faylasuf olim, yozuvchilarning asarlarini tarjima qildilar. Astronomiya, tibbiyot, kimyoga oid barcha yirik asarlar

arab tiliga tarjima qildilar. Xatto arab olimlari sun`iy oltin tayyorlash vositasi “Falsafa toshini” izlaganlar (kimyo fani alkemyodan boshlaib, oltin izlovchilar “alkimyogarlar” deb atalgan).

Arablar ulkan davlat barpo etib geografiya rivojiga ham ta`sir ko`rsatdilar. Masalan, arab mulkclarining dastlabki xaritalari IX asrda tuzilgan bo`lib, ularda daryolar oqimi to`g`risida mufassal ma`lumotlar bo`lgan. Ispaniyadan Markaziy Osiyo va Hind daryosigacha cho`zilgan musulmon dunyosi bu xaritada batafsil ko`rsatiladi. Ko`p hududlarga arabcha nomlar berildi. Xususan, Movaraunnahr ham arabcha bo`lib, “daryo orti” ma`nosini bildiradi.

Musulmon maktablarida arab tili muhim fan sifatida o`qitilardi, bilim shu tilde o`rganilar edi. Arabistondagi kabi Movaraunnahrda ham barcha masjidlar huzurida maktablar ochildi va o`g`il bolalarga shu maktablarda Qur`on o`qitishga farmon beriladi. Bolalarni shu masjid imomi o`qitar edi.

Islom aqidalarining, uning axloqiy – huquqiy tamoyillarining asosiy manbai “Qur`on”dir.

Islomning shar`iy ma`nosi – bu Alloh yagona deb e`tiqod qilib , unga bo`ysunmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik va Alloh buyurgan diniy e`tiqodga imon keltirmolik demakdir.

Allohga itoat qilgan va Alloh buyurgan payg`ambarlarga ergashgan kishi musulmon deyiladi.

Ilohiyotda islom dini imon, islom va exsondan iborat, deb e`tirof etilgan. Imon talablari va Allahga e`tiqod, farishtalarga, muqaddas kitob va payg`ambarlarga, oxirat kuniga, taqdir – u azalga va o`lgandan keyin tirilishga ishonishdir.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlaridagi yetakchi tendentsiyalar va ularning ahamiyati. Sharq “Uyg`onish davri” ta`lim – tarbiya muammolarini hal etishda bir qancha qomusiy olimlar ijodiy merosida so`ta`limiy – axloqiy asarlarda ko`rib o`rganib chiqilgan. Qomusiy olimlar: Muhammad ibn al – Xorazmiy, Ahmad al – Farg`oniy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg`ariy, Rudakiy, Firdavsiy va boshqalardir. Bularning ijodlarida bola tarbiyasiga oid bo`lgan turli muhim vazifalarни ko`rish mumkin. Xususan, Firdavsiy “Shohnoma ” asarida didaktik nasihatlar berilganligi bilan taqsinga sazovordir. “Insonni hayru sahovati bo`lishga yetaklovchi kuch ilm va hunardir, - deydi shoir. – Ilmni insonga singdiruvchi narsa esa aqlidir”.

Mehnat va hunarni yuksak baholagan, uni gavhardan ham yuqori qo`ygan shoir hunar va mehnatni chiroyi insonni aqli va axloqida deb hisooblaydi va doimo aql bilan ish qilish zarurligini uqtiradi.

Nazorat uchun savollar:

- ✓ Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
- ✓ Ilk etnopedagogika manbalarining paydo bo‘lishi.
- ✓ Xalq pedagogikasida yosh avlod tarbiyasi talqini.
- ✓ O‘zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo‘li.
- ✓ O‘zbek xalq pedagogikasi manbalari yozuvning yuzaga kelishi.

O‘quv topshiriqlari:

1. “T-jadval” metodi bo‘yicha quyidagi ish qog‘ozi yordamida xalq pedagogikasi fanlarining umumiy jihatlari va o‘ziga xosliklarini yoriting.

Ish qog‘ozi

Xalq pedagogikasining umumiy jihatlari va o‘ziga xosliklari	
<i>Umumiy jihatlari</i>	<i>O‘ziga xosliklari</i>
1.	1.
2.	2.
3.	3.
...	...

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- Boynazarov F. O’rta Osiyo" antik, davri.Toshkent. O’qituvchi 1991 yil.
- Mirtursunov Z.F, Xalq, pedagogikasi, Toshkent. O’qituvchi 1968 yil.
- 4.Ajdodlar o’giti. xikoyalar, xikmatlar, timsoyalar. T. CHo’lpon 1990 yil.
 - Xasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida.
 - Donishmandlar axloq haqida. Toshkent. O’qituvchi 1986 yil.
- O‘zbek pedagogikasi tarixi // A.Zunnunov tah.ostida. – T.: O’qituvchi, 1997. – 272 b.
 - O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar // Zunnunov A., Xayrullaev M., Hotamov N., SHodiev D. - T.: Fan, 1996. – 243 b.
 - O‘zbek pedagogikasi analogiyasi . T. 1-jild. 1995y, 2-jild1999 y.

2-MODUL XALQ PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARINI O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONGA TADBIQ ETISH

Reja:

1. Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish

Tayanch so'zlar: *umumbashariy qadriyatlar, pedagogik ta'lif, milliy qadriyatlar, milliy tafakkur, ma'naviy qarashlar, ilimi meros, milliy ong, milliy madaniyat, xalq tajribasi, xalq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, didaktik imkoniyatlar.*

Talaba – yoshlarda milliy tarbiyani umumbashariy qadriyatlar bilan shakllantirishni dunyo miqyosida erishilayotgan umumbashariy yutuqlar va zamonaviy fan asoslarining tarbiyaviy jihatlarisiz tasavvur etish qiyin.

Shunga ko`ra oliy pedagogik ta'lilda yoshlarda faqat pedagogik malaka va ko`nikmalarni tarkib toptirish, umumbashariy bilimlarni o`zlashtirishga ham imkoniyat yaratib berish lozim. Milliy qadriyatlar asosida shakllantiriladigan tafakkur va dunyoqarash yoshlarning umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarni to`liq egallashlari uchun zamin yaratadi, zamonaviy bilimlar va ko`nikmalarni egallah esa chuqur va mustahkam bilim olish uchun poydevor vujudga keltiradi.

Shu sababli yoshlarda milliy tafakkurni va zamonaviy bilim ko`nikmalarni o`zaro aloqada shakllantirish va olgan bilimlarni umumlashtirishga, ish jarayoniga xalq pedagogikasini olib kirishga o`rgatish barkamol insonni shakllantirishda muhim omil sanaladi. Yoshlarni ma'naviy qarashlarini shakllantirishda, ularni ma'naviy qadriyatlarimizni buyuk mutafakkirlar ilimi merosini, falsafiy qarashlarini, muhim jihatlarini o`rganish, bugungi kun zavonaviy ilm-fan va tehnika taraqqiyotiga erishilayotgan bilimlarni o`zlashtirishga yo`naltirish bilan bog`liq tar'lim-tarbiyaviy faoliyatga kuchli e'tibor qilinayotganligi bejiz emas.

Yoshlarning intellektual salohiyatini qo`lga kiritishlarida ta'lif jarayonida ularni mustaqil fikr eritishga o`rgatish, dastlabki manbalarni o`zlashtirishning aniq usullarini egallah, olingan bilimlarga ongli ravishda yondashishga o`rgatish muhim rol o`ynaydi. Bunda asosiy e'tiborni dars jarayoniga qaratib, ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar va zavonaviy bilim hamda ko`nikmalar ustidagi ishlarni qo`shib olib borish zarur. Shunga ham ko`ra, barcha fanlar tizimiga milliy va umumbashariy qadriyatlarning ilmiy asoslarini kiritish darkor. Bundan ko`zlangan maqsad umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Buni ayniqsa «Xalq pedagogikasi»ni o`qitish misolida yaqqol ko`rishimiz

mumkin. «Xalq pedagogikasi» bu o`zbek xalqining ta`lim sohasida erishgan buyuk qadriyati sanaladi va u ko`p jihatdan umumbashariy qadriyatga aylanib qolgan.

Talabalarga tarbiyaviy ishlarda «Xalq pedagogika»ni o`zaro bog`lovchi to`rtta elementni ko`rsatib o`tish mumkin.

Xalq madaniyati tarixi, tili, dini, urf-odatlari haqida bilimlar majmuasi. Bu bilimlar majmuasini o`zlashtirish orqali bo`lajak mutaxassislarning milliy ongi shakllanadi, amaliy tajribaga to`g`ri metodologik yo`nalish beradi.

Anglash, mehnat qilish va shu kabi vazifalarning asosi bo`lib hisoblanadigan umumiy intellektual hamda amaliy malakalarning tizimi. Bu tizim orqali bo`lajak mutaxassislarning milliy madaniyatini saqlab, yosh avlodga etkazishni ta`minlaydi.

Bo`lajak mutaxassislarning xalq tajribasini bugungi sharoitda tarbiya jarayonida foydalanish va uni yanada rivojlantirish.

Atrof-muhit orqali olingen bilim, malka hamda unga nisbatan tajribasi bo`lajak mutaxassislarda ishonch, qimmatli hislatlarning o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Bo`lajak mutaxassislarning tarbiyaviy ishlarda «Xalq pedagogikasi» asosida yondashishga tayyorgarligi – bu xalq pedagogikasining tajribalarini tarbiyaviy ishlarda foydalanishning metodologik asosini bilish, shaxsning har tomonlarma tarbiyasi, beriladigan tarbiyaning mazmuni, uslublari, turlari, shakllari haqida bilimlarni o`zlashtirish.

Xalq pedagogikasi tajribalaridan foydalanishga tayyorlashning quyidagi shakllarini ko`rsatish mumkin: ma`ro`za, seminar, amaliy tajriba darslari, maxsus kurslar, auditoridan tashqari darslar pedagogik amaliyat, talablarining ilmiytadqiqot ishlari, kurs ishlari, diplom ishlari va hokazo.

Uslublari: hikoya, suhbat, intervyu, treninglar, munozaralar.

Manbalar: xalq og`zaki ijodi, milliy o`yinlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, xalq an`analari, milliy san`at namunalari va hokazo.

Xalq pedagogikasini ta`lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishdan maqsad, tarbiya texnologiyasining ahamiyati, tarbiyaviy ishlarda «Xalq pedagogikasi»ning xususiyatini to`liq tushuntirish, tajribalarini foydalanishga tayyorgarligini shakllantirish, tarbiyaviy ishlarning uslublari, shakllari, jihozlaridan o`rinli tartibda foydalana olishga o`rgatish. Olingen nazariy bilimlarni, malaka va ko`nikmaga aylantirish, amaliy jihatdan qo`llash.

Xulosa qilib aytganda shu vaqtga qadar ta`lim-tarbiya ishlarida xalqning boy pedagogik merosidan, hadislar va she`riy mantlarda oldinga surilgan g`oyalardan to`la foydalana olganimiz yo`q. Aslida bo`lar inson ma`naviy kamolotining hamma davrlari uchun ham ahamiyatli bo`lib qoladigan zaminlardir.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy merosidan, axloq, odob, tarbiya borasidagi an`analalaridan qanchalik samarali foydalansak, milliy mustaqilligimizning chinakam fidoiysi bo`lgan yoshlarni tarbiyalash borasida

shunchalik sezilarli yutuqlarga erishamiz.

Jamiyat taraqqiyoti uchun aholining soni emas, balki sifati muhimdir. Sifatning bosh mezoni yuksak ma'naviyatdir.

Talabalardagi etnik jihatlarni shakllantirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda «Xalq pedagogikasi» fanining ahamiyati katta. Bu fan yoshlarda mavhum qoidalarni emas, balki hayotda halol vijdon va iymon bilan yashashni o`rgatmog'i kerak. Har bir fan kishilarga muayyan bilimlarni o`rgatadi. Bu bilimlar kishilarning yuksak axloqiy fazilatlari bilan qo`shilganda etuk ma'naviy boylikka aylanadi.

Xalq pedagogikasinnig manbalari ma'lum tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, ular eng avvalo mактабning (yoki oilaning) oldida turgan maqsad va vazifalaridan, so'ngra esa aniq pedagogik jarayonda hal etiladigan masalalaridan kelib chiqadi. Xususan, o'quv jarayonida yoki sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlariga murojaat etish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarda, aniqrog'i 3-sinfda o'zbek xalq maqollari o'rganiladi. Mazkur sinf uchun "O'qish" darslaridan birida "O'zbek xalq maqollari" mavzusi bor. Dars jarayonida foydalanish uchun xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanadi. O'qituvchi xalq tarbiya an'analari imkoniyatlarini aniqlashda darsnpng maqsadlariga e'tibor beradi. Ya'ni, "O'zbek xalq maqollari" mavzusidagi darsning quyidagi maqsad va vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin: xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, maqollarnii o'rgatish va ular haqida tasavvur hosil qilish; maqollarning mazmunidan foydalanib, o'quvchilarni mehnatsevarlikka, kamtar va odobli bo'lishga, o'zidan kattalarni hurmat qilishga undash; xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va ularni asrashga chaqirish. Keltirilgan maqsad va vazifalarini hal etishga imkon beruvchi o'zbek xalq maqollari tanlab olinadi va bo'lar xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashqil etadi.

«Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari» tushunchasini kiritishning o'zi xalq tarbiya an'analalarini zamonaviy mактаб va oila tajribasida qo'llash doirasi ma'lum darajada chegaralanganligini anglatadi.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari zamonaviy mактаб oldida turgan vazifalar, uning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. O'quv-tarbiya jarayoni samarasini oshirishga to'la imkon bergan taqdirdagina xalq tarbiya tajribasiga murojaat qilish mumkin. Keyingi vaqtarda O'zbekiston pedagogik davriy nashrlarida xalq pedagogikasiga keng o'rin berilganligini mammunlik bilan qayd etgan holda, uning mavjud imkoniyatlarini haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatish, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ustun qo'yish, ilmiy pedagogikaga bir yoqlama, ya'ni faqat tanqidiy ko'z bilan qarash ko'zatilayotganligini ta'kidlash lozim.

Bizningcha, xalq pedagogikasini mактаб amaliyotiga tatbiq etishda uning

tarbiyaviy imkoniyatlarini hozirgi kun talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, to‘g‘ri baholash zarur. Xalq pedagogikasi faqatgina ilmiy pedagogika bilan hamkorlikdagina chuqur o‘tganiladi. Tarbiya va o‘qitishning nazariyasi va uslubiyoti (metodikasi) xalq pedagogikasidan o‘quv-tarbiya jarayonida ilmiy asosda foydalanish imkonini beradi. Milliy maktab yaratishda an’anaviylikni zamonaviylik bilan to‘g‘ri bog‘lay olish evazigagina har tomonlama etuk shaxsni shakllantirish vazifalarini mumkin qadar to‘laroq hal qiluvchi talim-tarbiya sistemasini ishlab chiqarish mumkin. Yoki, so‘z xalq pedagogikasini ilmiy pedagogika va zamonaviy maktab ta’lim-tarbiya tajribasi bilan asosli ravishda bog‘lash haqida bormoqda. Bu o‘rinda biz xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va ulardan milliy maktab o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanishning «tarbiya madaniyatida an’anaviylik va zamonaviylikning o‘zaro tasiri» prinsipini ilgari surdik. Bu prinsipning mohiyati quyidagicha.

Milliy ta’lim-tarbiya uchun tarbiyada an’anaviylik va zamonaviylikning o‘zaro ta’siri muammosi xosdir. Ya’ni, xalqning etuk inson haqidagi ideallari, uni tarbiyalashga bo‘lgan qarashlarini shaxsni shakllantirishga qo‘yiladigan zamonaviy talablar bilan taqqoslash va ular orasidagi munosabitni aniqlash lozim.

Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va amaliy ko‘nikmalar berish, ularni ijodiy ishslash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o‘stirish va axloqiy nafosat g‘oyalarini egallahshlarida qo‘llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktab o‘qitish jarayonida qo‘llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san’atga o‘rgatishning xalq orasida tarkib topgan uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog‘och o‘ymakorligi, zardo‘zlik, musiqa asboblari yasash, kulolchilik va boshqa ko‘plab amaliy can’at turlarini egallahshning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o‘z usullari, uslub va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagi mehnat ta’limi darslarlda yoki to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga bilimlar va amaliy ko‘nikmalar berishda foydalanish mumkin.

Xalq ta’limni tizimli va o‘zluksiz olish lozimligini allaqachon anglab etgan. Uning didaktik qarashlarida o‘qish – oqimga qarshi so‘zishga o‘xshatiladi. Chunki, oqimga qarshi so‘zishda to‘xtagan kishi orqaga ketganidek, o‘qishda to‘xtash ham ilm egallahshni orqaga suradi.

Ta’limning ko‘rsatmaliligi ham xalq e’tiboridan chetda qolmaydi. “O‘n marta eshitgandan bir bor ko‘rgan yaxshi” maqoli bu fikrni yorqinroq ifodalaydi.

Ta’limning muhim elementi – bilimlarning mustahkamligi tamoyili. Yoshlikda samarali amalga oshishini: “Yoshlikda o‘rgangan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir” maqolida bayon qilinadi.

Shuningdek, xalq pedagogikasi manbalarida ilmning qiymati uning amalda qo'llanilishi bilan o'lchanishi alohida ta'kidlanadi. Hayot uchun foydasiz ilmni egallash qoralanadi. Amalda qo'llanmaydigan bilim – yomg'irsiz bo'lutga, o'z bilimini boshkalarga o'rgatmagan kishilar ko'zaga solib qo'yilgan yorug'likka o'xshatiladi.

Tillarni o'rganishga xalq olamni bilish imkonini kengaytiruvchi vosita deb qaraydi. O'zbeklar shuning uchun: "Tilni bilish- dilni bilishga yo'l ochadi", "Yuzta tilni bilgan kishi yuzta aqlning egasidir,-" deyishadi.

Ona tilini bilish, uni asrash – avaylash, ta'limni ona tilida olish aqliy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etishi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta'kidlangan. Ona tili – xalqning beba ho boyligi, u "ona" so'zini aytish, o'z ismini bilish bilan bola qalbiga kiradi. Shu til vositasida bola olamni bila boshlaydi, ilk allalar bola qalbiga xalq san'ati ruhini olib kiradi va uni umrbod sehrlab qo'yadi.

Xalq pedagogikasida ilmni yoshlarga amaliy hayotda zarur bo'lgan tabiiy bilimlar bilan bog'lab tushuntirishga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, qadimgi turkiguy xalqlarda oylar, yil hisobi evropaliklar tavqimidan farq qilgan. Ularda oylar: "hamal" (mart) - 19 martdan, "savr" (aprel) – 19 apreldan, "javzo" – 20 maydan, "saraton" – 21 iyundan ... boshlangan. Har bir oyning, yil fasllarining boshlanishi va tugashi quyosh va boshqa sayyoralar harakati bilan bog'lanib, bu vaqtda qanday ishlar qilinishi ta'kidlangan. Jumladan: "Hamal – ekinlarga kirar amal", "Asad – ekininingni yasat", "Savr kirdi – ekinlarga davr kirdi", "Saratonda suv quy, asadda tek qo'y", "Er haydasang ko'z hayda ..." singari.

Shuningdek, miflar, afsonalar, dostonlardagi ijobiy qahramonlar ham ilm va ustozlarini hurmat qiluvchi, bilimdon, topqir, kasb – hunarli, matonatli, hayot qiyinchiliklarini o'zi egallagan ilm va hunar vositasida bartaraf etuvchi kishilar sifatida ko'rsatilgan. Dushmanga qarshi kurashdagi mahorat ham harbiy ilm sifatida tasvirlangan.

Laylakning kelishi bahordan, qaldirg'och va yovvoyi kabutar – yozdan, qarg'aning qag'illashi – qordan, sovuqdan darak beradi deb tushunilib, shunga mos yumushlar (hosil yig'ish, ekish ...) bajarilgan.

Bolalarga sigirning 9 oyda, tuyaning 12 oyda, quylarning 5 oyda bolalashi, mollarning yoshini ularning tishlariga qarab aniqlash o'rgatilgan. "Baliq", "sigir" yillari serhosil, "ilon", "ot", "sichqon" yillari qurg'oqchil bo'ladi deb tushuntirishgan.

Matematikaga doir bilimlar masofani, hosilni, qurilayotgan uylar o'lchamini o'lhash bilan; fizikaga doir bilimlar amaliyot bilan bog'liq holda oddiy richaglar, shamol va suv kuchidan foydalanish misolida; kimyoviy ilmlar chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash (masalan, sutdan qatiq, yog' ... olish, yog'ni kuydirish ...), o'simliklardan bo'yoq olish, kiyimlarni tozalash, yuvish bilan; astronomiyaga

doir bilimlar yuldo‘zlar va quyoshga qarab vaqtini aniqlash misolida; tibbiyotga bog‘liq bilimlar dorivor o‘simliklarni to‘plash va hayvonlar hamda o‘simliklar yog‘laridan foydalanib kasalliklarni davolash misolida o‘rgatilgan. Bu jarayonda nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkam bog‘lab tushuntirilganligi ahamiyatlidir.

Xalq pedagogikasida bolalarning tafakkuri, mushohada qobiliyatini o‘sirishda topishmoqlardan unumli foydalanilgan. Topishmoqlar vositasida bolalarga ibtidoiy hisob (qo‘sish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallari) o‘rgatilgan. Bo‘lar jumlasiga: “Pak-pakana bo‘yi bor, etti qavat to‘ni bor” (piyoz), “Aylanaverib-aylanaverib semirdi xonim” (urchuq), “Otarda yuz qo‘y va echki bor. Ularning nechta oyog‘i va qulog‘i bor?” (100 ta qo‘y va echkida 400 oyoq, 200 qulog bor) va boshqalarni kiritish mumkin.

Yoki otasidan: “Yoshingiz nechada?” deb so‘ragan bolaga ota: “O‘zingning yoshingga ... yoshni qo‘shsang, mening necha yoshga kirganligimni topasan”, - deb javob bergan.

Demak, xalq pedagogikasi manbalarida komil insonni shakllantirish uchun ularga ilm, kasb-hunar o‘rgatish; tarbiyaning ijtimoiy turmush uchun zarur yo‘nalishlarini mustahkam singdirish lozim ekanligi targ‘ib etiladi. Mazkur g‘oyalar hozirgi milliy istiqlol davrida ham muxim ahamiyat kasb etmoqda. Xulosa tariqasida o‘quv muassasalarida xalq pedagogikasidan foydalanish uchun uning tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini bilish zarurligini aytish mumkin

Nazorat savollari:

- ✓ Yoshlarda milliy tarbiyani umumbashariy qadriyatlar bilan shakllantirishda dunyo miqyosida erishilayotgan yutuqlarni qanday baholaysiz?
- ✓ Tarbiyaviy ishlarda «Xalq pedagogika»sini o`zaro bog‘lovchi nechta element mavjud va ular qaysilar?
- ✓ Bo`lajak mutaxassislar tarbiyaviy ishlarda «Xalq pedagogikasi» asosida yondashishda qanday bilimlarni o‘zlashtirishlari zarur?
- ✓ «Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari» deganda nimalarni tushunasiz?
- ✓ Tarbiya madaniyatida an’anaviylik va zamonaviylikning o‘zaro tasiri»

O‘quv topshiriqlari:

Quyidagi ish qog‘ozi yordamida “Qanday” metodi bo‘yicha xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlarini o‘quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish bosqichlarining mohiyatini belgilang.

Ish qog‘izi

XPDIO’TJTE) bosqichlari	Qanday?	Qanday?	Qanday?
	Qanday?	Qanday?	Qanday?

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- Boynazarov F. O’rta Osiyo" antik, davri. Toshkent. O’qituvchi 1991 yil.

Mirtursunov Z.F, Xalq, pedagogikasi, Toshkent. O’qituvchi 1968 yil.
Ajdodlar o’giti. xikoyalar, xikmatlar, timsoyalar. T. CHo’lpon 1990 yil.

- Xasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida.
- Donishmandlar axloq haqida. Toshkent. O’qituvchi 1986 yil.
- O’zbek pedagogikasi tarixi // A.Zunnunov tah.ostida. – T.: O’qituvchi, 1997. – 272 b.
 - O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar // Zunnunov A., Xayrullaev M., Hotamov N., SHodiev D. - T.: Fan, 1996. – 243 b.
 - O’zbek pedagogikasi analogiyasi . T. 1-jild. 1995y, 2-jild1999 y.

3-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA OILA VA OILAVIY TARBIYANING AKS AKS ETISHI

Reja:

1. Xalq pedagogikasida oila va oilaviy tarbiyaning aks aks etishi
2. Sharq mutafakkirlari oila haqida

Tayanch so‘zlar: *Oila, oila tarbiyasi, tarixiy tajriba, hamkorlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya, insoniy fazilatlar, milliy xususiyatlar, oilaviy an’analar, urf-odatlar, xalqning ruhiyati, turmush tarzidir, xalq donishmandligi, ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy institut.*

O`zbek oilalari asrlar davomida mustahkam, ahil jamoa ma’naviyat va tarbiya o`chog‘i bo`lib kelgan. Oiladagi muhit turmush qurish borasidagi an’analar sog‘lom ma’naviyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Ma’naviy, barkamol jismoniy sog‘lom farzandlarni voyaga etkazishda oilada amalga oshiriladigan axloq odob tarbiyasining ham o`rni benihoya katta. Oila jamiyatning eng kichik o`chog‘idir. Bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga etadi. Keksalar ko`pincha «Bug‘doy eksang bug‘doy olasan, arpa eksang, arpa olasan» deyiladi. Shuning uchun ham kelajagimiz bolalarga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg‘ular, qanday orzular bilan to`ldirayotganimizga bog‘liq.

Kelajakni qanday bo`lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog‘liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi, moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratuvchi asos oiladir. Oila jamiyatning boshlang‘ich ijtimoiy bo`g‘ini sifatida murakkab tarkibiga ega bo`lib, u o`z faoliyatida oila a’zolarining ehtiyoji va qobiliyati, turli faoliyatning maqsad va vazifalarigina emas, balki tarbiyaviy faoliyatni ham aks ettiradi.

Oilaviy tarbiya metodikasi uchun eng muhimi uning aloqador tomonlarini, ya’ni tarbiyaviy vazifalarini bir maromga solish, oilani o`ziga xos xususiyatlarini va mavjud imkoniyatlarini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev bu borada shunday deydi: “Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning harakterini, tabiat va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va me’hr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi

tabiiydir”².

Oilaviy tarbiyaning o`ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalarning ota-onalik, qon-qarindoshlik hislatlarini o`zatib, shaxsning umumiyligi va hissiy rivojlanishnigina ta`minlab qolmay, balki shaxsning mavjud imkoniyatlarini va axloqiy kamolotini o`stiradi.

Xalq pedagogikasida asosiy e’tibor oila tarbiyasida ota-onalarning, ustoz-murabbiylarning faol darajasiga qaratilgan.

Bola tarbiyasi oilaning insonni buniyod etuvchi tabiiy va ijtimoiy mohiyati bilan o‘zviy bog‘liqdir.

Bola oilada, mактабда, ota-onalar bilan munosabatda, jamoat joylarida, katta yoshdagilar, o’rtoqlari bilan muloqotda tajriba orttirib boradi.

O‘zbek oilalarida bolalarga tarbiya berishda ota-onanining namunasi, ularning mehnatsevarligi oilaviy ishlarga javobgarligi, ish yuritishi, o`g‘il bolalarga nisbatan otaning, qizlarga esa onanining ustozlik, rahnamolik ishlari asosiy o`rinni egallaydi.

Oilada bolalarni tarbiyalash o`zining bir qancha milliy xususiyatlariga ega. Ular xalqning shakllangan oilaviy an’analari, urf-odatlari, xalqning ruhiyati, hayoti va turmush tarzidir.

Barkamol inson tarbiyasida oila jamiyat bilan yaxlit birlikni tashqil etadi, bu esa hozirgi kunimiz uchun xos xususiyatlardan biridir. Ayniqsa, ota-onalar va jamiyat a’zolarining mehnat faoliyatlarini harakteri, er va ayolning teng huquqligi, o`zaro hurmat farzandlarni e’zozlash, hurmatlash, ijtimoiy va fuqarolik e’tiqodi, oilaviy madaniy hayotning mavjudligi va o’sayotganligi o‘zbek oilalariga xos fazilat sifatida qadrlanmoqda.

Oilaviy tarbiyada xalq pedagogikasi an’analari, ertak, maqol, topishmoqlar shaklida o`z ifodasini topgan va u tarbiyaviy ta’sir ko`rsatish vositasi sanalib, tarbiyaning barcha qirralarini qamrab olgan. Ayniqsa, inson va uning tarbiyasi, o`z-o`zini tarbiyalash, bolalikning yosh davrlari, ularning dangasalik va injiqliklari, o`yinlari, qizlar tarbiyasi haqida ajoyib matal maqol, aforizmlar yaratilgan bo`lib, ular xalq pedagogikasi sabog‘ining yorqin namunasidir.

Xalq donishmandligida ota-onalar haqida ularning bolalari bilan munosabatlari, onanining madaniy, tarbiyaviy ta’siri atroflicha yoritilgan.

Masalan, oilada hamma kishi bir kishiga otaga itoat etgan. Otaning yoki onanining gapi ikki qilinmagan. Otaning izidan chiqish, u kishining buyrug‘ini bajarmaslik, otaga gap qaytarish, unga tik boqish gunoh hisoblangan.

Xalqchil iboralar hammavaqt tarbiyada muhim o`rin egallagan. Masalan,

² III. Мирзияев. Фаол тадбиркорлик замон талаби 12/29/2017.

musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlasa, «yomon bo`ladi», erta saharda eshik ochilmasa, «yomon bo`ladi», kunlik rizqimizdan «benasib qolamiz» bolalarni erta turishga undagan.

Xalqimizda faqat o`zining bolasinigina emas, umuman o`ziga yaqin hamma bolalarni sevish, ehtiyojlash, ularning tarbiyasi bilan shug`ullanish an`analari avloddan-avlodga o`tib kelgan. «Bir bolaga butun mahalla ota-onas» degan maqol shundan.

Odam ijtimoiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch deb, kishi ehtiyojlari ta'sirida yuz beradigan ob'ektiv omillarni, odamlarning oddiy, biologik va jismoniy (moddiy) ehtiyojlaridan boshlab, oliy (ma'naviy va ruhiy) ehtiyojlariga qadar bo`lgan ehtiyojlar majmui hamda ularni qondirish imkoniyatlari orasidagi munosabatlarga aytildi.

Ehtiyojlar u yoki bu faoliyatning sabablarini vujudga keltiradi. O`zining ehtiyojlarini qondirish uchun kishi vosita va manbalar qidiradi. Ehtiyojni qondirish imkoniyatlari mavjud bo`lganda, kishi o`zini baxtiyor his etadi. Aks holda, o`zini baxtsiz deb bilib, unda harakatlantiruvchi kuch paydo bo`ladi.

Agar odamning axloqiy tarbiyasi to`g`ri bo`lsa, u ijtimoiy rivojlanadi. Axloqiy tarbiyasi nosoz odamning ijtimoiy sifatlari nuray boshlaydi va ijtimoiy illat (o`g`rilik, nashavandlik, yolg`on so`z, firibgarlik va hokazo) larga duchor bo`ladi. Axloqiy tarbiyasi yaxshi odam ehtiyojini qondirishning to`g`ri yo`llarini izlaydi hamda odamlar bilan muloqotda bo`lib, yaxshi ijtimoiy sifatlari takomillashib boradi.

Oila - hayotiy mazmuniga hamda jamiyat tomonidan ma`kullanadigan xususiyatlarga ega bo`lgan ijtimoiy xodisa. Unda ijtimoiy hayotning barcha asosiy qirralari, vazifalari hamda xususiyatlari, sinkretik tarzda bo`lsada , mujassamlashgan .

Inson umri mobaynida oila ta'sirini sezib turadi, dastlab ota-onasining oilasida, so`ng o`zi qurgan oilasida hayot kechiradi . Har ikki holda ham oila insonning shaxs sifatida qaror topishiga muhim tarbiyaviy ta`sir ko`rsatadi. Inson oilada nidiindividual va ijtimoiy hayot ko`nikmalarini xosil qilibgina qolmay, balki unda o`zaro munosabatlarni yo`lga qo'yish bo'yicha ota-onas maqomini ham oladi . Aksariyat tadqiqotlarda oilaning ijtimoiy institut sifatidagi to`rt asosiy vazifasi ajratib ko`rsatiladi .

Birinchi vazifa – farzandlar tug`ilishi bilan bog`lik.

Ikkinci vazifa – Yangi avlodni Ushbu jamiyat madaniyatidan baxramand etish .

Uchinchi vazifa – shaxsning o`zini-o`zi kamol toptirish , uning kobiliyatini yuzaga chikarish uchun sharoit yaratish

Turtinchi vazifa - shaxsning muomala-muloqotga , hissiy kulaylikka bo‘lgan psixologik extiyojini kondirish .

Shaxs ijtimoiy faolligini shakllantirishda yaxlit jarayonning bu qirrasiga ko‘plab omillar, jumlada , oilaning moddiy farovonlig , ota-onaning saviyasi, oilaviy qadriyatlar tizimi, bolaning ta’lim olish jarayonida ota-onaning ishtiroki singari jixatlar ta’sir ko‘rsatadi .

Oilaning farovonligi shunchaki emas, balki farzandni kamol toptirish uchun moddiy va ma’naviy mablaglar, shuningdek, ishlab chikarish faoliyatidan bush vakt ajratish imkonini beradigan zarur shart sifatida muximdir .

Bunday moddiy shart-sharoitlarda bolaga o‘yinchoklarni, o‘quv-qurollarni, asbob-uskunalarni, kitob-daftarlarni qo‘ya oladigan alohida xona ajratish, oila byudjetidan bolaga boshqa shaharlar va mintaqalarga ekskursiya va sayohatlar qilish uchun, turli sport seksiyalari hamda to‘garaklarga qatnashish uchun hamda maktabdan tashqari qo‘srimcha bilim olish uchun mablag‘ ajratish imkonи kiradi .

Bolada eng katta ishonchni oila a’zolari xosil qilishi, tabiiy. Bolaning atrofdagi odamlarga munosabati, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabat axloqiy jihatdan qanchalik yuksakligiga bog‘lik . Ota-onan mehridan , g‘amxurligidan baxramand bo‘lmagan ,oilaning har tomonlama ximoyasini his etmagan bola o‘z atrofidagi odamlardan havotirda, hadiksirab yashaydi. Oila muxitidan hayrixoxlik es , aksincha bolada atrofdagilarga nisbatan xurmatni kupaytiradi, uning ijtimoiy faolligini oshiradi .

Inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan oilada ilk bor tarbiya oladi. Uning tarbiyasi o‘z oilasidagi oila a’zolari bilan muloqotda va o‘zaro munosabatlar orqali shakllanadi. Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib, komil inson bo‘lib etishuvida kanday oilada tarbiyalanganligi , oilada kanday iklim xukm surganligi , o‘z ota-onasi bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarning kay tarzda kechganligi muxim ahamiyat kasb etadi . Shuning uchun ham insoniyat madaniyati tarixining ilk davrlaridanoq oilada farzand tarbiyasiga alohida e’tibor berib keltingan .

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan xalqimizning buyuk dostonlari «Alpomish», « Gurugli», shuningdek Sharq mamlakatlari xalqlari uchun katta ma’naviy manba bo‘lmish xind xalq dostonlari «Maxobharat», «Ramayana» kabilarda mazkur masala yorqin tasvirlangan .

Pedagog, psixolog olimlar izlanishlaridagi jamiyatimiz taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy jixatlari, milliy istiqlol mafkurasining tarixiy negizlari, o‘tmishda utgan allomalarining goyaviy qarashlari, oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan , fikr-muloxazalar, inson va jamiyat rivojini

boyitadi, soglom ma’naviy axloqiy ruxini saqlash va mustaxkamlashga xizmat qiladi .

Qadimgi madaniy merosimiz hisoblangan « Avesto»da naslning pokligi, tozaligiga aloxida e’tibor berilgan, qarindosh-urug‘ , aka-ukalarni quda bo‘lishi qoralangan .

Shu ma’noda boshqa manbalar qatori «Avesto»ning mafkuraviy manba sifatidagi qimmatli pedagogika fani uchun ilmiy asosdir .

Ota-onaning farzandlariga va farzandlarning ota-onasiga mexr-okibatli bo‘lishlar, ularning ota-onalik va farzandlik burchini, mas’uliyatini his qilish masalalari xalqimizning milliy qadriyatlarining shakllanishida muxim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilganligi shubxasiz. Shariat qonunlarida Islom ta’limotida Kur’oni Karim va Xadisi Shariflarda oilaviy munosabat qoidalari asosiy o‘rin egallaydi. Zotan, ota-onalik farzandni dunyoga keltiruvchi, tarbiyalovchi, hamfikr, dust, hayotda yo‘lboshchi, oilaning moddiy va ma’naviy ta’mintonchisi tarzida ulug‘lanadi. Shuning uchun ham Kur’on ta’limotiga ko‘ra oilada ota-onalik eng muqaddas zot .

Ibn Sinoning « Donishnoma», «Risolai ishk», «Uy xujaligi» kabi asarlarida ham tarbiya pedagogikasi va tabobat masalalariga oid qimmatli muloxazalar keltirib o‘tilgan .

«Ota-onalik, - deb yozadi u, - ham nazariy, ham amaliy jixatdan oilada tarbiya masalalari mukammal o‘zlashtirmog‘i lozim. Agar ular tajribasiz bo‘lsa, o‘z farzandlarini yaxshi tarbiyalay olmaydi. Yomon tarbiya ko‘rgan bola nafakat ushbu oila, balki kushnilarga, maxalla-ko‘yga ham yomon zarar keltirishi mumkin .

SHu sababli ham oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeidan kat’i nazar, ularning birlamchi vazifasidir, deb hisoblaydi.

XI asrning buyuk mutafakkirlari Yusuf Xos Xojibning fikricha, farzand ko‘rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma’nosini yo‘q. Lekin bu narsa ota-onaga katta mas’uliyat yuklaydi, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-onalik uchun ham farz, ham qarzdir. SHuning uchun ham oilaviy tarbiyani Yusuf Xos Xojib bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan. «Agar bolaning xulqi yomon bo‘lsa, bunda bolaning aybi yuk, hamma ayb-otasida». SHuning uchun ham ota-onalik ayniqsa, ota bunga katta e’tibor bermog‘i lozim.

« Qutadg‘u bilig»da oilada muomala odobiga katta e’tibor berilgan. Undagi asosiy tamoyil til bilan dil birligi ekanligi o‘rtaga tashlangan va bo‘larning barchasida bilimning ahamiyati ta’kidlangan.

Kaykovus Unsurulmaoniyning oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari « Qobusnoma» asarining «Ota-onalik haqqini bilmoq zikrida» bobida atroficha

bayon etilgan. Olim va alloma Kaykovus ota-onas o‘z farzandi uchun xatto «ulimga ham tayyor» ekanligini ta’kidlab, o‘z navbatida, ularni aslo ranjitmasliklari, aksincha, shirinsuxanlik bilan munosabatda bo‘lish lozimligini aloxida uk-

tiradi: « Xar bir farzandki, oqil va dono bo‘lsa, ota-onas mexr-muxabbatini ado etmakdin bosh tortmagay» .

Dunyoda necha millat, necha xalq bo‘lsa, hammasining o‘ziga xos turmush tarzi, o‘tmish hayoti va kelajagi bilan chambarchas bog‘lik an’analari mavjuddir. O‘zbek xalqining ham urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta’lim-tarbiya, madaniyat an’analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi . Barg ildizdan quvvat oladi deganlaridek , hozirgi va kelajak avlod kishilarining ularni chuqur bilishi ma’naviyatning mag‘zi to‘qligi omilidir. Bu hamisha, hamma avlod tomonidan e’tirof etilgan haqikatdir .

Kaykovusning « Qobusnoma»sidan tortib , Al-Xorazmiy , Abu Nasr al-Farobi , Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Xojibning «Kutadg‘u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Axmad Yugnakiyning « Xibatul haqoyik» , («Haqiqat sovg’alari») kabi jaxonga mashxur asarlarida Navoiyning o‘lmas she’riyatida, Munis Xorazmiyning «Savdita’lim», Qori Niyoziyning «Hayot maktabi», Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqiga xos ibratli tomonlar ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo‘lgan ota-onani xurmatlash, insoniylik, mexr-oqibat, mexmondustlik, ma’rifatga chanqoqlik, onani ulug‘lash , farzandga mehrli va fidoyi bo‘lishlik kabi fazilatlar dunyoga tanilgan bo‘lsa, ajab emas .

Har bir xalq o‘zining milliy an’analariga asoslangan tarixiy madaniyati va turmush tarziga egadir. An’ana xalqimizning asrlar osha to‘plagan milliy boyligi bilan, shuningdek, uning yangi sharoitda yangi mazmun bilan boyitilishi, yangidan-yangi an’analarning vujudga kelishi bilan qimmatli va hayotbaxshdir .

An’analarning vujudga kelishi va shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayondir.

Unda xalqning donno fikrlari, axloq mezonlari, insonni xurmatlash va qadrlash o‘z ifodasini topgan.

Oilaviy an’analarga bolalarning tugilishlari Bilan bog‘lik bo‘lgan marosimlar , urf-odatlar bolalar tarbiyasiga taalukli bo‘lgan va umuminsoniyat tomonidan kabo‘l qilingan Amaliy maslaxatlar , koidalar , metodik usullar va vositalar kiradi .

Har davrning yangi an'anasida yangi avlod vakillarining xususiyatlari, shuningdek ularning o'tmish haqidagi yorqin xotiralari, mehnatkashlar ommasining kelajak uchun intilish o'z aksini topib boradi. Boshqa xalq an'analari kabi oilaviy an'analarda ham shu xalqning tarixi, uning tur mush sharoiti va hayot tarzi bilan bog'lik o'tmishi va kelajagi aks etdi.

Shu ma'noda o'zbek xalqining oilaviy an'analari qimmatli va azizdir.

Xalq donishmandligida ota-onalar haqida ularning bolalari bilan munosabatlari, onaning madaniy, tarbiyaviy ta'siri, donoligi va atroficha yoritilgan. Masalan, oilada hamma kishi bir kishiga – otaga itoat etgan. Otaning yoki onaning gapi ikki qilinmagan. Otaning izmidan chiqish, u kishining buyrug'ini bajarmaslik, otaga gap qaytarish, unga tik boqish gunox bo'lган. Xadisda yozilganidek «Otaga itoat qilish – Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunox qilish Tangri oldida gunoxkor bo'lish bilan barobardir».

Xalq donishmandligi an'analari avloddan-avlodga o'tish jarayonida shakl jixatidan o'zgarishlarga uchraydi, lekin o'z mazmuni, tarbiyaviy ta'sirini yo'qotmasdan xozirgi va kelgusi avlodlarga xizmat qiladi. SHu ma'noda xalq pedagogikasini ilg'or tarbiya g'oyalari bilan uyg'unlashtirish, oilaviy tarbiyada ko'llanilgan an'analarni yildan-yilga shakllanib borayotgan yangilari bilan boyiti, tuzumimiz uchun sadoqatli yoshlarni voyaga etkazish davrimizning eng muxim muammolaridan biridir

«Bola - aziz, odobi undan aziz». Bu maqolda o'zbek xalqining tarbiyaga oid qarashlari o'z ifodasini topgan. Bu e'tikod yillar davomida ular ongiga singib ketgan. Ota-onalar farzand ko'rish, ularni sog'lom o'stirish bilan birga, ularning odobli bo'lishlarini ham orzu qilishgan. Bola tilga kirishi bilanoq axloqiy tarbiyaning alifbosi bo'lган salomlashishni o'rgatishgan. Bolalar uyga kirishda, o'zidan kattalar bilan uchrashganda, yo'lda ketayotganda o'ng ko'llarini ko'ksiga qo'ygan xolda «Assalomu alaykum» deb so'rashadilar. Bu ham tarbiyaning o'lmas sabog'i bo'lib, o'zbek xonardonida mustaxkam o'rin olgan .

Masalan , musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlasa , «yomon bo'ladi», erta saharda eshik ochilmasa «yomon bo'ladi», kunlik rizqimizdan benasib qolamiz iboralari bolalarni erta turishga undagan. Kechki payt quyosh botish arafasida uxlasa «yomon bo'ladi» deb uqtirishgan.

Saranjom-sarishtalik uyning bezagi, tejamkorlik farovonlik kaliti, to'g'rilik, xalollik-ko'ngil xotirjamligi ekanligini mehnatkash xalqimiz unutmagan va oilada bolalarni ana shunday fazilatlar asosida tarbiyalashga doimo vaqt topisha olgan .

Xalq madaniyatining eng muxim belgilaridan xushmuomalalikka, xozirjavoblikka aloxida e'tibor berilgan. Sharq xalqlari o'z bolalariga soxtalik,

yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan, samimiy munosabatni ulug‘lagan, o‘rgatgan .

Xalq pedagogikasini chuqur o‘rganar ekansiz, mutaffakirlarning ta’lim-tarbiyaga oid, odob-axloqqa oid asarlarini ko‘zdan kechirar ekansiz, o‘zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta’sirchan uslubi - o‘yin shaklidan juda oqilona foydalanganini ko‘rasiz. O‘g‘il bolalarni uddaburon, chaqqon, topqir qilib, qizlarni mehr-shafqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiyalaydigan shunday an’anaviy o‘yin shakllari bo‘lganki, ularni xalq etnografiyasini o‘rganish yo‘li bilan tiklash, xozirgi ishlarimizda ham qo‘llash kerak. N.Krupskaya xalq tarbiyasi tajribasidagi eng yaxshi uslub va usullarni olishni targ‘ib qilib, o‘zbek bolalari o‘yinlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ijobjiy baxolab, ularning tabiat bilan yaqin munosabatda yashashlarini juda ko‘p qiziqarli o‘yinlarga egaligini, jismonan rus bolalariga nisbatan chiniqqan , chaqqon ekanliklarini qayd qilgan edi .

Xalq pedagogikasida farzandni jismonan baquvvat, aqlan barkamol qilib tarbiyalash bilan birga ularni hayotga turmushning og‘ir-engil sinovlariga tayyorlab borishga ham qattiq e’tibor berilgan. Bunda ta’lim-tarbiyaning ugi, nasixat, namuna bo‘lish, mehnatda chiniqtirish shakllaridan unumli foydalanimagan.

Yoz kunlaridan birida bog‘da ko‘maklashayotgan bola otasidan so‘rabdi:

-Nima uchun mana bu daraxt qiyshiq , manna bunisi esa tug‘ri ?

- O‘g‘lim,- deb javob beribdi ota, - bu daraxtning qiyshiq o‘sgan joylarini kesib, parvarish qilib turilgan , ikkinchi daraxt esa o‘z xolicha o‘sgan , shuning uchun qiyshiq

- Unday bo‘lsa, daraxtlarni doimo parvarish qilish kerak ekanda, - xulosa chikaribdi o‘g‘il .

-Tuppa – to‘g‘ri, deb javob beribdi ot, - o‘g‘lim daraxtlarni parvarish qilish ko‘p foyda keltiradi . Sen ham xudi yosh nixolga o‘xshaysan . Sening hatolaringni tuzatib tursam, yaxshi narsalarga urgatsam sen esa mening so‘zlarimdan chikmasan, yaxshi odam bo‘lib voyaga etasan . Agar sen mening gaplarimga quloq solmasang, xuddi mana shu ikkinchi daraxt kabi egri o‘sib voyaga etasa , debdi .

Ota-onalar farzand fidoyilaridir .

Bu Sharq xalqlari, xususan o‘zbek millatiga xos bo‘lgan fazilatdir.

Oila – xalq namunasi

Oila va oilaviy munosabatlar pedagogikasi – murakkab jarayondir. Agarda zamonaviy terminalogiyadan foydalananadigan bo‘lsak, unda allanimalarni bajarish kerakligiga xalq o‘z shaxsiy tajribasida ishonch hosil qilgan deb aytish mumkin.

1. Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish odatlari, an'analarini, metodlarini aniqlab *konstruktiv* metodini;

2. Bolalarning dam olishlari, mehnat qilish va o'quv mashg'ulotlari tartibini o'rnatib *tashkilotchilik* vazifasini;

3. Ota-onalar, ota-onalar va bolalar, bolalarning o'zлari o'rtasidagi yaqinlari, qarindoshlar va qo'shnilar va shu kabilar bilan to'g'ri o'zaro munosabatlar qoidalarini ishlab chiqib *kommunikativ* vazifasini;

Bular hammasi asta-sekinlik bilan oilaviy munosabatlar sistemasini yaratadi. Oila eng intim (yaqin) jamoadir. O'zining ko'nglidagi firklarini bola faqat ota-onalariga aytishi mumkin, ayniqsa sirlarini onasiga aytadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar juda nozik va qaltis ishdir, chunki u qarindoshlik iplari bilan bog'langan jamiyatning birinchi jamoasi bilan bog'liq bo'ladi. Bu yerda oila ichidagi o'zaro munosabatlar amalga oshiriladi, ota va onaning tarbiyachilik vazifalari aniqlanadi. Uning bolalarga pozitiv ta'sirini kuchaytirish uchun sharoitlar yaratiladi. Oilaning va oilaviy tarbiyaning ana shu hamda boshqa xususiyatlari har doim xalqning diqqat markazida bo'lgan.

Bular hammasi Markaziy Osiyo xalqlari xalq pedagogikasi meroslarida o'z aksini topgan.

Xalq ko'plab avlodlar tajribasi asosida oilaning asosini – o'zaro muhabbat tashkil etishiga ishonch hosil qilgan. Shuning uchun shunday umumiylayotiy fikr paydo bo'lgan: "Sevgisiz oila – bu ildizsiz daraxtdir." Sevgi muammosi oilaviy tarbiya pedagogikasi uchun har doim muhim bo'lgan. Yigit va qizlar o'rtasidagi yorqin va sof do'stlik odatda oliv, insoniy hissiyot-sevgiga aylanadi. Xalq donishmandligi sevgini har qanday ko'rinishiga katta odob bilan o'z munosabatini bildiradi.

Sevgiga avaylab munosabatga bo'lish - xalq pedagogikasining muhim maslahatidir: "Muhabbatni ko'z qorachig'idek asra". Insonni faqatgina uning tabiiy, tashqi chiroyi uchungina, balki uning ko'ngli go'zalligi uchun ham sevish kerak. "Sevgining chiroyinimi yoki chiroylilarni sevasanmi." – degan savolga qozoq moqoli shunday javob beradi: "Shunchaki go'zal bolgan chiroyni emas, balki sen sevgan chiroylidir". Sevish uchun odamni ko'rish va uni bilish, uni tushunish kerak. "Ko'z ko'rmaganni, yurak sevmagan" deb bekorga aytmaganlar. Tojiklar esa "avval ko'zga yoqishi kerak, keyin esa yurakka" deb hisoblaydilar.

Xalq sevishganlar xulqlari madaniyati masalasini ham gapirib o'tgan. Bunda sevganining yaqinlari va ota-onalariga hurmat yuzasidan, bo'lajak turmush o'rtog'ining tanloviga munosabatni bildirish uchun ular bilan tanishish ko'zda tutilgan. Ko'pincha maqollarda kuyovga to'g'ri maslahatlar beriladi: hamma ishni ota-onalardan boshlash kerak, ayniqsa qizning onasidan, u qiz bolaning tarbiyasiga, uning dunyoqarashiga, ishonchi, didi, odatlari shakllanishiga katta

ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun xalqdashunday maqollar bo: "Onasiga qarab, qiziga uylan", "Bir qizga uylanmoqchi bo'lsang avval uning onasi bilan tanishgin". Shuni aytish muhimki, xalq odatda teng nikohga sevgi bo'yicha nikoh tarafдорлари bo'ladi. Markaziy Osiyoda ko'p davrlar davomida kelin uchun qalin puli to'lash odat bo'lib kelganligiga qaramasdan, odamlar xalq donishmandligiga amal qilishga intilganlar. Teng kuyov topilgan bo'lsa qizni qalin puli talab qilmay berib yubor (qoraqalpoqlar): Agar teng kuyov topilsa qizingni bepul berib yubor (qirg'izlar): xalq manfaatini ko'zlab boshlangan nikohni rad etadi. Boylik uchun turmushga chiqqandan ko'ra o'tgan yaxshiroqdir – deb aytadilar. (o'zbeklar).

Oila jamiyatning boshlang'ch jamoasi bo'lib, hayotning eng murakkab va turli xil xodisalaridan ta'sirlanadi. Turmushda janjallar kelib chiqadi. Xalq oilaviy janjallar haqida nima deb o'ylaydi va oilaviy tarbiya tajribalari bilan qanday oldini olish choralar ishlab chiqilgan. Hikmatli so'zlarga oilaviy janjallar ajoyib bir fikrlik bilan tabiiy, qonuniy hodisa deb qaraladi. O'zbek maqoli to'g'ridan-to'g'ri ta'kidlaydi: "Yeguliksiz uy bo'ladi, lekin janjalsiz uy bo'lmaydi". Xalq oddiy odamlarga "Hatto podshohning uyida ham janjallar bo'ladi" deb o'zini ham va boshqalarni ham tinchlantiradi. Ba'zi ota-onalari va qo'shnilar er va xotin o'rtaсидаги tortishuvga aralashishga urinib ko'radilar. Bu deyarli hech qachon yaxshi natijaga olib kelmaydi, shuning uchun o'zbek maqollarida "Er va xotinni orasiga faqatgina axmoq aralashadi" deb aytishadi. Ko'pchilik haqiqatni so'zlar afsuslanib yomon xotinlarning hislatlarini ko'rsatib beradi. Yomon xotinlar haqida o'zbeklar shunday deydilar: "Ot yomon bo'lsa xohishing ketadi, bolalaring yomon bo'lsa kuning ketadi, xotining yomon bo'lsa-mehmon ketadi". Ko'pchilik haqiqatli so'zlar ayolning eng yomon hislati deb uning ming'ir- ming'irlarini quloqni tinchitmasligi, mijg'ovligi va janjalkashligini ko'rsatadilar: "Janjalkash xotinning eri tez qariydi", "Janjalkash xotinga uylangandan ko'ra bo'ydoq yurgan yaxshi".

Oilaning asosiy vazifasi – katta avlod uchun munosib bolalarni tarbiyalash hisoblanadi. Bu yerda ham hal qiluvchi ish ota-onalarga bog'liq bo'ladi.

Ota va ona birinchi tarbiyachilar.

Xalq pedagogisida onalik oliy ijtimoy qadriyat sifatida, inson avlodini davom ettirishdagi tabiiy talab sifatida qaraladi. Hamma xalqlar xaqli ravishda onani – ayolni yuksaklikka ko'taradilar, "O'g'il agarda kaftida onasi uchun tuxum pishirib bergenida ham uning oldida qarzdorligicha qoladi" deb hamma tan olgan.

Bolalarga muhabbat – bu juda muhim muammo hisoblanadi. Chunki, ona muhabbati sababli ota-onalar ko'plab tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'yadilar. Hamma xalq haqiqatli so'zlarida bolalarga cheksiz muhabbat hissi ifoda etilgan. "Uyning bezagi-bu bekadir, dasturxonning bezagi-mehmon".

Bolaning tarbiyaliligi ham juda qadrlanadi. M: o’zbek maqollarida shunday deyiladi: “Bola qimmatbahodir, lekin yanada ham qimmatlisi uning tarbiyasi”. (“Bola aziz, uning odobi undan aziz”).

Xalq otalarning shaxsiy ibrat ko’rsatishlariga ko’p e’tibor qaratgan. Onaning yomon odati albatta bolaga ta’sir ko’rsatadi, shuning uchun “janjalkash otaning o’g’li urushqoq bo’ladi”, deb aytadilar Ota va onadan tashqari oilada tarbiyachilik vazifani buva va buvisi va boshqa qarindoshlari ham bajaradilar. Amalda ular no’malum halq pedagoglari hisoblanadilar. Xalq donishmandlari opoqlar (buvalar) va buvilar haqida maxsus ertaklar to’qiganlar.

Nazorat savollari:

- ✓ Xalq pedagogikasida oilaviy muhit talqini.
- ✓ Tarixiy davrlarda oila va unda farzand tarbiyasi.
- ✓ Oilaviy tarbiyada qo’llanilgan qanday tarbiya metodlarini bilasiz?
- ✓ Mutafakkirlar oila tarbiyasi haqida fikrlaridan keltiring.
- ✓ Oilaning ijtimoiy institut sifatida necha asosiy vazifasi mavjud?
- ✓ SHaxs ijtimoiy faolligini shakllantirishda oilaning o’rni qanday?
- ✓ Oila an’analari deganda nimani tushunasiz?

Topshiriq


1. Quyidagi ish qog‘ozi yordamida “Kontseptual jadval” metodi bo‘yicha oilaviy tarbiyaning darajalarini yoriting.

Ish qog‘ozi

Oilaviy tarbiyaning darajalari	Muhim belgi (tavsif)lar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-darajasi (A I)			
2-darajasi (A II)			
3-darajasi (A III)			
4-darajasi (A IV)			

1. Quyidagi ish qog‘ozi (sxema) orqali sharq mutafakkirlari oila haqidagi fikrlarini oydinlashtirish imkoniyatini beradigan yo’llarni yoriting.

3.2 Sharq mutafakkirlari oila haqida



Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- Boynazarov F. O’rta Osiyo" antik, davri. Toshkent. O’qituvchi 1991 yil.
- Mirtursunov Z.F, Xalq, pedagogikasi, Toshkent. O’qituvchi 1968 yil.
- Xasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida.
- Donishmandlar axloq haqida. Toshkent. O’qituvchi 1986 yil.
- O’zbek pedagogikasi tarixi // A.Zunnunov tah.ostida. – T.: O’qituvchi, 1997. – 272 b.
 - O’rta Osipyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar // Zunnunov A., Xayrullaev M., Hotamov N., SHodiev D. - T.: Fan, 1996. – 243 b.
 - O’zbek pedagogikasi analogiyasi . T. 1-jild. 1995y, 2-jild1999 y.

4-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA YOSHLARNI TARBIYALASHNING METOD, USUL VA VOSITALARI

Reja:

- .1. Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari
- .2. Tarbiyalash metodlaridan yoshlarni tarbiyalashda foydalanish yo'llari
- 3.Xalq pedagogikasida aqliy va axloqiy tarbiya masalalari
4. Xalq pedagogikasida jismoniy va mehnat tarbiyasi

Tayanch so‘zlar: *tarbiya metodlari, ta’sir ko‘rsatish, na’muna ko‘rsatish, ibrat ko‘rsatish, rag‘batlantirish, jazolash metodi, o‘z-o‘zini tarbiyalash, insoniy fazilatlar, o‘git-nasihat, xalq donishmandligi, o‘zbekona axloq, tarbiya vositalari jismoniy tarbiya, barkamollik, mehnat tarbiyasi, mehnatsevarlik, mehnat qurollari, mehnat ahli, mehnat vositasi, mehnatsevarlikning ulug‘lanishi, hayoliy mehnat, mehnat qurollari, mehnat ahli, ijtimoiy taraqqiyot.*

Sharq xalqlari jumladan o‘zbek bolalari tarbiyasiga befarq qaramaganlar. Hayotdagи har qanday hatti-harakatning ham oqibati to‘g‘ri baholangan. Yoshga monand ta’sir ko‘rsatish yo‘l va vositalari yaratilgan. Kerak bo‘lganda rag‘batlantirish turlaridan foydalanilgan, lozim bo`lsa jazolangan. Noaxloqiy hatti-harakatlarni qisqa va lekin o‘ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan «yomon bo`ladi» iborasi bilan tavsiflangan.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev "Bizni hamisha o‘ylantirib keladiga muhim masala – bu yoshlарimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlар. Mayli, yoshlар o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"³, deya ta’kidlaydi.

Xalqimizning qadimdan amal qilib kelayotgan odob-axloq qoidalariga nonga hurmat ulug‘langan va non ushog‘i bexosdan erga tushib ketsa, «yomon bo`ladi» deb uni qo`lga olib ko`zga surtib, o`pib og‘izga solingan.

Birgina «yomon bo`ladi» iborasi juda katta va ta’sirchan tarbiya vositasi

³ Шавкат Мирзиёев "Ижтимоий барқорорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби" нутқи 15.06.2017й.

bo`lib xizmat qilgan. «YOMON bo` ladi» iborasi orqali kattalarga xurmat, kichiklarga g`amxo`rlik, tarbiyalangan, etim bolalarga, boshiga tushgan oilalarga ozor etkazilmagan. Otaga ters javob berish, xotin-qizlarga behayolik qilish «yomon bo`lishi»ni yoshlikdan tushuntirilgan. Bunda bolalarni yoshi xatti-harakatlari o`ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Ayrimlariga noaxloqiy xatti-harakatlarining yomonligi qur`oni Karim hadislardan misollar keltirish, xikoyalar aytib berish orqali ifodalansa, ayrim yoshdagi bolalar ota-onas; aka-uka, opa-singil, qo`ni-qo`snilarning ijobiy xatti-harakatlari namunasida tarbiyalangan.

O`zbek xalqida bolalar bilan bog`liq juda ko`p an'analar mavjud. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-muhabbat, ularni sevish, erkalash, parvarish qilish, ta`lim-tarbiya berish, extiyotlash kabi insoniy qarashlarni targ`ib qilib kelgan.

Xalqimizning o`zining tarbiya usullarida bolalardan kattalarga birinchi bo`lib salom berishni kattalar suhbatiga aralashmaslikni, ularni hadeb savollar bilan charchatmaslikni, kattalar o`z joylariga o`tirgunga qadar o`tirmaslikni, uyg`a mehmonlardan so`ng kirishni, lekin eshikni birinchi bo`lib ohib, ushlab turish, ularga yordam berish kabi odob qoidalariiga rioya etishni har doim talab qilgan.

Ota-onas dasturxonadagi taomga qo`l o`zatmaguncha hech kim qo`l o`zatmagan. Yuqoridagi odob qoidalari deyarli o`z ahamiyatini yo`qotgan, ular milliy hulq-atvorimiz bezaklaridir.

Xalq madaniyatining eng muxim belgilardan xushmuomilalikka hozir javoblikka alohida e'tibor berilgan. Sharq xalqlari o`z bolalariga soxtalik yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan samimiy munosabatni ulug`lagan, o`rgatgan.

Yuqorida aytib o`tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida qo`llaniladigan: tushuntirish, namuna ko`rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, istak bildirish, maslahat berish, yolvorish-iltijo, duo qilish, la`natlash, kaltaklash kabi metodlari bo`lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan o`git-nasihat, ibrat ko`rsatish, maqtash, qarg`ash kabi metodlaridan foydalangani ko`zga tashlanadi.

O`git-nasihat xalq og`zaki ijodida bolalarda insoniy fazilatlarni tarbiyalab etishtirishda eng ko`p qo`llanadigan metodlaridan biridir. Avvalo, kishilarni kishi tomonidan va rostgo`y bo`lish, yaxshilik haqida teran fikr yuritilgan xalq maqollari asosan pand-nasihat formasida tinglovchiga nisbatan maslahat, nasihat, istak va buyruq formasida ishlatiladi. Masalan:

Yomonning yaxshisi bo`lguncha
Yaxshining yomoni bo`l!
Birovga o`lim tilaguncha,
O`zinga umr tila!
qadrlasang qadring oshar,

qadrsizdan hamma qochar

kabi maqollar tinglovchilarga nisbatan o`git-nasihat formasida aytildadir.

Bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalashda qo`llaniladigan eng harakterli shakllardan biri, xalq donishmandliklarining axloq va odob yuzasidan aytildagan hikmatli so`zlari-maqollarini u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo`lgan muammo sifatida ishlatilishidir, ya`ni axloq va odob masalalariga bag`ishlangan xalq maqollarining naqadar haqiqat ekanligini (Har kimsa etsa-o`ziga) ertagi mazmuni orqali ochib berilishidir.

Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Xalq pedagogikasi o`zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o`zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo`lib, ko`p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o`z ta`sirini o`tkazgan. Xalq pedagogikasida qo`llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

1. Tushuntirish (hikoya qilish, o`rgatish).
2. Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
3. Namuna (maslahat berish, o`zr so`rash, o`rnak bo`lish).
4. Nasihat qilish, o`git (undash, ko`ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma`qullah, rahmat aytish, duo qilish, oq yo`l tilash va hokazolar).
5. Qoralash va jazo (ta`kidlash, ta`na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayplash, uyaltirish, qo`rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta`sirlar muayyan vositalar yordamida qo`llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to`y marosimlari), sayillar, oilaviy an`analar (tug`ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiyo`rta, o`rta maxsus va oliy ma`lumotga egalik to`g`risidagi attestat va diplom, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o`ziga xos tarbiya vositasi sanaladi

Insoniy fazilatlarni tarbiyalashda namuna ko`rsatish metodi ustida gap yuritilar ekan, avvalo shuni aytib o`tish kerakki, insoniylik mavzusida aytilgan ertak va dostonlarning o`zi katta tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

O`zbek xalq ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo`llaniladigan namuna ko`rsatish metodi juda ko`p shakllarda uchraydi. Ertak va dostonlarda uchraydigan namuna ko`rsatish metodining harakterli tomoni-uning asosan ikki yo`nalishida ko`zga tashlanishidir. Bir tomonidan, ijobiy fe`l-atvorga ega bo`lgan kishilarning hatti-harakatlarini ko`rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomonidan salbiy fe`l-atvorga ega bo`lgan kishilarning nojo`ya hatti-

harakatlarini ko`rsatish bilan undan nafratlanishga, yaramas urinishlardan ochishga targ‘ib qilinadi. Masalan, «Erali va SHerali» dostonida aka-ukaning ustoz bolalarga odob-axloq haqida juda ko`p pand-nasihatlar aytadi.

Xalq ijodi materiallarida bolalarning odob va axloqiy tarbiyalash yuzasidan xilma-xil tarbiya vositalaridan foydalangani ham ko`rsatiladi.

Folklor materiallarida uchraydigan axloqiy tarbiya vositalari juda ko`p tur va shakllarga ega bo`lsa ham, asosiy vosita sifatida:

Bolalar o`yinlari.

Choyxo`rlik – choyxona gurungi.

Bolalar gapi – gap eyish.

To`y marosimlari.

Sayillar va hokazolar.

Shubhasiz, bunday davra yoki yig‘inlarning tarbiyaviy ta’siri katta bo`lgan va hozir ham u juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Madaniyat deganda inson xulq-atvorining go`zalligi, sahovat va himatliligi, oljanobligi, va’dasiga vafodorligi, o`ziga xosligi bilim olishi, donoligi, bag‘ri kengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi va shu singari yoqimli urf-odatlar tushuniladi.

Ma’rifatning insonga ko`rsatadigan ta’sirlaridan biri shuki, u odam dunyoqarashini kengaytiradi, unga notanish uning hayotiga begona hodisalarning asl ma’nolarini tushunishga yordam beradi. Ma’rifat ilm va madaniyat nuridir.

Aqliy tarbiya barkamol inson tarbiyasining etakchi tarkibiy qismi bo`lib o`quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg‘ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik hislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o`stirishni maqsad qilib qo`yadi.

Aqliy tarbiyani shunday tashqil etish lozimki toki o`quvchilar aql-zakovatli, ob`ektiv dunyoni yaxlit idrok etadigan, o`zligini tushunadigan, hayotda tutgan o`rnini anglab etadigan, o`z oldida turgan vazifalarni ongli bajara oladigan, insoniy qadr-qimmatni ulug‘laydigan bo`lishsin. Inson kamolotida bilim egallah ulkan fazilatlardan biri hisoblanadi.

Hadis kitoblarida har bir mo`min-musulmon uchun ilmning naqadar zarurligi bayon etilgan. «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» - degan nurma’no hadisi shariflar so`zimiz isbotidir.

Muhammad alayhissalom o`z hadislarida – «Ilm sahroda do`st, hayot yo`llarida tayanch, yolg‘iz damlarda yo`ldosh, baxtli daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda qurol» deganlar.

Xalq pedagogikasida ham hadislarda ham, xalq og‘zaki ijodida ham ilmli

bo`lishga, ilmga intilishga yuksak darajada shariat berilgan, ular bugungi kunda ta`lim-tarbiya jarayonida o`z ahamiyatiga ega.

Yusuf Xos Xojib o`z asarlarida bilimdon bo`lish tarbiya bilan chambarchas bog`liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, shuncha yaxshiligi haqida yozadi:

«Agar kimda bo`lsa aql, ilm zehn,
Uni madh etib sen, tugal er degin,
Ziyod bo`lsa kimda o`quv, uquv, aql, bilim,
Yomon va kichik bo`lsa ham maqtugin».

Alisher Navoiy «Farhod va SHirin» dostonida ilm orqali Farhodning aql-idrokli bilimdon, hunarmand, kamtar insonparvar, irodali va e`tiqodli inson bo`lganligi ko`rsatadi.

Demak yuqorida ta`kidlaganidek, yoshlar aqlini o`stirish uchun birinchi galda vazifa ilm olish, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga da`vat etishdir.

Aqliy tarbiya fikrlash, his qilish, tasavvur, hayol va xotira qobiliyatini o`stirish, ichki dunyosini ma`naviy jihatdan boyitish, yosh avlodni mehnat qilish qobiliyatini o`stirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan.

Tarixiy an`ana va tajribalardan ma'lumki, ta`lim-tarbiya doimo muayyan va tuzum yuritgan siyosat o`z oldiga qo`ygan vazifa va maqsadlar asosiga qurilgan.

O`zbek xalqi ota-bobolaridan qolgan buyuk madaniy merosga ega. Bu boyliklar jamiyatda fan va madaniyat adabiyot va san`at, mustaqilligimiz ravnaqiga, ma`naviyatimizni yuksaltirishga, milliy g`urur iftixorimizni mustahkamlashga xizmat qilib kelgan va bundan keyin ham xizmat qiladi. Bunday ma`naviyatning bo`log`idan yosh avlodni baxramand etish, tarbiya jarayonida ulardan mohirlilik bilan foydalanish biz pedagoglarni asosiy burchimizdir. Bunday meros xalqni o`zligini anglash, ajdodlar bilan faxrlanish, xalq mentalitetiga mos ravishda shakllanishga ulkan hissa qo`shadi.

Xalq pedagogikasida xalqning milliy – tarixiy turmush va tafakkur tarzi, xalq an`analari va urf – odatlariga sodiqlik hissini tarbiyalash g`oyalari ilgari surilgan.

Hamma zamonlarda ham inson, uning ma`naviy-axloqiy kamoloti, bosh masala bo`lib kelgan.

Insonda ana shunday jihatlarni rivojlantirishda quyidagi milliy aqidalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O`zaro hamjamiyat va jamoa bo`lib yashash hamda mehnat qilish
Kattalarga hurmat kichiklarga shafqat, el-yurtga muhabbat
Ota-onani qadrlash, farzandlik burchini to`la ado etish
Oilaga va farzandlarga g`amxo`rlik qilish
Millat ayirmaslik
Boshqalar qayg`usiga sherik bo`lish
Xasharchilik an`analarini tiklash va yordam berish

Vatanga muhabbat tuyg‘usini yanada rivojlantirish
Ota-bobolarimizga xos mehnatsevarlik odobiga sodiq qolish
Islom diniga e’tiqod tuyg‘ularini tarbiyalash
Milliy madaniyatni tobora rivojlantira borish
Bilim olishga ahamiyat berish
Ustoz-ziyolilarga, ma’rifatparvar kishilarga hurmat-ehtiromda bo`lish
Milliy odob-axloq me’yorlariga to`la rioya qilish
Ko`rsatilgan shu ma’naviy-axloqiy aqidalarga amal qilish hamda o`tmishdagi olimu fuzalolaru shoirlarning benazir merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma’naviy ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan va u hamon o`z ta’sir kuchiga ega ekanini yodda tutgan holda amalga tadbiq etish zarur. Bu tarbiyada natijaga erishishning muhim shartlaridan biridir.

O`zbek Xalq pedagogikasi xalqni maqsadli yo`nalishga yoppasiga safarbar qilishda milliy qadriyatlarga tayangan holda, talaba yoshlar qalbiga kirib boradi, ularni ijtimoiy ongini o`stirishda etakchi o`rin tutadi.

Komil inson tushunchasi, insonning dunyoqarashi, jumladan diniy e’tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari, qolaversa, axloq-odobi bilan bevosita aloqadordir.

Barkamol insonlar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o`ylaydilar. Bunday insonlar mutelikda qaramlikda yashashni istamaydilar. Barkamol inson o`zida insoniylik fazilatlarini mujassam etgan, odob-axloq me’yorlariga amal qiluvchi, o`z shaxsiy fikriga, g‘oyasiga, mukammal bilimga ega bo`lgan jihatlarni qamrab olgan bo`lishi kerak.

Ana shunday maqsadli, e’tiqodli insonlarga jamiyat ishonadi, tayanadi, ular hamma vaqt xalq, millat iftixori bo`ladi

Keksa avlod, ota-onal o`z farzandlarini uzoq zamonlar mobaynida to`plangan va takror-takror sinovdan o`tgan ajoyib insoniy fazilat qoidalari hamda uni amalga oshirish metod va vositalarini yaratganlar va shu asosda zamona yoshlarini o`sha ijtimoiy hayot talablariga muvofiq kishilar qilib tarbiyalab kelganlar.

Xalq ijodi materiallarining ko`rsatilishicha, bolalarda insoniy his-tuyg‘ularni tarbiyalashning mazmuni kishilarga mehr-muhabbat qo`yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarni himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o`z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimi, halol va rostgo`y bo`lish kabi dastlabki elementar odob va axloq qoidalari o`z ichiga oladi.

O`zbek xalq pedagogikasi yoshlarda yuqoridagi kabi ma’naviy fazilatlarni tarkib toptirmoq uchun, birinchi navbatda bolalarni o`ziga yaqin kishilarga ota-onal, aka-uka va oiladagi kattalarga bo`lgan tabiiy muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalab voyaga etkazish zarurligiga amal qilingani ko`rinadi.

O`zbek xalq og‘zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan

qo`llaniladigan rag`batlantirish va qoralash bir necha formada ko`zga tashlanadi. Ko`pchilik ertak va dostonlarda rag`batlantirish metodi: 1) ma`qullash va maqtash, 2) alqash, 3) mukofotlash shakllarida, jazolash metodi esa: 1) qarg`ash, 2) jismoniy jazo berish shakllarida uchraydi.

Rag`batlantirish metodi axloqiy tarbiya yuzasidan eng ko`p qo`llaniladigan metodlardan biri, xalq og`zaki ijodida u turli shaklda ishlataladi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhgaga ajratgan holda talqin qilish mumkin.

Ma`qullash va maqtash. Xalq og`zaki ijodiyoti asarlarida bolalarni insoniylik yuzasidan amalga oshirgan ibratli ishlarini kattalar tomonidan ma`qullash, taqdirlash, rahmat aytish va maqtov bilan bir o`rinda tasvirlanadi. Masalan: «Erali va SHerali» dostonida, erali bilan SHeralini insoniylik yuzasidan el-yurt, oshna-og`ayni o`rtasidagi munosabatlari usta Odilni juda quvontiradi, ularning fe'l-atvoriga qoyil bo`ladi.

Usta Odil ikkalasining yuziga qarab: «Barakalla aka-ukalikda o`zgalar sizlardan ta`lim olishlari kerak. Ta`lim bergen ustozingga ming rahmat, ustozdan ibrat olgan aqllaringga rahmat, ikkinchi padaringga rahmat!» deydi.

«Suxrob va Mo`zrob» ertagida tasvirlanishicha, Suxrob bilan Mo`zrob ikkisi katta bir mamlakat xalqiga taxlika solib turgan devlarni o`ldiradi. Shunda saroya yig`ilgan kishilar Suxrob va Mo`zrobning baxodirlarcha qilgan xizmatlariga ofarinlar aytib qoyil qolishibdi.

Yuqorida keltirilgan asarda bolalar o`zlarining odobi, insonpavarliklari bilan ota-onasiga, ustoz ham xalq ommasining olqishlariga sazovor bo`ladilar. Ba`zan ertak va dostonlarda bolalarning taqdirlanish sabablari ko`rsatiladi, ularning kelajakda ham shunday bo`lishiga da`vat etiladi. Masalan: «Chambil mudofaasi» dostonida shunday voqeani ko`ramiz: Go`ro`g`libekning o`g`li Avaz Holdornikiga to`yga boradi. To`y davomida Holdorxonning dushmanligini sezib keladi va bo`lgan voqeani otasiga aytib beradi. Shunda Go`ro`g`libek: Avazning bu so`zlarini eshitib, sherdan hayqirib, yo`lbarsday cherpinib, qoplonday chopinib, ko`zlar o`tday yonib «Barakalla, o`g`lim, yaxshi ish qilibsan! Indamay kela berganingda mening o`g`lim bo`lmas eding, men sendan xush vaqt bo`lmas edim». «O`g`lim, barakalla, har ish vaqt – soati bilan bo`ladi, dedi».

Ko`rinib turibdiki, Go`ro`g`libekning o`z farzandi Avazning faoliyatidan minnatdor bo`lib uni rag`batlantirdi.

Olgish. Olgish xalqimiz o`rtasida qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan rag`batlantirish shakllaridan biridir. Olgish xalq og`zaki ijodida rag`batlantirishning boshqa shakllariga qaraganda ko`proq uchraydi.

Odatda olgish va qarg`ish ma`lum sotsial guruh va alohida shaxslarning o`zaro munosabatlarida, bir-birlarining ijobiy yoki salbiy hatti-harakatlariga nisbatan minnatdorchilik yoki g`araz, norozichiliklarini izhor qilishlarida

qo`llangan.

Asosan ota-onas, keksalar va umuman ayrim shaxslar o`zgalarning ijobiy harakatlariga minnatdorchilik izhor qilishga qodir bo`la olmasalar taqdirlash, mukofotlash, armug`on in`om o`rnida o`zlarining chuqur ichki istak va armonlarini izhor qilganlar. Keyinchalik o`zgalar uchun bag`ishlanadigan istak va orzular o`ziga nisbatan qudratli va qodir bo`lgan tashqi kuch – Ollohdan so`raydigan bo`lganlar.

O`z navbatida olqish duo ham bir necha yo`nalishda ko`rinadi.

Birinchidan – o`z fe'l-atvori va hatti-harakati bilan kattalarni manzur qilgan bolalarning sog`-salomat bo`lishlariga ishlatiladigan olqish: umringdan baraka top, dard ko`rma, tani-joning sog` bo`lsin ilohim va hokazolar.

Ikkinchidan – bolalarning kelajagi haqida: baxtiyor bo`l, niyatingga et, tuproq olsang oltin bo`lsin, ilohim.

Uchinchidan – tashqi ta`siriga nisbatan: do`stga zor, dushmanga xor bo`lma, qasd qilganlar past bo`lsin, ilohim va hokazolar.

Mukofot. Xalq ijodida rag`batlantirishning mukofot shakli ham uchraydi. Lekin, xalq og`zaki adabiyoti namunalarida ba`zi obrazlar – xalq orzu qilgan – adolatli va xalq sevar podsholar, qurbi etgan keksalar, o`z fe'l-atvori va hatti-harakati, donishmandligi bilan ko`pchilikka manzur bo`lgan, keksalarni shuningdek, el-yurt va hukmdorlarni ma'lum bir topshiriq va niyatlarini mardlik va matonat bilan ado etgan yoshlarni mukofotlaganliklari, ularning mehnatini qadrlaganliklari ifodalanadi.

Qoralash metodi. Xalqimiz o`rtasida bolalarning axloqiy tarbiyasi yuzasidan qo`llaniladigan qoralash metodi turli shaklda – uyaltirish, koyish, urishish, so`kish, qarg`ash, oq qilish va jismoniy jazo berish shakllarida qo`llanilishi ma'lum. Biroq xalq og`zaki ijodida asosan qoralashning qarg`ish va jismoniy jazo berish kabi ayrim shakllarigina uchraydi.

Qarg`ish ham ma'lum sotsial guruh yoki ayrim kishilar o`zaro shaxsiy adovatda bo`lganlarida, raqibi qarshisida o`zi kuchsiz ekanligini anglab, o`ziga nisbatan qudratli bo`lgan ikkinchi bir kuchning ko`magidan madad tilab murojaat qilish, ya`ni o`sha kuch orqali o`z raqibiga ko`ngilsizlik, baxtsizlik, qayg`uli hollar, hatto o`lim tilaganlar.

Qarg`ish ota-onas, umuman kattalarning o`z bolalari yoki begona bolalarga nisbatan qo`llanilib, u ham o`z navbati bilan shaxsi – jismoniy va fe'l-atvoridagi xususiyatlarga ko`ra turlicha ishlatiladi.

Odatda qarg`ish bola tarbiyasida eng ko`p qo`llaniladigan shu bilan birga eng zararli jazo shakllaridandir. Bunday jazo orqali bolalarda ruhiy azob, tushkunlik va alam ortadi. Ota-onas, kattalarning tarbiyasi sifatidagi ta`siri yo`qoladi, kattalar bilan bolalar o`rtasidagi mehribonlikka putur etadi, ahillik va obro` yo`qoladi.

SHuning uchun ham xalqimiz:

Ura bersang, eti qotar,
qarg‘ay bersang, beti qotar deydi.

Jismoniy jazo – o`zbek xalq pedagogikasi tarixida bolalarga jismoniy jazo berish, juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan shakllaridan biridir.

Tarixda bolalarga nisbatan qo`llaniladigan juda og‘ir jismoniy jazo shakllari bo`lgan. SHuningdek, oilada ota-onada va umuman kattalar tomonidan, tarbiya nuqtai nazaridan qo`llaniladigan jismoniy jazo – tarsaki, quloq cho`zish, xivchin yoki qamchi bilan urish, mushtlash, tepish kabilar bo`lganligi ma’lum. Biroq, xalq og‘zaki ijodida tarbiya yuzasidan faqat shapaloq (tarsaki) urish shakligina uchraydi.

Umuman xalq og‘zaki ijodida jismoniy jazo tarbiyaviy ta’sir ko`rsatuvchi vosita sifatida aslo uchramaydi.

Tarbiya vositalari. Xalq ijodi materiallarida bolalarning odob-axloqiy tarbiyasi yuzasidan qo`llaniladigan metodlar bilan birga xilma-xil tarbiya vositalaridan ham foydalanilgani ko`rsatiladi. Bo‘lar asosan quyidagilardan iborat bolalar o`yinlari, choyxo`rlik, gap eyish, kattalar bilan birgalikda to`ymarosimlarida ishtiropi, sayillar, safar sayohatlarga borish va hokazolar.

Xalq pedagogikasini chuqur o`rganar ekanmiz, o`zbek xalqi bolalarini tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta’sirchan usuli – o`yin shaklidan oqilona foydalanganliklarini ko`ramiz.

O`g`il bolalarni uddaburon, chaqqon, topqir qilib, qizlarni mehr-shafqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiyalaydigan shunday o`yin shakllari bo`lganki, ularni bugungi kunda qayta tiklash va tarbiya jarayoniga qo`llash lozim.

Xalq pedagogikasida farzandni jismonan baquvvat, aqlan barkamol qilib tarbiyalash bilan birga ularni hayotga, turmushning og‘ir-engil sinovlariga tayyorlab borishga ham qattiq e’tibor berilgan.

Ota-onalar farzand fidoiylaridir. Bu sharq xalqlariga xususan o`zbek millatiga xos fazilat. SHunday ekan farzandlarning ota-onalari oldidagi burchlari beqiyosdir.

Fikrlarimizni Navoiyning quyidagi misralari bilan yakunlasak maqsadga muvofiq bo`ladi:

Boshni fido qilg‘il ota boshiga,
Jismni qil sadaqa ano qoshig‘a.
Tun-kuningga aylagil nurposh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Farzand tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati haqidagi etnopedagogika fikrlari

Farzand inson hayotining davomchisi, orzu-umidlarining ro‘yogga chiqaruvchisidir. U faqat oila uchun emas, balki millat, elat, xalq, jamiyat uchun ham qadrlidir. SHuning uchun etnopedagogikada bola tarbiyasi faqat

oilaningemas, balki jamiyatning ham vazifasi sifatidatalqin etiladi. SHuning uchun “Bir bolaga etti maxalla ota-onas” ekanligi talqin etiladi.ayni paytda bola tarbiyasida jamiyatdagi muhitning ahamiyati aks etishi ota-onaning, qo’shnilarining qarindosh-urug‘larning axloqiy sifatlariga bog‘lab tushuntiriladi. Jumladan, “Onasini ko‘rib, qizini ol”, “Odobli bola elga manzur”, “YOshdan xato, kattadan o‘zr”, “Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l!” singari maqollar shunday sifatga ega.

Yomon axloqiy sifatlar bola tarbiyasining oilada noto‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi tufayli yuzaga kelishi “Erkalatsa onasi, taltayadi bolasi”, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” singari maqollarda ifodalangan. Odamlarga, ota-onaga qarata: “Bolani yoshdan o‘rgat, xotinni boshdan o‘rgat!”, -deb maslahat beriladi. Aks holda: “Buyursa-bola, Buyurmasa-balo” bo‘lishi mumkinligi alohida ta’kidlanadi. Agar bola yaxshi inson bo‘lib tarkib topsa, u xalq uchun, mamlakat uchun foydali inson bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi:

“Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi”

Do‘st tanlashda adashmaslik uqtiriladi:

“Ishonmagan” do‘sting” ga

Somon tiqar po‘stinga!”

“Ota dushmani do‘st bo‘lmas!”

“Yo‘ling bilib yo‘ldosh qil

Tiling bilib tengdosh qil” va b..

“Alpomish” dostonida Hakimbek, “Tumaris”, “Shiroq” rivoyatlarida To’maris, Shiroq singari el-yurt uchun o‘z hayotini qurban qilishgacha borib etgan Jaloliddin manguberdi, Temur Malik, Sohibqiron Amir Temur singari vatanparvar, xalqparvar tarixiy shaxslar etishib chiqdi. Ularning jasoratli hayot yo‘lini o‘rganish hozirgi paytda yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Hozir maxhalla, hashar, to‘y, sayil va boshqalar ijtimoiy tarbiya manbaidir. Ijobiy axloqiy sifatlarga erishish va salbiy axloqiy sifatlarni bartaraf etish usullari haqida

Xalq pedagogikasida shaxsning ijobjiy va salbiy axloqiy sifatlarining shakllanishi sabablari ob’ektiv ravishda ko‘rsatib berilgan. Xalq bola tarbiyasining murakkab va sharafli ish ekanligi to‘g‘ri anglaydi. Shuning uchun xalqda “Bola-aziz, bola tarbiyasi undan ham aziz” deyiladi. Bu fikr g‘oyatda to‘g‘ri. Chunki gap kelajak avlod tarbiyasi haqida borayotir. Xalq tarbiyani umr bo‘yi davom etuvchi jarayon deb hisoblab, bola tarbiyasini bir lahza ham e’tiborsiz qoldirmaslikka chakiradi. Aks holda bolani qayta tarbiyalash zarur bo‘ladi. Ammo, qayta tarbiyalash jarayoni ancha murakkab ish ekanligi ta’kidlanadi: “O‘ttiz yil egri o‘sgan daraxni bir yilda to‘g‘rilab bo‘lmaydi”.

Etnopedagogikada ko‘rsatilishiga, barcha ijobjiy sifatlar bolaga yoshligida singdirilishi lozim. Bunda oilaning ahamiyatga g‘oyat katta. Ayniqsa, otaning

yumshoq ko'ngilli, onaning erkatalishlari bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi alohida ta'kidlanadi:

“Erkalatsa, onasi, taltayadi bolasi”

yoki:

“*Egri mo 'ridan tutun egri chiqadi*”.

Tarbiya jarayonida ijobjiy axloqiy sifatlarni shakllantirishda hamkorlik pedagogikasidan foydalanish, bola shaxsini hurmat qilishi zarurligi ta'kidlanadi. Xalq ham hamisha: “Bolani kim erkataltsa, u o'shangan yaqin keladi,-” deydi.

Xalq pedagogikasida ijobjiy axloqiy sifatlarni shakllantirishda katta yoshli bolalardan foydalanish taklif etiladi. Amaliy hayotda ham oiladagi kichik yoshli bolalar katta yoshli akasi yoki opalaridan ko'proq tarbiya oladilar. Katta bolalar o'z ukalariga g'amxo'r bo'ladilar. Ular ukalariga tarbiya bera turib, o'zlarini kattalardek his qiladilar. Ularga mehnat qilish, axloqiy madaniyat ko'nikmalarini singdiradilar. Shuning uchun bosh farzand tarbiyasiga ko'proq, e'tibor berilsa, kichiklarini tarbiyalash oson kechishi ta'kidlanadi: “Kattasini tarbiya qil, kichigining o'zi o'rganadi” deyiladi.

Bolani yutuqlari uchun ortiqcha maqtash uni o'zbilarmonlikka olib kelishi ta'kidlanadi: “O'zini maqtagan axmoq, bolasini maqtagan undan ham axmoq”.

Bolalikda paydo bo'lган salbiy axloqiy sifatlarni tuzatish mumkinligi va bu uncha qiyin kechmasligi ta'kidlanadi. SHuningdek, yomon hislatlar tug'ma emas, balki o'zlashtirilgan sifatlar, noto'g'ri tarbiya oqibati ekanligi ta'kidlanadi.

Boladagi salbiy sifatlar oiladagi yoki atrof-muhitdag'i salbiy omillar tufayli paydo bo'lган bo'lsa, yomon odatni vujudga keltirgan manbalardan bolani uzoqlashtirish, manbani bartaraf etish taklif etiladi. Oilada osoyishta muhit yaratish, yaxshi do'stlar topishga ko'maklashish tavsiya etiladi: “Do'stingning kimligini ayt, sening kimligingni aytaman”, “Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, Emon bilan yursang qolarsan uyatga” maqollari fikrimizning dalilidir.

O'z-o'zini tarbiyalash inson shaxsining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Xalq bu borada tarbiyalashning o'ziga xos dasturini taklif etib: “Yaxshilarga yondosh, yomonlardan uzoqlash”-deb ta'kidlaydi. “Etti o'lchab bir kes”, “Avval o'yla, keyin so'zla”, “YAxshilikni yomondan o'rgan” kabi maqollarda mustaqil hayotda odamlar yordamida yaxshi sifatlarni egallash, yomon sifatlarni tuzatish mumkinligi ta'kidlanadi.

Etnopedagogika manbalarida yoshlar o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash vositasida eng oliy insoniy sifatlar - izzat-hurmat, kamtarlik, odillik, halollik, mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik singari odatlarini egallashi mumkinligi ta'kidlanadi.

Bolalarda aqliy va ijobjiy axloqiy sifatlarning shakllanishida o'yinlarning ahamiyati ham katta. O'yin jarayonida bolaning bunday sifatlari rivojlanadi. Bola

3-5 yoshda predmetlar bilan, 5-7 yoshda esa bolalar va kattalar bilan o‘ynashga, rollarni bajarishga intiladi. O‘yin jarayonida u ota, ona rolini bajarishi, qo‘g‘irchoqni kiyintirish, yuvintirish, uxlatishni o‘rganadi, hayvonlar va qushlarga taqlid qilib ovoz chiqaradi, Vrach, o‘qituvchi, shofyor, sotuvchi obrazlariga kiradi. SHuning uchun o‘yin ham etnopedagogika manbasi sifatida katta tarbiyaviy kuchga ega.

Ertaklarni obrazli qilib so‘zlab berish vositasida yaxshi axloqiy sifatlarga havas, yomonlariga nisbatan esa nafrat uyg‘otiladi.

Xalq pedagogikasida jismoniy va mehnat tarbiyasi

O‘tmishda insonning tabiat stixiyalariga qarshi kurashdagi ojizligi noma’lum tuyulgan hodisalarga javob topishga undagan. Bo‘ron, sel, toshqin, zilzila kabi g‘ayri tabiiy ko‘ringan kuchlarga qarshi kurasha oluvchi qahramonlar yaratishga olib kelgan. Shuning uchun “Avesto” da Anaxita xushqomat, zabardast, kamtarin, to‘g‘riso‘z go‘zal qiz sifatida namoyon bo‘ladi. U kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo‘l bo‘lishini ta‘minlovchi ma‘buda. “Avesto” yovo‘zlikka qarshi kurashuvchi pahlavonlar g‘olib bo‘lishida Allohdan madad so‘raydi.

“Odami Od” hikoyasida Odami Od obrazi ham jismoniy barkamollikda tengsiz qahramon sifatida tasvirlanadi. Uning bo‘yi bo‘lutga etadi, kuchli, dengizda baliqni qo‘li bilan tutib, quyosh taftida pishirib eydi. U Nuh payg‘ambarni elkasiga mindirib, toqqa olib chiqibdi. Tog‘da to‘rtta bahaybat chinorni tomiri bilan sug‘urib, ustiga Nuh payg‘ambarni o‘tirg‘izib, dengiz bo‘ylab ravona bo‘libdi. Nonushtaga bir hovo‘z suvga non to‘g‘rab er ekan, chinordan kema yasab, hamma odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, o‘zi kemani tortib ketibdi.

“Avesto” dagi adolatli shoh Jamshid ham shunday qudratli qahramon sifatida tasvirlangan. Etti yuz yil Amudaryoda hukmronlik qilgan er Xubbi, qahramonlik rivoyatlaridagi To‘maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush, Alpomish singari qahramonlar ham o‘z jismoniy barkamolligi tufayli yovo‘zlikka qarshi kurashganlar.

Hozirgi paytda unumdor erlar, tabiiy boyliklar, suv resurslarining kamayishi, alkogolizm, narkomaniyaning kuchayishi singari salbiy omillar insonning jismoniy barkamolligi, sog‘lig‘i, yoshlar salomatligini asrashni taqoza etmoqda. Komil shaxs tarbiyasida jismoniy tarbiya muhim yo‘nalishga aylandi. Xalq hamisha jismoniy tarbiya – salomatlik garovi ekanligini tushungan. Shuning uchun yoshlarga o‘yinlar, milliy kurash turlari, sport musobaqalariga, toza havodan foydalanishga alohida e’tibor bergen. Quyosh nuri va suvdan foydalanib, sog‘liqni saqlash mumkinligini qadimdayoq tushunib etgan. Ba’zan o‘z sog‘lig‘iga e’tiborsiz qaragan yoshlarga qarata aytiluvchi o‘gitlar shular jumlasidandir:

“Ikki narsa yo‘qotilganidan so‘ng qadrlanadi – sog‘liq va yoshlik”, “Tan sihatlik – tuman boylik”, qozoqlar: “Kambag‘alning boyligi - sog‘lig‘i”, - desa, turkmanlar: “Sog‘liq bo‘lsa, erkinlik bo‘ladi” deyishadi. Shuningdek, xalq sog‘liqni saqolash uchun “Boshingni salqin, oyog‘ingni issiq tut” deb pand beradi. Sog‘liqni saqlashda ovqatlanish madaniyatiga amal qilishga chaqiradi: “Qorning og‘risa – og‘zingni, ko‘zing og‘risa – qo‘lingni tiy” va b.

Zararli odatlar oqibati achchiq ekanligi ta’kidlanadi: “Chekuvchining ichi ham, puli ham kuyadi”.

O‘z avlodlarini sog‘lom, baquvvat, botir bo‘lishini orzu qilgan xalq farzandlariga Quvvat, Polvon, Arslon, Botir, Qahramon, Bahodir, Murod, Komil singari ismlar qo‘yishni taomilga kiritgan. Dostonlar va ertaklar qahramonlari qahramonlar darajasida tasvirlangan. Ular vositasida yoshlardan jasoratiga, mardlik va insonparvarlikka undalgan.

Jismoniy tarbiyada “Ko‘pkari”, “Qiz quvdi”, “Olomon poyga”, “Uloq tortish”, “Kurash” singari milliy o‘yinlarning ahamiyati katta bo‘lgan. Ular hozir ham muhim ahamiyatga ega.

Mehnat tarbiyasi ham jismoniy barkamol qiluvchi, ham moddiy to‘kin – sochinlikni ta’minlovchi vosita sifatida talqin etilgan. Mehnatsevar yoshlarni tarbiyalash xalqning bosh maqsadi sifatida qo‘yilgan: “Mehnat – mehnatning tagi rohat”, “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik”.

Mehnatning ijtimoiy ahamiyati va mehnatsevarlikning ulug‘lanishi haqida.

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston sharoitida mehnat tarbiyasi yoshlardan tarbiyasining ajralmas qismi sifatida qaralgan. Uni amalga oshirishda avvalo oila, so‘ngra jamoatchilik mas’ul hisoblangan. Mehnat vositasida madaniyat, san’at, axloqiy sifatlar, ona Erga muhabbat hissi tarbiyalangan. Chorvachilik, dehqonchilik, bog‘dorchilik, pillachilik turkigo‘y xalqlarda qadimdan asosiy mehnat turi hisoblanib, bolalar ularni amaliy hayot jarayonida o‘rganganlar.

Xalq pedagogikasi shuni ta’kidlaydiki, inson faqat mehnati bilan aziz. SHuning uchun “Ko‘mirchi yuzi qora bo‘lsa ham uyalmaydi”, yoki: “Gap bilguncha, ish bil!”, “Bugungi ishni ertaga qo‘yma!” deb o‘git beradi xalq. Xalq hamisha yosh avlod mehnatsevar bo‘lishi bilan birga u hunarli ham bo‘lishini, hunarni quruq o‘rganish emas, balki “qo‘li gul usta” bo‘lishni targ‘ib etadi. SHuningdek: “Ortiqcha kasb boshni aylantirmaydi”, yoki: “Bir yigitga qirq hunar oz” deydi xalq. Ayni paytda o‘z ishining ustasi bo‘lish insonga darhol nasib etmasligi eslatiladi. Buning uchun irodali, sabr-toqatli bo‘lishga chaqiriladi. Mehnatni sifatli qilish (ishning o‘zini bilguncha, ko‘zini bilish) kelajakda pan berishning oldini olishi alohida ta’kidlanadi.

Xalq engil ish ortidan quvuvchilar, ishyoqmaslar ustidan kuladi, yoshlarni ulardan ibrat olmaslikka chaqiradi; ularni “oqbilak”, “tannoz” deb ataydi.

“Dangasaning kosasi oqarmas” ligi, “Ishyoqmasga it boqmas” ligini ta’kidlaydi. SHunday qilib, xalq vijdonan, muntazam, aql bilan ijtimoiy foydali mehnat qilish lozim deb hisoblaydi: “Yomg‘ir bilan er ko‘karar, mehnat bilan el ko‘karar”, “Er yuzini er ochar, er yuzini er ochar”, “Obro‘ osmondan tushmas, mehnatdan kelar”, “Tekinning minnati ko‘p, mehnatning ziynati ko‘p” va boshqalar.

Xalq ertaklarida, afsona va rivoyatlarda, dostonlardagi qahramonlar o‘z mehnatsevarligi, mehnatda toblanganligi, bir necha kasb-hunar sohibi bo‘lganligidan hayot qiyinchiliklarini, og‘ir sinovlarni engib, o‘z maqsadlariga erishadi, keng xalq ommasining baxti, manfaati uchun kurashadilar. Chunonchi, A. Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhodning mehnati o‘z ijtimoiy harakteri bilan, xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” dagi Zumrad mehnatsevarligi va ijobiy axloqiy sifatlari bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi.

Markaziy Osiyoda mehnat tarbiysi berish bilan bolalarni yoshligidan mustaqil hayotga tayyorlashgan. Jumladan, hatto A. Vamberi ham, bizda qiz bolalarga to‘qish, bichish, tikish, sut mahsulotlari tayyorlash, 7-8 yoshdan dehqonchilik, chorvachilik ishlarida qatnashishga o‘rgatilishini ta’kidlagan. Chunki xalq: “Terga botgan rohatga botar”, “Ter to‘ksang, dur terasan”, “Uyqu – g‘adolat, mehnat - rohat”, “Xotin chiroyi erdan, hosil chiroyi erdan”, “Qolgan ishga qor yog‘ar”, “Quldek ishlasang, bekdek yotib eysan”, “Qo‘rada ko‘rsam – qornim to‘q”, “Hunar - birlikda, rizq - tiriklikda”, “Ko‘pning rizqi mo‘l bo‘lur”, “Baraka - ko‘pchilikda”, “Ko‘pdan quyon qochib qutulmas”, “Maslahatsiz bo‘lgan ish, boshga keltirar tashvish” va boshqalar.

Xayoliy mehnat qurollari va mehnat ahlining e’zozlanishi

Ma’lumki, ibridoiy odamlar o‘ziga noma’lum bo‘lib ko‘ringan tabiat kuchlaridan talvasaga tushar ekan, ayni paytda ularni engishga harakat qilgan. Ba’zan buning uddasidan chiqa olmay, g‘ayri tabiiy hodisalarga sig‘ingan, ularni totemistik tasavvurga aylantirgan.

Jonsiz narsalarga jonli deb qarashdan iborat ibridoiy qarashlar animizm nomini, g‘ayritabiyy jonzodlar (qirq boshli ilon, ikki boshli odamsifat shoxli hayvon ...) totemizm nomini olgan. Totemizm ibridoiy jamiyatda paydo bo‘lib, unda odamning hayvon, o‘simlik yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligiga ishonishga undaladi. “YOriltosh” da tosh yorilib, qizni ofatlardan saqlash uchun o‘z bag‘riga olsa, “Qilich botir” da qahramonning joni qilichida deb uqtiriladi. SHuningdek, o‘tmishda turkiy xalqlar ot, xo‘kiz, ilon, bo‘ri, it kabi hayvonlarga e’tiqod qo‘yganlar, og‘ir kunlarda bo‘ri va otlardan najot kutganlar. O‘zbek xalq dostonlarida G‘irot, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko‘k singari otlar obrazlari mavjud. Hatto sohibqiron Amir Temurning “Kuno‘g‘lon” deb atalgan oti ham g‘ayri tabiiy hisoblangan.

Qadimgi etnopedagogika manbalarida hayvonlarda mavjud bo‘lmagan xususiyatlar haqida ham fikr yuritiladi. Jumladan, otning qulog‘ini burash bilan ko‘kka parvoz qilish, suvda so‘zish, dunyoning narigi chetiga, baland tog‘lar osha “uchar gilam” da borish samolyotlarning kashf etilishiga, suv ostida so‘zuvchi qayiqlar – suv osti kemalarining yaratilishiga, “sehrli etikcha” lar ega mashinalarning yaratilishini orzu qilish tufayli vujudga kelgan. “Sehrli oyna” haqidagi afsona va orzu televizor misolida ro‘yobga chiqqan bo‘lsa, sehrli dastgoh sehrli dasturxon haqidagi orzular ish unumi juda yuqori bo‘lgan dastgohlarning ishlab-chiqarish uskunalarining yaratilishiga olib kelgan. Chunki, har bir yangilik dastlab orzularda, hayol (fantaziya) da tug‘iladi. So‘ngra inson uni amalga oshirishga harakat qiladi. Chunki, ijtimoiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida mavjud bo‘lgan ish qurollari, asboblar, mehnat unumini jamiyat talabi darajasida qondirmagach, yangi quollar haqida o‘ylanadi. Hind badiiy filmi “Ramayana” dagi yoy paykonlarining uchishi, boshqarilishi raketalar haqidagi eng ibtidoiy tasavvurga o‘xshaydi.

Etnopedagogikada mehnat ahli g‘oyat ulug‘lanadi. Mehnatning tarbiyaviy ahamiyatiga ham yuqori baho beriladi.

*Donoga ish – shonu shuhrat,
Nodonga ish – g‘amu kulfat.
Hosiling kam bo ‘lsa, havodan ko ‘rma!
Qolgan ishga qor yog ‘ar.
Qarasang, qand ersan,
Qaramasang, pand ersan.
Qo ‘li qimirlaganning og ‘zi qimirlar.
CHo ‘pchak degan – cho ‘p bo ‘lar,
Teraversang, ko ‘p bo ‘lar.
Ertalabki ish – ko ‘ngilni qilar xush.
To ‘qilsa, manglay tering,
Unumli bo ‘lar ering
va shu kabilar.
Mol boqqanning barmog ‘idan moy tomar.
Molga bersang soz emish, boqar seni yozu qish.
Moling zotli bo ‘lsa, emishing totli bo ‘ladi ...*

Hozirgi zamon pedagogikasida mehnat tarbiyasini tadqiq etgan buyuk pedagoglar tadqiqotlarini o‘rganish shunday xulosaga olib keladiki, ular o‘z pedagogik fikrlarini xalq pedagogikasiga tayanib yaratganlar.

Hozirgi paytda yoshlarning mehnat tarbiyasini takomillashtira borish xalq xo‘jaligi ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo‘lib, ayni paytda bu jarayon komil inson shaxsini shakllantirish vositasi hamdir. Chunki, mehnatning mohiyatini,

uning inson hayoti uchun zarur omil ekanligini tushunishgina, mehnatni, mehnat ahlini, moddiy ne'matlarni, tabiatni, madaniy yodgorliklarni asrashga, hurmat qilishga o'rgatadi. Xalq pedagogikasida ta'kidlangan bu boradagi fikrlar mazkur muammoni hal qilishga yordam beradi:

Ko 'p yurganga ergashma, ko 'p bilganga ergash!

Mullaning qilganini qilma, aytganini qil.

Otang ta'zirini emay desang, otang ta'sirini ol!

Oldingdan oqqan suvning qadri yo 'q.

O'z qadrini bilmagan, kishi qadrini bilmas.

Aytuvchi nodon bo 'lsa, tinglovchi dono kerak.

Ustoz otangdan ulug'. Ish ustasidan qo 'rqrar.

Asil aynimas, sariyog 'sasimas.

Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning ..

Xalq pedagogikasi bolalarning qo'llaridan keladigan mehnatda qatnashuvini ularni kompleks tarbiyalashning samarali vositalaridan biri deb hisoblagan. Mehnatning jamoa turlari yosh avlodni tarbiyalashda alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqida jamoa bo'lib bajariladigan ishlarning ko'maklashish, hashar kabi bir kancha shakllari bo'lgan.

O'zbek xalqining mehnat an'analarini ichida hashar muxim rol o'ynaydi.

U xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ajoyib an'analaridan biridir. Hashar yaqin kishilarining, tanish-bilish, oshna-og'ayni, qadindosh-urug', hamkasblarning imorat qurish, to'y va ma'rakalar uyushtirish, qishloq xo'jalik ekinlarini tez yig'ib olishda o'zaro bir-birlariga yordam berishidir.

Bunday ishlar jarayonida yoshlari mehnat qilishgagina o'rganib qolmay, balki jamoaga uyushish, umumiy ishdan manfaatdorlik, o'zaro yordam zaruratini anglash kabi yuksak axloqiy sifatlarni egallaydilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, qadim zamonlardan buyon zarur, mas'uliyatli hamda ko'p kuch va mablag' sarflab bajariladigan ishlarda qo'llanadigan xolisona jamoaviy o'zaro yordamning umuman e'tirof etilgan va ishonchli shakllari bo'lib, xalqning hayotida juda muhim rol o'ynagan. Ular mehnatkashlar hamkorligining yorqin ko'rinishini, xalqning jamoachilik, do'stlik, o'rtoklik, bir-biriga tayanish va o'zaro hamjihatlik haqidagi g'oyalarini ifodalagan va shunga ko'ra katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan.⁴

Qadimda donishmand xalqimiz aqliy va mehnat tarbiyasida chorvachilik, bog'bonchilik, suvchilik sirlari haqida bolalarda tasavvur hosil qilish va ma'lum bilimga ega bo'lishlari umuman, inson qo'li va aqli yaratuvchilik qudratiga

⁴ Кодирова М. Халқ педагогикаси ёш авлодни тарбиялаш манбаидир. // Педагогика таълим, 2007 йил 1-сон, 20-22-бетлар.

egaligini bilishga qiziqish tuyg‘usini o‘sirish maqsadida, o‘zlarini yaratgan maqollardan mohirona foydalanganliklarini ko‘ramiz:

Bog‘bon bo‘lsang, sahar qil,
Dehqon bo‘lsang, shudgor qil.
Dehqon – er sultoni,
Cho‘pon – yaylov sultoni.
Chorva to‘q – tashvish yo‘q.
Molli uy – moyli uy.
Qo‘yni boqsang, qo‘zilar,
Molni boqsang, buzoqlar.
Suv qatrasи – dur qatrosi.
Qor – arning ko‘rpasi.
YOmг‘ir-arning sho‘rvasi.
Barvaqt qilingan harakat,
Hosilga berar barakat.
Vaqt ketdi – baxt ketdi,
Vaqt g‘animat, o‘tsa – nadomat.

Xalq pedagogikasida yigit-qizlarni yoshligidan mehnatsevarlik va kasbhunarga havas hissini tarbiyalashga alohida e’tibor berildi. Turli kasb egasi bo‘lgan ota-onalari, buva va buvilari bilim va tajribalarini bolalariga qunt bilan o‘rgatdilar, ularni ustoz-shogird sifatida dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dor-chilik, ovchilik, temirchilik, misgarlik, durodgorlik, o‘ymakorlik, zargarlik, to‘qimachilik, tikuvchilik, tabiblik va boshqa sohada kasbkor bo‘lib etishishiga ko‘maklashdilar. Bunda “*Mehnatingni halol qilsang, ho‘zurini ko‘rasan*”, “*Mushkullikkardan hayot emas, faqat tadbir va mehnat qutqazadi*”, “*Baxtli bo‘lish-mehnatni sevish va rohatni mehnatda ko‘rishdir*”, “*Mehnating - ziynating*”, “*Ota kasbi – davlat kasbi*”, “*Ustoz ko‘rmagan shogird, har maqomga yo‘rg‘alar*”, “*Avval o‘rgan, keyin o‘rgat*”, “*Aql qo‘lga etka-zar, hunar-ko‘kka*”, “*Ustozsiz shogird-jonsiz kesak*” kabi xalq maqollari yoshlar uchun asosiy tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qildi.

“Vafodorlik” ertagida shunday deyiladi: “CHol asta-sekin Gulshodni tabiblikka o‘rgatibdi, giyohlardan har xil dorilar tayyorlashni va bemorlarning kasalini aniqlash yo‘llarini o‘rgatibdi. Bir yildan so‘ng, Gulshod choldan ko‘p narsani o‘rganib olibdi...

Asta-sekin butun yurtga Gulshodning tabiblik hunari ma’lum bo‘libdi, har tomonidan uning oldiga bemorlar kelibdi...”⁵

“Oygul bilan Baxtiyor” ertagida: “Qadim zamonda bir podshoh bo‘lgan ekan, uning bir qizi bor ekan. U qiz juda aqlli, dono ekan. Soz chertar ekan, qo‘shiq aytar

⁵ Хоразм эртаклари. –Т.: Ўз давнашир, 1961, 29-бет.

ekan, gilam to‘qir ekan, surat solar ekan. Qisqasi, qirq hunari bor ekan...”⁶ - deyilgan.

“Makkar usta bilan ayyor kal” ertagida keltirilishicha, charx yigirib kun ko‘ruvchi qashshoq kampirning o‘g‘li onasini qo‘yarda-qo‘ymay podshohning qizigasovchi qilib yuboribdi. Podshoh yigitning onasiga: “Bolangga ayt, qiriq turli hunar o‘rgansin, o‘rgangan hunarining hammasi boshqa-boshqa bo‘lsin, bir-biriga o‘xshamasin debdi”.⁷ Yigit qirqta hunarni qunt bilan o‘rganib, podshohning qiziga uylanibdi.

SHorasul Zunnunning mashhur “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur” kitobida kasb-hunarning sharofati xususida shunday hikoya (hikoyat) keltiriladi. “Qadimgi arab hukmdorlaridan xalifa Xorun ar-Rashidga tobe bir shahar boshlig‘i shunday hikoya qiladi:

- Otam har vaqt meni hunar o‘rgatishga da’vat qilib: “o‘g‘lim yoshlivingni g‘animat bilib, hunar o‘rgan, mansab va davlatingga ishonma, bir kun bo‘larning hammasi qo‘ldan ketishi mumkin, ammo hunar doimo sen bilan birga bo‘ladi, seni hech bir muhtojlikka tushirmaydi”, - deb nasihat qilardi.

Men otamning nasihatini jonu dilim bilan qabo‘l qilib, hunar o‘rganishga bel bog‘ladim. Hunarlar orasida gilam to‘qish hunari menga juda ham ma’qul bo‘lib tushdi. Gilam to‘qiydigan eng mohir ustaga shogird bo‘lib, shu hunarni o‘rganishga g‘ayrat bilan kirishdim. Nihoyat, gilam to‘qishda mohir usta bo‘lib etishdim.

Xalifa Xorun ar-Rashid otam vafot etgandan keyin uning o‘rniga meni shahar boshlig‘i etib tayin qildi. Oradan bir necha vaqt o‘tgandan keyin xalifa Xorun ar-Rashidni ziyyarat qilish maqsadida ikki yo‘ldoshim bilan paytaxt – Bag‘dodga jo‘nadik. Bir necha kun safar ranjini tortib, Bog‘dod shahriga dahil bo‘ldik. Qornimiz och edi. Juda ziynatlangan va ozoda bir oshxonaga kirdik. Oshxona egasi bizni ko‘rgan zamoi darhol yonimizga kelib, hol-ahvol so‘rashib aytди:

- Sizlar boshqa shahardan kelgan obro‘li kishilarga o‘xshaysizlar, bozorda ovqatlanish sizlar uchun aybdor. Oshxonaga yaqin bir ozoda joyim bor, o‘sha erda ovqatlaning.

Biz uning taklifini qabo‘l qildik. U bir xizmatchisiga bizni o‘sha joyga olib borishni buyurdi. Xizmatchi bizni juda bezatilgan bir uyga olib bordi va uyning eshigini olib:

- Shu uyda dam olib turing, men hozir borib ovqat keltiraman,-dedi.

Biz uyga kirgan edik, xizmatchi eshikni berkitib jo‘nab ketdi. Oradan ozgina fursat ham o‘tmagan edi, biz turgan er ikkiga ajralib, hammamiz pastga, bir erto‘ladagi uyga tushib ketdik. YUqoridagi uyning ikkiga ajralgan eri yana

⁶ Хоразм эртаклари. –Т.: Ўз давнашир, 1961, 38-бет

⁷ Хоразм эртаклари. –Т.: Ўз давнашир, 1961, 121-бет

avvalgidek bir-biriga jipslashdi. Biz hayron bo‘lib qo‘rqib turgan edik, oshxona egasining bir necha xizmatchilari qo‘llariga pichoq ushlaganlari holda yonimizga keldilar, ularni ko‘rgach, hammamiz jonimizdan umid o‘zdk. Oshxona egasi musofirlarni shunday hiyla bilan o‘ldirib, ularning go‘shtlarini ovqatga solib, pishirib, sotar ekan. SHu topda mening miyamga bir fikr kelib, ularga:

- Biz yaxshi gilam to‘qishni bilamiz, bizni o‘ldirishdan nima foyda ko‘rasiz? Borib, boshlig‘ingizga ayting, bizga gilam to‘qish uchun kerakli narsalarni yuborsin,tayyor bo‘lgan gilamlarni sotib juda katta foyda ko‘radi, - degan edim, ularga taklifim ma’qul bo‘lib, chiqib ketdilar.

Taklifim oshxona egasiga ma’qul bo‘libdi. Ertasiga bizni boshlab kelgan xizmatchi gilam to‘qishga kerak bo‘lgan asbob va boshqa narsalarni keltirib berdi. Biz gilam to‘qishga kirishdik. Tayyor bo‘lgan gilamni xizmatchi kelib olib ketardi. Bir necha vaqt shu xilda umr kechirdik. Bir kun juda ham chiriyli, guldor gilam to‘qidim, uning bir chetiga otim yozilgan muhrimni bosdim. Oshxona egasini chaqirtirib:

- Ko‘rdingmi, bu gilam qanday chiroyli to‘qilgan, podshohlarga maxsus bir gilam, buni bozorga sotmasdan, xalifa Xorun ar-Rashidga olib boring, u sizga ko‘p in’om qiladi, -dedim.

Oshxona egasiga bu so‘zim ma’qul bo‘lib, ertasiga gilamni Xorun ar-Rashidga olib borgan. Xorun gilamning chiroyligiga zavqlanib, uning u yoq bu yog‘ini ko‘rar ekan, ko‘zi gilamning bir chetilgan bosilgan muhrimga tushib qolgan, bundan shubhalanib, oshxona egasidan bu gilamni qaerdan olganini so‘ratgan ekan, u bir savdogardan sotib olganini aytgan. Xorun ar-Rashid muhrimni ko‘rsatib, uni qamoqqa olgan, bir necha vaqt qiynagandan keyin oshxona egasi aybiga iqror bo‘lgan.

O‘sha kuni Xorun ar-Rashidning yuborgan odamlari kelib bizni ozod etib, xalifaning ho‘zuriga keltirdilar. Oshxona xizmatchilarini qamadilar Xorun ar-Rashid bizga ko‘p iltifotlar qildi. Oshxona egasi va uning xizmatchilarini dorga ostirdi. Xalifa Xorun ar-Rashid yonida bir necha kun turib, keyin o‘z shahrimizga qaytdik. SHunday qilib, hunarimning sharofatidan men ham, ikki yo‘ldoshim ham o‘limdan qutuldik”.⁸

Ushbu hikoyatda har bir inson uchun kasb-hunar o‘rganish zarurligi g‘oyasi va yigit to‘qigan gilamda uning aql-idroki, zakovati, kasbga bo‘lgan muhabatti o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek xalq pedagogikasida bolalarni mehnat tarbiyasida o‘z-o‘ziga xizmat qildirish, ishontirish, qiziqtirish, nasihat qilish, maslahat berish, amalda ko‘rsatish va rag‘batlantirish usullaridan samarali foydalanish yaxshi natija bergan. Bu

⁸ Ш.Зуннун. Оз-оз ўрганиб доно бўлур. Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, -Т.: 1988, 191-193-бетлар.

usullar, namunali ishlar qilgan yigit-qizlarga nisbatan qo‘llangan: “*Barakalla*”, “*Juda soz*”, “*Rahmat*”, “*Umringdan baraka top*”, “*Baxtli bo‘lgan*” so‘zlari bilan yigit-qizlarning ko‘ngli ko‘tarilgan, kulib-erkalab boshi silangan va h.k.

Shuningdek, mehnat tarbiyasida ijtimoiy foydali mehnat qilishni istamagan, topshiriqni bajarmagan, dangasa-ishyoqmaslarga nisbatan esa jazolash usuli qo‘llangan.

O‘zbek xalq pedagogikasida iqtisodiy tafakkur bilan tijorat faoliyati o‘zviy birlikni tashqil etshgan. Xalq iqtisodiy tarbiyaning zarurligi va mohiyatini bilgan holda, bolalarni yoshligidan tijorat (savdo-sotiq) ishlariga jalb etadi. Bolalar otabobolarining yonlarida bo‘lib, hisob-kitobni, tarozida narsalarning og‘irligini aniqlashni, haridorlar bilan qay tarzda muloqotda, muamalada bo‘lishni o‘rganadilar, shu zaylda ular o‘zlari ham mustaqil suratda tijorat (savdo-sotiq) ishlarini bilib oladilar. Natijada bolalarning yoshligidan savdo-sotiq ishiga jalb ettirilishi ularning iqtisodiy tarbiyasiga yordam beradi: bolalar mollarning sifatini aniqlash, bir molning boshqa moldan farqini ajratish malakasini egallaydilar.


Nazorat savollari:

- ✓ Xalq tajribalarida qo‘llanilgan tarbiya metodlari qaysilar?
- ✓ Tarixiy tajribalardan pedagogik jarayonda qanday maqsadlarda foydalaniadi?
- ✓ Tushuntirish metodi kanday metod?
- ✓ Na’muna, ibrat ko‘rsatish metodlari haqida gapirib bering.
- ✓ Rag‘bat metodidan tarbiya jarayonida foydalanish yo‘llarini tushuntiring.
- ✓ Jazolash metodidan qanday maqsadda foydalaniadi?
- ✓ 7. Etnopedagogika manbalarida yoshlар o‘z-o‘zini tarbiyalash va qayta tarbiyalashining qanday usullari mavjud?
- ✓ 8.Tarbiya tajribalarida jismoniy barkamollikning ijtimoiy ahamiyati qanday ifodalangan?

O‘quv topshiriqlari:

I. Quyidagi ish qog‘ozi yordamida “Venn diagrammasi” metodi bo‘yicha ta’limning og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy metodlarini sintezlang.

Ish qog‘ozi



II. Quyidagi ish qog‘ozi yordamida “Venn diagrammasi” metodi bo‘yicha ta’limning og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy metodlarini sintezlang.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- M.Ochilov «O’qituvchi odobi», Toshkent. O’qituvchi 1975-yil
- Mirtursunov «Xalq pedagogikasi» Toshkent 1968-yil
- 4,A.K.Munavvarov «Oila pedagogikasi» Toshkent 1994-yil
- 5.O’Asqarova,M.Xayitboev,” Ta’lim tarixi”T;Talqin 2014 y

5-MODUL XALQ PEDAGOGIKASI VA O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI

Reja:

1. Etnopedagogik manbalar tizmi
2. O'zbek xalqining yozma va og'zaki ijodi.
3. Ta'lif -tarbiya jarayyonida ertaklar , afsona, rivoyat, xikmatlar va maqollardan foydalanish.
4. Allalarning ahamiyati

Tayanch so'zlar: *etnopedagogika, geneseologik, tarixiy, mantiqiy tuzilishi, og'zakichilik, vorisiylik, ijod namunalari, oilaviy-maishiy marosimlar, nafosat xususiyatlari, og'zaki ijod, xalq maqollari, dostonlar, ertak, tarbiya vositalari, tarbiyaviy imkoniyat, tarbiya maqsadi, tarbiyaviy faoliyat, afsona, rivoyat, naql, matal, ertak, latifa, mif, mitra. beshik qo'shiqlari, alla vazifalari, alla ijrochiligi, navogo 'lik darajasi, allashunoslik, monoton ohang, ruhan ma'yuslashuv.*

Etnopedagogika manbalari o'z to'zilishi, qo'llanish o'rni, vazifasiga ko'ra muayyan tizimlar (guruhrar) ni tashqil etadi. Bunday guruhlarni ko'rsatish uchun ma'lum atamalardan foydalaniladi. Etnopedagogika manbalari turlari ijtimoiy taraqqiyot davomida sekinlik bilan o'zgarib boradi: ularning ba'zilari so'nishi yoki boshqasi bilan almashishi mumkin.

MDX mamlakatlarida xalq pedagogikasi muammolari Rusiyalik G.S. Vinogradov, gro'ziyalik A.F. Xintibidze, chuvashistonlik G.N. Volkov, tataristonlik YA.I. Xanbikov, ozarbayjonlik A.SH. Hoshimov, tojikistonlik SH.A. Mirzaev, turkmanistonlik K.Pirliev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'zbekistonda xalq pedagogikasining ba'zi muammolari Z.Mirtursunov, B.Qodirov, I.Ashirboev, G.Ubaydullaev, M.S.Herboev va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

"Etnopedagogika" atamasini ilk bor chuvashistonlik G.N.Volkov pedagogik adabiyotlarga kiritdi va uni alohida fan sifatida ta'riflab berdi.⁹

Etnopedagogika manbalari turlarining vujudga kelishini ijtimoiy hayot taqoza qiladi. Chunki voqelikning o'zi voqealarga, obrazlarga boy bo'lib, xalq ijodiyoti oldiga uni g'oyaviy-tarbiyaviy va estetik mohiyatini idrok etgan holda biror shaklda ifodalashni zaruratga aylantiradi. Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi afsona va dostonlarni, tabiat kuchlari oldidagi ojizligi esa so'z magiyasi (afsun) ga sig'inishni paydo qildi. Demak, voqelikning muayyan harakteri xalq ogzaki ijodida o'ziga xos ifoda shaklini vujudga keltirishga xizmat qildi.

⁹ Волков Г.Н. ва бошқалар. Этнopedагогика. Тошкент, "ФАН", 2000

Xalq pedagogik tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi ham u yoki bu turning yuzaga kelishiga olib keldi. Agar taraqqiyotning ilk bosqichida oddiy shakllar yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik murakkab shakllar paydo bo‘ldi.

SHunday qilib, o‘zbek xalq pedagogikasining janrlar turi xilma-xil bo‘lsada, u boshqa xalqlar pedagogikasi tizimlaridan farq qiladi. Jumladan, barcha xalqlar pedagogik manbalari tizimida ertak, maqol, topishmoq, qo‘sish turlari bo‘lsada, ruslarda doston, o‘beklarda blina yo‘q, yoki o‘zbek va tojiklarda ramozon, hayitlik aytimlari, ukrain va beloruslarda kolyadkalar, ruslarda ratseyka va chastushkalar tizimlari mavjud. Bir necha xalqlardagi etnopedagogika manbalarining bir xil tizimi ham o‘z xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Markaziy Osiyoda antik davrdayoq badiiy-pedagogik ijod namunalari vujudga kelgan. Farg‘onaning Saymalitosh, Samarqandning Afrosiyob, Surxondaryoning Zarautsoy, Qoraqalpog‘istonning Qo‘yqirilganqal’asida topilgan yodgorliklar va yozuvlarda xalqning ilk pedagogik fikrlari aks ettirilgan. Ularda hozirgi zamon pedagogikasi ilmining shakllanishiga zamin yaratilgan.

Buyuk ajdodlarimiz, pedagog-olimlarimiz o‘z asarlarida xalq badiiy ijodi namunalariga tayanib ish ko‘rganlar. Donishmand xalq olg‘a surgan tarbiyaning xalqchilligi va tabiatga uyg‘unligiga doir g‘oyalarni ijodiy rivojlantirganlar. Xalq tafakkuri rivoji uchar gilamlar va otlar, oynai jahonlar yaratishni orzu qilishda ifodalangan bo‘lsa, hozirgi zamonda ular haqiqatga aylandi. SHu jarayonda xalqning tarbiya haqidagi tushunchalari ham o‘sib bordi.

Etnopedagogika geneseologik, tarixiy, mantiqiy tuzilishi nuqtai-nazaridan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilarda ko‘zga tashlanadi:

Etnopedagogika manbalari jamoaviy ijod mahsuli bo‘lib, ularning vujudga kelgan vaqt ham, muallifi ham noma’lum.

Og‘zakichilik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidir; U hali yozuv vujudga kelmasidanoq ajdodlarimiz turmushi, dunyoqarashi, pedagogik qarashlarining ifodasi sifatida vujudga kelgan.

Vorisiylik-etnopedagogika manbalari bo‘lmish folklor asarlariga xos xususiyat bo‘lib, ular zamirida pedagogik fikrlar xalqning xotira manbaidan og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Ko‘pvariantlilik-ma’lum bir etnopedagogik asarning yonma-yon yashay oladigan, bir-birini mantiqan inkor qilmaydigan, ammo o‘zaro farqlanuvchi nusxalarida o‘z ifodasini topadigan xususiyatdir. Masalan, “Alpomish” dostonining xalq orasida 30 dan ortiq variantlari yashab kelmoqda:

An’anaviylik-etnopedagogika manbalarining avloddan-avlodga o‘tish jarayonida o‘zining dastlabki shakli va qahramonlarini saqlab qolganligida ko‘zga tashlanadi.

Xalq pedagogikasi manbalari va ulardag'i pedagogik fikrlar xilma-xilligi, rang-barangligi ham kishi diqqatini o'ziga tortadi. Avvalo, xalq pedagogik madaniyatining tarkibiy qismi sifatida etnopedagogika manbalarida pedagogika nazariyasi muammolari emas, balki pedagogik amaliyotiga doir fikrlar ko'proq o'z aksini topgan. SHuningdek, etnopedagogika manbalarida shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, xalq muhim deb hisoblagan tarbiya yo'naliishlari haqidagi tasavvurlar, yoshlar tarbiyasida foydalanish mumkin bo'lган ilg'or tarbiya an'analaridan foydalanish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Xalq pedagogiksida faqatgina tarbiya jarayoni emas, balki ta'lim jarayoniga dahldor fikrlar ham olg'a surilgan. Shunday bo'lishi tabiiy ham. Chunki, yosh avlodga hamisha xalqning o'zi tarbiya bilan birga ta'lim ham berib kelgan, ularga kasb-kor, amaliy san'at malakalari, sport o'yinlarini o'rgatib kelgan. Demak, etnopedagogikada ta'lim va tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning komponentlari sifatida qaraladi.

Xalq pedagogikasi fani o'z faoliyati jarayonida ma'lum qoida va qonuniyatliga tayanib ish kuradi. Mazkur qoida va qonuniyatlar, g'oyalar fanning harakat va faoliyat traektoriyasi (chizig'i) ni belgilab beruvchi metodologik asoslari hisoblanadi. Ular erdamida u jamiyat talablariga ko'ra o'z oldiga quyilgan maqsad va vazifalarni hal qilishga erishadi.

Xalq pedagogikasi fanining metodologik asosini birinchi Prezidentimiz asarlarida olg'a surilgan milliy, madaniy merosni asrab-avaylash, ularni o'rganish, yanada boyitib keljak avlodlarga meros qoldirish haqidagi fikrlar; falsafaning jamiyat, shaxs, ong va ularni tarbiya vositasida o'zgartirish mumkinligi haqidagi qonuniyatlar; buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlari; komil insoni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishga dior diniy ta'limotlar tashqil etadi.

Xalq pedagogikasi manbalari tizimi (afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar, aytishuvlar, tortishuvlar, allalar, yallalar, topishmoqlar, maqollar, matallar, o'lanlar, madhiyalar, marsiyalar, marosim, aytimlari, xalq o'yinlari va b...)ni ko'zdan kechiranimizda yuqorida fikrlarning to'g'riliги ayon bo'ladi. Chunonchi, barcha manbalarida, agar ular muslimon dini tarqalgan hududlarda yaratilgan bo'lsa, etnopedagogik asarlar qahramonlari diniy tushunchalarga ishonadi, shariat qonunlaridan chetga chiqmaydi, milliy tarbiya sifatlariga ega bo'ladi.

Xalq pedagogikasining barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu-umidlarini faqat ilm-ma'rifatni eagallash, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do'stlik va hamkorlik, go'zal ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallash yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g'oya olg'a suriladi. Shuning uchun bugungi milliy istiqlol davrida xalq pedagogikasi durdonalarini o'rganish g'oyat muhimdir.

Chunki: “Kelajakda O‘zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma’naviy etuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim,”- deganida birinchi Prezidentimiz haq edi¹⁰.

Buyuk mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlari mazmuniga xalq pedagogikasi g‘oyalari singib ketgan. Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Beruniyning “Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Ibn Sinoning “Tadbiri manozil”, “Donishnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, va boshqa asarlarida xalq pedagogikasi elementlaridan unumli foydalilanigan.

Xalq pedagogikasida dunyoning moddiyligi, ijtimoiy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi, sabab va oqibatlari, shakl va mazmun birligi, qarama-qarshi kuchlar kurashiga doir falsafiy qonuniyatlarga amal qilinganligi yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Masalan, “Har bir qiyinchilikning rohati ham bor”, “Oldinga ketgan halinchak orqaga ham qaytadi”, “Quvonch kelmasdan qayg‘u ketmas”... kabi ifodalar shular jumlasidandir.

Xalq bola fe’li va ruhiyatini go‘dakligidan ko‘zatish oqibatida uning axloqiy sifatlarini bilib olgan. SHuning uchun tarbiyani ona qornidayoq boshlash lozimligini tavsiya etgan. Chunonchi, “Bola boshidan, meva ko‘chatidan bilinadi”, “Bolani beshikdan tarbiyalash kerak”, “Uch yoslining amali sakson yoshda ham saqlanadi” kabi maqollar va hikmatli so‘zlar fikrimizning dalilidir.

Milliy istiqlol tufayli xalqimizning o‘z milliy, madaniy, tarixiy merosini o‘rganish imkoniyatlari qayta tiklandi. Milliylik, o‘zlikni anglash yo‘lidan borib, milliy istiqlol mafkurasi xalq ommasi ongiga singdirilmoqda. Ota-bobolarimiz e’tiqod qilgan islom dinining tarbiyaviy ahamiyati yanada kuchaydi.

Qadimgi Turon mulkida yaratilgan adabiyot, san’at, moddiy va ma’naviy boyliklar barcha turkiy xalqlar boyligiga aylandi. Ularda xalqimizning milliy qadriyatlari o‘z ifodasini topgan. Ijtimoiy taraqiyotning hozirgi bosqichida komil insonni tarbiyalashda ular muhim ahamiyat kasb etadi.

Xatto, komil inson haqidagi mukammal ta’limot ko‘xna SHarq falsafasida yaratilgan. Bu haqdagi fikrlar etnopedagogika manbalarida o‘z aksini topgan. Ularni qayta tiklash, o‘rganish, ijobiy jihatlarini pedagogik amaliyotga joriy etish milliy istiqlol davridagina mumkin bo‘lib qoldi. Modomiki: “Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma’rifat...” ekan, xalq pedagogikasi xuddi shu ma’rifatni targ‘ib etuvchi tarbiya vositasidir. Shuning uchun Respublikamizda milliy istiqlol davrida komil insonni tarbiyalash kelajagi buyuk davlatni barpo etishning asosiy sharti sifatida talqin

¹⁰ Каримов И.А. Илм-фан имкониятларидан тўларок фойдаланайлик. “Ўқитувчилар газетаси”. 1989 йил, 2 декабр.

qilinmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda etnopedagogika yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Goh g‘amgin, goh quvonchli kechgan o‘tmishni, ajdodlarimiz buyukligi sababini bilmasdan milliy g‘urur va iftixorni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Vujudimiz va qadriyatlarimizda neki bo‘lsa, barchasi o‘tmishdoshlarimiz va buyuk ajdodlarimiz rihiyatida jamlanganligini har bir o‘qituvchi va o‘quvchi chuqur bilmog‘i va his etmog‘i darkor. Bu kabi mas’uliyatli vazifani amalga oshirishda bizga “Xalq pedagogikasi” fani yaqindan yordam bera oladi. Shuning uchun mazkur fanni o‘rganish, uning manbalari haqida kengroq ma’lumotga ega bo‘lish bo‘lajak pedagog-qadrlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy pedagog-qadrlarni tayyorlashni ushbu omillarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Jamiyatning ma’naviy etukligi, ijtimoiy ong teranligi, inson kamolotini ta’minalashda etnopedagogika asarlarning ahamiyati beqiyosdir. SHuning uchun o‘zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo‘lini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Etnopedagogik asarlar janrlari o‘z ijodkorlari faoliyati bilan ham bog‘liq. Agar topishmoq va maqol singari turlar ommaviy xususiyatga ega bo‘lsa, doston, og‘zaki drama, ertak, askiya kabilar maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Ammo, mazkur turlarga xos quyidagi tamoyillarni ta’kidlab o‘tish lozim:

1. Etnopedagogika manbalari pedagogik xususiyatlarining mushtarakligi;
2. Manbalar janrlariaro o‘zaro ta’sir, bir-biriga muvofiqlik va bir-birini boyitish xususiyatlari;
3. Har bir turning vujudga kelishida ikkinchi turning manba sifatida xizmat qilishi – genetik aloqa;
4. Bir turdag'i asarning boshqa bir tur tarkibida uchrashi;
5. Bir turdag'i asarning yana bir necha boshqa turlar tarkibida uchrashi va boshqalar.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo xalqlari pedagogikasida manbalar tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- | | |
|------------------------------|----------------------|
| 1. Maqollar, | 8. Latifalar, |
| 2. Topishmoqlar, | 9. Loflar, |
| 3. Olqish va qarg‘ishlar, | 10. Dostonlar, |
| 4. Marosim aytimlari, | 11. Og‘zaki drama, |
| 5. Qo‘sishqlar, | 12. Askiya, |
| 6. Afsona, rivoyat, naqllar, | 13. Matallar va x.k. |
| 7. Ertaklar, | |

Qadim zamonlaridayoq tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar mualliflari turli maqsadlarda folklar asarlariga murojaat etib, ularni yozib olganlar. Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning (XI asr) “Devoni lug‘otit turk” asari shular jumlasidandir. Mazkur manbalarda pedagogik g‘oyalar targ‘ib etilgan. Jamiatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida etnopedagogika asarlari takomil topib, bizgacha etib keldi. Mehnat jarayonida va ongning rivojlanishi tufayli ilk etnopedagogika asarlari namunalari badiiy jihatdan mukammallahib borgan. Dastlab, kichik hajmli naql va miflar, mehnatni engillashtiruvchi, rujni tetiklashtiruvchi ertak va afsonalar yaratilgan, qo‘shiqlar paydo bo‘lgan.

Demak, o‘zbek xalq pedagogikasi manbalari yozuv yuzaga kelishidan ancha oldin paydo bo‘lib, yozma adabiyotning vujudga kelishiga asos bo‘lgan. Qadimi etnopedagogik manbalar bizgacha asl holida etib kelmagan. Chunki ular ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida o‘zgarib, sayqal topib borgan. Eng qadimgi etnopedagogik manbalar miflar, jangnomalar, rivoyat, ertak, naqlar, qo‘shiqlardan iborat bo‘lgan.

Xalq pedagogikasi fani xalq og‘zaki ijodi namunalarida olg‘a surilgan pedagogik g‘oyalar vositasida komil insonni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirish muammolari xususida bahs yurituvchi fandir. “Xalq pedagogikasi” va “etnopedagogika” atamalari bir xil ma’nodagi sinonim so‘zlardir. Shuning uchun “Etnopedagogika” atamasi o‘rnida ba’zan “Xalq pedagogikasi” ifodasi ham ishlataladi.

Xalq pedagogikasi ilmi har bir xalqning hayotiy faoliyati, ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida asrlar osha to‘planib, avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan. U xalq ommasining tarixiy va ijtimoiy tajribalari maxsuli bo‘lib, hayot sinovlarida o‘zini oqlagan empirik bilimlar majmuidir.

Birinchi Prezident I.A. Karimov: “Ma’rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir”¹¹, -degan edi. Ana shu fazilatning erkin ifodasini etnopedagogika manbalarida ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, etnopedagogikaga doir biror-bir manba yo‘qliki, unda ilm, ma’rifat, ezbilik, aqliy va jismoniy komillik, ma’naviy-axloqiy go‘zallik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do‘stlik va boshqa sifatlar targ‘ib etilmagan bo‘lsa. Afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo‘shiqlar singari manbalarda yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy sifatlar xalqning o‘zi yaratgan qahramonlar timsolida targ‘ib etiladi.

O‘rtta Osiyoda feodalizm davri (XI-XX asr boshigacha) g‘oyat ziddiyatli taraqqiyot bosqichi bo‘lib, bu davr xususiyatlari etnopedagogika manbalariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ammo bu davrga xos ma’lumotlar bizgacha to‘la etib kelmagan. Mavjud taraqiqotlarda ko‘rsatilishicha, eng qadimgi davrlarda miflar, rivoyatlar, aytimlar, mehnat va marosim qo‘shiqlarida pedagogik fikrlar targ‘ib

¹¹ Баркамол авлод орзуси. Тузувчи - Ш. Қурбонов ва б.. Тошкент, “Шарқ”, 1999. 86-б.

etilgan. Ayniqsa, dostonchilik vujudga kelgach, kishilar ularda madh etiluvchi qahramonlarning tarbiyaviy sifatlaridan ruhiy madad, zavq olganlar. YOshlar halollik, ma’naviy va jismoniy etuklik timsolini his etganlar. Etnopedagogika manbalarining ilk yozma nusxasi O‘rta Osiyoda XII asrda (“Abu Muslim” kitobi) yozilgan. XIV asrda Amir Temur o‘z g‘olibona yurishlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan.

Xalqimiz o‘z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og‘zaki ijodiy meros yaratgan. O‘zbek folklorining barcha janrlari ya’ni miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, tarixiy qo‘shiqlar, termalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, marosim folklori va bolalar folklorining barcha janrlari, xilma-xil qo‘shiqlar, og‘zaki drama, askiya va boshqalar katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadirlar. Xalq folklorida ta’lim va tarbiyaga oid ilg‘or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama etuk, yuqori axloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya’ni aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo‘lgan va tarbiya ishida qo‘llash mumkin bo‘lgan pedagogik ma'lumotlar o‘zbek folklorining sanab o‘tilgan barcha janrlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, xalq og‘zaki ijodining boshqa namunalardagi singari, xalq maqollarti va ertaklarida halollik, to‘g‘rilik, yaxshilik, botirlik, sahiylik, go‘zallik, kamtarlik kabi axloqiy sifatlar yuksak baholanadi. Va aksincha, tekinxo‘rlik, egrilik, yomonlik, qo‘rroqlik, baxillik, xunuklik, manmanlik singari salbiy xususiyatlar qoralanadi. Misol tariqasida bilimdonlik va ilmsizlikka oid ushbu maqollarni keltiramiz: «Bilgan o‘qir, bilmagan to‘qir», «Bildirish uchun bilish kerak», «Bilimsiz kishiga ish yo‘q, ilmsiz kishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Xalq og‘zaki janrlarida mehnatning tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi qayd etiladi. Mehnat bola tarbiyasida asosiy vosita dsb qaraladi. Masalan, xalq qo‘shiqlarida mehnatsevarlik ulug‘lanadi, sifatli, ijodiy, ixlos bilan va samarali qilingan mehnatga yuksak baho beriladi. Misol tariqasida o‘zbek qizlarining mehnat tarbiyasida keng foydalanilgan kashta qo‘shiqlarini keltirish mumkin:

Bosma tiqar botirib,
Issiq suvgaga qotirib,
Shuning uchun botir qiz,
El ko‘rganda shoshirib,
Jimalayni tepib tikar,
Ko‘z nurina selday to‘kar.
Guli tekis bo‘lib chiqmasa,
Ko‘rgan kishi boplاب so‘kar

Xalq pedagogikasiga ko‘ra yosh avlodda mehnatsevarlikni shakllantirish insonning aqliy etukligi, jismoniy salomatligi va kamoloti, axloqiy pokligi va

undagi nafosat xususiyatlarini vujuga kelishi bilan bog‘liqdir. Xalq bolaning aqliy jihatdan rivojlanishiga alohida e’tibor bergan. O’tmishda o‘zbek xalqi hayot tarzining ifodasi sifatida tematik jihatdan g‘oyat boy va rang-barang bo‘lgan topishmoqlar yaratilgan bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining bu namunasi bolaning aqliy tarbiyasida keng qo‘llanilgan. Topishmoqlar xalqimiz ijtimoiy-maishiy turmushining, yashaab turgan hudud tabiatining, jo‘g‘rofiyasiniig va umuman bizni o‘rab turgan olamning barcha sohalarini qampab olgan. Demak, topishmoqlarning nafaqat tarbiyaviy, balki didaktik imkoniyatlari ham katta. Ulardan milliy mактабда та’лим мазмунини миллийларishda foydalanish mumkin. Masalan, canoq sonlar ishtirok etadigan o‘zbek topishmoqlari matematik talimni milliylashtirishda juda qo‘l keladi. Bunday topishmoqlarda narsa yoki hodisalar sanoq sonlar yordamida jumboqlanadilar. Ya’ni ular orasidagi o‘xshaishlik hisobga olinadi. Shunday ekan, jumboqni echishda o‘quvchilar tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, narsa va hodisalarni o‘zaro bog‘lagan holda tekshirib, so‘ngra xulosa chiqarish (sintez qilish) kabi mantiqiy operasiyalarni bajaradilar. Topishmoqlar vositisida beriladigan matematik bilimlar hayot bilan bog‘liq, amaliy yo‘naltirilgan bo‘ladi. Misol uchun ushbu topishmoqni keltiramiz:

Bir daraxtda o‘n ikki shoxa,
Hap shoxada o‘ttiz yaproq.
Yaproqning bir yoni qora, bir yoni oq.
Javobi: bir yil, o‘n ikki oy va o‘ttiz kecha kundo‘z.

Xalq og‘zaki ijodida jismoniy tarbiya g‘oyalari ham keng o‘rin olgan. Xalq azaldan yoshlarning sog‘lom, epchil va baquvvat bo‘lib o‘sishiga doimo e’tibor berib kelgan. Xalqda jismoniy barkamollik, vatan himoyasi va mardlik tushunchalari bilan chambarchas bog‘lanib kelgan. Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi Farhod obrazi so‘zimizga dalil bo‘la oladi. Ushbu obraz orqali jismonan kamolotga erishgan, mard va pahlavon inson shunday tasvirlanadli:

Ajabdur uch yoshida ko‘zga atfol,
Nechukkim o‘n yoshida o‘zga atfol,
Qolib bu ishda el hayroni oning,
Sehru mehr sargardonni oning.

Ya’ni, Farhod juda aqli, zehnli bola bo‘lib o‘sadi, zo‘r havas bilan ilm egallaydi, ammo o‘qib ilm olish bilangina cheklanib qolmaydi. U jismoniy va harbiy mashg‘ulotlar bilan ham shug‘ullanib, chiniqa boshlaydi. 10 yoshida unda 20 yashar yigitning kuch-quvvati bo‘ladi. U o‘zining aqli va jimoniiy mahorati bilan kishilarni hayratda qoldiradi. Farhod o‘z ilmi, kuch-quvvati va hunarini ommaning manfaati uchun sarflaydi.

O‘zbek qahramonlik dostonlaridagi obrazlar xalq pedagogikasida bolaning

jismoniy va vatanparvarlik tarbiyasida qo‘llanilib kelingan. Jumladan, Alpomish, Rustamxon obrazlarida jismoniy kamolotga erishgan, vatan himoyasiga tayyor, uning uchun jang qilishga shay kishilar gavdalantirilgan. Qahramonlik eposlaridagi ajoyib - g‘aroyiblik, qiziqarlilik yoshlarni doimo o‘ziga jalb etib kelgan va muxim tarbiya manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Bolalarining nafosat tarbiyasi xalq nazaridan chetda qolmagan. O‘zbek xalqi boshka xalqlar qatori yoshlarni san’atning turli xillariga o‘rgatib kelgan, ularni san’at orqali tarbiyalagan. Xalq og‘zaki ijodining namunalari bo‘lgan va xalq yig‘inlarida aytilib kelingan qo‘shiqlar, dostonlar, askiyalar yoshlarda san’at sohasidagi nafosat ehtiyojlarini shakllantirishga, ularda xalq badiiy qadriyatlarini o‘rganishga intilishni tarbiyalashda ulkan hicca qo‘shganlar. Masalan, o‘zlarining badiiy jihatlari bilan diqqatga sazovor bo‘lgan o‘zbek xalq lirik qo‘shiklari yoshlarning nafosat tapbiyasida muhiyam rol o‘ynaydilar. Hayottda go‘zallikni his qilish g‘oyasi bilan sug‘orilgan quyidagi lirik qo‘shiq misolida fikrimizni dalillashimiz mumkin:

Yorim keladi yashnab,

Zar koqilini tashlab.

Xipcha belini ushlab,

Shakar labini tishlab.

“**Maqol**” atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, ommanning muayyan voqeа-hodisalar, vogelik haqidagi lo‘nda xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba’zan to‘g‘ri, ba’zan ko‘chma ma’noda ifodalanadi.

Maqolda ifodalangan pedagogik g‘oyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo‘ladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o‘z shakliga ko‘ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo‘ladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yo‘nalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, ma’naviy-axloqiy e’tiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. SHuning uchun ham L.N. Tolstoy: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siyosini ko‘raman”, -degan edi. Xalq maqollari mehnat jarayonida yaratilganligi tufayli unda mehnat mavzusi etakchilik qiladi.

Mehnatga muhabbat, hurmat ulug‘lanuvchi makollarda dangasalik qoralanadi: Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda; Dangasaning kosasi oqarmas; Ishyoqmasga it boqmas ...

Vatanparvarlik, dushmanqa qarshi nafrat targ‘ib etiladi: Bo‘lbo‘l chamanni sevar, odam – Vatanni; Vatan gadosi – kafan gadosi; Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas ...

Botirlilik, saxiylik,adolat, insof qadrlanadi: Arslon izidan qaytmas, yigit so‘zidan; erni nomus o‘ldiradi; Botirdan yov qo‘rqr; Yo‘lga chiqsang, yo‘ldoshli chiq! ...

Ilmni egallah targ‘ib etiladi: Ilm – aql chirog‘i; Ilm ko‘p, umr oz, zarurini o‘rgan; Kitob – bilim manbai ...

Topishmoq – deb, bir-biriga o‘xhash ikki predmetdan jumboq yasalib, ikkinchisiga xos o‘xhash belgilar asosida uni topishga mo‘ljallangan she’riy yoki nasriy topshiriqqa aytildi. Masalan: “Bir parcha patir, olamga tatir” topishmog‘ida eng to‘yimli ozuqa – patir “Oy” ga o‘xhatilgan. Oy ham go‘zal, tunda olamni munavvar qiladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, bizgacha etib kelgan maqollar, matallar, qo‘shiqlar, afsonalar, rivoyatlar, ertak va dostonlarda bolalarga xat-savod, ilm o‘rganishga oid qarashlar ifodalangan. Xususan, ijtimoiy hayotda savodxonlik va dunyoviy bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj, qiziqishlarning tobora o‘sib borishi, xalq donishmandlari tomonidan ilmni ardoqlashga, yoshlarni ilmli bo‘lishga dav’at etish, undashga qaratilgan pand-nasixatlar yaratishga sabab bo‘lganligini quyidagi maqollardan aniq ko‘rishimiz mumkin:

Bilim baxt keltirar.

Bilimli kishi o‘zar,

Bilimsiz kishi to‘zar.

Ilm-aql chirog‘i.

Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq.

Ilmi hikmat suvni yondirar.

Ilm olish-igna bilan,

Quduq qazish bilan teng.

Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmaydi.

Olim bo‘lsang olam seniki.

Piring kuchli bo‘lgancha,

Biliming kuchli bo‘lsin.

O‘qishning erta-kechi bo‘lmas.

O‘qigan o‘g‘il-otadan ulug‘.

O‘qish-jafoli, keti vafoli....¹²

Demak, xalq maqollarida talqin etilganidek, inson egallashi kerak bo‘lgan boyliklar ichida eng zarur, muhimi, foydalisi va eng **sharaflisi** – **ilmadir**. Ilm bamisolai xazinalar eshigini ochadigan kalitdir. Zero, dunyodagi har qanday muammo ilm, aql-idrok va tafakkur yordamida echiladi.

Ilmgaga hech bir inson zoti birdaniga erishgan emas va erisha ham olmaydi. Inson zoti onasidan dono-yu donishmand bo‘lib tug‘ilmaydi. Shu bois boladagi

¹² Ўзбек халқ мақоллари. – Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989, 139-147-бетлар.

bilim, odob-axloq olam, tabat va jamiyat haqidagi barcha tushuncha va tasavvurlar, dunyoqarash va bilimlar amaliy faoliyat jarayonida, xilma-xil ertaklar, dostonlar, badiy, tarixiy, siyosiy, falsafiy, iqtisodiy, huquqiy kitoblar, darsliklarni o‘qib-o‘rganish, mutolaa qilish, hayotdan saboq olish, ustozu muallimlardan ta’lim olish jarayonida hosil bo‘ladi, rivojlanib, boyib, takomillashib boradi.

Marosim folklori, qo‘shiqlar, dostonlar, og‘zaki drama va askiyalar tizimining pedagogik ahamiyati

Insonga sog‘liq, to‘kin-sochinlik tila sh, uning hayotidagi biror muhim sanani nishonlash maqsadida o‘tkaziladigan, an’anaga aylanib qolgan harakatlar marosim deyiladi. Marosimlarning mavsumiy va oilaviy-maishiy marosim turlari mavjud.

Mavsumiy marosimlar bahorgi, yozgi, ko‘zgi, qishki marosimlar kiradi. Ular ham turlarga bo‘linadi. Jumladan, bahorgi mavsumiy marosimlarga: loy tutish, shox moylar (dalaga qo‘s sh chiqarish), navro‘z, yomg‘ir chaqirish, “Sust xotin” (“Avesto” da madh etilgan) marosimlari kirgan. CHunonchi:

Havolarni yog ‘dirgan, Sust xotin,

Bug ‘doylarni bo ‘ldirgan, Sust xotin.

Osmondan tomchi tashlab, Sust xotin,

Elu yurtni to ‘ydirgin, Sust xotin...

Yozgi marosimlar: “Choy momo” (Shamol ona demakdir, unda shamolda mevalarni to‘qilishdan saqlashga undalgan), va boshqalar.

Oilaviy-maishiy marosimlar jumlasiga to‘y, (beshik) to‘yi, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, kelin salom, motam marosimi, yig‘i-yo‘qlovlar va boshqalarda ko‘zda tutilgan kishining tarbiyaviy sifatlari ulug‘langan, insoniyat qadr-qimmati yuqori ko‘tarilgan, insonparvarlik, yoshlarda ularga havas, hurmat uyg‘otishga undalgan.

Qo‘shiqlar – vogelikni yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiradi. “Qo‘sish” – turkiy “qo‘shmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, misraga misrani qo‘sib kuylash, aytish ma’nolarini anglatadi.

Qo‘shiqlarda xalq ma’naviyati qudrati, irodasi ifodalanadi. U kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, vatanparvarlikka, do‘stlikka, sevgi sadoqatga chorlaydi. Xalq qo‘shiqlarining mehnat qo‘shiqlari (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik), lirik qo‘shiqlar, tarixiy qo‘shiqlar, termalar singari turlari mavjud.

Doston – qissa, hikoya, ta’rif, sargo‘zasht ma’nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo‘lib, xalqning ma’naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari,adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do‘stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ‘ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlar bo‘rttiriladi. SHuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o‘rnak olish hissi tug‘iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. “Baxshi” mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”,

“bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustod” , “ma’rifatchi” degan ma’nolarni anglatadi.

Og‘zaki drama – etnopedagogika yo‘nalishidagi ijodning mustaqil turi bo‘lib, qadim zamonlarda vujudga kelgan. U xalq ongi, axloqiy mezonlari, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Og‘zaki dramada tomosha ko‘rsatish bahonasida hayot qiyinchiliklari, sinfiy munosabatlar fosh qilingan, tomoshabinda zarur tarbiyaviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Og‘zaki dramani qiziqchilar, askiyabozlar, masharabozlar satirik uslubda ijro etishgan. Ularda ochko‘zlik, ko‘zbo‘yamachilik, zulm,adolatsizlik, zo‘ravonlik, bo‘zuqlik kabi salbiy axloqiy sifatlar hajv va engil kulgi ostida tanqid qilingan.

Askiya – arabcha “zakiy” so‘zidan olingan bo‘lib, “so‘zamol”, “o‘tkir”, “zehnli” degan ma’nolarni anglatadi. Askiya – so‘z o‘yini yoki hozirjavoblar musobaqasidir. Askiyaning payrov turida “Bo‘lasizmi”, “O‘xshatdim”, “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz” kabi turlari mavjud. Ularda kishilarning salbiy hislatlari achchiq kulgi vositasida tanqid (mashara) qilinadi. Askiya ko‘pincha to‘y, sayil, marosimlarda uyushtiriladi. Askiya Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan bo‘lib, u kishiga estetik zavq berish bilan birga did-farosat, aql-zakovat, sezgirlik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini tarbiyalaydi. Insonni izza qilish vositasida o‘z-o‘zini tarbiyalashga undaydi.

O‘zbek xalqining har bir avlodи xalq ommasining bir necha asrlar mobaynida to‘plagan tarbiya an'analarini bolani hayotga va mehnatga tayyorlashda qo‘llab kelgan. Ya’ni, xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan amalda foydalangan. Bizning oldimizda esa zamonaviy o‘zbek maktabi o‘quv-tarbiya jarayonida milliy tarbiya madaniyatini qo‘llash uchun ularning imkoniyatlarini aniqlash masalasi taribdi . Xalq pedagogikasining tarbiya ishini amalga oshirishdagi imkoniyatlari deganda nima tushuniladi ?

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tarjibasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko‘nikmalarining zamonaviy mакtab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarni hal etish zarurligi tushuniladi .

Masalan, O‘zbek xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari maktabda tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi –har tomonlama etuk insonni shakllantirish .Uning tarkibiy qismlari esa rivojlangan va shakllanib kelayotgan shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy mehnat va nafosat tarbiyalaridir. Maqollar esa, tarbiyaviy jarayonda shaxsni shakllantirishning sanab o‘tilgan tarkibiy qismlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit yarata oladi.

Jumladan, xalq maqollaridan aqliy tarbiyaga oid, jismoniy tarbiyaga xos, axloqiy, mehnat va nafosat tarbiyalariga taalluqli o‘nlab namunalarni tanlab olish mumkin. Ular esa o‘qitishda, sinfdan tashqari tarbiyaviy faoliyatida va maktabdan tashqari ishida yuqorida keltirilgan shaxsni shakllantirishning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan barcha yunalishdarni amalga oshirish uchun lozim bo‘lgan tadbirlarda keng qo‘llanilishi mumkin.

Xususan, o‘quv jarayonida yoki sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarga murojaat etish mumkin.

O‘qituvchi xalq tarbiya an’analari imkoniyatlarini aniqlashda darsning maqsadlariga e’tibor beriladi. Ya’ni «O‘zbek xalq maqollari» mavzusidagi darsning qo‘yidagi maqsad va vazifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, maqollarni o‘rgatish va ular haqida tasavvur xosil qilish; maqollarning mazmunidan foydalanib, o‘quvchilarni mehnatsevarlikka, kamtar va odobli bo‘lishga, o‘zidan kattalarni hurmat qilishga undash; xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va ularni asrashga chaqirish. Keltirilgan maqsad va vazifalarni hal etishga imkon beruvchi o‘zbek xalq maqollari tanlab olinadi va bo‘lar xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashqil etadi.

Xalq og‘zaki ijodida bolalarni bosiqlikka, sofdillikka, oddiylikka undash bilan birga, ulardagi gerdayish, ichi qoralik, chaqimchilik va boshqa salbiy sifatlar qoralangan .

«Manamanlik qilma, netarsan, obro‘yingdan ketarsan», «Sen o‘zingni maqtama, seni birovlar maqtasin», «Egilgan boshni qilich kesmas», «Mevali daraxtning mevasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning boshi shunchalik past egiladi», «Birovga go‘r qazisang, o‘zing yiqilasan», «Ko‘rpangga qarab oyoq o‘zat» singari xalq maqollarida pand-nasihat ifoda etilgan.

Ko‘plab maqol va matallarda bilimli bo‘lish ulug‘lanadi, bilimsizlik qoralanadi. «Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni yiqar», «Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq», «Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar», «Ko‘p o‘qigan ko‘p bilar», « Olim bo‘lsang, olam senniki», «O‘qigan o‘g‘il otaday ulug‘ va xokozo

O‘git va nasihat xalq og‘zaki ijodida bolalarda insoniy fazilatlarni tarbiyalab etishtirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biridir .

Maqollar tinglovchilarga nisbatan o‘git-nasihat shaklida aytilgandir.

Bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalashda qo‘llaniladigan eng harakterli shakllardan biri, xalq donishmandlarining axloq-odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so‘zlari-maqollarini u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo sifatida ishlatilishidir. Ya’ni odob-axloq masalalariga bag‘ishlangan xalq maqollarining masalalariga bag‘ishlangan xalq

maqollarining naqadar hayotiy haqiqat ekanligini ma'lum ertak mazmuni orqali olib berilishidir.

Masalan, bir ertakda ota bolasini mehnat qilishga oltin va'da qilib qiziqtiradi, o'zining shaxsiy namunasi bilan hunarning foydali, afzalliklarini hikoya qilish orqali hayotga tayyorlaydi, tarbiyalaydi.

Namuna sifatida qo'yidagi ertaklarni tahlil qilaylik. Bir kambag'al o'limi oldidan o'zining uch o'g'lini chaqirib, uzum ishkomlaridan birining tagiga oltin ko'mganligini eslay olmasligini aytibdi. Agar bolalari oltinlarni topib olishsa, boyib ketishlarini uqtiribdi va olamdan o'tibdi. Aka-ukalar ota o'limidan keyin oltin topish ilinjida zudlik bilan bir necha kun davomida bog'ni boshdan opa boshlashibdi .

Ular qancha chuqur kavlashmasin, oltinni topisha olmabdi. Yaxshi chopilgan er va uzumzor kelgusi yili juda katta hosil beribdi. Hosilni vaqtida terib, sotgan aka-ukalar tezda boyib ketishibdi. Shunda ular, ota uzumzolarga oltin ko'mmaganliklarini, shu hiylasi bilan boqqa yaxshi qarash, parvarishlash lozimligini, halol mehnat qilishlari kerakligini aytganini faxmlab olishibdi .

Jumladan, «Zolim podshoh», «Qari bilganini pari bilmas», «Eshonim deb eshagimdan ayrildim» ertagida , «Er-xotin qo'sh ho'kiz», «Maslaxatli ish bitar, bemaslaxat ish boshga etar» kabi maqollar o'git-nasihat yo'sinida uqtiriladi .

Demak, xalq og'zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash haqidagi o'git-nasihatlarni maqollar orqali o'qtirilishi bilan birga ayrim ertaklarda axloq va odob yuzasidan aytilgan maqollarning mazmuni obrazli bayon qilib berilishi orqali ham o'sha maqollarni hayotiy haqiqat ekanligi uqtiriladi .

Ko'pchilik ertak va dostonlarda ota-onada va keksalarning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydig'an maslahat va pand-nasihatlar shakli ham asosiy o'rirlardan birini egallaydi .

Masalan, Ro'zivoy bilan Munavvar chehra» ertagida og'ir ahvolda qolgan Ro'zivoy tirikchilik yo'lini axtarib safarga jo'namoqchi bo'lad . Onasini zo'rg'a ko'ndiradi. Onasi bolasiga ijozat bera turib: «Xo'p bolam, aqlu-hushing joyida bo'lsin, borgan eringda beadabchilik qilma, katta-kichikni farqiga borsang obro' topasan» deb nasihat qiladi .

Masalan, « Sen ham bo'lursan mendek» ertagini ko'raylik. «Rasul ota to'qson yoshdan oshib, asablari bo'shashib, kuch-quvvatdan qolgan kezlari. Unga qanday idishda ovqat bersalar ham qo'llari bilan tuta olmay tushirib sindira beradi. Kelin o'ta xasislik bilan cholni ranjitadi, o'g'liga shikoyat qiladi. Nihoyat o'g'il yog'ochdan yo'nib otasi uchun maxsus yog'och kosa qilib beradi. CHol faqat shu kosadagina ovqatlanadigan bo'lib qoladi. Bu

ahvol oiladagi to‘rt yashar nabirasiga qattiq ta’sir qiladi . Bir kuni ertalab otasi ishga ketayotsa bola qo‘liga pichoq olib , ha deb bir yog‘ochni o‘ynayotgan emish. SHunda otasi:

-Nima qilayapsan, o‘g‘lim ? –deb so‘rasa . Bolasi :

- Siz qariganingizda buvamga o‘xshab ovqat eydigan yog‘och kosa qilayapman, -deb javob beradi.

Bolaning javobi otaga qattiq ta’sir qilibdi. Qilmishidan pushaymon bo‘libdi. Yog‘och kosani chini idishlar bilan almashtiribdi.

Demak, ota-onा va oiladagi kattalarning ijobili fe’l-atvor va hatti harakatlari shu oiladagi bolalarga ijobili ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi yosh bolalar, o‘z tabiatlariga ko‘ra, ko‘pincha kattalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qiladilar Masalan, yana bir ertak misolida «Usta Nishon» ertagida: «Oq bo‘loq» qishlog‘ida yashovchi xalq «Oq bo‘loq» ko‘li atrofida yashasa ham suvdan bahramand bo‘la olmas edilar. Qo‘shni qishloqlik usta Yo‘ldoshning o‘g‘li usta Nishon «Oq bo‘loq» qishlog‘iga keladi va xalq kuchi bilan katta charxpalak quradi . Qishloqda Yana suvga ma’murchilik boshlanadi.Usta Nishon ham shu qishloqda yashab qoladi. Xalq uni juda sevib hurmat qiladi.O‘z farzandlaridek g‘amxurlik qilishadi. Biroq ko‘p o‘tmay otasi chaqirtiradi. U ketish uchun xalqdan ijozat so‘raydi. Qishloqning katta-kichik hamma odamlari yig‘ilib keladi .Shunda usta Nishon xalqqa qarab: «Otalar, akalar, ukalar, men arzimagan sabab bilan sizning qishlog‘ingizga keldim. To‘zlariningizni ichdim, izzat-hurmatingizni ko‘rdim. Meni dehqonchilik qilishga, bog‘ tutishga o‘rgatdilaringiz. Sizlardan men juda xursandman. Endi menga ruxsat bersalariningiz o‘z qishlog‘imga, ota-onam oldiga ketsam. Sizlardan oq fotixa so‘rayman» debdi. Senda qishloq keksalari : «O‘g‘lim , biz sizdan juda xursandmiz, bizning mushkulimizni oson qildingiz, suvga serob qildingiz, bog‘-rog‘larimiz qayta ko‘kardi, sizdan hech yomonlik ko‘rmadik. otangiz chaqirtirgan ekan ilojimiz qancha. Ota-onangizning odiga boring, bola-chaqali bo‘ling. Otangizga, voldangizga bizdan duo deng» - deb javob beradilar.

Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodining boshqa namunalaridagi singari, xalq maqollari va ertaklarida halollik, to‘g‘rilik, yaxshilik, botirlik, saxiylik, go‘zallik, kamtarlik kabi axloqiy sifatlar yuksak baholanadi. Va aksincha, tekinxurlik, egrilik, yomonlik, qo‘rqoqlik, baxshilik, xunuklik , manmanlik singari salbiy xususiyatlar qoralanadi .

Misol tariqasida bilimdonlik va ilmsizlikka oid Ushbu maqollarni keltiramiz: «Bilgan o‘kir, bilmagan to‘qir», «Bildirish uchun bilish kerak», «Bilimsiz kishiga ish yo‘q, ilmsiz kishiga Osh yo‘q», «Farxod va shirin», «Uch o‘g‘il», «Aql va oltin» ertaklarida ilm-xunar ulug‘lansa, «Etti axmoq»,

«Kuygan chol», «Soqi mumsiq bilan Boqi mumsiq» kabi ertaklarda savodsizlik, axmoqlik, fahmsizlik kabi illatlar kulgi ostiga olingan.

Xalq tasavvurida olim bo‘lishga nisbatan odam bo‘lish mushkuldir. Shu sababli qadimdan insoniylik yosh avlodni go‘zal axloqli qilib tarbiyalashda asosiy mezon hisoblangan va u tarbiyaning asosi sifatida hozir ham davom ettirilmoqda.

Afsona – arabcha so‘z bo‘lib, sargo‘zasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma’nosini anglatadi. Afsonada xalq orzusidagi qahramonlar vositasida dushmanlarni, tabiat stixiyalarini daf etishga mifologik obrazlar yordamida erishiladi. Ular o‘quvchini ushbu qahramonlarga o‘xshashga, ularga xos tarbiyaviy sifatlarni egallahsga undaydi.

Rivoyat – hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi etnopedagogik manba bo‘lib, unda tarixiy voqealar, ayrim shaxslar va geografik joy bilan bog‘liq voqealar, ularning bunyod yoki vayron etilishi hikoya qilinadi. Rivoyat o‘quvchida Vatanga, ajdodlarga, xalqqa muhabbat, zulmga nafrat, do‘stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy va jismoniy kamolotga intilish hissini uyg‘otadi.

Naql – axloqiy-didaktik vazifani bajaruvchi, axloqiy sifatlar, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan etnopedagogik janrdir. Masalan: “Ko‘rpangga qarab oyoq o‘zat”, “Har kim qilsa o‘ziga”, “Odam-odam bilan tirik”, “Qaqillashi biznikida, tuxum qilishi qo‘shninizida” kabi.

Naqlarda salbiy-tarbiyaviy sifatlarga ijobiy-tarbiyaviy sifatlar qarshi qo‘yiladi. Garchi, To‘g‘rivoy (Yaxshivoy, Soddavoy) yo‘lda egrivoy (Ayyorvoy, YOmonvoy) ga aldanib qolsada, keyinchalik sehrli yordamchilar tufayli u g‘alaba qilib, murodiga etadi. Egrivoy esa misi chiqib, sharmanda bo‘ladi.

Naqlarda yashirin holda tarbiyaviy o‘gitlar ifodalanib, nihoyasida qissadan hissa chiqariladi.

Ertak – qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshg‘ariy) so‘zidan olingan bo‘lib, biror voqeani og‘zaki so‘zlash ma’nosini anglatadi. Ertak – Surxon, Qashqa, Farg‘ona vohasi, Samarqandda “matal”, Xorazmda “varsaqi”, Toshkent atrofida “cho‘pchak” deb ataladi.

Ertaklarda mo‘jiza yoki sargo‘zasht ma’lum voqea-hodisalarni hayot bilan bog‘lab, haqiqat, ozodlik, to‘g‘rilik, odamiylik, oljanoblik g‘oyalarini targ‘ib etadi. Shuning uchun ular bolani o‘ziga ko‘proq jalg‘ etadi. Ertaklar ham didaktik, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Jumladan: “Chol bilan kampir”, “Bo‘lbo‘ligo‘yo”, “Ur to‘qmoq”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Baxtli kal” singari ertaklar shular jumlasidandir. Ertaklarning hayvonlar, qushlar haqidagi turlari, mitti polvonlar (“No‘xatvoy”, “Quloqvoy”, “Handalak polvon”, “Yapaloqpolvon” ...) haqidagi turlari, bir yoki ikki epizodli satirkik ifoda vositasida

salbiy tarbiyaviy sifatlarni tanqid, mashara qiluvchi etnopedagogika turidir. O‘zbeklarda latif qaytarish, so‘zga chechanlik musobaqasi shaklida o‘tkaziladi. mavjud.

Latifa arabcha – latif, mayin, lutf demakdir. Latifa satira va yumorga asoslangan bo‘lib

Xalq latifalarining tipik qahramoni Nasriddin afandi hisoblanadi. U latifalarda o‘ta aqli, noziktabiat, insonparvar, mehnatsevar kishi sifatida salbiy axloqiy sifatli kishilarni mashara qiladi. Zaharxanda kulgi, kinoya, kesatiq, xazil-mutoyiba vositasida yomonliklarni bartaraf qiladi.

Lof – mustaqil etnopedagogik tur bo‘lib, ularda notabiiy voqealar, salbiy hislatlar tanqid ostiga olinadi. Loflar mubolag‘ali epizodga mantiqiy mos javoburushi yillarida dushmanga nisbatan nafrat ruhidagi xalq qo‘shiqlari yaratildi. Ularda qahramonlikka chorlovchi ruh ustun darajada edi:

Mening yorim qahramon

Dushmanga bermas omon.

Bosqinchi fashistlarni,

Qilar er bilan yakson .

Qayta tiklash, tinchlik yillarida mehnat tarbiyasini targ‘ib etuvchi, kushiklar tugildi:

Ishlov berdik bo‘z erlarga bog‘ bo‘ldi,

CHigit ekdik, “oq oltin” dan tog‘ bo‘ldi.

Kuch ayamay mehnat qildik, tolmadik,

To‘kkan terdan rohat, vaqtlar chog‘ bo‘ldi. va b..

Porloq kelajakka umid ko‘zi bilan boqqan ajdodlarimiz inson qobiliyati va qudratini ideallashtiruvchi mifologik obrazlarni yaratgan. Mifologik obazlarning ilk namunalari qadimiy mif va afsonalarda o‘z aksini topgan.

Mif grekcha “myfhos”-so‘z, rivoyat so‘zidan olingan bo‘lib, dunyoning paydo bo‘lishi, tabiat hodisalari, xudolar, afsonaviy pahlavonlar; goh inson, goh jonzod qiyofasidagi zulmkor dushmanlar haqidagi to‘qima afsonalardir. Mifologiya - miflarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, u ibtidoiy insonning tabiat sirlarini bilishga intilishi tufayli vujudga kelgan.

Insonning tabiat stixiyalariga qarshi kurashdagi ojizligi (bo‘ron, sel, zilzila, dovul...) tufayli ularga qarshi kurasha oluvchi g‘ayritabiyy obrazlar yaratishga ehtiyoj tugilgan. Natijada yaxshilik va yomonlik haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo‘lgan. Olam haqidagi bunday ibtidoiy miflar ta’sirida osmon, oy, quyosh va turli hayvonlar, xudolar, g‘ayritabiyy pahlavonlar haqidagi miflar vujudga keldi. Hayvonlar va tabiat stixiyalariga qarshi kurashga qaratilgan (so‘z kuchi, afsun “avrash” vositasida ularga ta’sir etish tufayli, yovo‘z kuchlarga teng keladigan qurol inson ixtiyorida bo‘lmagan bir paytda) miflar yaratildi. Ko‘rinib turibdiki,

miflar insonga osoyishta yashash, yovo‘z kuchlarni engishga ko‘maklashuvchi orzular ifodasidir.

Miflarda yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xudbinlik, yorug‘lik va zulmat orasidagi kurash jarayoni tasvirlanadi. Komil insonlar hamisha yaxshilik, go‘zallik, yorug‘likning tantana qilishi ko‘maklashadi. Aniqroq aytulganda, miflarni o‘qigan o‘quvchi ijobiy qahramonlarning tarafdoriga aylanadi. “Avesto” da yaxshilik – Axura Mazda, yomonlik – Axriman qiyofasida namoyon bo‘ladi. Kitob g‘oyasiga ko‘ra barcha hodisalar (tabiat va jamiyatdagi) ana shu ikki yaratuvchining o‘zaro kurashidan kelib chiqadi.

Mitra – quyosh va yorug‘lik xudosi, Noxit – obodonlik, farovonlik xudosi, Xumo – baxt, tole xudosi va boshqa yaxshilik tantanasiga ko‘maklashadi. Yomonlik kuchlari: ajdar, dev, jin, yalmog‘iz va boshqa mifologik obrazlarda tasvirlangan. SHuningdek, Kayumars va Jamshid haqidagi miflar ham O‘rta Osiyoda qadimdan tarqalgan. Uning turli variantlari mavjud (“Avesto” da, “Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar” da, “Shohnoma” da va b.) Kayumars “G‘iyosul lug‘at” da Govmard (inson - buqa) deb ta’riflanib, Amudaryo bo‘yida yashagan, bo‘yi daryoning narigi betiga etgan va hokazo

Miflardagi ijobiy obrazlar xalq manfaati uchun,adolat, go‘zallik uchun kurashadi. Kishilarga hayotda, kurashda yordam beradi. Ularga oliv insoniy sifatlarda o‘rnak ko‘rsatadi, kasb-kor o‘rgatadi. Demak, miflarda xalq ommasining ilk pedagogik tafakkuri o‘z ifodasini topgan, deyish mumkin.

Jamshid haqidagi mif O‘rta Osiyo va eronda keng tarqalgan bo‘lib, unda Jamshid najotkor qahramon sifatida ko‘rsatilgan (“Avesto” da).

Jamshidadolatli podsho bo‘lib, uning ming yillik shohlik davrida qahraton sovuq, jazirama issiq, kasalliklar va o‘lim kamaya borgan. Uning erida mollar va odamlar ko‘paya borgach, u erni uch marta ko‘paytiradi, chorva va qushlarni ham ko‘paytiradi. Ammo, to‘satdan qahraton qish, toshqin boshlanadi. Odamlarni qutqarish uchun Jamshid (yima) ariqlar ochadi. Bu afsona A. Navoiyning “Mulki Ajam”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlarida tasvirlangan. Bunday mifologik obrazlar keyinchalik ertak va dostonlarda rivojlantirildi.

“Odami Od” hikoyasida Nuh payg‘ambar bo‘yi bo‘lutga etadigan usta yordamida chinordan kema yasatib, odamlarni kemaga o‘tqazib, o‘zi kemani torta ketibdi (“Od” – fors-tojikcha “ulkan odam”). “Er Xubbi” mifi ham insonga g‘amxo‘rlik timsolidagi etnopedagogik asardir. U Xorazm va Farg‘onada keng tarqalgan. Xubbi insonparvar, daryoning hokimi, Amudaryoda 700 yil yashagan va bu davrda daryoga jinlar yaqinlasha olmagan. Jamshid taxtga o‘tirishi bilan u domdaraksiz g‘oyib bo‘lgan. Bundan Xubbining opasi aza tutgan, u bilan birga daryo, tog‘u-toshlar, qushlar, hayvonlar, odamlar, osmonda farishtalar, er ostida devlar yig‘lagan. Ular Xubbi tirik, qiyomatgacha yashaydi, deb tasavvur qilganlar.

“To‘maris”, “Shiroq” rivoyatlari, Rustam haqidagi epos, qadimgi qo‘shiqlarda ham yuksak tarbiyaviy sifatlar targ‘ib etilgan. Ularda kishilar yaxshilik qilishga, xushxulq bo‘lishga, yomon odatlardan xalos bo‘lishga chorlangan. Jumladan, “Devonu lug‘otit turk” da quyidagi pedagogik g‘oyalar madh etiladi:

*Boqmas jahon sovuq so‘z,
Shilqim, yuzsiz, baxilga.
Yoqimli bo‘l, xushxulq bo‘l,
Qolsin noming ko‘p yilga ...
Ov qushlarin ushlashib,
Tulki, to‘ng‘iz tishlashib.
Itlarimiz ishlatib,
Hunar bilan gerdaydik.*

Yoki qish – yozning kamchiliklarini shunday ochadi:

*Senda barcha yomonlar,
Chivin, pashsha ilonlar.
Du mi gajak chayonlar,
Hamla qilib yugurishar.
Yoz qishga deydi:
Sendan sa‘valar ketar,
Bo‘lbo‘llar sayrab qo‘nar.
Menda qaldirg‘och tunar,
Naru - moda uchrashur ...*

Beshikdagi farzandiga muhabbat va umid qo‘shig‘ini kuylamagan ona olamda bo‘lmasa kerak, albatta. Bu kushiklar – ona allalari – san’atning bebafo xazinasiga aylandi. Ammo afsuslar bo‘lsinki, bu qo‘shiq turli nashrlarda sochilib yotibdi va hech kim ularni bir joyga yig‘ishni xayoliga ham keltirmayotir. Nega bizning bolalar nashriyotimiz barcha xalqlar allalarini to‘plab, ularni alohida kitob shaklida nashr etishi mumkin emas?! Bunday kitob bizning poeziyamizda ajoyib hodisa bo‘lib qolmay, yana ham ma‘rifiy, ham tarbiyaviy qimmat kasb etgan bo‘ladi. Bu hayratlanarli kitob bo‘ladi”. **Rasul Hamzatov**

Allalar – beshik qo‘shiqlarining keng tarqalgan an‘anaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, elat yoki millat yo‘qli, ularning tilida alla kuylanmasa ... ruslarda “bayki” yoki “bayushki” deb yuritiluvchi bunday qo‘shiqlar turkmanlarda “huvdilar”, ozarbayjonlarda “lay-lay”, tatarlarda “alli-ballı”, qoraqalpoqlarda “heyya-heyya”, turklarda “ninni”, forslarda “lolo”, nemislarda “wiegelied”, , o‘zbek va tojiklarda “alla” va “allo” atamalari bilan mashhurdir. Binobarin, alla jahon onalarining mehrga yo‘g‘rilgan bir qadar farahbaxsh, ammo o‘rni bilan esa bir qadar g‘amgin, eng muqaddas qo‘shig‘idir.

Alla ijtimoiy – estetik qimmatiga ko‘ra ikki vazifani bajaradi: birinchisi, bolalarni uxlatish (“alla” so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham allalash – ovutib, avaylab uxlatish) dan iborat. Bunday allalab ovutish yoki uxlatish, kuylash jarayonida namoyon bo‘ladi.

Xuddi shu asnoda ularning ikkinchi vazifasi – tarbiyaviy-estetik mohiyati namoyon bo‘ladi: bu allaning emotsiyal ta’sirchanligidan kelib chiquvchi xususiyati bo‘lib, bolani kuy og‘ushida hayot bilan tanishtirish, ohanglar vositasida hayot ma’nosini anglashiga yo‘l ochish, shu zaylda estetik didini o‘sirish maqsadiga qaratilganligidir. Abu Ali ibn Sino allaning ana shu xususiyatini ming yil ilgariyoq payqab, shunday degan edi: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabo‘l qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi”. Ulug‘ hakim “bolani sekin-sekin tebratish” ning badantarbiya bilan bog‘liqligini maxsus ta’kidlagan ekan, umuman, tebratishni, aytaylik, faqat beshikda tebratishnigina emas, balki belanchakda yoki o‘tirib olib, ikkala oyoqni yonma-yon holatda o‘zala cho‘zgancha ustiga qo‘yilgan yostiqda bolani tebratib alla aytishni, tikka turgan holda bag‘riga bosib tebranishni yoki elkasiga bir maromda qoqa turib alla aytishni ham ko‘zda tutgan. Ammo bu jarayonlar allasiz bajarilishi ham mumkin, shunchaki tebratib turilib, bola uxlatiladi. Shunisi ham borki, bu jarayonlar har bir xalqning etnografik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Aytaylik, o‘zbek yoki tojiklarda allaning kuylanish ohangi tebratishning muvozanati va ritmiga mos bo‘lib, bunda tebratilayotgan narsa beshikmi yoki belanchakmi – hammasining alla ohangiga mutanosibligiga qat’iy rioya qilinadi. O‘zbeklarda beshik yoki belanchakka shaqildoq bog‘lash odati bo‘lsa-da, baribir, tebranish ritmiga mos ovoz bilangina allaga jo‘r bo‘linadi, frantso‘zlarda alla kuyi shaqildoq jo‘rligida hosil qilinadi.

Allalarining Ibn Sino zamonidayoq Markaziy Osiyodagina emas, balki O‘rtta va Yaqin Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlar orasida ham muhim ahamiyat kasb etgan mustaqil janr sifatida keng tarqalganligi turkiy xalqlar o‘rtasida “balubalu” nomi bilan yuritilganligiga oid “Devonu lug‘otit turk” dagi ma’lumot ham tasdiqlaydi. Alisher Navoiy ham Farhodning beshikdalik davrida unga mukammal tarbiya berish uchun “navoguy”(uxlatish uchun alla aytuvchi) berkitilganligini shunday tasvirlaydi:

*Arusi charx tun-kun doya kirdor,
Bo‘lib har tavri holidin xabardor.
Beshik davrida chiniyu xitoyi,
Bo‘lib yuz no‘sh lab doston saroyi.
Ko‘zining nozi eldin eltib uyqu,*

Anga uyqu keturmakka navogo’.

Bu dalilning qimmati shundaki, Farhod tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar safida maxsus allachi yoki alla aytuvchi enaga ham bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ana shu tasdiq, o‘z navbatida, alla ijrochiligining maxsus san’at – navogo‘lik darajasida tadrijiy takomilga erishganligini, shu soha bilan shug‘ullanuvchilarning navogo‘y sifatida alohida e’tibor qozonganliklarini yaqqol ko‘rsatdi. Jahon madaniyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘sghan ana shu uch buyuk siymo – Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy va Alisher Navoiyning bu guvohliklari allaning uzoq zamonlardan beri xalqimiz turmushiga, bolalar tarbiyasiga keng va chuqr singiganligidan dalolat beradi.

Allalar, odatda, bolalarning emizikli davrida – ular to uch yoshni to‘ldirgunlarigacha aytildi. Shu sababli allalarni “sutda qorilgan va mehrga yo‘g‘rilgan qo‘shiq” sifatida baholashlari bejiz emas. Allalar onalarning minglab avlodidan bir-biriga o‘tib, sayqal topib, onalik mehrini, armonini silsilaviy bog‘lab kelayotgan umrboqiy qo‘shiqdir. Allalarning bu qadar uzoq yashovchanligi sababi, ularda onalik qalbining ayollik mahzunligining barq urib turishidadir. Xuddi shu xususiyat allalarning nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham yoqimlilagini, qolaversa, har bir xonadonda kuylanishini va xush ko‘rilishini ta’minlagan.

Ona o‘zining tug‘ma sezgirligi bilan bola uchun faqat tinchlaniruvchi, yorqin va monoton qo‘shiq kerakligini anglatdi. SHu zaylda alla shakli yuzaga keldi. Onalik sezgilari allalarning qanday mazmunga ega bo‘lishini aytib turadilar. Allalarni onalar dunyosisiz, sezgilarisiz, tashvishlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Buni rus allashunosligi onalik tuyg‘ularining uch bosqichi sifatida bir-biridan shunday ajratib ko‘rsatadiki, bu holni o‘zbek allalarida ham ko‘rish mumkin.

Allashunoslikda onalik tuyg‘ularining uch boskichi ajratib ko‘rsatiladi: Birinchi bosqich- allalarda bolani o‘rab olgan muhit ifodasi bo‘rtib turadi, aniqrog‘i, bola bilan bog‘liq predmetlar: beshik, belanchak va boshqalar ta’riflanadi. Ammo bu poetik ta’rif onaning shaxsiy kechinmalaridan, onalik tuyg‘ularidan holi bo‘ladi. Bu turdagи rus allalarida bolani uni o‘rab olgan muhit bilan tanishtirishga alohida e’tibor berilgan. Shu maqsadda turli-tuman qushlar va hayvonlar poetik maqtovida ularning ham salbiy, ham ijobiy xususiyatlarini ko‘rsatishgan. O‘zbek allalarida esa, asosan, beshik yoki belanchakning maqtovi bilan cheklaniladi. Xayvonlar, qushlar va hashoratlar poetik ta’rifidan tarkib topgan allalar yo‘q hisobi. Ammo, o‘zbek allalarida hayvonlarning bolalari va qushlar nomi bilan aloqador erkalash ohangi bor: bolalar qo‘zichoqqa, toychoqqa, toyloq yoki bo‘taloqqa, bo‘lbo‘lga, suqsurga, lochinga qiyoslanib e’zozlanadi. Bunday qiyoslash aslida o‘sha jonivorlarga bo‘lgan samimiy munosabatlar zamirida tabiiylik kasb etgan.

Ikkinci bosqich- allalarda bola taqdiri asosiy o‘rinda turadi. Lekin endi ona bola taqdiriga befarq qaray olmaydi. Bola taqdiriga bog‘liq o‘y-kechinmalar onaning shaxsiy kechinmalari fonida chuqurlasha boradi: fikr bola atrofida aylansa-da, unga onalik tuyg‘ulari ham aralasha boradi. Ammo bu chuqurlashuv hali bir qadar sayozroq, aralashuv esa bir qadar daxlsizroq kechadi. Bunga ona qalbining uyg‘ona boshlashi va undagi to‘lg‘anish darajasi sababchi bo‘ladi. Xuddi shu jarayonda alla ohangiga didaktik yo‘nalish – axloqiy-tarbiyaviy qarashlar singga boradi. O‘zbek allalarida bola taqdiri bilan bog‘liq didaktik yo‘nalish g‘oyat sezilarli ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

Uchinchi bosqich- bu allago‘ylikning yuqori bosqichi hisoblanadi. Chunki bu boskichda ona qalbining to‘lg‘anishlari behad chuqurlashib, endi u o‘z tuyg‘ulari girdobiga g‘arq bo‘lib qoladi. O‘z shirin tuygulari bilan ovora bo‘lib, bolasi borligini hayolidan soqit qiladi. Dardlari va tashvishlarini yuragidan sizib chiqqan mayin, lekin bir qadar horg‘inroq monoton ohangda kuylab yoradi, shu monoton ohangdan taskin topganday bo‘ladi. O‘zbek allachiligida bu xildagi allalar ancha. Buning sababini o‘zbek onalari repertuarining qashshoqligi, binobarin, og‘ziga qay bir qo‘sish tushsa, unga alla naqoratini qo‘shib kuylagani bilan izohlash to‘g‘ri emas. Bu o‘rinda folklorshunoslarning onalar repertuari boyigach, undagi allalar soni 3-7 tagacha etgach, ixtisoslashgan allachilik bosqichi shakllanadi va xuddi shu davrda ona o‘z tuyg‘ulari asirasiga aylanadi, degan xulosasi asoslidir. O‘zbek allachiligida bu xildagi allalarining xiyla ko‘pligiga extimol, ulug‘ Navoiy e’tirof etgan usha davrning ixtisoslashgan navogo‘ylari bo‘lganligi ta’sir ko‘rsatgandirlar?!

Allalar faqat kuylanadi. Ularni shunchaki aytish mumkin emas. Monoton (bir xil) ohang barcha o‘zbek allalari uchun mushtarak xususiyatdir. Ammo, monoton ohang onaning ijro paytidagi holati va kayfiyati bilan bog‘liq. Ona kayfiyati chog‘ kezlarda allaning monoton ohangida xush yoquvchi mayin yumshoqlik mayli sezilib tursa, xafa, iztirob chekayotganida ma’yus tortuvchi hazinlikka moyil bo‘ladi. Har ikkala holatda ham shu monoton ohang bola ruhiga ta’sir etadi, qalbiga orom bag‘ishlaydi, uni elitadi. Birinchi holatda bolaning serzavq bo‘lib o‘sishiga zamin hozirlansa, ikkinchi holatda bolaning ruhan ma’yuslashuviga asos solinadiki, bu keyinchalik bola ulg‘ayganda uning harakterida o‘z asoratini, albatta, qoldiradi.

Bola uchun allaning so‘zi emas, kuyi yoqimli. Chunki u hali so‘zni anglamaydi. Ona uchun esa alladagi so‘zlar muhim: ular – ona qalbining nidolari. Bir xil ohangdagi kuy bola ma’naviy ehtiyojining dastlabki asosiy qondirgichi sifatida xizmat eta boshlaydi. Chindan ham “Bola birinchi oyligidayoq musiqiy idrokini – ritm va ohangni idrok eta olishini namoyon etadi. Chunki allalar har qanday holatda ham jismoniy harakat, ham ruhiy faoliyat bilan o‘zviy bog‘liqdir.

Jismoniy harakat bolaning muttasil o'sishini, vujudining chiniqishini rag'batlantiruvchi muhim vosita bo'lsa, allalarning monoton ohangi esa shu jismoniy rivojlanishni ma'naviy rivojlanishga ulaydigan, bola ruhiy faoliyatini faollashtiradigan vosita bo'lib xizmat qiladi. M. Alaviya: "Alla, asosan, to'rtlikdan tashqil topgan bo'lsa ham, ba'zan allalovchi to'lqinlanib ketsa, davom ettirib, boshqa misralarni ham qo'shib yuboradi va bir-biriga yaqin bir qancha to'rtliklarni aytib, bu bilan o'zining tilak, armonini izhor etadi", - degan edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodining bapcha janrlarida xalqning tarbiyaga bo'lgan qarashlari ifodalangan. Ulardagi tarbiyaviy g'oyalar, pedagogik ma'lumotlar va o'z ifodasini topgan xalq tarbiya tajribasi xalq pedagogikasining tarkibiy qismlaridir.

Nazorat savollari:

- ✓ Xalq og'zaki ijodi qanday paydo bo'lgan?
- ✓ Xalq og'zaki ijodi na'munalarida tarbiyaviy g'oyalarning aks etishi haqida gapirib bering.
- ✓ Xalq qo'shiqlari, dostonlar, askiyalar yoshlarda san'at sohasidagi nafosat tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatadi.
- ✓ Tarbiya jarayonida maqollardan foydalanishning ahamiyati qanday?
- ✓ O'git va nasihatlarning bolalarda insoniy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni qanday?
- ✓ Xalq maqollarining qanday turlarini bilasiz?
- ✓ Xalq ertaklari va ularda ilgari surilgan tarbiyaviy g'oyalar mazmunini tahlil qiling.
- ✓ Ertaklar asosida bolalarga tarbiya berishning ahamiyati qanday? Allalarning vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz?
- ✓ Allalarning aytilishi necha bosqichdan iborat?

O'quv topshirig'i:

1. Xalq pedagogikasi fanidan ixtiyoriy mavzuda 1 soatlik ma'ruza mashg'uloti uchun prezentatsiya (taqdimot) tayyorlang.

2. Xalq pedagogikasi fanidan ixtiyoriy mavzuda 1 soatlik seminar (yoki amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti) uchun prezentatsiya (taqdimot) tayyorlang.

Topshiriqni bajarish shartlari:

1. Ma'ruza mashg'uloti uchun tayyorlanadigan prezentatsiyada slaydlarning soni kamida 15 ta bo'lsin!
2. Seminar (yoki amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti) uchun prezentatsiyada slaydlarning soni kamida 10 ta bo'lsin!
3. Prezentatsiyalardagi slaydlarning faqat matnlardan iborat bo'lmasligiga e'tibor qarating!
4. Prezentatsiyalardagi slaydlarning sxema, rasm, jadval, diagrammalar bilan boyilishiga e'tiborni qarating!

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- M.Ochilov «O'qituvchi odobi», Toshkent. O'qituvchi 1975-yil
- Mirtursunov «Xalq pedagogikasi» Toshkent 1968-yil
- 4,A.K.Munavvarov «Oila pedagogikasi» Toshkent 1994-yil
 - 5.O'.Asqarova,M.Xayitboev,M.Nishonov
Pedagogika”T;Talqin 2008

6-MODUL XALQ PEDAGOGIKASI VA XALQ OG‘ZAKI IJODIDA DOSTONLAR.

Reja:

1. Xalq pedagogikasi va xalq og‘zaki ijodida dostonlar.
2. Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch so‘zlar: *Bolalar o‘yinlari; donishmandlik. odobnoma, harbiy sport mashqlari; harbiy – jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi; mehnat mazmuni, nafosat tarbiyasi badiiy og‘zaki ijod, o‘zbek folklorshunosligi, baxshi ijrosi.*

Ming yillik madaniyatimiz tarixida xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli sifatida yuzaga kelgan nafis so‘z san’ati durdonalari behisob. Ana shu ma’naviy namunalarni o‘zida mujassam etgan badiiy og‘zaki ijod turlaridan biri eposdir. Epos mazkur xalq haqidagi barcha ma’lumotlarni qomusiy qamrab oluvchi janrdir. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda yosh avlodni ma’naviy, jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda qadimiyligi, milliy qadriyatlarning o‘rni alohida ta’kidlangan. Bu qadriyatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan dostonlar yoshlarga insoniy fazilatlarni singdirishda, ularni komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida dostonlar avlodlar dunyoqarashi va pedagogika olamining ko‘zgusi bo‘lib, komil insonni tarbiyalashda o‘ziga xos bebafo qadriyatlardan biri hisoblanadi. Zero, xalq dostonlari qahramonlarining sarguzashtlari, ularning qiyinchiliklarni engib, har jihatdan chiniqib borishi har bir yosh uchun ibratdir. Dostonlar xalqning o‘zligini, tilini, urf-odatlarini, qadriyat va an’analarini ifodalab beruvchi ko‘zgu ekanligini yuqorida ta’kidladik. Xalq donishmandligi ruhi bilan sug‘orilgan dostonlarni chuqur va atroflicha o‘rganish esa yosh avlodning ma’naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O‘zbek folklorshunosligida xalq dostonlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilyapti, maqolalar chop etilgan, bu izlanishlar o‘z navbatida dostonlarning haqiqiy mohiyatini olishga yordam beradi.

«Doston» so‘zi qissa, hikoya, shonu-shuhurat, sargo‘zasht, ta’rif va maqtov ma’nolarida ishlataladi. Adabiy termin sifatida yirik hajmli etik asar nazarda tutiladi. Dostonlarnda tasvirlangan voqeа-hodisalar yakka shaxs favqulodda kuch qudratga ega bo‘lgan xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Badiiy adabiyotda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og‘zaki ijodida baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylanib kelingan dostonlar bo‘lsa, ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlardir. Masalan, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlar «Malikai ayyor», «Ravshan», «Kuntug‘mish», «Rustamxon» kabilar og‘zaki dostonlar

namunalaridir. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro‘z», A.Navoiyning «Xayratul abror», «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi. Og‘zaki ijoddagi dostonlarni baxshilar kuylaydilar. Qadimda «Baxshi» so‘zi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi «tabib», ayrim hududlarda «ustoz» ma’nolarini anglatgan. Bugungi kunda xalq dostonlarini kuylaydigan san’atkor ma’nosini bildiradi. Dostonlar ham she’riy ham nasriy parchalardan bo‘lib, baxshi soz chertganda sozanda, she’riy parchalarni kuya solib aytganda xonandaga aylanadi. Ijrochi baxshilar do‘mbira, tor, dutor chalib, qo‘biz chertib doston aytganlar. Shu bois dostonchilik kechalari har tinglovchi uchun katta bayram bo‘lgan. Bunday kechalarda odamlar o‘rtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, ergash Jumanbo‘lbo‘l o‘g‘li, Islom shoir, Po‘lkan shoir, Amat baxshi, Murod baxshi, Qurbannazar Abdullaev (bola baxshi) kabi folklorshunoslar tomonidan o‘zbek xalq baxshilaridan 150 dan ortiq (variantlari bilan 400 dan ortiq) dostonlar yozib olingan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi alohida-alohida kitoblar sifatida nashr etilgan. Dostonlar mazmuniga ko‘ra ham bir necha turlarga tavsiflanadi. Jumladan:

1. Qahramonlik dostonlari: «Alpomish», «Yodgor».
2. Jangnomal dostonlar: «Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek», «Xoldorxon» va b.
3. Romantik dostonlar: «Rustamxon», «Murodxon», «Kuntug‘mish», «Go‘ro‘g‘li» va b.
4. Tarixiy dostonlar: «Edega», «SHayboniyxon», «Oychinor» va b.
5. Kitobiy dostonlar: «Layli va Majnun», «Farhod va SHirin», «Zevarxon», «Oshiq G‘arib va SHoxsanam», «Sayyod va Hamroh» va b.

Dostonlarda ezhulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g‘oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma’naviy kamolot sari etaklagan.

Ana shunday umrboqiy asarlardan biri «Alpomish» dostonidir. O‘n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M.Qo‘shmoqovning yozishicha: «Alpomish alp bo‘lgan uchun ming yillar davomida xalq yuragida o‘lmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomitsh obarizining bir qirrasi xolos. Alpomish aslida ma’naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma’naviy birligi uchun ozodlik, ezhulik, tinchlik kurashgan qahramon... Ma’naviyat qahramoni bo‘lgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi. Shuning uchun o‘zbek xalqi o‘z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi. Undan ibrat qilib Alpomish o‘g‘illarni, Barchin qizlarni voyaga etkazdi».

«Alpomish» dostonida ishq - muxabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor, ma'lub sabab bilan ajalib ketgan xalqni birlashtirish yo'lida xizmat ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jixatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi. Dostonda kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish kabi ibratli tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga qulq solish, ular bilan maslahatlashish, aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlar ham tasvirlangan. Shuningdek, o'zbekning kadimiy urvodatlaridan bo'lgan sovchilarni kutish, mexmon qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, izzatini qilish, shirinso'zlik bilan muomala qilish kabi axloqiy hislatlar ham o'z ifodasini topgan.

Dostondagi qaxramonlik jasoratlarini Barchin obrazida ham khrishimiz mumkin. Barchin alplarning eng zo'ri Ko'kaldoshdan olti oy muhlat so'raydi, ular ko'nishadi; o'n yigitga o'n bedov otni berib xat yozib Alpomishga jo'natadi: «Olti oychalik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim, zo'r yovning qo'lida qoldim, olti oylik muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin», -deydi. Doston yoshlarga yoriga vafodorlik, sadoqatlik kabi hislatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi.

Dostonda aka-singil o'rtasida mehr-oqibat, oila sha'nini himoya qilish, singilning akaga mehri kabi hislatlar ham ifodalangan. Alpomishning singlisi Qaldirg'och «ahmoq qalmoq» elida to'qson alpning orasida talash bo'lib, ular zug'umidan azoblar ichra o'rtangan Barchinni qutqarmoqqa shoshilmagan akasidan o'pkalab, unga so'z tg'ini sanchadi: «Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin, Nar-modi ishini bunda qilmagin», - deydi. SHunda Qaldirg'och o'sha gaplarni yanada qamchinliroq qilib aytadi:

«Har kim o'z elida bekmi, to'rami,
Nar – modalar sendan kamroq bo'lami,
Mardning yori toy talashda qolami?»

Ayni, «nar-modi», ya'ni «erkak-urg'ochi» so'zi o'zining ta'nador qudrati bilan yigitning hamiyatini uyg'otib, Alpomishni Boychiborga mindiradi, Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan elib boradi:

«Dubo'lg'a boshda dungullab,
Kark qubba qalqon qarqillab,
Tilla poyanak urilgan
O'zanglarga sharqillab,
Bedov otlari dirqillab,
Olg'ir qushdayin charqillab,
Qulda nayzasi so'lqillab,
Yurmoqchi uzoq yo'liga,
Qaramay o'ngu so'liga,

Etsam deb yorning eliga
Siltab yuradi Boychibor...
Yo‘l yurar davlatli shunqor...»

Alpomish Qalmoqshox yurtiga borib, Qorajon bilan do‘st tutunadi, u Alpomish nomidan Barchinoyga sovchi bo‘lib boradi va shunday deydi:

- «Qani, Barchin, Alpomish bo‘lsa keldi, alplarning muhlati bo‘lsa bitib qoldi, sen nima javob aytasani?» Barchin aytadi: «Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb men Alpomishning etagidag ushlab keta berayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergen. Har kim maydonga ot soladi. Mening to‘rt shartim bor, shu shartimni bajargan kishiga tegaman. Hohi Alpomish qilib olsin, hohi Qalmoqlarning biri qilib olsin. SHu so‘zimni xon to‘ramga aytib bor», - deydi.

Barchin qanchalik Alpomishni sevsaga ham, lekin o‘zbekona hayo bilan hamma qatori shartni bajarishini talab qiladi. Dostondagi bu parcha qizlarimizni iboli, hayoli, iffatli, or-nomusli qilib tarbiyalashda juda ahamiyatlidir.

Barchin alplarga 4ta shart qo‘yadi: «Poyga qilaman, otini o‘zdirganga tegaman; kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman; yoy tortishsa yoyi sinmay qolganga tegaman, ming qadamda tanga pulni urgan qarag‘ay merganga tegaman», -deydi. Dostondagi qaxramonlik jasoratlari mana shu to‘rtda shartni bajarishda o‘z ifodasini topadi.

«Alpomish» dostoni o‘zbek xalqining sevikli dostoni bo‘lgani beziz emas. Undagi voqealar hayotiyligi va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylik, samimiyat, to‘g‘rilik, hamiyatlilik, do‘stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo‘lgan o‘zbek milliy ruhiyati yaqqol ko‘rinadi.

«Alpomish» dostonining 1000 yilligi 1999 yilda Termizda nishonlandi. Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Maximov ta’kidlaganlaridek, «Turkiy tarixning eng chuqr qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o‘zbekning o‘lmas so‘zi timsoli sifatida munavvarlik olib kiradi. CHinakam xalq so‘zining umri boqiyidir».

Xalq dostonlarining juda katta qismi sevgi sargo‘zashtlarini tasvirlashga bag‘ishlanadi. Ishqiy – romantik dostonlarda voqealari tuguni oshiqning ma’shuqa xakida xabar topishdan boshlanadi. Masalan, «Ravshan» dostonida Ravshan Zulkumorni uzukda ko‘rib qoladi. «Kuntug‘mish»da Holbeka yigitni tushida ko‘radi, Kuntug‘mish qizning sur’atiga oshiq bo‘lib qoladi, ya’ni bir birini ko‘rmagan odamlar o‘rtasida g‘oyibdan sevgi paydo bo‘ladi. Sar sevgi esa hamisha odamni qaxramonlikka, jasurlikka, jasoratga undaydi.

«Zavarxon» dostonida Zevar va Malikai Xubon o‘rtasidagi chuqr insoniy munosabatlar, visol va xijron, vafo va sadoqat, do‘stlik tarannum etiladi.

«Kuntug‘mish» dostonida yoshlarni kasb – hunar o‘rganishga undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntug‘mish degan yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, o‘n to‘rt yoshga to‘lguncha ilm – hunar o‘rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O‘n to‘rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko‘pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o‘rganadi, har tomonlama komil shahzoda bo‘lib etishadi.

«Ravshan» dostoni ham ishqiy – sargo‘zasht dostondir. Bu doston ham «Go‘ro‘g‘li» turkumiga mansub, «Ravshan» pok va samimi muhabbatini kuylovchi maqsadga erishish yo‘lida mardlik va botirlikni ulug‘lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir.

«Malikai ayyor» dostoni ham «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Unda muhabbat hongomalari va ishqiy sargo‘zashtlar serob. Dostonda or-nomus, imon-e’tiqod, insoniy iroda, chidam, topqrlik singari ezgu ma’naviy sifatlar tasvirlanadi. O‘zbek yigitlariga xos eng oljanob fazilatlar Avaz timsolida aks etgan. Dostonda xalq maqol, matal va qo‘shiqlaridan juda keng foydalaniman.

«Oysuluv» dostonidagi Oysuluv o‘zbek xotin - qizlarining umumlashma obrazidir. Uning hozirgi zamon xotin - qizlariga ibrat bo‘luvchi go‘zal xslatlari juda ko‘p. Masalan, Oysuluv o‘g‘lining zindonband bo‘lganini eshitib esankirab qolmaydi, balki sabr – toqat qilib, mulohaxa blan ish ko‘radi, qo‘rqmay eron elchilariga qarata: «Men Turon mamalakatimni, elu – xalqimni unga bermayman!»-deb xitob qiladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan dostonlarning barchasi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishda xalq pedagogikasining eng muhim manbalaridan ekanigi bejiz emas.

Dostonlar xalqimizning o‘ziga xos badiiy tarixi bo‘lib, tarixiy – madaniy ahamiyati tengsizdir. Ularda xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan orzu-umidlari, kelajak xakidagi uy-fikrlari mujassamlashgan. Xalq dostonlari milliy iftixon va o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik, o‘zaro ishonch, do‘stlik tuyg‘ularini tarbiyalashda juda katta g‘oyaviy-estetik vazifani o‘taydi.

Xalq dostonlari o‘zbek xalqi madaniyati rivojida ham katta ahamiyatga ega. Dostonlar motivlari asosida doamalar va badiiy filmlar yaratildi. Dostonlar yozuvchilar, shoirlar, dramaturgilar, kinomatograflar, rassomlar, xaykaltaroshlar, fan va madaniyat arboblari uchun bitmas – tugalmas ijod tashmasidir.

Dostonlar ko‘rib turganimizdek, yigitlarimizni mardlikka, jasurlikka, mehnatsevarlikka chorlaydi. Shuningdek, do‘stga vafodorlik, aka-uka o‘rtasidagi mehribonlik, ota-onaga fidoyi bo‘lishga o‘rgatadi. Masalan, aka-uka o‘rtasidagi mehribonlik «Kuntug‘mish» dostonida Turkiboy va Mohiboy obrazlarida do‘stlar

o‘rtasidagi sadoqatlik «Zeverxon» dostonida Zeverxon va Xasanxon, «Alpomish» dostonida Alpomish va Qorajon obrazlarida tasvirlangan.

Dostonlarda ko‘plab hikmatli so‘z va maqollarni uchratish mumkin. Masalan: «G‘aribning ko‘nglini ovlamoq savob», «Qilichdan seskanmas botirning tani», «Kamlikning kamoli bordir, manmanning savoli bordir», «Yaxshilarning yuzin ko‘rsang jannatdir, yomon odam qilgan ishi minnatdir», «O‘zingdan kattani uchratsang ter bil, o‘zingni er bilsang, birovni sher bil» kabilar shular jumlasidandir. Xususan. «Alpomish» dostonida xalq donoligining durdonalari – xikmatli so‘zlar juda serob. Ularni xalqimiz boshidan o‘tkazgan tajribalar asosida yuzaga kelgan xulosalar desak adashmaymiz.

«Kuchuk bosmas yo’lbars-sherning izini,
Esi bor biladi gapning to‘zini»;
«To o‘lguncha so‘ylab qolgan til bo‘lsin,
G‘animning shavkati kuyib kul bo‘lsin»;
«Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema»;
«Davlat qunsa bir chibinning boshiga,
Semurg‘ qushlar solom berar qoshiga»;
«Sozandalar sozin chertar qul bilan,
Yomon odam kuydiradi til bilan»;
«Xozon bo‘lsa, zog‘lar qo‘nar gulshanga»;
«Gul ketar bo‘lsa, guliston emranar,
Shahar vayron bo‘lsa sulton tebranar
Mol borida hamma odam do‘st edi,
Boshdan davlat qaytsa tuqqan emranar»

Dostonlar mavzusiga singdirilgan yuqoridagi kabi maqollar va xikmatli so‘zlarning axloqiy tarbiyadagi ahamiyati cheksizdir. Ishqiy romantik dostonlar yoshlarni sevgida vafodor, do‘stga sadoqatli qilib tarbiyalasa, qaxramonlik va jangnoma dostonlar yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik kabi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Go‘zal xulq, mukammal ma’naviy axloqiy fazilatlarni har bir insonda mujassam bo‘lishi ta’lim tarbiyaga bog‘liq. Mazkur qo‘llanmaning ikkinchi mavzusida ta’kidlanganidek, yuksak ma’naviy axloqli yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining boshqa manbalari qatori dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini ta’lim tarbiya jarayoniga singdirishimiz lozim.

Xalq dostonlarida milliy an’analar, urf – odatlar, insoniy qadriyatlar doim ijobjiy obrazlar, xatti – harakatlari bilan bog‘lab tasvirlanadi, ular timsolidi adolatparvarlik, rostgo‘ylik, mardlik, insonga mehr-muhabbat bilan qarash, halollik, vafodorlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, do‘stlik va samimiyyat

kabi hislatlar mehnat tarbiyasi, jismoniy kamolot, aqliy va axloqiy sifat ulug‘lanadi. Dostondagi ijobjiy qaxramonlarni xalq o‘z donishmandlarina aylantirdi.

Demak, dostonlarda ilgari surilgan muhim g‘oyalar, ijobjiy qaxramonlar timsolida mujassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi ishonch-e’tiqodlar, urf-odatlar, udumlar mohiyatini kelajak avlodga etkazishning eng samarali yo‘li ham xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanishdan iboratdir. Zero, dostonlar turli ramziy obrazlar orqali o‘tmishimiz bilan hozirimizni bir biri bilan chambarchas bog‘lab turadi, yoshlarga estetik did va zavq bog‘ishlashdan tashqari axloqiy shuurini ham uyg‘otadi.

Nazorat savollari:

- ✓ Dostonlarning yaratilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
- ✓ Dostonlarda ilgari surilgan tarbiyaviy g‘oyalar haqida gapirib bering.
- ✓ Dostonlarning necha turi mavjud?
- ✓ Dostonlarda xalq madaniyatini tasvirlanishi.
- ✓ Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati.

O’quv topshiriqlari:

1. Quyidagi ish qog‘ozi asosida “Tizimlashtirish” metodi yordamida talabalarning” Dostonlar “ haqidagi bilim, ko‘nikma, malakalari (BKM)ni tashhishlashga doir tushunchalarni ifodalang.

Ish qog‘ozi

Talabalarning “Dostonlar” haqidagi BKMni tashhishlash			
Tushunchalar	Tushunchalar	Tushunchalar	Tushunchalar

2. Quyidagi ish qog‘ozi asosida “Ikki sahifali kundalik” metodi yordamida talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari (BKM)ni tashhishlashga doir tushunchalarni ifodalang.

Ish qog‘ozi

Talabalarning “Dostonlar” haqidagi BKMni tashhishlash
--

<i>Tushunchalar</i>	<i>Ularning ta'rifi</i>

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- M.Ochilov «O'qituvchi odobi», Toshkent. O'qituvchi 1975-yil
- Mirtursunov «Xalq pedagogikasi» Toshkent 1968-yil
- A.K.Munavvarov «Oila pedagogikasi» Toshkent 1994-yil
- O'.Asqarova,M.Xayitboev,M.Nishonov ” Pedagogika”T;Talqin 2008 y

7-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY URF- ODATLAR, AN'ANALAR, UDUMLAR, MAROSIMLARNING TARBIYA VOSITASI SIFATIDAGI O'RNI

Reja:

1. Milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni
2. Ma'naviy tarbiya jarayyonida milliy qadriyatlarning ahamiyati

Tayanch so'zlar: *milliy istiqlol, ma'naviy qadriyatlar, urf-odat, an'ana, marosim, udumlar, sharq mutafakkirlari, uyg'onish davri, ma'naviy barkamollik, madaniy-ma'rifiy qarashlar, ma'naviy meros, globallashuv jarayoni, tabiiy qadriyatlар, moddiy qadriyatlар, ma'naviy qadriyatlар, estetik qadriyatlар, milliy qadriyatlар, umuminsoniy qadriyatlар.*

Milliy istiqlol mafkurasi ham ana shu milliy qadriyatlarga asoslanib yaratilishi bejiz emas, albatta. Bu borada birinchi Prezidentimiz I. Karimovning "Har bir fuqaro ajdodlarimizning bebafo merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlarida da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkuramizning bosh maqsadidir» - deganlari ayni muddaodir.

Ma'naviy qadriyatlар, urf-odat, an'ana, marosimlar va istiqlol istiqboli hamda mafkuraviy ong, yashash tarzi haqida, ya'ni avlodlar mushtarakligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uni uch toifaga bo'lish lozim.

Xo'sh, ma'naviy qadriyatlарimiz xususida sharq mutafakkirlарimizning ilmiy, ma'rifiy merosi borasida yoshlarimizning tasavvur va bilim darajasi qanday? Qayd qilish lozimki o'rta asrlar uyg'onish davri, bunyodkorlari bo'lmish allomalar bizning ajdodlarimiz ekanligidan faxrlanamiz. Bu borada Ibn Sinoning ma'naviy merosida qator muammolar tizimida axloq-odob masalalari e'tiborli salohiyatga egadir. Uning «Burch haqida risola», «Axloq haqida risola», «Insof haqida risola» kabi asarlarida axloq-odobning g'oyat muxim qirralari bayon etilgan.

Mutafakkirlarning asarlarida, jumladan «Tadbiri manzil» risolasida ham inson tabiatini azaldan axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi, degan g'oya muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida odamlar tayyor fazilat, odat va hayotiy ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy

hayotida shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiyaning faol ta'siri ostida asta-sekin shakllana boradi. Ta'lim-tarbiya o'zgalarning ma'naviy ta'siri ostida inson o'zida ijobiq axloqiy fazilatlarni shakllantiradi yoki «yomon do'stlar» ya'ni salbiy odatlar soxibiga aylana boradi.

Jaxonda XII asrdan boshlab hanuzgacha algebra fani asoschisi sifatida Al-Xorazmiy nomi ulug'lanadi. Hozirgi zamonda kosmik kemalar, havo transporti, hisoblash texnikasi, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlar algoritmi qoidasi asosida ishlaydi .

Abu Nasr Farobi inson aqliy va ijodiy faoliyatining takomillashuvida musiqiy oxanglarning fizikaviy xolatiga asos soldi .

Bunday yaratuvchanlik milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz sifatida ulug'lanar ekan, ularni o'rganish, o'zlashtirish yosh avlodning muxim burchi bo'lmog'i kerak .

Xalq pedagogikasining barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu-umidlarini faqat ilm-ma'rifatni egallah, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do'stlik va hamkorlik, go'zal ma'naviy-axloqiy sifatlarni egallah yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g'oya olg'a suriladi. SHuning uchun bugungi milliy istiqlol davrida xalq pedagogikasi durdonalarini o'rganish g'oyat muhimdir. Chunki: "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qilishi lozim," - deganida Prezidentimiz haq edi¹³.

Milliy qadriyatlar, urf-odat, an'ana va marosimlar - tarbiyaning eng ta'sirchan quroli. Undan oqilona foydalanish, farzandlarimiz ongida vatanparvarlik, rostgo'ylik, xalq-parvarlik tuyg'ularini shakllantirish bugungi kun talabi.

Axloq- avvalo, inson va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani. Insonning insonligi, ma'naviy – axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi milliy qadriyatlarning qadriga etishi bilan belgilanadi.

Milliy qadriyat quyidagi axloqiy tarbiya tushunchalaridan iborat :

- barkamol inson ota- onasi, farzandlari, qarindoshlari, butun oila a'zolari, qo'ni –qo'shlari, mahalla- ko'y, hamqishloqlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg'uradi;

- tevarak atrofni o'rab olgan insonlar unga kerak bo'lganidek, u ham atrofdagilarga kerakli inson bo'lishga intiladi;

- milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi;

¹³ Karimov I.A. Ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanaylik. "O'qituvchilar gazetasi". 1989 yil,2 dekabr.

- milliy qadriyatlar asosida odob-axloq, fe'l- atvor, tarbiyani yoshlarning ongiga singdiriladi;
- ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy- madaniy merosni qadrlaydi;
- Vatanni sevib, himoya qiladi, yoshlarni harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.¹⁴

Ma'naviy- axloqiy tarbiya, madaniyat to‘g‘risida so‘z borar ekan, VIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan qomusiy olimlar o‘z asarlarida inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishga, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarini o‘sirishga alohida e’tibor qaratganlariga amin bo‘lamiz, Ular o‘z asarlari bilan sharqona odob-axloq talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.

O‘zbekistondek ona zaminimiz jahonga ne-ne buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalarni etishtirib bergan. Ular- xoh tibbiyotchi va dorishunos, xoh riyoziotchi va falakshunos, hox tarixchi va fiqix, xoh tilshunos va munaqqil (naql qiluvchi), xoh adib va shoir, xoh tasavvuf ilmining mashxur namoyandasiyu davlat arbobi bo‘lsin etuk ilmiy asrlar yaratganlar.Ulug‘ bobokalonlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, abu nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Bahouddin Naqshband, HojaAhmad YAssaviy, Mirzo Ulug‘bek, az Zamashariy Alisher Navoiy, Zaxiriddin Bobur, Abdulla Avloniy va boshqa alloma- mutafakkirlarning shuningdek, jadichilarining ismlarini va ular tomonidan ta’lim – tarbiyaga oid asrlarini tilga olish kifoyadir.

Bu mavzuni kengroq yoritishda milliy qadriyatlarimizga o‘zviy bog‘liq bo‘lgan diniy qadriyatlarimizning roli haqida to‘xtalib o‘tmasdan ilojimiz yo‘qdir.

Diniy qadriyatlarni milliy qadriyatlardan ajratib o‘rganish yoki tahlil qilish qiyin. Sababi, milliy qadriyatlar diniy qadriyatlar bilan qo‘silib ketib, mukammal umuminsoniy qadriyatga aylanadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov so‘zları bilan aytganda: “Biz islom dini ota- bobolarimiz dini ekanı, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz... Dinga hurmat va e’tiqod- biz uchun o‘lmas qadriyatdir”¹⁵.

Millatning ravnaq topishida tarixan shakllangan milliy va diniy qadriyatlar, urf-odatlar, an’ana marosimlarning ahamiyati beqiyosdir. Milliy

¹⁴ G.M.Ergasheva.Milliy qadriyatlar va shaxs ijtimoiy ximoyasining huquqiy mexanizmlarini takomil-lashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.- T.: “Akademiya”, 2007. 211-212 betlar.

¹⁵ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. –T.:2000. 26- bet

qadriyatlar avvalo, har bir millatning iftixori, faxri shu bilan birga ma’naviy merosining poydevori hamdir.

Mustaqillik milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish, ularni yanada teranroq anglashimiz uchun keng yo‘l ochib berdi. Mustaqillik, tufayli islam dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar qilindi. Xalqimiz hayoti va turmushida islam dini va islomiy qadriyatlar ma’naviy va ma’rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qolgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov so‘zлari bilan aytganda, “biz islam dini ota- bobolarimiz dini ekani, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz...dinga xurmat va e’tiqod- biz uchun o‘lmas qadriyatdir” .

Hamma davrlarda, barcha xalqlar uchun ta’lim-tarbiya eng dorlzarb masala sifatida qaralgan. Har bir millatning tarbiya borasida o‘ziga xos ma’naviy merosi, tajribalari va yondashuvlari mavjud.

Koreya davlati ta’lim tizimida milliy tarbiyaga alohida e’tibor qaratiladi. Davlat maktablarida dinshunoslik o‘qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab “Odobnoma” kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o‘qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu fan o‘z ichiga dinshunoslik asoslarini ham qamrab olgan bo‘lib, qadriyat sifatida o‘qitiladi. Ehromlarga sayyohat qilib borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma’naviyat tarixini o‘rganish mакtab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Xitoy ta’lim tizimining tarixi juda uzoqdir, uning ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi (eramizdan oldingi V-IV asrlarda yashagan) Kun Szi (Konfutsiy) qator ilg‘or pedagogik g‘oyalarni olg‘a surgan va xususiy o‘qitishga asos solgan.

Globallashuv jarayonining milliy ma’naviyat va axloqiy qadriyatlardagi o‘ziga xosliklari yemirilishining oldiga to‘siq bo‘la oladigan omillarni yuzaga keltirsa va ulardan samarali foydalanish yo‘lida har bir millat harakat qilishga intilsagina integratsiyalashuv jarayonining tabiiy kechishi davom etish imkoniyatlari saqlanib qolishi mumkin. Aks holda globallashuvning milliy o‘ziga xosliklarini bir qolipga solishga o‘tkazayotgan salbiy ta’siri avj olishi davom etadigan bo‘lsa kuchlarning kuchsizlar ustidan hukmronlik qilishi uchun shart-sharoitlar yuzaga kelishi xavfi kuchayib boradi. Yana ham aniqrog‘i Integratsiyalashuv jarayonining milliy, ma’naviy madaniyat, qadriyat va ilm-fan sohalarida millatlarning o‘zaro tabiiy ta’sir o‘tkazish va boyitishdagi imkoniyatlarining cheklanib borishi o‘z navbatida har bir millatning mustaqil sub’ekt sifatida mavjud bo‘lishiga tahdidning kuchayishiga olib keladi. Aslida globallashuv internatsionallashuv va integratsiyalashuv ta’sirida amalga oshsagina

barcha sohalarda tenglik tabiiylik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillarining amal qilishiga zamin yaratiladi.

Barchaga ma’lumki, keyingi paytlarda ijtimoiy va ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, milliy urf-odat va an’analarmizni turgi behuda va zararli ko`rinishlardan tozalash, diyormiz xalqini insoniy kamolot cho`qqilari sari yuksaltirish kabi xayrli ishlarga birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan katta e’tibor berilmoqda.

Qadriyat – bu qadr qimmat ma’nosini anglatib, u inson uchun qadrli bo‘lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuidir.

Qadriyatlar – faqat o‘tmish uchun qadrli bo‘lmasdan, balki hozirda ham kelajak taraqqiyotida ham qadrli bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi hamda kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va h.k.lar majmui.

Qadriyat turlari quyidagilar:

- tabiiy qadriyatlar;
- moddiy qadriyatlar;
- ma’naviy qadriyatlar;
- estetik qadriyatlar;
- milliy qadriyatlar;
- umuminsoniy qadriyatlar;

Tabiiy qadriyatlar – bu insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan resurslar, ya’ni yer va yer ostiboyliklari, suv, havo, o‘rmonlar o‘simgiliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar.

Moddiy qadriyatlar – bu insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishda qadrli bo‘lgan narsa (predmet, buyum)lardir. Ular: ishlab chiqarish vositalari va qurollari, mehnat predmetlari, moddiy ne’matlar, kishi faoliyati jarayonini amalga oshiradigan buyumlar.

Ma’naviy qadriyatlar – bu siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy, ma’rifiy, madaniy qadriyatlar.

Estetik qadriyatlar – bu barcha ham shaklan, ham mazmunan go‘zalliklardir.

Milliy qadriyatlar – bu muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kelgan va ma’lum shakl va mazmunga ega bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasidir.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan va uning svilizatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmuasidir.

Xalqimiz ichida necha asrlar davomida shakllangan urf-odatlar juda ko`p.

Ba'zi manbalarda ularning 376 tasi sanab o'tilgan.

An'analar qadim-qadimlardan insoniyat turmushi, ijtimoiy faoliyati, mehnatidagi ibratli hayot saboqlaridir. Ularni avlod-ajdodlar uchun yo'l-yo'riq darslaridir desak yanglishmagan bo`lamiz.

O'zbek an'analari, qadriyatlari xususan xalq pedagogikasi, og'zaki ijod, uning tarkibidagi pandnomalar, o`gitlar, nasihatlar, olqish duolar har kun har daqiqa jonli jarayonlarda yashab, turmush tarzimizni bezab, ayniqsa farzandlarimizga to`g'ri bo`lish, to`g'ri yashash va odob-axloqi joyida bo`lishlikni eslatib turuvchi, da'vat qiluvchi manbalaridir.

Qadriyatlarimizning yana bir umumiy mushtarak tomoni shundaki, ularning barchasi, insonning iymon-e'tiqodda ma'naviy ma'rifiy va axloqiy-ruhiy tarbiyada komil odam bo`lishlikka qaratilgan. Yoshlarimiz xalqona qadriyatlardan nechog'lik ko`p saboq olsalar, ularning tafakkurlari shunchalik boyib, aql-idroklari qayrilib, har tomonlama kamol topaveradilar.

Xullas, qadriyatlar mazmuni xalq pedagogikasi qatlamlariga singdirilgan. Ular bag'rida kamol topgan. Xalq pedagogikasi maqsadi esa farzandlarimizni yetuk fazilatlari, komil insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Jamiyatimizda, xalqimizga xos fazilatlaridan bo'lgan o'zaro mehr-oqibat,qadr- qimmat, xayru- sahovat singari insoniy fazilatlarning yanada rivoj topishida mahallalar yetakchi kuchga aylangani sir emas. Zero yurtboshimiz iborasi bilan aytganda, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari dadil odimlash tamoyili huquqiy democratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Sharq xalqlarining me'rosi xilma-xil, ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlarga, masal va rivoyatlarga boy bo'lib, mavzu jihatdan bir-biriga chambarchas bog'langan.

Bu asarlar o'z muxtasarligi, ravonligi, qiziqrilikligi, ohangdorligi hamda didaktik ahamiyati, g'oyaviy mazmuni, ma'naviy to'qligi, hayotiyligi bilan, xalqqa yaqinligi bilan insonlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda o'zgacha muhim ahamiyatga egaligi bilan ham qadrlidir.

Mutafakkirlarning hikmatli so'zlari bilan birga, ilg'or qarashlari va umumma'rifiy orzularini tarannum etuvchi voqeа va hodisalar o'zining tarbiyaviy mazmuni bilan yoshlarni komil insonlar sifatida tarbiyalashda asosiy omil sifatida xizmat qilishi mumkin. Zero, mutafakkirlar merosida keltirilgan hikoyalarda, matalu rivoyatlarda nomus va poklik, insof vaadolat, muruvvatlilik va haqgo'ylik kabi ijobjiy fazilatlarga qarama-qarshi qabixlik, tovlamachilik, riyokorlik, muttahamlik kabilar qo'yiladi. Ko'pgina hikoyalar zamirida inson o'ziga kerakli xulosalar chiqarib oladi. Eng ahamiyatlisi shundaki, bu o'git va nasihatlar

o‘tmishdagi ulug‘ mutafakkirlar va donishmandlarning tarixiy hikoya va hikmatli so‘zлari orqali inson ongiga etkaziladi.

Har bir inson o‘z hayotida ijtimoiy faol bo‘lishlikka intilishi kerak. Buning uchun, eng avvalo, o‘z shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishga erishishi, oilaviy turmushga tayyor bo‘lishi, ilm olishga intilishi, hayoti uchun zarur bo‘ladigan mehnat malakalariga ega bo‘lishi, madaniy hordiq chiqara olishi va, albatta, Vatan oldidagi burchini bajara olishga tayyor bo‘lishi lozim.

Mahalla deganda insonlarning belgilangan ma’lum bir hududda jamoa bo‘lib yashashlari tushuniladi. Ta’kidlash joizki, o‘zini –o‘zi idora qilish qadimgi Sharq mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston hududida vujudga kelgan ilk davlatlar va ularning boshqaruv faoliyatida ham yorqin ifodasini topgan. O‘zbek mahallalari o‘zida jamoatchilik ruxi, insonparvarlik, o‘zaro yordam, insof, diyonat, raxmdillik kabi insoniy tuyg‘ular bilan sug‘orilgan holda shakllangan katta oiladir.

Biz o‘z tarixi bilan faxrlanadigan insonlarni tarbiyalashimiz va shakllantirishimiz, bunda milliy g‘urur va milliy qadriyatlarimizga tayanishimiz va undan unumli foydalanishimiz zarur.

Navro‘zi olamning qaytishi xalqimiz ruhiyatini ko‘tardi. Navro‘z bayrami bilan birga arlar davomida e’zozlab kelingan urf- odatlарimiz, an’ana va o‘yinlarimiz qayta tiklandi.

Yosh avlodni tarbiyalashda milliy- m’naviy qadriyatlar juda katta tarbiyaviy kuchga ega. Ularga sodiqlik bizni milliy birlik sifatida jahon miqyosida betakrorligimizni ta’minlaydi. Tilimiz, urf- odatlар, an’ana va udumlarimiz shunchaki o‘tmishdan qolgan meros emas, balki o‘zligimizni anglashimiz shartidir. Biz bu qadriyatlarimizning naqadar muhim ekanligini anglay olsak, millat sifatida o‘zligimizni saqlab qolamiz.

Bugun yoshlar o‘z milliy tarixini o‘rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf- odat va an’analarining qayta tiklanib borayotgani ularni o‘zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdir. Bugun yoshlar shunchaki milliya’naviy qadriyatlarini o‘rganib qolayotgani yo‘q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan- texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Ma’lumki, 2008 yilda mamlakatimizda 18yoshgacha bo‘lgan yoshlar 10 million 360 ming nafarni yoki umumiyl aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa- 17 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni¹⁶ tashqil etgan edi.

O‘z-o‘zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashqil etadigan yoshlarimizning hali- beri yechilmagan muammolariga e’tiborimizni jalb etish,

¹⁶ Madalieva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar.- T.: “Akademiya”, 2008. 5- bet.

ularni hayotimizda haqiqatdan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligidan diqqat markazida turibdi.

Zero, yurtboshimiz qayd qilganlaridek: “Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu fazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma’naviyatni shakllantirishda, boshqacha aytganda, ozod, o‘z haq-huquqiniyaxshi taniydigan, boqimandalikning o‘zi uchun or deb biladigan, o‘z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o‘z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan komil komil insonlarni tarbiyalashdan iborat ”.¹⁷

Jamiyat yoshlari ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod qadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi ”,¹⁸ deb ta’kidlaydi birinchi prezidenti I.A.Karimov. Mustaqillik esa ana shu vazifani amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Xalq yoki millat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega bo‘lsagina, o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘lini erkin belgilab olishi, yoshlarni o‘z milliy qadriyatlari negizida tarbiyalash mumkin.

Yoshlar tarbiyasida milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy- siyosiy islohotlarni amalga oshirishda tutgan o‘rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o‘ziga qaram qilishga, birovning mol- mulkini talon- taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o‘ldirishga yoki zarar etkazishga yo‘l qo‘ymaydi. Chunki erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olibyu borilgan ishlar va xatti- harakatlar axloqiy hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o‘zaro munosabatlarda inson erkinligi qonun hamda axloqiy normalar bilan cheklangan bo‘ladi. Erkinlikni to‘g‘ri tushunib, uni hayotimizga to‘hri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne’mat- adolat va erkinlikni saqlab qolishimiz va undan keyingi avlodlarimiz ulardan bahra olishlari mumkin.

I.Ergashev Yoshlar dunyoqarashida milliy – ma’naviy qadriyatlarga tayanish muayyan maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilar :

- Yoshlar o‘z dunyoqarashida milliy – ma’naviy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. O‘zining milliy- ma’naviy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi.

¹⁷ Karimov I.A. biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7- jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 304-bet.

¹⁸ Karimov I.A. Vatanmiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish- oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2007. 38-bet

- Yoshlarning milliy- ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatinig hozirgi holatini o'rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko'proq qaysi qadriyatlar ustivor bo'lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ularning milliy- madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodni mustahkamlashdan iborat.

- Yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodining mustahkam bo'lishi O'zbekiston tanlagan o'ziga hos va mos taraqqiyot yo'li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo'yadi.¹⁹

I. Ergashev jamiyat ma'naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarini quyidagi omillarga bog'laydi :

1. Mustaqillik ulug' ne'mat va qadriyat ekanini chuqur idrok etgan holda, umummaqsad yo'lida yoshlar ozod shaxs va erkin fuqaro sifatida jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini chuqur anglab, faollik ko'rsatishi ularning qalb amriga aylanishi lozim.

2. Jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat demoqratiya hamda yoshlar dunyoqarashidagi milliy- ma'naviy qadriyatlarga tayanish bilan ham o'zviy bog'liq. Mamlakat, xalq, millatning buguni va kelajagiga daxldor bo'lgan qadriyatlar haqida o'z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi. Eng muhimi, fikrni erkin aytish muhim. Yoshlar fikriga hurmat bilan qarash, o'zgalar fikriga tayanish, milliy- ma'naviy qadriyatlarni tiklash orqali jamiyatda siyosiy- huquqiy madaniyat yuksalib boradi.

3. Demoqratik jamiyatda milliy- ma'naviy qadriyatlarni tiklashga ehtiyoj ortib, fikrlar xilma- xilligi, munozara madaniyati shakllanadi. Faqat o'z fikrini o'tkazish, o'zgalar fikrini bo'g'ib qo'yish hollariga barham beriladi.

4. Milliy – ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi tufayli yoshlar o'z erkinligi va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg'uga ko'proq ehtiyoj sezadigan bo'lib boradi. Madaniy merosga nisbatan befarqlik va loqaydlik kabi ayrim illatlar barham topadi.

5. Bugun rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayrim shaxslar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan salbiy illatlarga barham berish imkoniyati tug'iladi.

6. Mustaqil mamlakatda har bir yoshning qaysi sog'ada ishlashidan qat'i nazar, avvalo, ozod va erkin shaxs, inson sifatida o'zligini anglamog'i zarur

¹⁹ Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. –T.: "Akademika", 2008. 15-16- betlar.

bo‘ladi. O‘zlikni anglash esa ma’naviy qadriyatlarni chuqur o‘rganish, asrabavaylab rivojlantirish orqali amalga oshadi.²⁰

Ota- bobolarimiz ilm o‘rgatish bilan farzandlariga avloddan- avlodga o‘tib kelayotgan milliy ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar. Istiqlolning taraqqiyot va o‘zgarishlarga boy davrida yoshlarning har tomonlama kamol topishi hozirgi kunning talab va ehtiyojidir.

Nazorat savollari:

- ✓ Ma’naviy qadriyatlarning qayta tiklanishi jarayonlari haqida nimalarni bilasiz?
- ✓ Milliy qadryatlar deb nimaga aytildi?
- ✓ YOshlarda qadryatlarga nisbatan munosabatni shakllantirishda tarixiy manbalardan foydalanishning ahamiyati.
- ✓ O‘zbek xalqi an’analari, marosimlari, urf-odatlarining tarbiyaviy ahamiyati qanday?
- ✓ YOshlarda qadryatlarni qadrlash jihatlari qanday shakllantiriladi?
- ✓ YOshlar dunyoqarashida milliy – ma’naviy qadriyatlarga tayanish qanday maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi?

O’quv topshiriqlari:

I. Quyidagi ish qog‘ozi asosida “Sinkveyn” metodi yordamida zamonaviy dars mohiyatini yoriting.

Ish qog‘ozi

1-qator. 1 ta ot

2-qator. 2 ta sifat

3-qator. 3 ta fe’l

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- M.Ochilov «O’qituvchi odobi», Toshkent. O’qituvchi 1975-yil
- Mirtursunov «Xalq pedagogikasi» Toshkent 1968-yil
- 4,A.K.Munavvarov «Oila pedagogikasi» Toshkent 1994-yil
- 5.O’.Asqarova,M.Xayitboev,M.Nishonov ” Pedagogika”T;Talqin 2008 y

²⁰ Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. –T.: “Akademiya”, 2008. 15- bet.

8-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY O‘YINLARNING MAZMUNI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Reja:

1. Xalq pedagogikasida milliy o‘yinlarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati

Tayanch so‘zlar: *o‘yin, o‘yining mohiyati, chumurdi-qochdi, milliy o‘yinlar, etakchi faoliyat, jamoaviy o‘yinlar, ko‘g‘irchoq o‘yinlari, abstrakt tasavvur, loyporsildoq o‘yini, harbiy o‘yinlar.*

O‘yin - inson faoliyatining ko‘rinishlaridan biridir. Murakkab va qiziqarli hodisa sifatida u turli kasbdagi kishilar diqqatini jalb etadi. O‘yin - inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahmiyatga egadir. Uni “bolalikning hamroxi” ham deb atash qabo‘l qilingan. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashqil etadi, u mehnat va ta’lim bilan o‘zviy aloqada bo‘lgan holda etakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ullanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi; o‘yin jarayonida bolani xayoloti, xotirasi faol ishlaydi, ta’sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo‘ladi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘yinning pedagogik nazariyasini uning mohiyati va xususiyatlarini chuqurroq tushungandagina yaratish mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqotlar o‘yin nazariyasining asosiy masalalarini birmuncha chuqurroq; yoritish imkonini beradi, chunonchi:

1.O‘yining mohiyati va o‘ziga xosligi.

2.O‘yining bola tarbiyasidagi o‘rni va uning bolalar bog‘chasidagi pedagogik jarayonda tutgan mavqeい.

Tabiyki, aqliy tarbiyaning samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan oila, ota-onal, keksalar va ustozlarning tarbiyasiga bog‘liqdir. Ular jamiyatda, turmushda yuz bergen hodisalar natijasi bo‘lgan ko‘p yillik hayotiy tajribalarini yoshlarga o‘rgatib, bolalarni bilim egallashga va mehnat qilishga jalb qilganlar.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham muayyan urug‘, qabila, elat yoki millat yashaydigan hududni begonalardan himoya qilish yashash tarzining muhim shartlaridan ana shu ruhda tarbiyalashga e’tibor qaratilgan. Bolalar o‘zlarining psixologik xususiyatlariga ko‘ra to voyaga etgunlaricha buning mohiyatini chuqur anglamaganliklari bois kattalarning Bu boradagi harakatlariga jiddiy yondashmaganlar va mas’uliyatni etarlicha his etmaganlar.

Hudud uchun kurash hayot kechirish va tiriklikni ta'minlash uchun zaruriyat ekanligini chuqur anglagan kattalar esa bolalar, yoshlarda hududni qo'riqlash, uni dushmanidan himoyalash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali yo'llarini izlagan-lar. Bunday samarali yo'l sifatida bolalar faoliyatining asosiy ko'rinishlaridan bo'lgan o'yinlar tanlangan. “.... Ibtidoiy odamlar mevalarni terib eb kun kechirish bilan mashg'ul bo'lgan davrda Bu sohaga oid ish tajribalari bilan birga o'yin-musobalarga ham ehtiyoj sezila boshlangan.

Birinchidan, mevalarni terib eyish davrida kim ko'p va tez meva zahirasini yig'sa, u to'q bo'lgan. Bu o'ziga xos musobaqani vujudga keltirgan.

Ikkinchidan, mohir terimchilar qariganda, ularga daraxt uchiga chiqib, xatarli shoxlarda turib, meva terish qiyin bo'lgan. Bundan foydalangan qariyalar bolalarga meva terishni ish sifatida emas, balki o'yin shaklida o'rgatishgan.²¹

Xalq og'zaki ijodi namunalari merganlik, kamondan otish, nayza sanchish, kurash, qilichbozlik, ot yoki tuyalar ishtirokidagi poyga hamda uloqning ommaviy tadbirlarning tarkibiy ko'rinishi bo'lganligi, ular vositasida yoshlarda mardlik, epchillik, chaqqonlik, uddaburonlik, matonat kabi sifatlar tarbiyalan-ganligi, jangovarlik kayfiyati hosil qilinganligi to'g'risida hikoya qilinadi. Turli davrlarda yigitlarning jismoniy chiniqqanligi, ularning mard va jasur bo'lishlariga jiddiy e'tibor qaratilganligi “Alpomish” va “To'maris” dostonlarida keltirilgan quyidagi lavhalar ham isbotlaydi:

1. Balog'at yoshiga etgan Barchinoy unga uylanish niyatida bo'lgan yigitlar oldiga shart qo'yib, otlar ishtirokidagi poygada g'olib chiqqan, ming qadam masofada turib, yoy bilan tanga pulni mo'ljalga ola bilgan va kurash tushib to'qson alp (bahodir)ni yiqitgan yigitga turmushga chiqishini aytadi;

2. “Vaqt alla – palla bo'lganda kuyov bilan kelinni ular uchun belgilangan soyabon aravaga chiqarish oldidan kurashtirib ko'rishadi(bo'lg'usi kelin-kuyovlarning kuch sinashishi o'zbeklar orasida yaqin kunlargacha saqlanib qolgan tortishmachoqning ibtidoiy shakli edi”).²²

3. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, qadimdan “Qilich jangi”, “Tuya poyga”, “Tuyalar jangi”, “Oqliqlar poygachi”, “Podachi”, “Poda to'p”, “Jun to'p”, “Chim to'p”, “Chavgon” va boshqa o'yinlardan yoshlarni jangovorlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali foydalanilgan.

O'zbek xalq pedagogikasida aqliy tarbiyaning amalga oshirilishi shuni ko'rsatadiki, bu sohada o'yin faoliyati muhim rol o'ynagan. Zero, bolalar tug'ilganidan boshlab, ularda atrof-muhitni anglashga qiziqish uyg'otishga ahamiyat berilgan. Ularga o'sgan sayin bu qiziqish ham rivojlanib borgan. Natijada, bolalarda aql, xotira, ko'p narsani bilishga havas, fikrni bir nuqtaga

²¹ Корабоев У. Ўзбек халқ ўйинлари. –Т.: “Санъат”, 2001, 6-бет.

²² Осим М. Широк. Тарихий қиссалар. –Т.: “Ёзувчи”, 1995, 4-бет.

qaratish, mantiqiy fikrlash qobiliyati kengayib borgan, ular asta-sekin murakkab o‘yinlarni o‘ynay boshlaganlar.

Qadimda o‘yin turlari, jumladan, qo‘sinq shaklida, qo‘z bog‘lash, o‘yinga da’vat etish, chek tashlash, og‘iz boylash, o‘rta qo‘limni top, sanoq kabi tarzda bo‘lgan. *Qizlar juft-juft bo‘lishib, kaftlarini bir-biriga urib aylanishib “Chittigul” qo‘sing‘ini aytganlar:*

Chitti gul-o, chittigul,

Hay-yu chittigul.

Chittigulga gul bosay,

Bir yonini yonbosay.

Hay-yu chittigul,

Hay-yu chittigul....

O‘g‘il bolalar esa:

Tomda tovuq qatormi,

Ayroningdan tortaymi?

O‘yin yoqmas bolalar,

Nomozshomdan qatormi?

Kel – ho!

Qo‘sing‘ini aytishib, o‘rtoqlarini o‘yinga da’vat etganlar:

Bir, ikki o‘n olti,

O‘n olti deb kim aytди?

O‘n olti deb men aytdim,

Ishonmasang sanab boq....

Qo‘sing‘ini aytib sanoqni o‘rganganlar.

O‘zbek xalq pedagogikasida **tez aytish** – bolalar aqliy faoliyatini, fikrlash qobiliyatini va nutqini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

Qizarib pishgan olmadi,

Olmadan nega olmadi,

Olmagan xo‘p bo‘bdi,

Endi kelsa, olma de...²³

Yoki:

G‘ani g‘ildirakni g‘izillatib g‘ildiratdi.

Olima olimdan olma oldimi,

Olima olimdan olma oldimi?

Eshik oldida bo‘loq, bo‘loqdan suv ichar uloq, o‘zun quloq.

To‘p-to‘p ko‘k koptok, har to‘p ko‘k koptokda bittadan katta koptok.²⁴

²³ А. Зуннунов. Халқ педагогикасида ақлий тарбия// Халқ таълими, 1994 йил 3-4-сонлар, 49-50-бетлар.

²⁴ Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1995, 24-бет.

O‘zbek xalqining uzoq yillar davomida aqliy tarbiyada qo‘llagan yaratilgan “Bekinmachoq”, “Quvlashmachoq”, “Zag‘izg‘on”, “Aylanma darra”, “O‘rta qo‘limni top”, “Kim chaqqon”, “Ayyor tulki”, “Tortishmachoq”, “YOshlom-yoshlom”, “Sarinchoq”, “Olma menda”, “CHumurdi - qochdi”, “Oq terakmi, ko‘k terak” va boshqa harakatli o‘yinlari yosh yigit-qizlarda harakat faolligini, mustaqillik, fikrlash, chaqqonlik, do‘sni himoya qilish, o‘hshatish, chamalash, so‘zlarni to‘g‘ri va bir vaqtda aytish, bir joyda turib turli harakatlarni bajarish kabi malaka va ko‘nikmalarni egallahga yordam berdi. Masalan, “Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘yinida oralig‘i 10-12 metrli masofada 7-8 nafardan yoki undan oshiq bolalar saf tortib, ikki tomonda qo‘l ushlashib, zanjirsimon shaklda turishadi. Bir tomonda saf tortib turgan bolalar baravariga qo‘shiq qilib aytadilar:

Oq terakmi, ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak?

Javob:

Oladigan jon kerak!

Yana javob:

Ol-o oladigan janingni!

Narigi tomonning bolalaridan bittasi o‘z to‘dasidan ajralib chiqib, to‘g‘ri biron bolaning qo‘liga uradi. Zanjirni o‘zadi yoki o‘zolmaydi, yo asir oladi yoki o‘zi asirlikda qoladi.

“Chumurdi – qochdi” o‘yinida 4-5 bola qatnashadi. Bolalar ariq bo‘yicha keladilar. Shunda bolalardan biri “Chumurdi-qochdi” o‘ynaymiz deb taklif qiladi. O‘yin qoidasi bo‘yicha suvgaga kim kechikib tushsa. Shu chumiriladi (sho‘ng‘itiladi). Uch-to‘rt bola keyin tushgan bolani suv tagiga sho‘ng‘itib keyin qochib-so‘zib ketadilar. Chumurilgan bola boshqalarni quvadi. Kimni tutib olsa, endi shu chumuriladi.

“Olma menda” o‘yinida esa bir necha bola suvgaga tushadi. Ulardan biri “Olma menda” deya sho‘ng‘ib ketadi. Keyin go‘yo olma qalqiyotgandek suvdan faqat boshini chiqarib yuboradi. Qolgan bolalar uni tutishga harakat qiladilar. “Olma menda” degan bola yana suv ostiga kirib qochadi davom etadi. Kim oldin haligi bolaning boshiga qo‘l tegizsa, olmani shu olgan hisoblanadi. U qochadi va bolalar uni tutishga urinadilar.²⁵

O‘zbek xalq pedagogikasining zukko tadqiqotchisi Zokir Mirtursunovning ta’kidlashicha, ov qilish o‘yinlari orqali tarbiyalashning ahamiyati juda kattadir: “Yoshlarni ov qilishga o‘rgatishning biz uchun qimmatli tomoni shundaki, ov qilishga bog‘liq bo‘lgan bir qator jismoniy mashq malakalari egallanadi. Ya’ni bola otda chopish ot ustida tik turish, yotish, ot yoniga og‘ish, otda chopa turib kamon va miltiqdan o‘q ota bilish va hakozo mashq malakasini egallagan

²⁵ F. Жахонгирров. Ўзбек болалар фольклори. –Т.: “Ўқитувчи”, 1975, 110-115-бетлар.

bo‘lishlari zarur. Shu bilan birga ov qushlari ulardan, qirg‘iy, qarchig‘oy va ov iti – tozi itni boqish, ovga o‘rgatish hamda ulardan foydalanish yo‘llarini o‘rganish talab qilinadi. Yoshlarni ovga o‘rgatish, albatta, ma’lum tajribaga ega bo‘lgan kishilar tomonidan olib borilar edi”²⁶.

Xalq pedagogikasining asosiy qoidalaridan biri bolalarni o‘z tengqurlari muhitida tarbiyalashda turli o‘yinlardan foydalanilgan. Xalq pedagogikasi o‘yinlar jarayonida bolalarda qat’iylik, tirishqoqlik, halollik, rostgo‘ylik va adolatlilik tarkib topishini, shuningdek, o‘yinlarning bolalar o‘rtasida do‘stlik va o‘rtoklikni hamda boshqa olilianob fazilatlarni rivojlantirishini yaxshi bilgan.

Boshqa xalqlardagi singari o‘zbek bolalarining o‘yinlari ham ularning jamoa bo‘lib qatnashuvini taqozo etishi ma’lum.

Binobarin, shunday o‘yinlar jamoatchilik hissini tarbiyalashda, hamjihatlik bilan harakat qilish, umumiy qabo‘l qilingan normalar va qoidalarga bo‘ysunish malakalarini, ziyraklikni tarkib toptirishda katta ahamiyat kasb etadi. O‘yin qoidalari oldida barcha o‘yinchilar tengligi tuyg‘usini vujudga keltiradi.

O‘g‘il va qiz bolalarning mehnatga doir o‘yinlari, jumladan, qizlar mehmonlarni kutib olish va mehmondorchilik odobi, o‘zaro insoniy muloqotlar, turmush masalalarini xal etish, to‘y va hokazolardan iborat turli xalq milliy urfodatlari va an‘analariga taqlid qilinadigan ko‘g‘irchoq o‘yinlarini o‘ynashi ular tarbiyasida juda muhim o‘rin tutadi. SHu o‘yinlar jarayonida bolalar kattalarning yaxshi xatti-harakatlarini va ishlarini takrorlaydilar. Ularning yaxshi so‘zlari - pand-nasihatlari, maslaxatlariga taqlid qiladilar (masalan, ona qo‘g‘irchoq orqali o‘z qiziga, ya’ni qo‘g‘irchoqning esa kizchaga o‘gitlar berishi va hokazo).

Bolalar o‘yinlarida kattalar foydalanadigan mehnat quollarining kichkina nusxalari, chorvadorlar, dehqonlar, hunarmandlar, ovchilar va boshqalarning mehnati jarayonlariga taqlid qilish katta o‘rin tutadi va bu hol ularni mehnatga psixologik hamda amaliy jihatdan tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, ko‘p o‘yinlar bolalar tafakkuri, idroki, xotirasi, zehni va abstrakt tasavvurini rivojlantirishda yordam beradi. SHu jihatdan ayrim manbalarda o‘zbeklarning juda qadimiy va o‘tmishda bolalar hamda yoshlar orasida bag‘oyat ommalashgan deya ta’riflangan turli o‘yinlari alohida qimmatga molik.

Zero, umr ko‘klamidagi o‘yin murg‘aklarni ulg‘aytiradi, hayotga tayyorlaydi. Bu jarayon ming yillar davomida ruhiyatimizga singib, irsiyatimizga o‘tgani. SHu bois hunar ham suyak suradi, jumladan, kichkintoy o‘zi to‘la anglab etmagan holda ajdodlari shug‘ullangan kasb -hunarni egallashga beixtiyor intiladi va murg‘ak ongida shakllangan narsalarni yasashga urinadi. Bu sa‘y-harakatlar odatda ko‘pincha o‘yinlar orqali amalga osha boradi. O‘yinlar esa turmush tarzimizni har tomonlama qamrab olgan. Masalan, ot o‘yin, qo‘tir echki, do‘ppi o‘yin,

²⁶ З.Миртурсунов. Ўзбек халқ педагогикаси –Т.: “Фан”, 1973, 116-бет

hammompish, tosh o‘yin, dastachilildak, uyakam o‘yin, loyparsildoq, qurmatoyov, ko‘ch-ko‘ch o‘yini va hokazo. Ro‘yxatni istalgancha davom ettirish mumkin.

Chorvador oilasida tug‘ilgan o‘g‘il yugurib yuradigan bo‘lgach, novdani ot qilib minib, chopib o‘ynay boshlaydi. Uni ko‘rgan onalari yoki akalari:

Toyi, toyi jijincharoq,

Toy bo‘lib o‘yinqaroq, - deya erkalab, uni ruhlantiradi.

Dehqon oilasida tug‘ilgan bolalar yozning issiq kunlarida to‘planishib, hammompish o‘ynashni yoqtiradilar. Bu o‘z nomiga monand "uysozlik o‘yini" bo‘lib, kichkintoylar tuproqni hammomning gumbazi shaklida uyib, rosa shapatilab, so‘ngra og‘izlarida suv keltirib, gumbaz ustiga oz-oz sepib, yana shapatilab, gumbazning ustki qismini qotirib qo‘sish qaytishadi:

Hammompish, hammompish,

Hammanikidan oldin pish.

Hammadan oldin pishmasang,

Bo‘zilib ket, o‘yilib tush!

Keyin bir tomonidan eshik ochib, gumbaz ichidagi xom tuproqlar qo‘l bilan chiqarib tashlanadi. Bunda pishiqliq shibalangan gumbaz bo‘zilmay qoladi. Gumbazi bo‘zilmay qolgan "usta" ruhlanib, baqirib-chaqirib, oyoq-qo‘llarini harakatlantirib, qo‘sish qaytib yuboradi:

Mening buvim: "Suv", - dedi,

"Oyoq-qo‘ling yuv", - dedi.

Bu o‘yin jarayonida norasidaning uysoz-ustachilikka bo‘lgan havasi orta boradi, mehnatga layoqati oshadi.

Loyporsildoq o‘yini juda qiziq: loydan kosacha yasab, uni to‘nkarib turib, silliq erga urilsa, bu "idish" ichida siqilgan havo porsillab, boshmaldoqning tirnog‘icha joyni o‘pirib chiqadi, porsillagan tovush qancha baland chiqsa, jajjilarning quvnok shovqini shunchalik avjlanadi, turli-tuman, o‘zuq-yuluq qo‘sishlarga ulanadi... Loy erga urilaverib, rosa pishigach, undan o‘zun chorqirra g‘ishtchalar tayyorlanadi va bir-biriga o‘xshamaydigan, har biri o‘ziga xos tarh asosida – qadimgi paxsa devor imoratlar andozasida uychalar yasaladi. Bu ham uysoz ustachilik hunariga bolaning qo‘lini o‘rgatib, ko‘zini pishitib boradigan o‘yinlardan biridir.

O‘yinlar qaysi shakl, mavzu, yo‘nalishga ega bo‘lmisin, loy tuproq bilanmi, cho‘pu latta bilanmi, ipu arqon bilanmi, murg‘akni hayotga, turmush ikir-chikirlariga, ro‘zg‘or ishlariga hozirlashda o‘ziga xos hunar maktabi vazifasini bajargan. Bolalar o‘yinlarining barchasi, ba’zan yuqori pardada, ba’zan xirgoyi qilgan holda, bari bir qo‘sish qaytib turib bajarilgan, uning uchun ularga o‘ziga xos bir sinkretik asar sifatida qarash lozim.

Ma'lumki, kichiklar kattalarning yurish-turishiga. xatti-harakatiga, so'ziga, ishiga taqlid qilishni ma'qul ko'radilar. Qo'shiqlar xirgoyi qilish bilan birga, meqnat jarayonida ota-onasi, aka-opasi yonida turib ishlashni yoqtiradilar. Kichkintoylar mehnat qo'shiklarini bevosita bir ish bilan mashg'ullik jarayonida juda ko'tarinki kayfiyatda ijro qiladilar. O'zlarini kattalardek sezadilar. Chunki ulardagi ulg'ayish istagi, hayotda o'z mavjudligini his etish, zavq-shavq mana shu holatda murg'ak qalbdagi to'lqinlarni jo'sh urdiradi, kuylatib yuboradi. Shu yo'sinda ma'sumlar o'zları shug'ullanayotgan o'yin-mehnat maromiga hamohang qo'shiqlar ham to'qib aytadilar.

Bolalar ruhiyatida kechayotgan ijodiy jarayonni kattalar o'z o'rnida, me'yorida rag'batlantirmoqlari lozim. Ularning qobiliyati va ijro imkoniyatiga qarab, yo'l-yo'riq berib turmoqlari zarur. Xato qilsa, sira kamsitmay, ohista, samimiy tushuntirib turilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, ota-onas mehnat jarayonida farzandlarini yonlarida olib yursalar, ularga zerikib qolmaydigan darajada ish buyursalar, o'zları ko'shiq xirgoyi qilib ishlasalar, bu norasidaning ham akdiy, ham jismoniy o'sishi uchun eng asosiy omillardan an'anaviy o'zbekona tarbiya usullaridan bo'ladi.

Turli o'yinlar jarayonida bolalar tabiat, hayvonot dunyosi va hokazolar bilan tanishadilar. Masalan, bolalar toshlar bilan o'ynayotganlarida ularning rangi, shakli, og'irligi va hokazolarni bilib oladilar, toshlar ana shu xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanishini tushunadilar. O'yinlar jarayonida ularning nutqi o'sadi, tafakkuri rivojlanadi, lug'at boyligi kengayadi.

O'tmishda o'z otlariga ega bo'lgan oilalardaga bolalar kichik yoshlaridan chavandozlikni o'rgana boshlagan. Inqilobgacha o'tgan ayrim mualiflarning kitoblarida o'zbeklar o'g'il bolalarni besh yoshidan otga mindirganini va ular o'n yoshlaridan jang o'yinlari hamda chavandozlik poygalarida qatnashgani tilga olingan.

Yozma manbalarda o'zbeklarning faqat erkaklari emas, balki ayollari ham ot minishni yaxshi bilgani qayd qilingan. Rasmiy nashrlarda yozilganidek, o'zbek ovullarida ot poygalari har qanday kulay hollarda, hatto, yangi uy solinishi munosabati bilan ham o'tkazilgan. Bunday musobaqalarga kishilar qunt bilan tayyorgarlik ko'rganlar, o'z otlarini tayyorlaganlar va bunday ishlarda o'smirlar hamda yoshlar zimmasiga ko'p vazifalar yuklangan. Ayrim kishilar o'zining butun hayotini poyga otlarini tayyorlash kasbiga bag'ishlagan. Otalar yoki bobolar o'zlarining ana shu sohadagi tajribalarini va chavandozlarga muxabbatini kichkintoylarga o'rgatgan.

O'zbek bolalar o'yinlarining ayrimlari harbiy o'yinlar bo'lib, buning sababi vatan mudofaachilarini tayyorlash va tashqaridan tez-tez bo'lib turadigan hujumlarni muvaffaqiyatli qaytarish zarurligadan edi. "Kamon otish",

"Nayzabozlik", "Urush" va boshqalar harbiy o'yinlarga kirgan. O'zbek bolalari orasida 5-6 yoshlaridan boshlab kamon otish o'yini juda ommaviy tus olgan. Jamoatchilik bu o'yinni ma'qullagan va kattalar doimo bolalarni qamon otishga rag'batlantirganlar. Xalq tarbiyada kamon otish o'yiniga qanchalik e'tibor bergenini shundan ham anglash mumkinki, onalar o'z allalarida o'g'lining kuchli va kamon otishda mohir bo'lishi haqidagi istaklarni kuylaganlar. Uzoq o'tmishda o'zbeklar o'lgan kishining qabriga ham kamon o'qini qo'yib ko'mganlar. Boshqacha aytganda, o'zbek uchun kamon o'qi qabristongacha hamroh bo'lган. Kamon otish jasurlikni tarbiyalagan, mohir kamonchi-jangchilar tayyorlashning yaxshi maktabi bo'lган.

Nazorat savollari:

- ✓ Qanday milliy o'yinlarni bilasiz?
- ✓ Xalq bolalarga aqliy tarbiya berishda qanday o'yinlardan foydalangan.
- ✓ Ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan foydalanishning ahamiyati qanday?
- ✓ Qanday o'yin turlari mavjud?
- ✓ O'yinning bola tarbiyasidagi o'rni qanday?
- ✓ Harbiy o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimada?

O'quv topshiriqlari:

Ish qog'ozi

1. Quyidagi ish qog'ozi asosida "Toifalash" metodi yordamida o'yin turlarini ko'rsating.

Ish qog'ozi

Xarakterli belgilari	Turlari
Muayyan yoshga tegishliligiga ko'ra o'ynaladigan o'yinlar	
Tashkiliy shakliga ko'ra o'ynaladigan o'yinlar	
Tarbiyaviy ahamiyatiga ega o'yinlar	

Vositalar ordamida o'ynaladigan o'yinlar	
---	--

Mavzuga oid adabiyotlar

- A.Avloniy «Uson millat», T.SHarq 1993-yil
- Abu Nosir Farobiy «Fozil odamlar shaxṣri», T.Xalq merosi 1993- yil.
- R.Usmonov «Hayot ustoz-xalq muallim», Toshkent. O'qituvchi 1997-yil
- M.Ochilov «O'qituvchi odobi», Toshkent. O'qituvchi 1975-yil
 - Mirtursunov «Xalq pedagogikasi» Toshkent 1968-yil

9-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA DINIY TA'LIMOTLAR

Reja:

1. Xalq pedagogikasida diniy ta'limotlar

Tayanch so'zlar: *Islom dini, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Arab istilochilar, diniy tarbiya, terrorizm, diniy qadriyat, umumbashariy qadriyat, Islom ta'limoti, g'oyaviy tahdid, terrorizm, fanatizm, fundamentalizm, ekstremizm, mafkuraviy kurash.*

Islom dinining umumbashariy qadriyat, ilohiy, ilmiy-dunyoviy ta'limot sifatida barhayotligini ta'minlab kelayotgan asosiy manbalari Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardir.

Qur'oni Karim bilan tanishar ekanmiz, “Ilm” so‘zi asosidagi “alima” (bilmoq) fe'l negiziga tayangan kalimalar turli hollarda 750 marta takrorlanganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan bo‘lib, bu o‘zak faqat “Alloh”, “Rabb” (Parvardigor ma’nosida), “bo‘lmoq” va “gapirmoq” kabi eng ko‘p ishlatilgan o‘zak-so‘zlardan keyin beshinchli o‘rinda turar ekan.

Rasullohga nozil bo‘lgan 5 oyat hozirgi Qur'oni Karim matni²⁷ 96-surasi (“Alaq”)ning birinchi oyatlari bo‘lib, shunday boshlanadi: “Iqra’ bi-ismi robbikal-lazi xalaq!” (“Yaratgan rabbing nomi bilan o‘qi!”). Oradan bir oyat o‘tib yana “o‘qi!” so‘zi qaytariladi: “Iqra’ va robbikal akram, allazi allama bil qalam. Allama-l-insona ma lam ya’lam” (“O‘qi! Sening o‘ta karamli parvadigoring qalam vositasi bilan ta’lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o‘rgatdi”).

Ilmgaga qiziqtirish borasida Alloh Qur’onda shunday deydi: «Aytgin, ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo‘la oladilarmi albatta bu haqda faqat aqli kishilargina eslaydilar: (“Zumar” surasi, 9-oyat). Boshqa bir oyatda ilmli kishilar Allohning ho‘zurida boshqalardan ko‘ra yuqori darajada turishlari ochiq-oydin aytilgan: «Alloh taolo sizlardan imon keltirganlarni va ilmli bo‘lganlarning darajasini ko‘taradi» («Mujodala» surasi, 11-oyat).

Arablar tomonidan bosib olingan yerlarda xalqlar Islom dinini qabul qilishga majbur etildi. Arab istilochilar xalqni o‘zlariga bo‘ysundirish va ular tomonidan Islom dinini qabo‘l qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda Islom dini targ‘ibotchilarining xizmatidan birdek foydalandilar. Natijada o‘z oldilariga qo‘ygan asosiy maqsadga erishdilar. Movarounnaharda Islom ta’limoti

²⁷ Куръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.:Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992, 5-532-бетлар (Кейинги мисоллар ҳам шу манбадан олинди).

g‘oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan Shariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo‘ysunish, yagona va qudratli Ollohga sig‘inish, shuningdek, Ollohning erdag'i rasuli (elchisi) bo‘lgan Muhammad Alayhis-salom ko‘rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabo‘l qilinishiga zamin hozirladi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi.

Ulkan hududni qamrab olgan Arab xalifaligi davlatining hukmronligi davrida ijtimoiy hayot, turmush tarzi, shuningdek, ilm-fan va madaniyat yanada rivojlandi. Ushbu davrlarda qadimgi yunon va rim madaniy merosi negizida bir qator fanlar yangi tushuncha va bilimlar bilan boyidi. Yunon va rim mutafakkirlari tomonidan yaratilgan va astronomiya, tibbiyot, kimyo, matematika va geografiyaga oid deyarli barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi.

G‘oyaviy kurash-xalqaro maydonda ustuvor mavqega ega bo‘lish, keng xududda xukumronlikka erishish yo‘lida olib borilayotgan harakat shakli hisoblanadi. Xukumronlik uchun intilayotgan kuchlarning maqsadlari, faoliyat yo‘nalishlari hamda ilgari surayotgan ta’limotlarining mohiyatiga ko‘ra g‘oyaviy kurash turli ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

G‘oyaviy kurash jarayonida ayrim ekstremistik kuchlar insoniyat hayoti uchun o‘ta havfli sanaluvchi terrorizmdek g‘oyaviy tahdiddan foydalanishga zo‘r bermoqda.

Terrorizm: terrorchi yoki terrorchilik tashqiloti tomonidan birdan ortiq davlat xududida amalga oshiriladigan yoki bittadan ko‘p davlat manfaatlariga zarar etkazadigan, bir davlatning fuqarolari tomonidan boshqa davlatning fuqarolariga nisbatan yoki boshqa davlatning xududida amalga oshiriladigan haraqatlardir.

Insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan, XX asrning umumbashariy muammosiga aylangan diniy-siyosiy ekstremistik oqimlarning deyarli barcha terrorchilikka asoslanib, ochiqdan-ochiq hokimiyatni egallash uchun harakat qilmoqdalar.

Manbalarda “ekstremizm- keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralarga tarafdirlik ” tarzida talqin etilgan va aksariyat o‘rninda mazkur tushunchaning yuridik atama ekanligiga urg‘u berilgan.

Diniy ekstremizm rasmiy xokimiyatni “keskin qat’iy choralar ko‘rish” yo‘li bilan o‘zgartirish harakatini biniy ta’limot, qarash va g‘oyalar asosida amalga oshiradigan oqim hisoblanadi.

Islom ekstremizmida ikki belgini kuzatish mumkin.

1.hozirgi zamon musulmon jamoalari o‘zining islomiy xususiyatlarini yo‘qotgan va jaholat tusiga aylangan degan mafkurani targ‘ib qilish;

2.mamlakatda islom qoidalari o‘rnatish, hokimiyatga haqiqiy musulmonlar kelishi uchun xech bir ikqilanmasdan faol urush harakatlarini, “kuch ishlatish”

zarurligini insonlar ongiga singdirish.

Islom ekstremizmi o‘tgan asrning 50-60 yillarda xorijda, ayniqsa, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida paydo bo‘lgan. Aslida ekstremistik kuchlarning ildizi juda chuqur, ya’ni islom dini shakllangan ilk davrlardayoq paydo bo‘lgan.

“Fundamentalizm” atamasi keng ma’noda islom g‘oyalarining Muhammad S.A.V. davrlarida qanday talqin etilgan bo‘lsa, shundayligicha saqlashni, ularni o‘zgartirmaslikni, muqaddas manba “Qur’oni Karim”da vahiy va mo‘jizalar qanday bayon etilgan bo‘lsa, shundayligicha qabo‘l qilishni, dinning barcha an’anaviy yo‘l-yo‘riqlarini qat’iy va og‘ishmay bajarishni talab etadigan oqimlarni ifodalaydi.

Ushbu atama dastlab 1908 yilda AQSHning Kaliforniya shtati protestantlari tomonidan qo‘llanilgan bo‘ilib, protestant oqimlar harakati mohiyatini ifodalashga xizmat qilgan.

Dastlab fundamentalizm faqat diniy g‘oyalarnigina ilgari surgan bo‘lsa, bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy qarashlarni ham ilgari surmoqda. Bu holat fundamentalizm, xususan islom fundamentalizmining siyosiylashganidan dalolat beradi.

Fanatizm o‘z aqidasining shak - shubhasiz to‘g‘riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm – ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo‘nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o‘zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo‘jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdoi, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so‘zma - so‘z talqinga asoslangan e’tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo‘yadigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang‘ich davrida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarni qat’iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo‘llaniladigan istilohdir.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo‘lib turibdi. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko‘chalarga kirib ketayogan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. YA’ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma’rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan

olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi”²⁸.

Islom falsafasida ma’naviy omil jamiyat rivojida etakchi o‘ringa qo‘yiladi. Ma’naviy-axloqiy barkamollik hukmron bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalash g‘oyasi hadislar mazmunida o‘z echimini topadi.

Alloh o‘zining yagonaligiga ham ilmli kishilarni guvoh qilgan: «Alloh albatta uning o‘zi yagona iloh, undan boshqa ibodatga sazovor zot yo‘qligiga shohidlik beradi. Shuningdek, farishtalar va ilm egalari ham bu narsaga adolat bilan shohidlik berdilar» («*Oli Imron*» surasi, 18-oyat).

Shu oyatda Alloh ilmli kishilarning shohidligini o‘z farishtalarining shohidligi bilan tenglashtirgan. Bu esa, ilmli kishilarning hurmati Alloh ho‘zurida naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, Qur‘on ilmsizlarni tanqid qiladi: “SHunday qilib Alloh ilmsizlarning qalbini berkitib qo‘yadi”. (“Rum” surasi, 59-oyat). Qur‘on ilmning chegarasi yo‘q ekanligini ham bayon qilib o‘tgan: “Har bir ilmlining ustidan undan ham ilmliroq bor” (“Yusuf” surasi, 76-oyat).

Bu oyatdan maqsad shuki, olimlar o‘z ilmlari bilan mag‘rurlanib, o‘z ustida ishlashni tark etmasinlar, doimo ularni ham birov tanqid qilib qolishiga o‘zlarini tayyorlab tursinlar, demakdir. Qur‘on musulmonlarni barcha narsaning haqiqatini bilish uchun doimo ilm payida bo‘lishga chaqiradi: «Ey, parvardigor, mening ilmimni ziyod qilgin deb ayt” (“Toho” surasi, 114 -oyat).

Islom kishilarni ilmgaga chaqirish bilan kifoyalanib qolgan emas, balki aqliy va fikriy harakatsizlikning oldini olish asos-larini kishilarga ko‘rsatgan. Bu quyidagi narsalarda ayon bo‘ladi:

1. Ilm biror narsani hujjatli, aniq dalil bilan bog‘lamaguncha, uni haqiqat deb tan olmaydi. Qur‘on ham musulmon-larga dalilsiz narsani qabo‘l qilmaslikni buyuradi: «Ular aytdilar, jannatga kim yahudiy yoki nasroniy bo‘lsa kiradi. Bu ularning orzusi xolos. Sen, agar gaplaringiz to‘g‘ri bo‘lsa, dalil va hujjat keltiringlar, deb aytgın” (“Baqara” surasi, 111-oyat).

Bir narsaga dalil va hujjat bo‘lmasa, ishonib bo‘lmaydi. Boshqalarga taqlid qilib, shirk e’tiqodida bo‘lganlarni Alloh so‘roq qiladi: «Kim Alloh bilan qo‘shib boshqa ilohga dalil va hujjatsiz ibodat qilgan bo‘lsa, uning hisob-kitobi Allohning huzurida bo‘ladi. Albatta kofirlar najot topmaydilar» («Mo‘minun» surasi, 117-oyat).

Ilm doimo mavhum narsani deb aytishdan qaytaradi. Gumanoni rost deyish to‘g‘ri emas. Bir masala to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilish uchun uning hujjati, kuchiga qaraladi, agar xujjati kuchli bo‘lsa, masala haqiqat, hujjat kuchli

²⁸ Шавкат Мирзиёевнинг "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асрар – давр талаби" мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи 15 июн 2017й.

bo‘lmasa, masala gumon. Mana shu ilmiy farqlash Qur’on ta’limotlariga ham to‘g‘ri keladi.

Qur’on haqiqiy - ilmiy narsalarga suyanishga, gumon va xayollardan uzoqda bo‘lishga buyurgan va gumonga ergashganlarning holi yomon bo‘lishini aytib o‘tadi: «Balki zolimlar ilmsiz ravishda havoyi-nafslariga ergashadilar» («Rum» surasi, 29-oyat).

Alloh musulmonlarga ilmiy asosda ish olib borishni ko‘rsatib, shunday deydi: «O‘zing bilmagan narsaga ergashma. Albatta, ko‘z, quloq va qalb barcha narsadan so‘raladi» («Isro» surasi, 36-oyat). Oyatning ma’nosи shuki, o‘zing aniq bilmasang, senga aytiladigan turli-tuman narsalarga ergashma. Chunki inson qiyomat kunida qulog‘i eshitgan, ko‘zi ko‘rgan, qalbi jo qilgan barcha narsalar haqidagi so‘roqlarga javob berishi kerak. Biz eslab o‘tgan oyatlarning barchasi ishning asosi aniq, sobit, ilmiy ravishda bo‘lishi zarurligini, gumon va turli fikrlar bo‘lmasligini anglatadi.

Ilm ko‘r-ko‘rona taqliddan qaytarishda Qur’on bilan muvofiqdir. Qur’onda bir fikrni ota-bobomiz qilgan, deb, o‘zлari aql ishlatmay yurganlarni tanqid qilingan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga va payg‘ambarga yaqin kelinglar, deyilsa, ular ota-bobolarimizdan qolgan narsa bizga kifoya qiladi, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan, va to‘g‘ri yo‘lda yurmagan bo‘lsalar, unda nima bo‘ladi» («Moida» surasi, 104-oyat).

Boshqa bir oyatda shunday deyilgan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga ergashinglar, deyilsa, ular, yo‘q biz ota-bobolarimizdan ko‘rganimizni qilamiz, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan bo‘lsalar va to‘g‘ri yo‘lda yurmagan bo‘lsalar, unda nima bo‘ladi. Kofirlar xuddi bir qo‘y podasiga o‘xshaydilarki, ular cho‘ponning qichqirig‘ini eshitadilar-u, ma’nosiga tushunmaydilar. Ular kar va ko‘rdirlar, aqllarini ishlatmaydilar» («Baqara» surasi, 170-171-oyatlar).

Qur’onning shu oyatlaridan ko‘rinib turibdiki, aql ishlatmay, o‘zi ishonch hosil qilmay — ko‘r-ko‘rona taqlid qilish kofirlarning ishi ekan. Har bir inson Islomni bilib, unga ishonch hosil qilmaguncha, ko‘r-ko‘rona taqlid qilgani bilan mo‘‘min bo‘la olmaydi. Qur’on xalqlarni boshliqlar va yo‘lboshchilarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishdan ehtiyyotlanishga chaqiradi. Uning aytishicha, yo‘lboshchilar ham va unga ergashganlar ham noto‘g‘ri yo‘lda bo‘lsalar — qiyomat kunida teng azob chekadilar.

Buning ma’nosи shuki, bu dunyoda yo‘lboshchilik qilganlar, qiyomat kunida o‘ziga ergashganlardan qochar ekan. Ikki guruh ham azobga duchor bo‘lib oralaridagi aloqa o‘zilar ekan.

Qur’on ota-bobolarga, boshliqlarga va yo‘lboshchilarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishdan qaytarish bilan birga, faqat bir taraflama fikrlashdan ham qaytardi va biror narsa qilmoqchi bo‘lsa o‘sha narsaning yaxshisini tanlab olishga chaqiradi:

“Ular (musulmonlar) gapni eshitganlardan so‘ng, eng yaxshisiga ergashadilar. Shunday kishilarni Alloh to‘g‘ri yo‘lga boshlaganlar va ular aql egalaridirlar” (“Zumar” surasi, 18-oyat).

Mana shu oyatda Alloh musulmonlarni barcha gaplarni eshitib, tushunib, so‘ngra yaxshisiga ergashishga buyuradi. Alloh shunday qilganlarni ilohiy hidoyatga erishganlar va o‘tkir aql egalari, deb ataydi.

Aslida ilm degani ishlarni aql yordamida bajarishga aytildi. Aql esa, uchragan narsani tushunib olish qobiliyatidir. Qur‘on barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqiradi, aqlni ishlatmaganlarni qattiq tanqid qiladi. Qur‘onda aqlga taalluqli so‘zlar 50 marta ishlatilgan. Aql egalarining so‘zi esa 10 martadan ko‘proq ishlatilgan. Shuning o‘zi ham Qur‘on aqlga katta e’tibor bergenini dalililidir. Qur‘on aqlning ulkan ne’mat ekanligini bayon qiladi: “Albatta bu narsalarda aqli kishilar uchun belgilar bor” (“Ra’d” surasi, 4-oyat). “Biz oyatlarni aqli kishilar uchun bayon qilib qo‘ydik. Aqlni ishlatmaydilarmi” (“Baqara” surasi, 76-oyat) va hokazo.

Qur‘on musulmon kishining ko‘z oldida turgan mavjudotlarni o‘rganishga chaqiribgina qolmay, avvalgi o‘tgan halqlarning tarixi, ularning obodonchilik yo‘lida olib borgan ishlari, havoyi-nafsga berilib, oqibatda halokatga uchraganlarini ham o‘rganshiga undagan. “Rum” surasida shunday deyilgan: “Er yuzida yurib o‘zlaridan avval o‘tganlarning oqibati nima bo‘lganiga nazar solmaydilarmi. O‘tganlar bo‘lardan ko‘ra quvvatliroq edilar, er yuzida asar qoldirgan edilar, bo‘lardan ko‘ra er yuzini ko‘proq obod qilgan edilar va ularga payg‘ambarlari ochiq-oydin xabarlar bilan keldilar. Alloh ularga zulm qilmoqchi emas edi, lekin ular o‘zlariga – o‘zlarini zulm qildilar”. (9-oyat).

Qarang, bir xalqqa shunday ta’limotlar kelibdi. Unda o‘tgan ummatlarning taraqqiyot, obodonchiligi, yuz tuban ketishi va harob bo‘lishi sabablarini o‘rganishga chaqiriq bor ekan. Bu chaqiriq tarix va sotsiologiya ilmini o‘rganishga chaqiriq emasmi?²⁹

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 28 iyuldagи “Ma’naviy-ma’rifiy ishlар samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimiz aholisiga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni keng va atroflicha, xolis tahlil etish, bugungi globallashuv sharoitida navqiron avlod ongu shuurini turli yot va zararli g‘oyalardan himoyalashga oid dolzarb vazifalarni bajarishda muhim asos bo‘ldi.

“Azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflı burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga

²⁹ Мұхаммад Содик Мұхаммад Юсуф. Имон. –Т.: “Камалак”, 1991, 128-136-бетлар.

undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo‘lishni o‘rgatadi.

Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat’i nazar, ma’naviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezbilik, bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o‘rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir”³⁰-deb, ta’kidlaydi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Darhaqiqat, ushbu buyuk diniy meros oliv qadriyat sifatida yoshlarda insoniylik fazilatlarini shakllantirish, go‘zal xulq va pokiza axloqiy jixatlarni tarbiyalashda eng asosiy manbalardandir.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) Hadisi Shariflarida ilm inson kamolotining negizi, ezbilik va poklik insonlarni turli ofatlardan saqlovchi vosita deb qaraladi. Hadislarda ilm poklik, halollik, kishilarni yaxshilik sari boshlovchi, qorong‘ilikda yo‘l ko‘rsatuvchi mash’al tariqasida talqin qilinadi. Ilm-bu hikmat, poklik ramzi, ilmsizlik johillik, u bilan shug‘ullanmaslik noplilikka va jaholatga olib kelishi ham, ham ulardan ta’kidlanadi.

Islom dinining asosini imon, e’tiqod tashqil etadi. Shuning uchun hadislarda “Dinning ofati uchtadir: 1) beamal olim; 2) zolim hokim; 3) bilmasdan fatvo aytuvchi ulamo” deyiladi.³¹ Shuning uchun ilmni qadrlovchi kishiga o‘rgatish lozimligi, uni xo‘rlovchi, mensimaydigan kishiga o‘rgatish gunoh, deb qaraladi.

Ilm bilan shug‘ullanishning o‘zi yetarli emas. Boshqalarni undan xabardor qilish muhimdir. Hadislarning birida ilm o‘rganmoq uni tarqatmoq bilan barobar olib boriladi, deyiladi: “Kimki ummatlarimga mening sunnatimga oid 40 hadisni yodlab etkazsa, qiyomat kunida men uni shafoatimga loyiq kishilar safiga kirgizaman” (*112-Hadis*).

Tolibi ilmning xolis, kamtarin bo‘lishi o‘ta muhimdir. Bilganini ko‘z-ko‘z qilish, maqtanish gunohdir. Kishi bilganini e’tirof etish bilan birga bilmaganini ham tan olishi joiz. Ayniqsa, diniy faoliyat bilan shug‘ullanadigan ulamolar, maktab va madrasalarda tolibi ilmlarga saboq beruvchi ustoz-mudarrislar aytadigan gapini, qiladigan ishini, chiqaradigan fatvosini va beradigan bilimini o‘ylab berishi kerak. Hatto aytadigan maslahati ham holisona, beminnat bo‘lishi lozim. Hadislarning birida shunday deyiladi: “Kimki birodariga bir ish qilishga bilib noto‘g‘ri maslahat bersa, demak birodariga xiyonat qilgan bo‘ladi” (*110-Hadis*).

³⁰ Ш. Мирзиёевнинг Ислом хамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-

сессиясининг очилиш маросимидағи нутқи 21.10.16 .

³¹ Ҳадис. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). I, II, III, IV жилд. Қомуслар Бош таҳририяти; - Т.: 1991-1996 (кейинги мисоллар одам шу манбалардан олинди).

Ilm o‘zligini anglash, xudoni, dinni bilish demakdir Ilm olimniki pesh qilish vositasi bo‘lmasligi zarur. “Kimki olimlarga maqtanish uchun, - deyiladi hadislarda,- yoki nodonlar bilan tortishish, yoxud odamlarning dillarini o‘ziga moyil qilish uchun ilm olsa do‘zaxga boradi” (108-Hadis).

Ilmli kishilarni e’zozlash, hurmat qilish har kim uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ilmli kishilarga insonlar, butun mavjudot xayrixoh. Bir hadisda aytildi: “Ilmga har bir narsa istig‘for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham” (93-hadis).

Ilm olish hunar o‘rganish olidianob va savobli. Ilm, hikmatlar, hunar kishini turli noplak ishlardan asraydi: “Hattoki bir soat ilm o‘rganish kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzaldir” (536-hadis).

Ilm kishilarga naf keltirishi lozim. Olimlar ilm o‘rganib boshqalar yo‘lini yorug‘ qilishlari, ularga rahnomo bo‘lishlari joiz. “Ilm ikki xildir, biri qalbda bo‘ladi – uni ilmi nofe’ (foyndali) deyiladi, ikkinchisi tilda bo‘ladi – u odam bolasiga yuborgan Alloh taolonning xujjatidir” (95-hadis). Ilm foyndali bo‘lishi uchun u odamlarga o‘rgatilishi lozim. Ilmli kishi sadoqatli bo‘lishi, kishilarga yaxshilikni o‘rgatishi kerak. Ilm bilimli kishi uchun fazilat bo‘lsa, bu holatni u boshqalarga singdirishi zarur.

“Odamlarga yaxshilikni o‘rgatib, o‘zini esidan chiqargan olim, kishilarga yorug‘lik berib, o‘zini quydiradigan shamchiroqqa o‘xshaydi” (106-hadis) yoki “Ilmni o‘rganib uni hech kimga aytmayotgan odam boylikni to‘plab uni hech (narsaga) sarf qilmayotgan baxilga o‘xshaydi” (106-hadis).

Ilmu xikmat o‘tkinchi emas, u abadiy. SHuning uchun mo‘min kishiga vafotidan keyin etib turadigan savob narsa uning tarqatgan ilmdir.

Hadislarda ilmli kishi mevali daraxtga o‘xshatiladi. Lekin ilmli kishining aytadigan fikrlari boshqalarga xush kelishi, tushunarli bo‘lishi darkor. Muhammad payg‘ambar o‘z hadislarida va’z aytganda kishilarni zeriktirmaslik, aytileyotgan fikrni tushunarli bo‘lishini ta’kidlagan: “Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytingiz, nafratlantirmangiz (o‘zingizdan bezdirmangiz)” (121-hadis).

Ilmni o‘rganish shaxsiy manfaat uchun bo‘lmasligi darkor. “Bir kishi Alloh ilmini (Islomni) teran o‘rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Alloh yuborgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadilar. Ikkinci bir kishi ilm o‘rganib, odamlarga o‘rgatadilar. Ammo o‘zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib o‘zi ham o‘rganmaydir, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydir. Bo‘lardan birinchisi mo‘min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir” (26-hadis).

Ilm kishilarni odillik va insonparvarlikka undaydi. Ilmli kishilarni hadislarda unumdar tuproqqa o‘xshatiladiki, undan ungan o‘simliklar, giyohlar insonlarni oziqlantiradi. Suv erlarga hayot bag‘ishlaganidek, ilm ham kishilarga ezgulik, yaxshilik keltiradi: “Ilm ko‘p yoqqan yomg‘irga o‘xshaydir. Ba’zi er sof unumdar

bo‘lib, yomg‘irni o‘ziga singdiradir-da, har xil o‘simpliklar va ko‘katlarni o‘siradilar va ba’zi er qurg‘oq, qattiq bo‘lib, suvni emmasdan o‘zida to‘playdir. Undan Alloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydir, hayvonlarni va ekinlarni sug‘orgaydirlar. Ba’zi er esa tekis bo‘lib, suvni o‘zida tutib qolmaydir, ko‘katni ham ko‘kartirmaydir”, - deyiladi hadislarda.

Ilm, hikmat o‘rganmoq mo‘minning eng yuksak fazilatidir. CHunki ilm kishilarga tayanch, rahnamo, zebu-ziyarat, mo‘min uchun ilm hayotining yo‘ldoshi va dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. “*Ilm egallang!*”- deb xitob qilgan payg‘ambarimiz. – Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu-ziyarat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir”. SHuning uchun ilm olish yo‘lida har qanday riyoza bo‘lsa ham kishi undan qaytmasligi kerak. Ilm-hunar o‘rganish mashaqqatdir. Ammo inson o‘z irodasi, aql-zakovati bilan unga intilmog‘i lozim. “Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, deydi (126-hadis) Muhammad payg‘ambar.

Ilm-bu ma’rifat, fazilat. Ilm jamiyat musaffoligining belgisidir. Ilm- ma’rifat bor joyda diyonat bor. Agar ilm susaysa – jaholat, nodonlik kuchayadi. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, qotillik avj oladi.

Ilm susaysa nopoliklik, fohisha zo‘rayadi. Bu borada hadislarda: “Ilmning susaymog‘i – jaholatning kuchaymog‘i, zinoning avj olmog‘i, xotinlarning ko‘paymog‘i – erkaklarning ozaymog‘i”, - deyiladi (36-hadis).

Ilm, xikmat jamiyatdagi ma’naviyat manbai. SHuning uchun ilm o‘rganib uni tarqatish avj olsa fitnalar, haraj (qotillikning) oldi olinadi. Hadislarda ulamolar ilm o‘rganib, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o‘rgatsinlar. Zero, ilm sir tutilsa, halokat boshlanadi, deb aytilgan. SHu bilan birga ilm faqat birovlar mulki emas, u butun mo‘minlarning ma’naviy mulkidir. Ilmni sir tutish, uni tarqatmaslik jamiyatni halokatga olib keladi. Hadislarning o‘zidek ilm, xikmat ham umumbashariyat mulki bo‘lmog‘i lozim.

Hadislarning qimmatli, insoniy va axloqiyligi shundaki, ularda barcha masalalar holisona ifodalangan. Ularda ta’limning hozirgi ko‘p muammolari o‘ziga xos tarzda bayon etilgan. “Har bir muslimonga ilmga intilish farzdir”. Bu fikr ta’limning umumiyligi majburiyligiga ishora emasmi?

Bu fikrlar Yan Amos Kamenskiyning “Buyuk didaktika” asari yozilmasdan bir necha asr avval aytilgan.

Umuman hadislardagi fikrlarning qimmatli tomoni yana shundaki, ular umumbashariydir. Ular biron bir ijtimoiy guruh manfaati nuqtai-nazaridan yozilmagan. Bundan tashqari ular insoniyat ma’naviyati, axloqi, madaniyati taraqqiyotining sarchashmalari, ular rivojining poydevorini tashqil qilganligi bilan ham ardoqlidir. Qolaversa, hadislarning o‘zi ham xikmat, ham ilmdir.

Shunday qilib, Qur’oni Karim va Hadislarda insonni o‘qib-o‘rganishga, ilm vositasi bilan dunyodagi voqeа-hodisalarning tub mazmun-mohiyatini anglab etishga targ‘ib qilinadi.

Qur’oni Karimda axloq va odob masalasiga alohida e’tibor berilgan. Ta’kidlanishicha, insonning jamiyatda tutgan o‘rni bilan chambarchas bog‘liq axloq-odob, ota-onा va qarindosh-urug‘larga hurmat etim-esir, qambag‘almiskinlarga muruvvat va saxovatlilik, halollik, poklik, to‘g‘rilik, o‘z halol mehnati va kasb-hunari bilan yashash, oila va nikoh munosabatlari, o‘z bolalarini boqish, ta’lim va tarbiya berish, omonatiga xiyonat qilmaslik, adolatparvarlik, do‘stlik va birodarlik kabi yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir.

Qur’oni Karimda sabr-qanoatli, ehsonli, saxovatli, muruvvatlik, keng fe’lli bo‘lish yuksak ma’rifat va yuksak axloqiy fazilat belgisi, deb ta’kidlanadi: “Albatta sabrlilar o‘z savoblarini hisob-kitobsiz to‘liq oladilar” (“Zumar” surasi, 10-oyati). “Sabr-qanoatga ehson bilan bir qatorda eng yuksak fazilat sifatida katta e’tibor beriladi: Muhammad, mashaqatli va ozorlarga sabr qiling! Zotan, Alloh chiroyli amal qiluvchilarning ajr-mukofotlarini zoe etmas” (“Hud” surasi, 115-oyati).

Shuningdek insondagi axloqiy fazilatlardan eng muhimi xayri ehson haqida alohida fikr yuritiladi: “Alloh senga ehson qilgani kabi sen ham (Allohning bandalariga) infoq- ehson qil” (“Qasas” surasi, 77-oyati).

Qur’oni Karimning “Al-Isro” surasini 23-24-oyatlarida ota-onaning bolani dunyoga keltirishi bilan birga, farzandga yaxshi ism qo‘yishi, o‘z farzandini jismoniy va ma’naviy tomondan etuk kishi qilib tarbiyalashi, ya’ni ilmu ma’rifatga o‘rgatish va biror bir kasb-hunar egasi qilish, o‘g‘il bola bo‘lsa uylantirish, qiz bola bo‘lsa turmushga chiqarish, ularga moddiy va ma’naviy yordam berib turishi ta’kidlanadi.

Ma’lumki, manmanlik – aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik haqida Qur’on Karimni “Isro” surasining 37-oyatida: “Er yuzida Kibr-Havo bilan yurmagan! Chunki sen (oyoqlaring bilan) hargiz erni teshib (uning tubiga) ketolmaysan va bo‘yi bastda tog‘larga etolmaysan”, - deyiladi.

Bu to‘g‘rida payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislaridan birida: “Kimki o‘zini katta olsa, yurishida o‘ziga bino qo‘ysa, oxiratda Allohning g‘azabiga uchraydi” (821-hadis), deb ogohlantiradi.

Ma’lumki, VIII - IX asrlar Hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to‘plam (as-sahih as – sitta) ni yaratgan muhaddislar ‘ham vatandoshlarimiz bo‘lib, ilm – u fan rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bo‘lar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al - Buxoriy 194 (810) – 256 (870), Imom Muslim ibn al – Xajjoj 206 (819) – 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at –Termiziy 209 (824), - 279

(892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817) – 275 (880), Imom Ahmad an – Nasoniy 215 (830) – 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn YAzid ibn Majja 209 (824) – 273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar “al-kutub as-sitta” (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko‘rsatadilar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

2. Imom Muslim an-Nishonpuriy (imom Muslim ibn al - Hajjoj) tomonidan yozilgan “As-Sahih”.

3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan “Sunnai”.

4. Imom Abu Dovud Sulaymon – Sijistoniy tomonidan yozilgan “Sunnai”.

5. Imom ibn Iso at-Termiziyy tomonidan yozilgan “Aj-jami al-Kabir”.

6. Ahmad an – Nasoiy tomonidan yozilgan “Sunnai” kabi to‘plamlardir.

7. Imom al – Buxoriyning shoh-asari “Al-Jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) 4 jiddan iborat bo‘lib, unga 600 ming hadidan 7275 ta eng “sahih” hadislar kiritlgan, takrorlanmaydiganlari 4000 hadisdan iboratdir.

Imom al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Uning “Al-Jome’ as-saxix” (“Ishonchli tuplam”), “Al-adab al-mufrad”, “At-Tarix al-kibor” (“Katta tarix”), “At-Tarix as-sagiyr”, (“Kichik tarix”), “Al-kiroatu xalfa-l-Imom” (“Imom ortida turib ukish”), “Vaf’ul-yadini fi-s-Saloti” (“Namozda ikki kulni kutarish”) kabi ishlari mavjud bo‘lib, kulyozmalari bizgacha etib kelgan. Amma “At-Tarix al-avsat” (“Urta tarix”), “At-Tafsir al-kabir” (Katta tafsir”), (“Al-Jome’ al-kabir” (“Katta tuplam”), “Kitob-ul-xiba” (“Xadya kitobi”) nomli asarlari ham bo‘lganligi ma’lum, lekin bo‘lar bizgacha etib kelmagan. SHubxasiz, bu asarlaridan eng etuk, shox asari “Al-Jome’-as-saxix”dir. Bu asar “Saxix al-Buxoriy” nomi bilan ham dunyoda mashxur. 4-jildan iborat mazkur kitobda paygambarimiz salolloxu alayxi vasallam xadislaridan tashkari, islom xukukshunosligi, islom marosimlari, axlokodob, ta’lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma’lumotlar ham berilgan. Unga 600 ming xadisdan 7275 ta eng “saxix” xadislar kiritilgan bo‘lib, takrorlanmaydigan 4000 xadisdan iboratdir. Bu kitob islom ta’limotida kur’oni karimdan keyingi manba hisoblanadi. Ma’lumki, islom dini insonni ma’naviy kamolot sari etaklovchi ta’limot. SHu sababli Kur’oni Karimda ham, xadislarda ham yaxshi xulq va odob keng targib etilgan.

“Saxix” yunalishining asoschisi, eng etuk va mashxur muxaddis Abu Abdulox Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Buxoriy xadis ilmida “Amir ul-mu’minin”. “Imom al-muxaddisiyn” (“Barcha muxaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan. U 810 yil, 13 mayda (ba’zi manbalarda 810 yil, 20 iyulda) (xijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tugilgan. Go’dakligida otadan etim kolgan. O‘quv muassasasida savod chickargan, 10

yoshidanok arab tili va kitoblaridan ularni yodlay boshlaydi. Al-Buxoriy xadis ilmini katta kizikish bilan urgana boshlaydi. Yoshlik chogidan boshlab turli roviylardan eshitgan xadislarni yodlab boror edi. Abdullox ibn ol-Muborak, Vaki' ibn Jarrox kabi olimlar tuplagan xadislarni yod olgan, xadis rivoyatchilari xakidagi baxslarda katnashgan.

Al-Buxoriy 825 yilda, un olti yoshida onasi va akasi bilan Xijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinayu Munavvarada bo'lib, xaj ibodatini ado etadi. Balx, Barsa, Kufa, Bag'dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madinada bo'lib, safar jarayonida muxaddislardan xadis ukir edi. Olti yil Xijozda kolib, xadis ilmidan ta'lim oladi. Shu bilan birga, Damashq, Qoxira, Basra, Bag'dod shaharlarida mashxur olimlardan fiqx ilmidan dars oladi, o'zi ham baxs va munozaralarda qatnashadi, tolibu ilmlarga dars ham beradi.

Imom Buxoriy iste'dodli, o'tkir muxofazali, ziyrak olim bo'lган. "Manbalarga ko'ra, Bag'dodda istiqomat qilgan paytida ko'pincha oyning nurida ijod qilib, korongi kechalari sham yorugida kitob ukir ekan. Agar tunda bexosdan biror-bir fikr-muloxaza kelib kolsa, shamni yokib darxol fikrini kogozga tushirar, shu taxlitda ba'zi kechalari shamni yigirma martagacha uchirib-yokar ekan".

Imom Buxoriyning utkir zexn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin.

Rivoyatlarga kura "U kaysi bir kitobni kulga olib, bir marotaba mutolaa qilsa, hammasi yod qolaverardi". Imom Buxoriyning o'z so'ziga kura, yuz ming saxix (ishonchli) va ikki yuz ming gayri saxix (ishnchsiz) xadisni yod bilar ekan. O'z shogirdlaridan Amir ibn Fallos "Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma'lum bo'lмаган xadis, albatta ishonchli xadis emasdur", - deydi. Ustozi Imom Axmad ibn Xanbal al-Marvaziyning aytishicha, "Butun Xurosandan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chikkan emas".

Imom Buxoriyning o'tkir zexni haqida shunday rivoyat keltiriladi: "Imom Buxoriy bilan Basrada xadis darsiga katnashgan sheriklaridan biri Xoshid ibn Ismoil aytadi: "Imom Buxoriy bizlar bilan ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan xadislarni biz yozib olar edik, ammo Buxoriy fakat kulok solibgina utirardi. Shu tarzda kancha kunlar utib, orada ustoz kariyb 15 ming xadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: "Sen nega xadislarni yozmaysan?" - deb ta'na qilgan vaktimizda: "Sizlar yozib borayotgan xadislarni men ustoz ogzidan yodlab olayotirman", - dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma xadislarni bir chekkadan yoddan ukib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan xadisalarimizdag'i xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan bo'ldik".

Imom Buxoriy juda kup zabardast olimlardan ta'lim oladi. Manbalarda uning ustozlarini to'qsonga yakin deb ko'rsatishadi. Muhammad ibn Yusuf al-gartobi, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-

Hamiydiy, ibn Raxavayx nomi bilan mashxur imom Isxok ibn Ibroxim, Imom Axmad ibn Xanbal, Ali ibn al-Madiyniylar uning ustozlaridir.

Imom al-Buxoriyning o‘zi ham yirik va mashxur olimlar Isxok ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdullox ibn kutayba, Ibroxim al-Harbiy, Muhammad ibn Abu Iso at-Termizi, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn Al-Xajjoljarga o‘z vaktida ustozlik qilgan.

Imom Buxoriy uta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson ham bo‘lgan. U xadis ilmining etuk olimi bo‘lsa ham, vakti kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan ham urgangan. Imom Buxoriy bir ming saksonta muxaddisdan xadis eshitgan. Undan tuksun ming kishi ishonarli xadisni tuplagan, 100 ming “saxix” va 200 ming “gayri saxix” xadislarni yod olgan.

Imom al-Buxoriy uzok safardan ona yurti Buxoroga kaytgach, talabalar va ulamolarga xadis ilmidan sabok beradi va uning targibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga kura, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Axmad ibn Xolid az-Zuxaliy uni saroyiga kelib xadis ilmidan sabok berishga taklif etadi. Ammo Imom Buxoriy bu taklifni kabo‘l etmaydi va: “Men ilmni xorlab sultonu amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo‘lsa, tarbiyalanuvchilarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin”, - deb javod beradi. Al-Buxoriy bilan amir Xolid ibn Axmad az-Zuxalliy munosabatlariga raxna tushadi. Bunga ba’zi xasadguy shaxslarning igvolari ham sabab bo‘ladi. Amir buyuk allomani shahardan chikib ketishga farmon beradi. Uni Samarkand ulamolari o‘z yurtlariga taklif etadilar. Imom Buxoriy yulga chikadi. Ammo Samarkandga yakin Xaftang kishlogida (xozirgi Poyarik tumani) betob bo‘lib koladi va shu erda xijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu erga dafn etiladi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytganda, islom ta’limoti mujassamlashgan Qur’oni Karimdagи “Biz odam bolalarini aziz-mukarram qildik... ularga halol-pok narsalardan rizqu – ro‘z berdik va ularni o‘zimiz yaratgan juda ko‘p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo‘ydik”; “Ey mo‘minlar, sizlarga rizq qilib berganimiz-pokiza narsalardan englar”, “Bandalarimga aytingki, ular eng go‘zal so‘zlardan so‘zlashsinlar”, “Odamlarni aldab fitnaga solish o‘ldirishdan yomonroqdir”, “Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi”, “Parvardigoringiz... ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi...” kabi muhim g‘oyalar; shuningdek, Hadisi SHarifdagи “Ilm egallang! Ilm-sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir”; “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir”; “Beshikdan to qabrga kirgunlaringizcha ilm izlangiz”, “YOshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabitdir”; “YOlg‘on so‘zlama”, “o‘zinga ravvo ko‘rganni boshqalarga ham ravvo ko‘r”, “Englar,

ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o‘tmanglar”, “Ahmoqdan uzoqlashing”, “Nonni e’zozlanglar”; deb zikr etilgan hikmatlar komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.

Ta’kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al – Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmuddinov Kubro, Sulaymon Boqirg‘oniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafak-kirlar islom ta’limotini, Qur’oni Karimni, payg‘ambarimizning aytgan so‘zlari, diniy va axloqiy yo‘l-yo‘riqlari, hikmatlaridan iborat manba-Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta’sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, mutafakkirlarimizning tabiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari-ning asosi, shuningdek, asarlarining mazmun – mohiyati va g‘oyasi ham Qur’oni Karim va Hadisi Sharif ta’limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o‘rgatish Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlarni o‘rganish va ulardagи ko‘rsatmalarni o‘zlashtirish bilan olib borilgan. Shunga ko‘ra, Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga kuchli ta’sir etgan va islom ta’limoti allomalarimiz asarlarida ilmiy talqin etiladi. Bo‘larda ilgari surilgan g‘oyalar yosh avlodning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishiga, pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shunday qilib, biz islom ta’limotida, ta’lim-tarbiya masalalarining tutgan o‘rnini tahlil etar ekanmiz, bu davr ma’naviy-ma’rifiy tafakkurining harakterli tomoni shundaki, ma’naviyat, ma’rifat, odob-axloq sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar islom diniy aqidalari va ta’limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvurning bir ko‘rinishi sifatida o‘z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabo‘l etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkir-larimiz asarlarida keng o‘rin egalladi.

Nazorat savollari:

- ✓ Islom dinini insonlar tafakkurini o‘stirishdagi xizmati qanday?
- ✓ «Qur’oni Karim»da qanday tarbiyaviy g‘oyalar ilgari surilgan?
- ✓ Hadis ilmining rivojlanishida allomalarning qo‘gan hissasi qanday?
- ✓ Hadislarda ilm egallah haqida qanday o‘gitlar berilgan?

- ✓ Axloqiy fazilatlarni shakllantirishda diniy manbalarning ahamiyati qanday?
- ✓ Imom al-Buxoriyning hadis ilmi rivojiga qo‘gan hissasi haqida gapirib bering.

Topshiriq

Hadislarda ilm egallash bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi: BBB metodi

Ish qog‘zi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

“T-jadval” metodidan foydalanish uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:

Diniy ta’limot masalasi (g‘oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi
1.	1.
2.	2.
3.	
...	...

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- Boynazarov F. O‘rta Osiyo" antik, davri. Toshkent. O‘qituvchi 1991 yil.
- Mirtursunov Z.F, Xalq, pedagogikasi, Toshkent. O‘qituvchi 1968 yil.
- Ajdodlar o‘giti. xikoyalar, xikmatlar, timsoyalar. T. CHo’lpon 1990
- Xasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida.
- Donishmandlar axloq haqida. Toshkent. O‘qituvchi 1986 yil.

10-MODUL XALQ PEDAGOGIKASIDA XALQ AMALIY SAN'ATI VA MADANIYATINING O'RNI

Reja:

10 Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi.

Tayanch so‘zlar: *maqollar, topishmoqlar, olqish va qarg‘ishlar, marosim folklori, qo‘shiqlar, dostonlar, og‘zaki drama va askiyalar, pedagogik tafakkur, tarixiy taraqqiyot, jamoaviy ijod, vorisiylik-etnopedagogika manbalari, geneseologik tuzilish, tarixiy tuzilish, mantiqiy tuzilishi.*

O‘zbekistonning mustaqilligi milliy madaniyatimiz, ayniqsa xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi taraqqiyotiga keng yo`l olib berdi. Qadimdan rivoj topib kelayotgan naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o`ymakorligi, badiiy kulolchilik, misgarlik, kashtachilik turlari yana gurkirab o’sa boshladi, uning milliy badiiy an'analari yanada rivojlanmoqda. San'atning unutilib ketgan ayrim turlari hisoblangan matoga gul bosish, suyak va tosh o`ymakorligi, zargarlik, pichoqchilik, gilamchilik turlari qayta tiklandi. Amaliy san'at va xalq hunarmandchiligining yangi turlari chinni haykaltoroshligi, charmida miniatyura ishlash, inkrustasiya, qovoq shakliga naqshlar bilan ishlov berish kabi turlari paydo bo`ldi va bu yo`nalishlarda ustalar yuksak ko`taringilik va mahorat bilan mehnat qilmoqdalar.

O‘zbekistonda milliy amaliy san'at va hunarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 346 sonli qarorida 1997 yilgi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab quvvatlash chora tadbirlari to`g`risida" gi qarori alohida ahamiyat kasb etdi. Ana shu qaror asosida "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish Markazi tashkil etilib, uning qoshida "Hunarmand" uyushmasi faoliyat ko`rsata boshladi. Bu uyushma o`z saflariga minglab tajribali, shuningdek, yosh ustalarni birlashtirdi. Ularning ijodiy ishlari uchun har tomonlama shart sharoitlar yaratib bsrilmoqda, ma'naviy va moddiy yordam ko`rsatilmoqda. Uyushmaning deyarli barcha viloyatlarda bo`linmalari ochilgan bo`lib, u yerdagи ustalar mahalliy amaliy san'atni milliy badiiy an'analarni rivojlantirib yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqsalar. hozirgi zamon xalq ustalaridan A. Akbarov, A. Abdullayev, A. Umarov, S. Rahmatullayev, A. Karimov, M. Murodov, B. Rahmonberdiyev, N. Oblaqulov va boshqa ustalar xorijiy mamalakatlarda o`tkazilgan qator ko`rgazmalarda o`z asarlari bilan qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, Fransianing Parij shahrida, Olmonianing Berlin shahrida, Malaziyaning

Kuala Lumpur shahrida, Yaponianing Tokio shahrida, Hindistoning Dehli shahrida, Moskva va Olmaota shaharlarida o`tkazilgan ko`rgazmalar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida sobiq Ittifoq davridagi ko`plab ta'ziq ostida bo`lgan milliy amaliy san'at turlaridan, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, yog'och o`ymakorligi, badiiy kulolchilik, kashtachilik kabi turlarining badiiy an'analarini tajribali ustalardan O. Fayzullayev, S. Rahmatullayev, A. Azlarov, M. Rahimov, S. Otajonov, A. Nazrullayev, Z. Obloberdiyeva, A. Raximov, I. Komilov, M. Husainov, A. Sultonov, M. Usmonov, X. Nuraliyevlar davom ettirmoqdalar.

Yosh iqtidorli ustalardan A. Rahimov (Toshkent), M. Rahimov (Rishton), N. Obloqulov (Urgut), A. Nazrullayev (G'ijduvon), M. Alimbayev (Buxoro), X. Xaqberdiyev (Samarqand) kabilar bediiy kulolchilik yo`nalishida samarali mehnat qilmoqdalar.

Naqqoshlik sohasida esa M. To`rayev, A. Ilhomov, B. Rahmonberdiyev, S. Shukurov, X. Nuraliyev, A. Karimov (Toshkent), A. Akbarov, M. Husainov (Namangan), J. Jamolov, Sh. Mahmudov, S. Mahmudov (qo`qon), O. Ergashev, S. Akbarjonova (Andijon), M. Boboyev (Farg'ona), Respublikamizda shuxrat qozondilar.

Hozirda ganch o`ymakorligi Toshkentda tez rivoj topib poytaxtimizning turli jamoat binolarini bezatishda keng qo`llanilmoqda. Uning vakillari qatoriga A. Sultonov, A. Po`latov, M. Sultonov, M. Usmonov, M. Murodov, Z. Yusupov, U. Tohirov, A. Umarov (Toshkent), B. Davlatov (Xorazm), A. Abdurahmonov (qo`qon) kabi ustalarni kiratish mumkin.

Yog'och o`ymakorligi san'ati qadimdan Xorazm, Buxoro va Samarqandda rivoj topgan bo`lsada, hozirga kelib Toshkentlik ustalar bu yo`nalishda karvonboshilik qilmoqdalar. O. Fayzullayev, S. Rahmatullayev, A. Abduraxmonov, A. Azlarov, X. Odilovlar shular jumlasidandir. Xorazmlik X. Bog'ibekov, Andijonlik Y. O'taganov, qo`qonlik X. Umarov, A. Abdullayevlar ham yog'och o`ymakorligi bo`yicha yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqdalar.

O`zbek kashtachilik san'atining asosini tashkil etadigan so`zana, joynamoz, do`ppi, nimcha, zarchopon kabilar tikish sobiq Ittifoq davrida tanazzulga yuz tutgan bo`lsa, horzilda bu sohada keskin burilish ro`y berdi. Kashtachi ustalardan X. g'ulomova (Samarqand), Z. Obloberdiyeva (Shofirkon), S. Rahmatullayev (Surxondaryo), M. Atayeva (Sirdaryo), Sh. Obloqulova (Urgut), N. Xonto`rayeva (Toshkent), S. Shomurodova (qo`qon), G. Yekabergenova (qoraqalpog'iston) kabilar amaliy san'atning bu turini oyoqqa turg'azishda jonbozlik ko`rsatmoqdalar. Kashtachilik sohasida bir qator viloyatlarda xususiy ustaxonalar ochilgan bo`lib, ularda ko`plab yoshlar san'at sirlarini o`rganmoqdalar va yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqdalar.

Zargarlik san'ati ham yo`qolib borayotgan san'at turlaridan edi. Uni tiklash va rivojlantirishda hozirda Toshkentlik ustalardan F. Dadamuhamedov, N. Xolmatov, G. Toshevalar jonbozlik ko`rsatmoqdalar.

O`zbek xalq amaliy san'atida yangidan paydo bo`lgan yo`nalishlar hisoblangan chinnidan haykalchalar ishlash, inkrustatsiya, qovoqdan ishlangan idishlarni naqshlash, charm materialarga miniatyura ishlash, gazmolga gul bosish, tosh o`ymakorligi kabi san'at turlari bo`yicha olib borilayotgan ishlar ham diqqatga sazovordir. Ayniqsa, pichoqchilik bo`yicha Andijonlik A. Muhiddinov, Namanganlik A. Abdullayev, tosh o`ymakorligi bo`yicha Nurotaning g'ozg'onidan E. Abdullayev, X. Yo`ldoshev, A. Haitovlar, charmida miniatyura ishlash bo`yicha Toshkentlik S. Po`latov, B. Yo`ldashevlar, qovoqdan ishlangan idishlarga minatyura ishlash bo`yicha Toshkentlik S. Ziyomov, B. Hojimetov, Sh. Rixsiyevlar, gazmoga gul bosish bo`yicha Toshkentlik A. Rahimov, chinni haykaltoroshligi bo`yicha toshkentlik Sh. Mo`minova, misgarlik san'ati bo`yicha M. Madaliyevlarning milliy amaliy san'atni bu turlarini tiklash va rivojlantirishdagi xizmatlari katta bo`lmoqda.

Shuni ham alohida qayd qilish lozimki, xalq amaliy san'atini rivojlantirish maqsadida Milliy rassomchilik va dizayn institutida Nukus, Buxoro, Namangan, Toshkent davlat pedagogika universitetlarida amaliy san'atdan malakali ustalar tayyorlaydigan guruhlar tashkil etilgan. Bu o`quv yurtlarini bitirganlar Respublikamizda amaliy san'at turini rivojlantirishda katta rol o`ynaydi.

Amaliy san'atdan yuqori malakali ustalar yetkazib chiqaradigan o`rta maxsus o`quv yurtlari san'at litsey va kolledjlari Toshkent, Buxoro Navoiy, Samarqandda ochilgan.

Xullas, O`zbekistonning mustaqillik yillarda o`zbek xalq amaliy san'ati o`zining yangi taraqqiyot bosqichiga kirmoqda. Azaldan mamlakatimizning madaniy markazlaridan hisoblangan Samarqand, Buxoro Toshkent, G`ijduvon, Marg'ilon, Xiva, Rishton, Shofirkon, Urgut, Xo`jayli, Qo`qon, Nurota, G`urumsaroy, Asaka, Chimboy, Sho`rchi, Termiz, Urganch, Boysun, Denov, G`allaorol, Jizzax, Zomin, Namangan, Kosonsoy, Shaxrisabz, Kitob, Sherobod, Beshkent, Xonqa, Nukus kabi shahar va qishloqlarimiz ustalari o`zlarining qadimiyligi shuhratlarini tiklash maqsadida samarali mehnat qilmoqdalar.

Mazkur mazmundagi suhbat darsida o`qituvchi mavzuga doir amaliy san'at namunalarini slayd, diapositiv yoki diafilmlar yordamida namoyish etadi. Ular bo`limgani taqdirda amaliy san'at namunalarining reproduksiyalari, foto nusxalari bolalarga ko`rsatiladi. Namoyish savol javob tarzida o`tkazilishi darsda bolalarni faol bo`lishlariga yordam beradi.

Shuningdek, darsda mashhur amaliy san'at ustalarining foto portretlarining ko`rsatilishi ham foydadan xoli emas.

Nazorat savollari:

- ✓ Mustaqillik yillarda o`zbek amaliy san'atida ro`y bergan asosiy o`zgarishlar nimalardan iborat ?
- ✓ Avvallari yetarlicha e'tibor berilmagan amaliy san'atning qaysi turlari qayta tiklandi va gurkirab o`sa boshladi?
- ✓ Sobiq ittifoq davrida unitilgan amaliy san'atning qaysi turlari paydo bo`ldi?
- ✓ Xalq amaliy san'ati rivoj topgan markazlar Respublikamizni qaysi shahar va qishloqlarida bor ?
- ✓ Uyda Mustaqillik yillarda ijod qilgan xalq ustalarining hayoti va ijodi hamda ularning asarlari yuzasidan materiallar to`plash va albomga yopishtirish vazifa qilib topshiriladi.
- ✓ Milliy istiqlol tufayli xalqimizning o‘z milliy, madaniy, tarixiy merosini o‘rganish imkoniyatlari haqida gapirib bering.

Topshiriq

1.“T-jadval” metodi yordamida tizimlashtiring. San’at metodlari va vositalarini tizimlashtirishda quyidagi jadvaldan foydalaning:

San’at metodlari va vositalari	
<i>San’at metodlari</i>	<i>San’at vositalari</i>

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
 - Boynazarov F. O'rta Osiyo" antik, davri.Toshkent. O'qituvchi 1991 yil.
 - Mirtursunov Z.F, Xalq, pedagogikasi, Toshkent. O'qituvchi 1968 yil.
 - Ajdodlar o'giti. xikoyalar, xikmatlar, timsoyalar. T. Cho'lpon 1990 yil.
 - Xasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida.
 - Donishmandlar axloq haqida. Toshkent. O'qituvchi 1986 yil.

11-MODUL O'ZBEK XALQINING MUOMALA MADANIYATI, AXLOQIY ME'YORLARI,TURMUSH KECHIRISH TARTIB QIDALARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Reja:

1. O'zbek xalqining muomala madaniyati, axloqiy me'yorlari, turmush kechirish tartib qidalarining tarbiyaviy ahamiyati

Tayanch iboralar : Axloqiy va falsafiy etuklik, xalq odobnomasi, ma'naviy ustivorlik , tarbiyaviy qarashlar, axloqiy me'yorlar, yuksak ma'naviyat, o'tmish tajribalari, «Birinchi muallim»,«YAxshi xulqlar», «yomon xulqlar», tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi.

Xalqimiz azal-azaldan axloqiy fazilatlarga boy bo'lgan. Ota-bobolarimiz farzand o'stirar ekanlar, ularning xulq-atvorlariga, gap-so'zlariga, kishilar oldida o'zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o'z maqsadlarini qanday so'zlar bilan tushuntirishlariga katta ahamiyat berishgan. Ular farzandlarining qo'rslik qilishi, kattalar suhbatiga aralashishi, nojo'ya ishlariga zinhor-bazinhor yo'l qo'yaganlar. Bu narsalarga farzand tarbiyasining eng muhim tomoni deb qaraganlar.

Ispaniyalik bir faylasuf olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq-odobini o'rganishga, tadqiq qilishga bag'ishlagan ekan. Ittifoqo, o'sha olim bizning yurtimizga tashrif buyurib, Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'libdi. Yuritga qaytib borgach: "Hozirgacha o'rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni o'n besh yoshli o'zbek qizalog'ining o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'ygancha choy uzatishdagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim", degan ekan. Biz shunday yuksak odobli, madaniyatli xalqning farzandi ekanligimizdan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

Yuksak ma'naviyatli xalqlar o'z milliy axloq-odob xususiyatlarini saqlab qolganlar. Masalan, yaponlar, hindlar, arablar. Imon-e'tiqodi sust xalqlar esa o'zga millat va xalqlarning axloq-odobiga berilib ketib o'zligini yo'qotadi.

Quyida Sharq axloqi uchun mushtarak bo'lgan muhim va mo'tabar jahbalar, xalq xikmatlari va buyuk allomalarining axloq haqidagi g'oyalari bayon qilinadi. Shoyad donolar xikmati o'zligimizni yangidan kashf etish va axloqiy –ma'naviy qadriyatlarimiz tiklanishiga ko'mak bersa degan umiddamiz.

Xalq madaniyatining eng muxim belgilaridan xushmuomalalikka, xozirjavoblikka alovida e'tibor berilgan. SHark xalqlari o'z bolalariga

soxtalik, yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan, samimiy munosabatni uluglagan .

Xalq pedagogikasini chukur o'rganar ekansiz, mutafakkirlarning ta'limgartarbiyaga oid, odob-axloqka oid asarlarni ko'zdan kechirar ekansiz, o'zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan yo'llaridan foydalanganliklarini guvohi bo'lamiz. YOsh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati, ayniksa benixoyadir. Bobo va buvilar oilada tarbiyani mukammal yo'lga qo'yishda , chinakam xalqchil tarbiyani , oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik qiladilar

Kesalar haqida gap ketganda, biz ularni xonadonimiz farishtasi, xayrbarakasi deb ataymiz. Xalq donoligi, ming yillik tajribalar, milliy an'analar qadriyatlarimiz ongida, faoliyatida, turmush tarzida jamlangandir. Ular yosh avlodning ustozi, murabbiysi, hayot dorilfununidir. Donishmandlar qari bilganni pari bilmas , deb bejiz aytishmagan .

O'zbek xalq pedagogikasi an'analarida farzandlarni axloqli qilib tarbiyalash ham ularda insoniylik fazilatlarini shakllantirish va kamol toptirish, axloqiy ongni shakllantirish va kamol toptirish: axloqiy tarbiyada tarbiyalanuvchilarga tarixiy tajribalar va pandnomalardan foydalanish, tarbiyalanuvchilarga axloqiy tarbiya berishda xalq pedagogikasi manbalari asosida pedagogik, axloqiy-estetik madaniyatni shakllantirish, yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda axloqiy tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha, dorbozlik, askiya, baxshi-shoирchilik, dostonchili, qiziqchilik, qiroatxonlik kabi san'atlarining turlaridan foydalanish, xalq an'anaviy sporti, farzandlar jismoniy baquvvatligi va etukligining garovi ekanligi, chaqqonlik, epchillik va har tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligiga alohida e'tibor qaratganlar.

Xalqimiz yoshlarga axloqiy tarbiya berish jarayonida xalq an'anaviy pedagogikasida tabiat va inson uygunlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e'zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, xayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov-daraxtlar, o'simliklar va giyohlarga; suv, borliq-atrofga insoniy munosabat - xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asosi ekanligi, odatlar, udumlar, rusm-rusumlar, marosimlar, «Navro'z», «Mexrjon», «Xayit-ro'za» boshqalarning tarbiyalanuvchining dunyoga kelishi, qulog'iga azon aytish, ilk qadami, beshikka solish, birinchi kiyim-bosh kiydirish, tuy-tomoshalar, odatlar, udumlar, marosimlar va an'analarning tarbiyaviy ta'siridan keng foydalanganlar. Pedagogik madaniyatni egallash uchun avvalo boy pedagogik tarixiy merosimizni chukur bilishimiz zarur . CHunki o'tmish tajribalaridan saboq olib, amaliy faoliyatga dadil kirib borish mumkin .

Tarixiy merosimizdagi ulkan xazinadan baxramand bo‘lish niyatida o‘zbek xalq pedagogikasiga murojaat eta boshladik . Ana shunday ulkan pedagoglarimizdan biri Abdulla Avloniy edi .

Abdulla Avloniy ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari kengrok tasavvur etish uning hayot faoliyatiga bir nazar tashlash o‘rinli bo‘lar. Abdulla Avloniyning otasi Mirovlan asli Qo‘qonlik bo‘lib, to‘quvchilik bilan shug‘ullangan . «Ota-onam, - deydi Abdulla Avloniy tarjimai xolida , - savodli bo‘lganlar. Ishdan bo‘shagach har ikkovlari ham kitob o‘qirdilar.»

Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentdagি Mergancha maxallasida tug‘iladi. U 7 – yoshida O‘qchidagi eski maktabni, keyinrok madrasani ham o‘qib bitiradi. Arab, fors, tatar, ozarbayjon va rus tillarini puxta o‘rganadi. 1907 yilda «Shuxrat», 1908 yilda esa « Osiy» degan YAngi ro‘znomalarni chiqaradi

Uning 1912 yilda yozgan « Muallimi avval» kitobidan yoshlar savod chiqarishgan , 1915 yilda yozgan « Ikkinci muallim» kitobidan esa she’r va xikoyalar o‘qib , zarur saboqlar olishgan .

Abdulla Avloniy «Birinchi muallim»da shunday deb yozadi: «Muxtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Birinchi muallim» imizdan ham olib tajriba qilib, uqitib ko‘rsalar. CHunki har gulning bir isi , har mevaning bir ta’mi , mazasi bordir .Bu

«buy»yu ta’m esa tajriba soxiblariga nashfo‘z ma’lum bo‘lur», «Birinchi muallim» , «eng oson usul ila» tartib etilmish» .

Abdulla Avloniy taniqli shoir sifatida 4000 misradan ortiq she’r ijod qilgan, ko‘plab ilmiy-pedagogik maqolalar nashr ettirgan. U 1934 yil 24 avgustda vafot etadi .

Abdulla Avloniyning asosiy ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari 1913 yilda yozgan «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobida ifodalangan . Bu kitob ikkinchi marta 1917 yilda eski o‘zbek yozuvida Toshkentda nashr qilingan va boshlangich sinflarda axloqdan darslik vazifasini o‘tab kelgan. Bu asarida u islom dini haqida shunday deydi : « Islomiyat-odamgarchilik» demak .

Bu asar xozirgi Kirill yozuvida 1-marta 1967 yilda «O‘qituvchi» nashriyotida kayta chop etiladi .

U 80 bet xajmda 10 ming nusxada nashr etilgan bo‘lsa ham O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasida uning bir nusxasi saqlanmoqda , xolos .

Demoqchimizki, bu asarga bo‘lgan talab ancha katta .

Mazkur asarga pedagoglarimizdan Muxitdin Maxsumov kirish so‘zi yozar ekan , shunday degan :

«Turkiy guliston yoxud axloq», Kaykavusning «Qobusnom», YUsuf Xos Xojibning «Kutadgu bilik», Nosir Xusravning « Saodatnom», Sa'diyning «Guliston» va « Buston», Jomiyning «Baxoriston», Navoiyning «Maxbub-ul-kulub», Axmad Donishning «O'g'illarga nasixat» kabi asarlari tipidagi o'ziga xos bir asardir. XX asr boshlarida bunday asarni o'zbek tilida birinchi bo'lib Abdulla Avloniy yaratdi va ta'lim-tarbiya ishlarida uni tatbiq etdi» .

Muallif ta'lim-tarbiya haqida g'oyat ibratli fikrlarni bildiradi. «Pedagogika – deydi Abdulla Avloniy,- bola tarbiyasining fani demakdir». «Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir». «Dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi- amal qiluvchi demakdir».

Bu erda pedagogika faniga qisqa va lo'nda ta'rif berilgan, ta'lim bilan tarbiyani jon bilan tanga o'xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini erkin ifodalab bergen .

Axloqni Abdulla Avloniy «Yaxshi xulqlar» va «yomon xulqlar» guruxiga bo'lib , quyidagicha tushunchalarini sanab o'tadi va ularga izox beradi .

U «Yaxshi xulqlar»ga quyidagilarni kiritadi :

Fatonat (o'tkir zexn, ziyrakli , tezfaxmlilik), nazofat (tozalik, poklik, ozodalik), sa'y (harakat,tirishish,urinish) va g'ayrat, riyozat (qiynalish, mashaqqatlanish), shijoat (botirlik, dovyuraklik), qanoat, ilm, sab, xalim (yumshoqlik, muloyimlik, yuvoshlik), intizom, miqiyosi, nafs, vijdon, vatanni sevmak, haqoniyat, nazari ibrat (ibrat ko'zi), iffat (poklik, tozalik, nomus, adab), idrok va zako (zexnlik, tez tushuna olishlik), ziyraklik, xifzi lison, xavf va rajo (umid, tilak), itoat, haqshunosli , xayriroxlik kabi ijobiy fazilatlar.

«Yomon xulqlar»ga esa : g'azab, shaxvat, jaxolat, razolat (pastkashlik, tubanlik), safoxat (aklsizlik, nodonlik, ablaxlik), adovat (dushmanlik, kek), nifok, tama' (ochko'zlik, qizganchiklik) zulm kabi salbiy xususiyatlar kiradi .

Unda mana shu xulq tushunchalarining ma'nosi izoxlanadi, ta'riflanadi va ma'lum bir baytlar bilan yakunlanad. Masalan: tarbiya bilan inson qismati hal bo'lajagini ta'riflab, shunday bayt keltiradi:

Xudoning raxmati , fayzi hama insonga yaksardur,

Va lekin tarbiyat birla etushmak sharti akbardur.

Tugib tashlov bila bo'lmas bola, bo'lgay balo sizga,

Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul raxnamo sizga .

Temurchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim ,

Bo'zulsa xulqi, lukmon ugli bo'lsa bo'lgusi zolim .

Xozirgi rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan pedagogika darslaridagi «Axloqiy tarbiya», « estetik tarbiya» deb har xil turlari tilga olinsa, Abdulla Avloniy tarbiyaning tarkibiy qismlarini quyidagicha ko'rsatadi :

1. Tarbiyaning zamoni
2. Badan tarbiyasi .
3. Fikr tarbiyasi .
4. Axloq tarbiyasi .

«Tarbiyaning zamoni»da uni kachon boshlash va kimlar shugullanishi zarurligi ko'rsatilgan. Abdulla Avloniy ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan boshlash nixoyatda zarur. Haqiqatdan ham, kichik yoshdagi bola hali misoli plastilin, qayoqqa qarab ishlov berilsa, shunday shakllanadi, suyagi qotadi. Tarbiya bilan dastlab ota-onasiga, keyin faqat maktabgina emas, xatto butun jamoatchilik, xukumat ham shug'ullanishi zarur, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi. «Alxosil, - deydi Abdulla Avloniy, - tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo xalokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

Abdulla Avloniy fikricha ota-onasiga, oila badan tarbiyani o'z zimmasiga olishi, fikriy, aqliy tarbiya soxasida asosan muallimlar kabi javob berishi lozim. Chunki jismoniy tarbiya shartlaridan biri badan, kiyim-kechak, uy-joy, asbob-uskunalarni toza tutish zarur. Har xil iflosliklarni yuqtirmaslik masalasida ota-onasiga extiyot bo'lishi kerak. Tozalik, poklik, kundalik extiyoj qoida, odatga aylansagina faxm, idrok, kishi ruxiyati, fikri rivojlanadi.

Xalqi olam suygusidir tozalik, pokni,
 Poklik orttirgusidir faxm ila idrokni,
 Har kishini ko'ksida poklik nishoni bo'lmasa,
 Tozalik maydonidan quvgaylar ul bebokni .

Abdulla Avloniy mehnat, gayrat, dangasalik, yalkovlik, jasoratlilik, qo'r quoqlik, qanoat, sabr, intizom kabi axloqiy tushunchalarga alohida to'xtaladi. U yoshlarni kichiklikdan intizomga o'rgatish, ilm-ma'rifatli bo'lish zarurligini uqtiradi. Ilm-fan, uning fikricha, yoshlarni yomonlikdan qaytaruvchi, yaxshilikka etaklovchi, etuklikka eltuvchi, baxtiyor etuvchi qudratli kuchdir

«Ilm,- deydi Abdulla Avloniy , - insonlarning madori, hayoti, raxbari najotidir» .

Ilm bir daryo ichi tulmush duru gavhar bilan ,
 Qiymatu qadrin qachon bilgay Ani joxil yilon .

Vijdon tushunchasi kengroq talqin etiladi, u yaxshi xulq manbai, kishining fazilatini ko'rsatuvchi ko'zgu, vijdoni – kishining eng yaxshi mevasi xosili. Xayo, iffat, ibrat, til – kishi uchun eng muxim ziynatlardir. U ona tilining buyukligini eslatadi:

Ey ona til , aziz qadrdonim ,
 Iltifoti ruxim , raxmonim .
 Tug'dim kundan aylading ulfat ,
 Ulguncha ayilma ey jonim .

«Menga ilmu adab san o'rgatding

Chin adib muallim shonim .

Millating ruxini ko'targuchi sen ,

Eng muqaddas karami sultonim .

Abdulla Avloniy go'zallik-nafosat haqida fikr yuritib , ma'naviy ichki go'zallikning so'zda ifodalanishini aloxida ta'kidlaydi .

Go'zallik yuzda ermay ey birodar ,

So'zi shirin kishi har kimga yoqar.

So'zing oz bo'lzin-u , ma'noli bo'lzin ,

Eshitganlar qulog'i durga to'lzin .

Abdulla Avloniy o'zbek-milliy madaniyatiga, xalq ta'limini Yangi yo'lga qo'yishda iste'dodli pedagog sifatida jonbozlik ko'rsatdi . U yoshlarga savod o'rgatish, tarbiyalash yuzasidan g'oyat muxim masalalarni ko'tarib chiqdi va ularni yangicha xal etish yo'llarini ko'rsatdi .

Xullas, Abdulla Avloniy o'z durdonalari bilan o'zbek xalq pedagogikasining tarbiya nazariyasiga ulkan hissa qo'shdi .

Abdulla Avloniy g'oyalarini qayta anglash, fikrlarini, uylarini yana bir mushoxada etish uchun uning asarlarini qayta nashr etib, kelajak avlodga etkazsak , alloma ruxini shod etgan va bu bilan biz o'zligimizni e'zozlagan bo'lamiz .

Chor Rossiyasi o'lkamizni bosib olgandan so'ng millatimiz ziyolilari maxalliy xalqlarimizni ma'rifatli qilish maqsadida milliy maktablar ochib, yoshlarga milliy- vatanparvarlik tarbiyasi berish yo'llari haqida bosh qotirganlar .

Nazorat savollari:

- ✓ O'zbek xalqining axloqiy me'yorlari haqida gapirib bering.
- ✓ O'zbek xalqi bolalarga axloqiy tarbiya berishda qanday usullardan foydalangan?
- ✓ Sharq axloqi uchun mushtarak bo'lgan muhim jihatlar qaysilar?
- ✓ Axloqiy tarbiya jarayonida keksa avlod tajribasining ahamiyati qanday?
- ✓ Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.
- ✓ Abdulla Avloniy «Yaxshi xulqlar» va «yomon xulqlar» haqida nima deydi?

Keys topshirig'i:

O'z muomilasi , nutqi ustida, o'z kamchiliklari ustida samarali ishlay olish bo'yicha barchaga ulkan namuna ko'rsata olgan Demosfenning buyuk notiq bo'lib

yetishishida samarali yordam bergen shakl, metod va vositalarni namuna sifatida berilgan ushbu jadval (“Ish qog‘ozi”) asosida ifodalang:

Ish qog‘ozi

Buyuk notiq Demosfenning o‘z ustida ishlashi		
<i>Samarali shakllar</i>	<i>Samarali metodlar</i>	<i>Ta’sirchan vositalar</i>

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- Boynazarov F. O’rta Osiyo" antik, davri.Toshkent. O’qituvchi 1991 yil.
- 3. Mirtursunov Z.F, Xalq, pedagogikasi, Toshkent. O’qituvchi 1968 yil. 4.Ajdodlar o’giti. xikoyalar, xikmatlar, timsoyalar. T. CHo’lpon 1990 yil.
- Xasanov S. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida.
- Donishmandlar axloq haqida. Toshkent. O’qituvchi 1986 yil.
- O’zbek pedagogikasi tarixi // A.Zunnunov tah.ostida. – T.: O’qituvchi, 1997. – 272 b.
- O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar // Zunnunov A., Xayrullaev M., Hotamov N., SHodiev D. - T.: Fan, 1996. – 243 b.

12-MODUL MILLIY MUSIQA, QO'SHIQCHILIK VA MILLIY TEATRLAR XALQ PEDAGOGIKASINING TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Reja:

12.1. Milliy musiqa, qo'shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasi sifatida

Tayanch so'zlar: *Qo'shiq janri, «Yor-yor» lar, «Alla» lar, yig'i-yo'qlovlar, sog'in, o'rim, yanchiq, bayram-sayillar, qo'shiqlari, bolalar folklori, go'zallik, samimiyat, mehr-shavqat, orzu- umid, quvonch-shodlik, g'am-g'ussa, armon, ma'sum tuyg'ulari, musiqa asboblari, teatr, xalq musiqasi va ashulalari*

Qo'shiqlar (lirik, marosim, mavsum qo'shiqlari, «Yor-yor» lar, «Alla» lar, yig'i-yo'qlovlar, sog'in, o'rim, yanchiq, bayram-sayillar, qo'shiqlari, bolalar folklorining namunalari va boshqalar) go'zallik, samimiyat, mehr-shavqat, orzu- umid, quvonch-shodlik, g'am-g'ussa, armon, ma'zunva ma'sum tuyg'ularni tarannum etish orqali har qanday kishida chuqur insoniy tuyg'ularni o'stiradi, hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.

Qo'shiq janri yoshlarning nafosat tarbiyasida aloxida o'rinn tutadi. O'zbek xalq qo'shiqlari asosan "Alla", "Yor-yor", "Ulan", "Azayigi" kabi bir necha turda shakllangan. Bola dastavval ona "Alla" sini eshitadi. Binobarin, bola ko'rish baxtiga muyassar bo'lgan onalarning qay darajada bo'lmasin, "Alla"-aytolmasliklarini tasavvur qilish mumkin emas. Xatto, qo'g'irchoq o'ynashni uddalay olgan jajji qizlar ham "alla" aytish bilan go'yo qo'g'irchoqlarini ovuntiradilar va shu orqali qo'shiq olamiga ilk bor qadam qo'yadilar.

Ona "alla" sining tarbiyaviy roli muximdir. X asr Markaziy Osiyo xalqlarining mashxur mutafakkiri va tibbiyotning buyuk siyimosi Abu Ali Ibn Sino ona "alla" sining tarbiyaviy ahamiyati haqida tarbiyalanuvchilarning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerakligi, chunonchi: biri-bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi-uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa-allalashdir, degan fikrni ilgari surgan.

San'atping asosiy sohalari. Musiqa san'atidan xabardor bo'lish. Musiqa inson madaniyatining eng yuksak ko'rinishlaridan, muhim sohalaridan, ijtimoiy ong, mafkura shakllaridan biridir. Musiqa hayotni bilib olish va unga ta'sir etish vositasi hisoblanadi. Musiqa badiiy obrazlarining latifligi bilan kishiga zavq va huzur bag'ishlaydi.

Musiqa asboblari: *fortopiano, skripka, bayan, do'mbra, dutor, rubob, doira, chang, klarnet, violonchel, kontrabas, flepta,*

arfa. Instrumental ansamblъ va orkestrlar.

Ovoz turlari; *bas*, *tenor*, *soprano*, *metstso-soprano* (*o'rtasoprano*). *Vokal ansamblъ ea xorlar*. *Musitsaning janrlari, turlari, ifodalash vositalari*. *Melodiya ea jo'r bo'lism*. *Makrm, estrada va xalts qo'shikpari, instrumgntal musitsa*. *Taronalar, ballada, fanpgaziya, sonato* (*har xil temp va xarakterga ega bo'lgan bir necha tsismdan iborat musitsa asari*), *kontsert, opera, balet, simfoniya, kantata* (*tantali ruhda yozilgan musitsa asari*), *oratoriya* (*umumiy xor, yakka ashulachi va orkestr uchun yozilgan musitsali dramatik asar*).

Xalq musiqasi va ashulalari. Mumtoz kompozitorlar ijodi, o'zbek kompozitorlari, hozirgi zamon chet el musiqasidan xabardor bo'lism.

Teatr Inson hayotida teatrning ahamiyati va o'rnikatga. Teatr tarixi, teatrning janrlari va turlari, teatrning taniqli arboblari, atoqli san'atkorlarni bilish. Pъesa (sahna asari), mazmuni, pъesa tanlash va staktaklъ ko'yishni, sahna asari ustida ishslash metodikasini, qo'g'irchoq teatri, drama to'garagini, teatrga borish, spektaklni ko'rish va muhokama qilshpni o'rganish lozim.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko'rsatmali qo'llanmalar, kitoblar, radio, televidenie). Yana o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari ham tarbiya vositasi bo'lishi mumkin. Kinofilbmlar, san'at asarlari, o'qituvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, mehnat, sport, badiiy havaskorlik, ijtimoiy va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi, zuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan kitoblarni muhokamasini uyushtirishlari lozim.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq.

Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga maqbul metodni, tanlab olishlari, uning shaxsini o'zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari lozim.

Tarbiya metodlari har bir bolaga, bolalalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lismni nazarda tutadi.

SHunday qilib, tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etishning turli-tuman metod, uslub va shakllarini majmuasiga tarbiya usuli deyiladi. Tarbiyaning metodlari, vositalari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o'zini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o'z udumi, usuli tarixan

shakllangan va tajribada sinalgan dun,qarashi, tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasining tarbiya metodlari

Xalq pedagogikasi chinakam o'zbekcha axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalaridan foydalaniladi, bu metod, vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki bu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xima-xil tarbiya metodlari quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o'rganish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lisch).
3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak- istak bildirish, ma'qullash, raxmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
4. qoralash va jazo (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayplash, uyaltirish, qo'rqtish, nafratlantirish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to'rt xil metod umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiyo manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna metodidan foydalanadi, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasihat, o'giti orqali narsa va hodisalarning mohiyatiga yetadigan bo'lleshadi. Bordi-yu unda ham bolalar tushunishmasa, yoki tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazolash metodlaridan foydalanishga to'g'ri kelgan. Lekin bu so'ngi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni so'nggi chora, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, xasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari) sayllar, turli nishonlashlar (tug'ilgan kunni nishonlash, yigitlar bazmi, qizlar bazmi), musobaqalar, turli marosim va boshqalar o'ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan.

Inson qalbiga bugun ekilgan yaxshilik urug'i oradan o'n yillar o'tgach unib chiqadi, buni ilmiy asoslab oldindan ko'ra bilish kerak.

Kino va televiedeniya. Ular san'atning keng tarqalgan ommaviy turi, siyosiy va ilmiy tashviqotning, shuningdek, kundalik voqealar haqida axborot olishning muhim vositasi,

mafkuraning ta'sirchan qurollaridan biri.

Kino va televideniya tarixi. Kino-telefilmlarning muhim turlari: ilmiy-ommabop filmlar, o'quv filmlari, xujjatli filmlar, badiiy filmlar, O'zbekiston va chet el kino san'atining mashxur vakillarini bilib olish. Kinoteatrлarga borish, kino-telefilmlarni ko'rish va muhokama qilish, o'quvchi-talabalarga kino-telefilmlarni ko'rsatish metodikasini o'rganish.

Badiiy ijod. Badiiy tarbiya to'garaklaridan (drama to'garagi, xor to'garagi, raqs to'garagi, rasm to'garagi, amaliy san'at to'garagi) birida qatnashish. Badiiy havaskorlik to'garaklarining kontsertlarida, «*Jonli gazeta*»da ishtirok etish. Musiqa asboblardan kuy chalishni o'rganii, folklor namunalari tug'ridan – to'g'ri tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Bular bilan bir qatorda tarbiyalanuvchi yashab turgan muxit - sharoitning vositachi roli mavjudki, ular yoshlarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda katta va samarali tarbiya vositasi hisoblanadi.

Ular quyidagilardan iboratdir: Bolalar o'yinlari, choyxo'rlik (choyxona gurungi), tarbiyalanuvchilar gapi (gap aytish), tarbiyalanuvchilar majlisi, mehmondorchilik, xashar va xokazo.

Tarbiyalanuvchi tarbiyasida xalq pedagogikasining namunalari hisoblangan xalqning milliy urf-odatlari, turli milliy marosimlari, an'analari, milliy bayramlar muxim rolb o'ynaydi. Ular qo'yidagilardan iborat:

1. To'y - beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, xovli to'yi;
2. Sayllar - dala sayli, gul sayli, qovun sayli;
3. Yig'in(tomosha, tug'ilgan kunni nishonlash), yig'it bazmi, qiz bazmi, kelin salom, uloq, poyga, kurash, turli shakldagi musobaqalar;
4. Aza marosimi, aza marakasi;
5. Safarga chiqish, ovga borish, kino, teatr, istiroxat bog'i, ommaviy yig'inu tomoshalarga borish, Ro'za xayit, qurban hayit, Navruz bayramlari.

Nazorat savollari:


- ✓ Xalq pedagogikasida qo'shiq janiri masalalari qanday yoritilgan?
- ✓ Ma'rosim qo'shiqlariga qaysilar kiradi ?
- ✓ Milliy teatr qanday bo'lishi kerak?
- ✓ Kino va televideniya tarixini bilasizmi?
- ✓ Milliy madaniyatga ega san'atkorlar ijodini qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?

Topshiriq

“Asalari galasi” strategiyasi. Milliy musiqa, qo'shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasi sifatida” mavzu bo'yicha muammoning auditoriyada umumiy yoki kichik guruhlarda alohida tahlil qilinishiga beriladigan

topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natija barchaga ma’lum qilinadi. Mashg‘ulot yakunida masalaning eng maqbul yechimi tanlab olinadi.

Mashg‘ulot jarayonida strategiyani qo‘llashda quyidagicha yo‘l tutiladi:



“Milliy musiqa, qo’shiqchilik va milliy teatrlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasi sifatida” mavzusini “Asalari galasi” strategiyasi yordamida o‘rganish

Guruhlari	Mavzular	Ishlanmalar
1-guruh	Milliy musiqa	Taqdimot
2-guruh	Qo’shiqchilik	Plakat
3-guruh	Milliy teatrlar	Klaster

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Sh. M. Mirziyoyev: “O’zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi” Xalq so’zi. 2017-yil 9-fevral
- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- M.Ochilov «O’qituvchi odobi», Toshkent. O’qituvchi 1975-yil
- Mirtursunov «Xalq pedagogikasi» Toshkent 1968-yil
- A.K.Munavvarov «Oila pedagogikasi» Toshkent 1994-yil
- O’.Asqarov, M.Xayitboev, “Ta’lim tarixi” T;Talqin 2013 y
 - O.Xaydarova «Xalq pedagogikasi», Navoiy 2008

13 -MODUL XALQ PEDAGOGIKASI MANBALARIDA USTOZ-O'QITUVCHI KASBINING ULUG'LANISHI

Reja:

1. Xalq pedagogikasi manbalarida ustoz- o'qituvchi kasbining ulug'lanishi

Tayanch so'zlar: *ustoz, intizom, o'qituvchi odobi, milliy tarbiya, izzat-hurmatda bo'lism, qadr-qimmatni anglash, samimiylilik, iltifotlilik, haqiqatlilik, mardlik, jasurlik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlar.*

Turkiy xalqlar qadim zamonlardayoq o'z yozuviga ega bo'lgan. Otabobolarimiz o'tmishda uyg'ur, runik yozuvlaridan, shuningdek, sug'd, xorizmiy yozuvlaridan foydalanishgan. Arablar istilosidan so'ng arab alifbosi qabul qilingan. Arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga ming yildan ko'proq muddatda amal qilindi. O'zbekistonda 1929 yilda – lotin, 1939 yilda rus alifbosiga o'tildi. 1993 yilda O'zbekiston Respublikasi lotin yozuviga – yangi o'zbek alifbosiga o'tish haqidagi qaror chiqardi.

Qadimgi Turon zaminida yashagan xalqlar sug'orma dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Odamlar tabiat hodisalarini ko'zatib borganlar, olam sirlari haqida ayrim kishilarga (payg'ambarlarga) vaqt-i-vaqti bilan g'ayb ilmi ham kelib turgan. Ayrim kishilar karomat ko'rsatib bo'lajak voqealarni oldindan aytá bilganlar. Dunyoviy ilmlardan astronomiya, geometriya, arifmetika, tibbiyat vujudga kelgan. Saroylar, ibodatxonalar huzurida ochilgan maktablarda yoshlarga diniy va dunyoviy ilmlar o'rgatilgan. Mirzalar, qozilar, hakimlar kabi davlat xizmatchilari tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan. Sharq mamlakatlaridagi maktablarda xat-savod o'rgatish murakkab, og'i ish hisoblangan. Ilm olish – nina (igna) bilan quduq qazish, deb bejiz aytilmagan. Mutafakkir olimla o'qitishning yengilroq usullarini topish ustida bosh qotirganlar. Sharq mamlakatlarida qadimda yaratilgan ayrim qo'lyozma asarlarda tarbiyaning maqsadi, o'qituvchi qanday bo'lishi haqida, shuningdek, ilm oluvchining ma'naviyat qiyofasi, hislatlari to'g'risida fikr-mulohazalar bayon etilgan, maslahatlar berilgan.

Qadimgi sharq mamlakatlarida maktablarda qattiq intizom o'rnatilgan, jismoniy jazo berishga yo'l qo'yilgan. Ota o'g'lini maktabga berayotganida domlaga "bolamning eti sizniki, suyagi meniki", degan naqilni bekorga aytmagan. Ko'pchilik hunarmand, kosib, dehqon, chorvadorlarning bolalari oilada turmush, mehnat jarayonida tarbiya olganlar, kasb-hunarni egallaganlar.

O'zbek xalq pedagogikasi – o'qituvchi odobning

dastlabki va beba ho manbai

Axloqiy pand-nasihatlarning, ta'lim-tarbiyaning ijodkori ham, asrlar davomida yoshlarni kamolot sari yetaklab, ularga hayot ilmini, turmush saboqlarini o'rgatib kelgan to'ng'ich ustoz ham-hayot, xalqdir. Yer yuzidagi barcha kishilar singari turkiy qabilalar ham qadim zamonlardayoq hayotiy ehtiyoj taqozosi bilan o'z bolalarini sog'lom, baquvvat, mehnatsevar, katta-kichiklarni izzat-hurmat qiladigan, xushaxloq, botir, jamoani, vatanni himoya qila oladigan kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to'plagan tajribalarini, orzu-istiklarini umumlashtirib maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, doston kabilar shaklida ifodalab yoshlarga, oila a'zolariga, boshqalarga o'rgatganlar. Shu tariqa o'zbek xalq pedagogikasi vujudga kelgan. Unda ijobiy axloqiy sifatlar, fazilatlar ulug'lanadi, salbiy illatlar esa qoralanadi. O'zbek xalq pedagogikasining shaxs va jamiyat uchun foydali, ilg'or, axloqiy g'oyalari og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib, folklor asarlari, milliy oilaviy urf-odatlar, an'analar sifatida bizgacha yetib kelgan.

O'zbek xalqi pedagogikasi asarlarida murabbiy, ustozning hurmati, mo'tabat inson sifatida ulug'lanadi. "Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l", "Ustoz otangdan ulug'", "Ota-onan bolani dunyoga keltiradi, ustoz esa uni yuksaklikka, osmonga ko'taradi" kabi hikmatlarda murabbiy, ustozlarning mehnati, qadr-qimmati ulug'langan.

O'zbek xalqining etnopedagogikasi umuminsoniy va milliy tarbiyaning qudratli omili, vositasidir. Turkiy xalqlar o'z bolalarini yoshlikdan uy-ro'zg'or mehnatiga o'rgatishga katta e'tibor bergen. O'zbek xalq pedagogikasi bolalarga-kimki yaxshi mehnat qilsa, yaxshi buyum tayyorlasa, u yaxshi usta, degan g'oya singdirilgan. Bundan tarbiya jarayonida: "Avval bil, keyin qil", "Avval o'rgan, keyin o'rgat", "Aql ko'pga yetkazar, hunar ko'kka", "Ustoz shogird-jonsiz kesak", "Ustoz ko'rмаган shogird-har maqomda yurg'alar" kabi maqollarning ahamiyati katta bo'lgan.

Xalq doimo yosh avlodni aqlli, odobli, go'zal fazilatli inson bo'lib kamol topishini orzu qilgan va shunga intilgan. Bunday orzu-istiklar Abdulqosim Firdavsiyning Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi hayotini aks ettiruvchi "Shohnoma" asarida quyidagicha tasvirlanadi.

Aql yo'l ko'rsatib, dilni etar shod,
Har ikki olamda aqlli obod.
Hamisha aqlingni rahnamo etgil,
Noloyiq ishlardan olisroq ketgil.³²

O'zbek xalq pedagogikasida ota-onaning namuna, ibrat ko'rsatishiga katta e'tibor berilgan. "Bolalarga go'zal tarbiya berish uchun, ota-onalarning o'zlari

³² "SHohnoma" 1-kitob, Toshkent, 1975 yil. 35-36 betlar

go'zal axloqli, tarbiyali bo'lislari shartdir ... Agar ota-onalar o'z umr-yo'ldoshlari bilan go'zal ravishda umr kechirsalar, ularni hurmatlasalar, bolalar ulardan olivjanoblik va xushmuomalalik odobini o'rganadilar

O'zbek xalq pedagogikasida qo'llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o'zaro izzat-hurmatda bo'lish, qadr-qimmatni anglash, samimiylilik, iltifotlilik, haqiqatlilik, mardlik, jasurlik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash ota-onaning burchi hisoblangan. O'zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat, hikoyatlarda ma'naviy axloqiy ideallar, ibratli, qiziqarli o'gitlar shaklida bayon etilgan. "Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan", "Har kim ekkanin o'radi", "Bola aziz, odobi undanda aziz" kabi maqollar shular jumlasidandir.

Hikoyat. Naql qilishlaricha, podsho ayonlari bilan ovdan qaytayotganida yo'lda kelayotgan bir bolani ko'rib qoladi. Otidan tushib, bolaga salom beradi. Vazir bundan taajublanib, "Shohim nega bunday qildingiz?", -deganda u: "Bu bola ustozimning nabirasi. Ustozga hurmatim tufayli unga salom berdim", -degan ekan. Bu naqlida

halqimizning ustozga, muallimga bo'lган chuqur hurmati ifodalangan. "Har kimki hayotdan olmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim", "Hayot ustoz, xalq muallim" kabi hikmatlar juda o'rinali aytilgan.

Bayon qilingan pedagogik fakt va mulohazalar o'qituvchining axloqiy fazilatlari tarbiyachilik ishining tarbiyashunoslik ilmining tarkibiy qismi sifatida xalq pedagogikasi zaminida vujudga kelib, asrlar davomida sayqallanib, takomillanib borganidan dalolat beradi. O'zbek xalq pedagogikasi asarlari, o'zbek oilasining bola tarbiyasi bobida to'plagan tarixiy tajribasi, milliy axloqiy qadriyatlarimiz o'qituvchi odobining bebafo manbai, bitmas tunganmas sarchashmasidir.

Eramizdan oldingi oltinchi asrdan milodiy beshinchi asrgacha o'tgan davrda Yunonistondagi quzdorlik davlatlari va Rim imperiyasida bir qadar demokratik tartiblar, respublika boshqaruvi o'rnatildi. Bu yerda o'ziga xos ta'lim-tarbiya tizimlari va pedagogik ta'limotlar yaratildi. Yunonistonlik olimlar-Demokrit (460-370), Suqrot (469-339), Aflatun (427-347), Arastu (383-322); shuningdek mashxur Rim pedagogi Kvintilian (42-118)lar o'z asarlarida ta'lim-tarbiya, o'qituvchi axloqiga doir pedagogik nazariyalar yaratdilar.

Masalan, Demokrit tarbiyaning tabiatga mosligi g'oyasini o'rtaga qo'ygan. O'qitish jarayonida bolalarning qiziquvchanligini hisobga olish zarur ekanligini uqtirgan. Ta'limning kishi tabiatini o'zgartiruvchi quadratli kuch ekanligini, o'qitishga majburlash usulidan ko'ra, ishontirish vositasidan foydalanish afzalligini, salbiy namunalarning zararligini ta'kidlagan edi.

U tarbiyada mehnatning roli muhimligini ko'rsatib, pedagoglar, ota-onalar bolani yomon o'rnakdan ehtiyot qilib, yaxshi hulq hosil qilish uchun foydali xattiharakatlarni ko'proq mashq qildirishlari lozim degan edi.

Aflatun bola tarbiyachiga itoat qilishi zarurligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. U bolani muttasil nazorat qilib borish; uning yaxshi xulqi, itoatkorligini rag'batlantirish, itoatsizlik qilsa-qo'rqtish va urib bo'lsa ham to'g'ri yo'lga solish lozimligini ta'kidlaydi. "Agar pedagog yoki ota-onasi degan edi u,- bolaga: mana bu adolatli, bu esa adolatsiz, bu ishni yaxshi qilish yaxshi, bu esa uyat, bu narsa muqaddas, bu esa noplilik; bu ishni qilish kerak, bunisini qilmaslik lozim, deb aytmasa va ko'rsatmasa bolani tarbiyalay olmaydi"³³

Arastuning "Iskandarga nasihat"³⁴ da bayon etilgan pedagogik g'oyalar yoshlarni axloqiy tarbiyalash nuqtai nazaridan hamon qimmatini yo'qotmagan. Shuningdek, Arastuning "Afina siyosati" asarida tasvirlangan³⁵ afinaliklarning o'qituvchilarni saylash taomili ham o'qituvchi bobida diqqatga sazovordir. Chunonchi, muallimdan yoshlarga sinfiy burchga sadoqat, intizomlilik, davlatni boshqara olish kabi axloqiy fazilatlarni tarbiyalash talab etilgan. Saylab qo'yish-o'qituvchi-tarbiyachilar zimmasiga katta majburiyatlar yuklagan. Bu taomil Afina davlatida pedagoglik ishining ommaviyligini, unga katta e'tibor berilganini ko'rsatadi. O'qituvchi etib saylangan qituvchi etib saylangan kishi unga davlatning kelajagi-yoshlarni tarbiyalashdek ulug' vazifa ishonib topshirilganidan faxrlangan. Davlat va tarbiyalanuvchilar bilan o'qituvchi o'rtasidagi muomala, munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga amal qilish talab etilgan.

Rim pedagoglaridan eng mashxuri-Mark Fabiy Kvintilian "Notiqni tarbiyalash to'g'risida" nomli asarida pedagog muammolarni, shuningdek o'qituvchi odobiga doir masalalarni ham bayon etadi. Kvintilian o'z zamonasida Grek va Rim pedagogik g'oyalarini yaxshi o'rganib, notiqlar maktabida ko'p yillar o'qituvchilik qilib orttirgan katta tajribasii umumlashtiradi. Uning fikricha, bola maktabda ta'lim-tarbiya olish lozim. O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotlik bilan va e'tibor berib muomala qilishi kerak, chunki befahm va qobiliyatsiz bola kamdan-kam uchraydi. O'qituvchining o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasga maqtayvermasligi yoki jazolayvermasligi, o'z shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi va ularni sinchiklab o'rganishi lozim. Har bir o'qituvchi o'qitishning hamma bosqichlarini o'tishi kerak. Yuqori tipdagi mакtab o'qituvchisi, avvalo, boshlang'ich maktabda muallimlik qilishi maqsadga muvofiq. Muallim va tarbiyachilarining talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak.

³³ Donolar tarbiya xususida. Toshkent, "O'qituvchi", 1982 yil, 42-43 betlar.³³ Xrestomatiya po istorii zarubejnoy pedagogiki. Moskva, "Prosveshenie", 1981, 19-bet.

³⁴ "O'zbek pedagogikasi antologiyasi". Toshkent, "O'qituvchi", 1995, 39-46 betlar

³⁵ Pisarinko V. I., Pisarinko I. Ya. Pedagogicheskaya etika. Minsk, 1977, 10-11 betlar

O'qituvchi odobining tarixiy lidizlari haqida gap borar ekan, qadimgi Yunoniston va Rim pedagoglarining yuqorida keltirilgan g'oyalarini tilga olish o'rini deb hisoblaymiz. Chunki, Markaziy Osiyoda yashagan mutafakkirlar Hindiston, xitoy kabi sharq mamlakatlari madaniyati, ilm-fani, pedagogikasi bilan bir qatorda qadimgi Yunoniston, Rim madaniyati, falsafasi, pedagogikasiga ham e'tibor berganlar. Jhon allomalarining ilmiy aloqalari, ma'rifatparvarlik, pedagogik axloqiy ta'limotlarni Markaziy Osiyoda pedagogika sohasidagi fikrlar taraqqiyotining tarixiy ildizlaridan biridir.

Kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ko'pgina muammolar o'yamasdan ehtiyoitsizlik bilan aytilgan qo'pol so'zdan kelib chiqadi. Chiroyli so'z esa yaxshi muomala, mehr-oqibat kalitidir. Islom ta'limoti kishilarni shirinso'zlikka chaqiradi. Shirinso'zlik va xushmuomalalikning shartlaridan biri ovozni baland ham, past ham qilmay, meyorida gapirishdir. Islom ta'limotida baqirib gapirish qoralanadi.

Imom Buxoriyning "Al-jome‘ as-sahih" asarining "Ilm kitobi" bo'limi³⁶ ilm egallash fazilati va xosiyatlari, ilm o'rganish odobi to'g'risida bahs etadi. Bu yerda ilm egallash odobining 54 qoidasi haqida hikoyat qilingan. Ularda Muhammad payg'ambarimizning ilm o'rgatish va o'rganishga doir pand-nasihatlari bayon etilgan. Islom dini qabul qilingan mamlakatlarda maktab va madarasalarda saboq bergen mullalar (muallimlar), mudarrislar va tolibi ilmlar bir necha asrlar davomida bu pand-nasihatlarga amal qilganlar. Ularning tahlili ilm o'rgatuvchi va o'rganuvchilarga nisbatan quyidagi didaktik talablar, pedagogik-axloqiy g'oyalarni ifodalashga imkon beradi:

-ilm beruvchining ovozi tinglovchilarning hammasiga eshitilarli me'yorida bo'lishi;

-ilm mazmuni "Aytgan edilar, xabar beradilar, guvohlik beradilar" kabi samimiy yoqimli so'zlar bilan ifodalash;

-biror ta'limiy yoki tarbiyaviy masalani o'rtaqa tashlab, muhokama, munozara yo'li bilan -ilm o'rganish va o'rgatish uchun ma'lum kunlarni qat'iy belgilab qo'yish;

-ilmni fahmlab teran tushunib, anglab o'rganish, esda mustahkam saqlash;

-teran tushunilgan yaxshi anglab olingan ilmlarni yod olish;

-ilm o'rgatish jarayonida bolaga lozim hollarda tanbeh berish mumkinligi;

-kishi ilmni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatishi, ilmga o'zi amal qilishi zarurligi;

-ilmning susayishi, ilmga e'tiborsizlik, jamiyatni muqarrar inqirozga yetaklashini tushunish;

-ilmni oson, yengil qilib, odamlarni bezdirmay o'rgatish;

³⁶ (Hadis. Birinchi kitob. Toshkent, 1991, 28-51-betlar)

-ilmni so'rab bilib olish, ilm o'rganishda uyalmaslik, o'zi uyalsa boshqa birov orqali so'rab bilib olish lozimligi;

-ilmga doir savol bergen odamga so'raganidan ko'ra ko'proq javob qaytarish;

-bilim tinglovchiga tushunarli bo'lishi uchun har bir gapni bir necha marta (uch bora)qaytarishning afzalligi;

-ilmni ishtiyoy bilan o'rganishning afzalligi;

-ayollarga ham ilm o'rgatish lozimligi;

-eshitganni yaxshiroq bilib olish, mukammal tushunish uchun qayta so'rash joizligi;

-ilmni bilgan kishi bilmaganga, eshitganlar eshitmaganlarga yetkazish lozimligi;

-ilm berayotgan ulamoning so'zlariga jim turib, diqqat bilan qulqoq solishning ma'qulligi;

- odamlarga juda oz bilishlarini anglatish;

- ilmni tushunishni,ilm olishni istamagan kishi o'rniga ilmni tushunadigan qavmga (kishilarga) o'rgatish joizligi.

Islom ta'limotida bayon bu dedaktik g'oyalar musulmon maktablarda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muomala munosabatlari tartibga soluvchi axloqiy qoidalar sifatida amaliyotda qo'llanilgan. Ular Markaziy Osiyoda yashagan allomalarining tarbiyashunoslikka doir ta'limotlari uchun ilmiy zamin vazifasini ham bajargan.

Markaziy Osiyoda mamlakatlarida islom dini qabul qilingan so'ngra ming yildan ortiqroq davr mobaynida o'qituvchi odobi g'oyalar islom ta'limoti ta'sirida shakllandi va rivojlandi. Ma'lumki, islom har bir musulmondan avvalo iymoni bo'lishni talab etadi. Bu, Allohn, Muhammad uning rasuli ekanini tilda va dilda tan olish, barcha olamlarni insoni ham tangri yaratganiga, oxirat kuni muqarrarligiga ishonishini nazarda tutadi. Shubhasiz, bu musulmon maktablarining muallimlarga qo'yiladigan axloqiy talablaridan eng birinchisi va muhimdir. Shu bilan birga Markaziy Osiyoda yashagan allomalar yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, shuningdek o'qituvchilik faoliyati va odobiga doir ta'limotlarni ham yaratdilar.

Abu Nasr al-Farobiy (873-930) o'z asarlarida har bir kishi jamiyatida, davlatga munosib inson bo'lishi uchun ta'lim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattiq zug'um qilishga intilmasligi, shuningdek haddan tashqari ko'p yon berishiga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug'um shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu, shogird ustozining juda xam yumshoqligini payqab qolsa bu hol ustozini mensimaslikka va u beradigan bilimdan sovishga olib keladi.

Farobiyning ta'kidlashicha, har bir kishining fe'l-atvoriga qarab tarbiya ikki usul-ixtiyoriy va majburiy usullar bilan amalgalashish mumkin. Bordi-yu tarbiyalanuvchilar fan va hunar o'rganishga moyillik bildirsalar, ularga nisbatan ilhomlantirish-rag'batlantirish usuli qo'llaniladi: aksincha, mabodo ular o'zboshimcha va itoatsiz bo'lsalar, majburiy usulni qo'llash mumkin.³⁷

Musulmon maktabida ishlaydigan kishilardan ziyrak, aqli kishi-o'tkir zehn – idrokli, fazilatli bo'lishi, o'zining qobiliyati va idrokini yaxshi kishilarga yo'naltirishi, yomon ishlardan o'zini saqlash lozim. Farobiy "Aql to'g'risida" gi risolasida o'zida o'n ikki hislatni birlashtirgan kishigina axlohli odam deb hisoblaydi. Buhislatlar qatoriga: odamda barcha organlar mukammal taraqqiy etgan bo'lishi, barcha masalalarni tezda va to'g'ri tushuna oladigan, xotirasi baquvvat, zehni o'tkir so'zлari aniq, fikrni ravon bayon eta oladigan, o'qishga muhabbatli me'yoriga amal qila oladigan, haqiqatni va haqiqat tarafdozlarini sevadigan, yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan, g'urur va vijdonini qadrlaydigan, mol-dunyoga mukkasidan ketmagan, adolatni sevadigan, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan,adolatli bo'lish, qat'iylik ko'rsatish, qo'rmas va jasur bo'lish kabilarni kiritada. Ta'lim-tarbiya beruvchilar o'z bilimlari va axloqiy darajalarida bir-birlaridan farq qiladilar, deb hisoblaydi u.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning fikricha tarbiya yagona jarayon bo'lib, yoshlarga aqliy, jismoniy, nafosat, axloqiy tarbiya berishni va hunar o'rgatishni nazarda tutadi. "Tib qonunlari" asarida bolaning 6 yoshdan o'qitish va tarbiyalash uchun muallimga topshirish haqida so'z yuritiladi. Ibn Sino ta'lim jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim deb hisoblaydi: o'qitishda oddiydan murakkabga qarab borish; bolaning qobiliyat va mayllarini e'tiborga olish; bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajartirish ta'limni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi.

Bolaga ta'lim va tarbiya berishi uchun saxovatli, dono, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim va tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog'lom, pok, halol, xushmuomala kishi bo'lmosg'i lozim. Barkamol inson qilib yetishtirish uchun tarbiyachi bolani o'rni bilan rag'batlantirishni ham, o'rni bilan jazolashni ham bilsin. Vaqt vaqt bilan bolani maqtab, yomon xulqini qoralab, yaxshi qiliqlarini o'z vaqtida rag'batlantirib ham turish kerak.

Abu Ali Ibn Sino bolalarni yakka-yakka o'qitishdan ko'ra jamoada ta'lim berishni afzal deb hisoblaydi. U jamoada o'qitishning afzalliklari haqida gapirib, ta'kidlaydiki, bunday holatda bolada ilmga intiluvchanlik ortadi; sheriklarning bilimiga havas qilib, o'z bilimlari bilan g'ururlanadi; boshqalardan orqaga qolishga bolaning g'ururi yo'l qo'yaydi; birga o'qiganda bolalar bir-birlari bilan gaplashib

³⁷ O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995, 108-109-betlar).

nutqi o'sadi, xotirasi mustahkamlanadi: ta'lim jarayonida o'quvchilar bir-birlari bilan inoqlashadi, bir-birlarini hurmat qilishga odatlanadi, munozara qilishni o'rganadi, o'zaro musobaqalashishadi, o'zlarining huquqi va burchlari haqida fikr almashadilar. Bu esa bolalarning xulqini yaxshilashga axloq normalarini egallab olishlariga ko'maklashadi.

Ibn Sinoning ko'rsatishicha, muallim avvalo bolaga Qur'on ta'limotini o'rgatish lozim, so'ngra bolaning nimaga qiziqishini, qaysi kasbga yoki san'atga mayli borligini aniqlash zarur. Bilim va hunarni bola hayot kechirish va yashash vositasi deb bilsin. So'ngra biror kasb-hunarni mukammal o'rganishi kerak. Ilm va hunar o'rganayotganda bolaning talanti, qiziqish va maylini e'tiborga olish zarur. Aks holda ta'lim va tarbiya kutilgan natijani bermaydi. Bolalarning bir xillari til o'rganishga qobiliyatli bo'lsa, ba'zilari boshqa fanlarga, masalan tibbiyotga, geometriyaga qobiliyatli bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham muallim bolaga ta'lim berishga kirishishdan oldin o'quvchining xarakterini o'rganishi va bilim darajasini o'rganishi kerak. Bunda avvalo bola diqqatining xususiyatlarini, qiziqishi va qobiliyatlarini e'tiborga olib, unga qaysi hunar yoki san'atni o'rganishi mumkinligini ko'rsatish kerak.

Kaykovus (XI asr)"Qobusnomा" da bolalarga hunar va fazl o'rgatmak to'g'risida farzandiga qilgan nasihatida ota-onaning va muallimlarning bolaga muomala-munosabati masalasiga ham to'xtaladi. Chunonchi, u ota-ona o'z bolasiga ilm va axloqiy fazilatlarni singdirish uchun bolani muallim qo'li bilan jazolashi mumkinligini uqtiradi va deydi: "... Va har ilmni o'rgatuvchi muallimlar ta'lim uchun (bolani) ursalar, sen(ota) shafqat ko'rguzgil, mayli ursunlar, nedinkim yosh o'g'lon ilm va adabni tayoq bilan o'rganur va o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdin qahrинг kelsa, o'z qo'ling bila urmagil, muallimlarning tayog'i bila qo'rqtgil. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o'g'lingning ko'nglida gina qolmasun".³⁸ Burxoniddin Zarnudjiy XII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan. Marg'ilondagi madrasada ta'lim olgan va shu yerda musulmon qonunshunosligidan talabalarga dars bergen. O'zining ko'p yillik pedagogik tajribasini umumlashtirib, "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" nomli pedagogik asar yaratdi. Bu asar Sharq mamlakatlarida ko'p marta nashr etilib, keng tarqalgan.

Unda pedagoglik kasbi, o'quvchi va muomala odobiga doir bir qancha kasbiy-axloqiy talablar ifodalangan. Quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

- o'rganish uchun fanlar orasidan eng muhimlarini tanlash: bolalar nimaga qiziqishlari, nimani o'rganmoqchi ekanligi va kelgusida hayotda qaysinisiga ehtiyoj tug'ilishini hisobga olish; eng avvalo allohnini bilish yo'llari haqidagi fanlarni tanlash;

³⁸ Qobusnomा. Toshkent, "Meros", 1992, 83-bet

- muallim tanlaganda, eng avvalo bilimlisiga, eng oliyjanobiga va tajribalisiga to'xtalmoq;

- har bir kishi qanoat, sabr muruvvatni egallahsga intilishi, bilimlarni takrorlashga e'tibor berish;

- o'quvchi muallimdan o'rganayotgan fani, kasbidan to'la qanoat qilishi;

- bilimlarni mukammal o'zlashtirish uchun aql-farosatlilik, kuchli istak, chidamlilik, o'rgatuvchi-o'qituvchi, bilim olish uchun yetarli vaqt bo'lishi;

- o'quvchining sherigi (o'rtog'i, dusti) sofdil,pok fe'l-atvorli bo'lishi; yalqov, ishyoqmas, ezma bo'lmasligi, jinoyatchi va qo'li egrilardan uzoqroq yurish;

-o'quvchining muallimga, ustozga hurmati – undan oldin yurmaslik, uning o'rniga borib o'tirmaslik, mashg'ulotlar paytida unga yaqinroq joyda o'tirishida bilinadi..³⁹

Muslihidin Sa'diy Sheroyi (1184-1292)ning asarlari Markaziy Osiyoda, jumladan, o'zbeklar orasida ham keng tarqalgan. "Guliston", "Bo'ston" kabi pedagogik-axloqiy kitoblari eski o'zbek maktablarida darslik sifatida o'qitilgan⁴⁰. "Guliston" asarining "Tarbiyaning ta'siri ostida" deb nomlangan yettinchi bobida tarbiyachilik faoliyati, tarbiyashunoslik ilmi, o'qituvchi odobining bir necha muhim qonun-qoidalari qiziqarli hikoyatlar shaklida bayon etiladi.

Quyidagilar shular jumlasidandir:

ta'lim-tarbiya berish uchun bolada avvalo qobiliyat bo'lishi kerak:

Qobiliyat bo'lsa aslida,

Tarbiyat unga qiladi asar.

Qancha urinma bo'lmas sayqali,

Temir aslida bo'lmasa javhar⁴¹

kishi yoshlikdan ilm-hunar o'rganishi kerak.

Hunar qaynoq buloq ,tuganmas davlatdir.

*Istar esang otangdan meros, qo'ygil otang ilmiga ixlos.*⁴²

- muallim bolalarni odobli qilib tarbiyalashi, ularga andisha bilan gapishtini, maqbul harakat qilishni o'rgatashi lozim. Muallimning so'ziga amal qilmagan shahzodalarga jazo ko'proq berilishi joiz, chunki ularning gapirgan gaplari, qilgan ishlari tillarda doston bo'ladi. (O'sha asar, 145-bet).

- muallim tili achchiq , badjahl, fosiq , haddan tashqari qattiqqlul bo'lmasligi; shuningdek, o'ta sodda, muloyim tabiatli kishi ham bo'lmasligi joiz:

Agarda muallim bo'lsa beozor,

Bolalar sinfni qilishar bozor.

Kumush ul taxtaga zardin bitib yod:

³⁹ O'zbek pedagogikasi antologiyasi Toshkent, "O'qituvchi", 1995 206-bet.

⁴⁰ SH. Shomuhamedov. "Bir dasta gul" maqolasiga qarang: Sa'diy "Guliston", Toshkent, 1968, 5-bet.

⁴¹ O'sha asar, 143-bet.

⁴²O'sha asar, 146-bet.

*“Ota mehridin afzal jabri ustod”.*⁴³

mabodo tarbiyalanuvchi muallimning to’g’ri nasihatiga qulq solishni istamasa ham tarbiyachi bilganiniunga aytishi joiz.

Baharda bargi mo’l daraxtlar nochor

Yalang’och qolar qish izg’irinida.

Past nodon mastlikda o’ylamas aslo

*Ne kechar ahvoli yo’qlik kunida.*⁴⁴

tarbiyaning natijasi, samarasi bolaning tabiatiga bog’liq .

Tilla-kumush bari chiqsa ham toshdan,

*Barcha toshda oltin bo’lmog’i gumon.*⁴⁵

Alisher Navoiy (1441-1501) o’zbek adabiyotining asoschisidir. Shu bilan birga, u pedagog-mudarris hamdir. O’z asarlarida, ayniqsa, “Mahbub-ul-qulub” asarida kasb axloqi, turli guruh kishilarining odobi masalasini maqolatlar shaklida yoritadi. U ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko’rsatadi. Ta’limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi tamoyillarni asos qilib oladi. O’z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O’qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar to’g’risida gapirar ekan, muallim o’z shogirdlarini va ta’lim berayotgan fanini sevishi zarur deydi. O’ziga ham, o’quvchiga ham talabchan bo’lish lozimligini uqtiradi. O’qituvchi jamiyatda obro’li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e’zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Alisher Navoiy o’z zamonasidagi maktabdorlar (muallimlar) haqida gapirib, ular bolalarga jafo qilish, azob berish, kaltaklashga o’rganib qolishganini tanqid qiladi. Ular toshbag’ir, darg’azab, gunohsizlardan achchiqlanishga odatlanishgan. Muallimlardagi bu salbiy sifatlar tarbiya jarayonining qiyinchiliklaridan, bolalarning tabiati, fe’l-atvori, fahm-farosati, turli-tumanligi ta’sirida vujudga keladi, deb hisoblaydi.

Navoiyning fikricha, ba’zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir to’da bolalarga ilmu adab o’rgatadi. Bu jarayonda muallim ko’p aziyat chekadi, mashaqqatlarni boshdan kechiradi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Haq yo’lida senga bir harf o’qitmish ranj ila,

Aylamat bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

⁴⁴ O’sha asar, 148-bet

⁴⁵ O’sha asar, 149-bet

Navoiyning “Mahbub-ul-ulub” asarida o’qituvchi odobiga doir quyidagi talabar bayon etilgan:

- mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;
- muallim bolalarga bilgan narsalarini o’rgatishi, bilmagan ilmlarini o’rgatishga urinmasligi kerak;
- gerdayish, manmanlik, ta’magirlik, nodonlik kabi illatlar o’qituvchi axloqiga yet sifatlardir;
- muallim yaramas ishlardan, nopolikidan yiroq bo’lishi kerak;
- xalq nazarida olim hisoblanadigan mudarrislar yomon ishlardan, fisqu fasoddan o’zlarini tiya bilishlari zarur.

Bilimdonlik, halollik, rostgo’ylik- o’qituvchining muhim axloqiy fazilati, ma’naviy boyligi hisoblanadi. Bu fazilatlar insonning munosabatlarini go’zallashtiradi. Insonning moddiy ehtiyojlari cheklangan bo’ladi va to’la qondirilishi mumkin. Lekin ma’naviy ehtiyojlar ma’naviy boyliklar singari cheksizdir. Kishi yaratgan ma’naviy boyliklarini qanchalik ko’p o’zlashtirsa, uning shaxsi shunchalik barkamol bo’ladi.

O’qituvchining ma’naviy boyligi, bilimdonligi xalq manfaatiga, yoshlarning baxti, iqboli, istiqboli, kelajagiga qaratilishi xizmat qilishi zarur. Mashhur mutafakkir aytganidek, agar kishi faqat o’zi uchungina ishlasa, u mashhur olim, ulug’ donishmand, ajoyib shoir bo’lishi mumkin, lekin u hech qachon haqiqiy barkamol inson bo’la olmaydi. Buyuk kishi bo’lishi uchun avvalo jamiyat taraqqiyoti yo’lida, insoniyatning buyuk orzu-istiklarini ro’yobga chiqarish yo’lida xizmat qilmoq va buning uchun zarur bo’lsa, o’z hayotini ham qurban qilishga tayyor turmoq kerak.

Muallimning bilimdon bo’lishi, insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklarni ko’paytirish va uni yoshlarga astoydil o’rgatishi, o’z ishidan qanoat hosil qilishi, o’z kasbini, bolalarni dildan sevib, berilib ishlashi-bularning barchasi o’quvchi shaxsining shakllanishiga ta’sir etadi.

- Har tomonlama bilim va yuksak madaniyatga ega bo’lish o’qituvchi odobining talablaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat kishisining ideali insonning aqliy barkamol, ma’naviy boy, ishbilarmon, axloq-odobli, halol, rostgo’y, o’zini tuta oladigan bo’lishini taqazo qiladi. Maktab o’quvchilari bu idealga ntiladilar. O’quvchiga axloqiy ta’sir o’tkazishning samarasi o’qituvchining chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, barkamol inson bo’lishiga bog’liq. Muallim o’zi o’qitadigan fanini xshi bilishi va undan tuzukkina dars berishi bilangina bunga erisha olmaydi. Haqiqiy ustoz o’z predmetini bilish bilangina cheklanib qola olmaydi. U juda ko’p narsalarni bilishga, tushunishga, his etishga intilishi lozim. Mafkuraviy hayot, badiiy adabiyot, tasviriy san’at, teatr, kino, televidenie, musiqa,

arxitektura, sport-muallim bularning barchasidan xabardor, ularni tushunadigan, qadrlaydigan bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi hamma narsani ko'ra oladigan bo'lishi zarur, lekin har joydan bir shingil emas, balki, avvalo, o'z ishini, o'zi o'qitadigan fanni puxta bilishi, shu bilan birga bilimlarning boshqa sohalariga ham qiziqishi, ulardan xabardor bo'lishi kerak.

- O'qituvchilik faoliyati uchun bu sifatlar zaruriy hisoblanadi. Ilm-fan rivojlanib, yangi texnologiyalar joriy etilayotgan hozirgi davrda bolalar bilim oladigan manbalar yil sayin ko'payib bormoqda. Badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar, gazeta, jurnal, radio va televizion eshittirishlar, muzey va ko'rgazmalarga bolalar juda qiziqadilar, shuning uchun ham muallim juda ko'p narsani bilishi, hamma narsadan xabardor bo'lishi kerak. O'qituvchi madaniyatning bior sohasidan ham xabarsiz qolishi mumkin emas. U bolani qiziqtiradigan barcha savollarga to'g'ri, o'rinali javob qaytarishi lozim. O'z fanidan boshqa hech narsaga qiziqmaydigan muallim o'qituvchilar uchun ideal bo'la olmaydi. Jamiyat hamma vaqt o'qituvchining umumiy madaniyatiga juda katta talablar qo'yadi.

- O'qituvchining ma'naviy qiyofasida halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlik muhim fazilatlardan biri hisoblanadi. Bu fazilatlar kishiga go'zallik, ma'naviy poklik bag'ishlaydi, kishining qadr-qimmatini oshiradi. Halollik muallimning ichki va tashqi dunyosining birligini, so'zi bilan xatti-harakati to'g'ri kelishini, o'quvchilarga, hamkasblariga, ota-onalariga ochiqko'ngil va samimiyy munosabatini ifodalovchi axloqiy fazilatdir. U inson xarakterining mohiyatidan kelib chiqadi. O'qituvchining halolligi o'z vazifasini vijdonan va ongli ravishda bajarishida namoyon bo'ladi.

- O'qituvchi axloqida halollik to'g'rilikni, rostgo'ylikni, mafkuraviylikni, printsiplikni, o'ziga, o'quvchilarga va boshqalarga bo'lgan ishonchni, samimiylilikni, so'z bilan ishonchni, oddiylik va kamtarlikni taqozo qiladi. Rostgo'ylik o'qituvchining a'naviy qiyofasini xarakterlaydigan axloqiy fazilat bo'lib, kishining so'zida, gapida ifodalanadi. Rostgo'ylik kishilarga doimo haqiqatni gapirishni, to'g'ri ma'lumot berishni, aldamaslikni talab qiladi. "Qudratli insonda doimo rostlik, zaiflikdan erur yolg'onu pastlik", degan edi Abulqosim Firdavsiy. Markaziy Osiyo xalqlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarda rostgo'ylik va shirinso'zlik o'ta qadrlanadi.

- O'qituvchining halolligi, rostgo'yligi, pokligi Vatanga, xalqqa, yoshlarga munosabatida namoyon bo'ladi. Halollik va rostgo'ylik – kamtarlik va oddiylikni taqozo qiladi. Halol va rostgo'y odam oddiy va kamtar bo'ladi. O'ziga ko'rsatilgan izzat-hurmatdan taltayib, gerdayib manmanlikka berilib ketmaydi. Bu fazilatlar o'qituvchining axloqli kishi sifatida obro'sini oshiradi. Aksincha, muallimning ikkiyuzlamachiligi, soxta, qalbaki xatti-harakatlari, printsiplsizligi bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etib ba'zan juda og'ir oqibatlarga olib keladi.

- Voqeiy hikoyat. Maktabni bundan o'n yilcha oldin bitirgan kishi bunday hikoya qiladi: "Shu yil mактабга kelган rus tili o'qитувчимиз D. Darsni yaxshi o'tardi, bizga har kuni nasihat qilardi. Insonningt burchi, axloqiy poklik, yuksak printsiplar haqida ko'p gapirardi, ko'tarinki ruh, balandparvoz so'zlar bilan doim biror tarixiy faktni yoki mashhur kishilarni misol keltirib gapirardi. Ochig'ini aytsam bizlarga uning bu gaplari juda yoqardi. U nasihat qilganda biz qandaydir biror yangilikni bilib olardik. Lekin bir kuni xuddi shunday nasihatgo'ylikdan so'ng qarasak, muallimimiz bizga qanday yashashni o'rgatar ekanu, o'zi ichuvchi ekan. Kechqurunlari uning uyida ichkilikbozlik, qimor o'yini ham bo'lib turar ekan. Sinfdoshlarimizdan biri bir kuni qishloqdagi katta to'ydan so'ng o'qituvchimiz mast bo'lib, uygacha yetolmay yo'lda yiqlib qolganini ko'ribdi. Shundan so'ng bu o'qituvchi biz uchun eng obro'siz kishi bo'lib qoldi. U hamon bizga nasihat qilar, lekin uning gaplariga endi hech kim quloq solmas ishonmasdi. Esimda, bir kuni maktab ma'muriyati shu o'qituvchini mukofatladi. Men bilan partada birga o'tirgan bola o'ylanibroq qoldi va "Balki, shunday yashash kerakdir?", dedi. Bu juda xavfli mulohaza edi."

- Muallimning yomon xulqi ta'sirida bola axloqsizlik yshliga kirib ketishi mumkin. Chunki bunday voqealar bolaning qalbida chuqr iz qoldiradi. Ayrim oilalarda sofдillik, xushaxloqlilikdan ko'ra ikkiyuzlamachilik ustun keladigan ba'zi holatlar ham uchrvb turadi. Buning ustiga yana muallim maktabda bir xil gapirib, turmushda, uyda boshqacha hayot kechirganini, boz ustiga bunday muallimni maktab direktori mukofotlaganini o'quvchi ko'rib tursa, buning oqibatini bir tasavvur qiling. Bu axloqiy tarbiya nuqtai nazaridan juda xavfli. Buning natijasida bola muallimga ham, boshqalarga ham ishonmaydigan, kattalarni hurmat qilmaydigan, tartibbuzar bo'lib ketishi mumkin.

- Pedagogik jarayonda muallimning halolligi, rostgo'yligi, o'zini tuta bilish, shirinso'zlik kabi axloqiy sifatlari uning shaxsiy ishi emas, balki ijtimoiy qiymat va ahamiyat kasb etadi, professional zaruriy fazilatlarning tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Ijobiy axloqiy sifatlar bo'lmasa o'qituvchining bilimi, mahorati va boshqa hislatlari sho' qiymatini yo'qotadi. Chuqr bilim, pedagogik mahorat va ruhiy-ma'naviy hislatlar bilan bir qatorda mas'uliyat, qadr-qimmat,adolat, yaxshilik istash, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, vijdonlilik kabi axloqiy fazilatlar muallimning obro'sini oshiradi.

- Xullas, agar muallim o'quvchilar unga xushaxloq, eng barkamol inson deb qarayotganliklarini qanchalik yodda tutsa, bolalarga uning ta'siri shunchalik kuchliroq bo'ladi, uning har bir maqtagani bolaga zavq bag'ishlaydi, uning har bir tanbehi bola qalbida shunchalik chuqr iz qoldiradi, barcha tarbiyaviy ishlar ta'sirli va samarali bo'ladi. O'zining biror noo'rin xulqi bilan bolalarga yoqmay qolgan muallimning ahvoli voy bo'ladi. Muallim axloqining pokligiga io'noch yo'qolsa,

yoki unga putur yetsa, o'sha zahotiyoy q'ituvchi nutqining burdi ketadi – uning maqtashi ham, tanbehi ham o'z ahamiyatini yo'qotadi, avvallari bolalarning unga hurmati va muhabbat tufayli ko'ngilxushlik bilan osongina bitadigan ishlar endi bolalarni qiynash, majbur etish va jazo berish bilangina bajarilishi mumkin.

- O'qituvchining axloqiy faoliyatlaridan yana biri – o'z kuchiga ishonch, lekin manmanlik, maqtanchoqlik qilmaslikdir. Muallim har doim oldinga qarab intilishi, o'z ishiga, o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lib, o'z darslariga tanqidiy qaray olishi lozim. O'quvchilar, hamkasblari, nazoratchilari uning darslarini yuqori baholasalar ham muallim bundan mag'rurlanib ketmasligi kerak. U yaxshi o'tgan darsidan qanoat hosil qilgan paytlarida bundan ko'ra ham tuzukroq ishslashga intilsa, bu ijodiy kamolot sari borishning to'g'ri yo'lidir.

- Qo'rkoqlik, o'z kuchiga ishonmaslik, birovning ko'magiga muhtojlik, o'qituvchi axloqiga, muallimlik kasbiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Shuningdek, o'ziga bino qo'ygan, maqtanchoq, olifta muallimni ham bolalar xush ko'rmaydilar. O'qituvchi o'z kuchiga ishonib, o'z fanini, bolalarni, pedagoglik ishini sevgan, o'zining butun kuchini, qalb ko'rini unga sarflagan taqdirdagina o'quvchilarning hurmatiga sazovor bo'la oladi.

- Ma'lumki, o'qituvchining faoliyatida ayrim juz'iy xatolar, istisnolar, ba'zan biror noo'rin xatti-harakat uchrab qolishi ham mumkin. Muallim bunday paytlarda o'z xatosini tushunib, uni tan olishi, kechirim so'rashi lozim. Bu yaxshi muallimning qadr-qimmatini tushurib yubormaydi, balki aksincha, o'quvchilar muallimning jur'atiga, uning yuksak axloqiy fazilatlariga ishonch bilan qaraydigan bo'ladilar.

- O'qituvchi o'zi ikkilanadigan ayrim masalalarni, hatto o'quvchilar bu haqda so'rab qolsalar ham, bolalarga iloji boricha, aytib qo'ymasligi maqsadga muvofiq. Chunki, mujmal, xato javob bergandan ko'ra, bu masalani hozircha chetlabroq o'tish ma'qul. Navbatdagi darsgacha uni aniqlab, bilib olishi va so'ngra asosli javob qaytarishi mumkin.

Boshqa kasblarga qaraganda pedagogik faoliyat odobli bo'lishni taqazo qiladi. Odatda, inson axloqi uning odobida ifodalanadi. O'qituvchining har bir so'zi, har bir bosgan qadami ibrat, tarbiya, o'rnakdir. Uning katta-kechiklar, o'quvchilar bilan qanday salomlashishi, kattalarga, kechiklarga, xotin-qizlarga munosabati, muomalasi, maktab oshxonasida ovqatlanishidan tortib, ko'chada yurishgacha tarbiya omili hisoblanadi. Har bir ishni o'z paytida, aniq bajarishi, bergen vadasining ustidan chiqishi, o'zini to'ta bilishi, irodasi, - bo'larning bachasi o'quvchilar xulqiga ta'sir etibgina qolmay, bolalarda axloqiy fazilatlarning shakllanishiga ham yordam beradi⁴⁶

⁴⁶ M.Ochilov Qarshi 2005y Nasaf 67b

Ustoz deb ataluvchi «atama»ning lug'aviy ma'nosi o'ta keng. Buning mukammal falsafasini yoritish uchun yuzlab kitoblar bitilsa ham oxiriga yetib bo'lmaydi. Ustoz deganda, uning ma'naviy nuri va bu nurdan yuzlab ko'ngillar bahra olayotganligini tasavvur qilamiz. Ustozlik bu shogirdlar ehtiromi, xalq ehtiromi, jamoatchilik ehtiromiga sazovor bo'lgan chinakam unvon. Ustoz – yozgani ham, aytgan suxani ham mag'izli, mantiqli,adolatli, tafakkuri keng, savodli, imon-e'tiqodli, axloqli, ma'naviyatli inson.

Ustoz odamiylik qiyofasi ufurib turgan, qalbi bilan dunyoni tinglaydigan, nafaqat millat, balki zaminu zamon, umuminson tashvishlarini yuragidan o'tkazib yashaydigan zot. Sadoqatli ustoz kamtarin, zukko, sermulohaza bo'ladi. Ustoz xalqqa, eliga manzur bo'la oladigan muruvvatli kishidir.

Otaning o'z o'g'liga ustozlik qilishida teran hikmat bor. Yoki har bir kasb egasi, u zargarmi, taqachimi, kulolmi, farzandiga jismida ardoqlangan, qadoq qo'llaridan zavq olgan asl hunarini, shu hunarning sir-asrorlarini o'rgatishi haqiqiy ustoz – ota rahnamoligining muqaddas ko'rinishidir. Bu an'ana otadan o'g'ilga, boboden nevaraga va butun avlodga o'tib borishi, sehrli qo'l mehnatining sharofati, hunarmandchilikning yuksak xususiyati ekanligidan darak beradi.

Ustozlar haqida gap ketganda, yevropalik faylasuf Frensis Bekon ko'plab shogirdlar orttirgan olimlarni uch guruhga bo'ladi. «Birinchi guruh olimlar, – deydi u, – o'z «men»i atrofida o'ralashib qolgan olimlardir, ularni o'rgimchakka qiyos etish lozim. CHindan ham o'rgimchak juda mohir, uning to'qigan to'rini yasash boshqaning qo'lidan kelmaydi. Lekin, u to'r o'rgimchakning o'zidan boshqa hech kimga kerak emas. Ikkinci yo'l bu chumolilar yo'li. Chumolilarning o'zları hech narsa ijod etmaydilar. Ammo mehnatkashdirlar, shuning uchun hamma narsani o'z uylariga tashib ketadilar. Ularning boyligidan birov bahramand bo'lmaydi. Uchinchi yo'lni tanlagan kishilar mutafakkirlardir. Bu toifa donishmand kishilarning moddiy va ma'naviy qanotlari bor. Ular asalarilardir... Asalarilar guldan gulga qo'nar ekan, qatalab bol yig'adi, yiqqanlarini odamlarga beradi, o'zlariga olib qolmaydi».

Ustoz – otangdan ulug'. Ustozlarni juda ko'p kishilar ulug'laydilar. Ko'p kishilar ulug'lagan insonlarni ulug' deb aytish joiz. Har bir kishining otasi farzand uchun ulug'ligi muqarrar. Ammo uning ulug'lanish doirasi shu farzandlar va eng yaqinlari orasida. Hamma ulug'laydigan ustozlarga nisbatan bu doira qisqa va chegaralangan. Ustozning esa ulug'lanish doirasi keng. Shuning uchun u ulug'dir. Barcha farzandlar singari Amir Temur uchun ham otasi ulug'. Uning qudrati otasini "Go'ri Mir" maqbaraga dafn qilib poyiga o'zini qo'ydirishga yetar edi. Ammo ustozini ulug'lab, o'zini uning poyiga dafin etishligini vasiyat qilganligi ham ustozning otadan ulug'ligidan dalolatdir. Ota o'z farzandiga o'zining bisotidagi hamma narsani berishi mumkin. Ammo farzand u bilan ulug'lik

darajasiga ko'tarila olmasligi muqarrar. Chunki, barcha otada ustozlik qila oladigan kasbi va qobiliyati bo'lmasligi mumkin. Farzandni tarbiyalab ulug'lar safiga qo'sha oladigan ustozdir. Bu bilan ham ustoz ulug'dir. Ota uchun farzand uning zurriyodi, hayotining davomchisi. Ustoz uchun esa u ulug' ishlarning davomchisi. Farzand ota xizmati bilan bu darajada ulug'lanmasligi mumkin, ammo ustoz o'rgatgan kasb bilan u ulug'lar safidan joy oladi. Bu ham otaga nisbatan ustozning ulug'ligidan dalolatdir. Agar unda iqtidor bo'lsa va yaxshi ustozning qo'liga tushib qolsa, u alloma bo'lishi tayin. Bu ham ustozning ulug'ligidan dalolatdir. Birovga bir burda nonini topib yeydigan kasbni o'rgatadigan ustoz bo'lishdek saodat hammaga ham nasib qilmagan. Ustoz aytdi: qora ko'ngilni sovun bilan oqartirish qiyin ekan. Ota o'z farzandini tarbiyalashni juda xohlaydi va bor kuchi bilan harakat qiladi. Chunki bola shu otaning farzandi. Ammo ustoz uchun shogird hech kim emas, uning farzandi, hatto yaqin qarindoshi ham bo'lmasligi mumkin. Ammo u otadan ko'proq, ota kasbidan yaxshiroq kasbni o'rgatadi. Uning kamoloti uchun ustoz otadan ko'p va xayrli xizmat qiladi. SHu tufayli ustoz ulug'dir. Otaning farzandiga yaxshilik qilishi uchun otalik hissi bor, ustozning esa, birovning farzandini ko'klarga ko'taradigan kasbni o'rgatish uchun jonkuyarlik bilan harakat qilib, hatto o'zini ham bag'ishlashi uning insoniylik fazilatidandir. Insoniy fazilati yuksak odamlar ulug'dir. Har qanday erkak ota, har qanday ayol ona bo'lishi mumkin, lekin ularning hammasiga ustozlik saodati nasib qilavermaydi. Faqat ulug' otalar va onalargagina ustozlik saodati nasib qiladi. SHu tufayli ustoz — ulug' va buyuk zotdir. Ustoz o'zidan oldingi o'tgan odamlardan ibrat olib ustoz bo'lganligi uchun, o'zidan keyingi shogirdlari uchun ham ibratdir.

Ustozning maqsadi hamisha ezgulik bilan yo'g'rilgan. Haqiqiy ustoz – sohili yo'q ummonga o'xshaydi. Undan cheksiz xazina va boyliklarni topish mumkin. Ustoz bo'lish uchun odam eng avvalo o'zini tarbiyalashi lozim. Shu tufayli har qanday ustoz o'z ishini o'ziga ustozlik qilishdan boshlashi kerak. Ustozning aytganlarini aytib yurishdan ko'ra, unga amal qilib yashash senga ham sening atrofingdagilarga ham kata naf keltiradi. Har bir inson, avvalo o'ziga ustoz, o'ziga shogird bo'lishi lozim. Ustozlikni his qilmagan kishi ustozning qadriga yetmaydi. Ustozlik mas'uliyati juda og'ir, ko'p narsalarni ko'tarishni va ayrim halovatlardan ham voz kechishni talab qiladi. Ustoz hayoti — ibrat maktabi. Agar u haqiqiy ustoz bo'lsa.

Daraxtning hosili — mevasi, ustozning hosili — shogirdlari. Ustoz faqat yaxshi, samimiy, saxovatli va bilimdon odamlardangina yetishib chiqadi. Agar insonda saxovat va insof uyg'un bo'lmasa, hamma ham ustoz bo'lishdek saodatga muyassar bo'lavermaydi

Demak, o'qituvchi, muallim, domla, ustoz, murabbiy degan so'zlarni xalqimiz samimiy hurmat, minnatdorchilik bilan tilga oladi. Bu, albbata, bejiz

emas. Zero odam aqlini tanigandan boshlab kattalardan, bilimli, tajribali, kishilardan tarbiya, tahsil, odob o'rganadi. Inson yozuvni ixtiro qilgan qadim zamonlardan beri muallim yosh avlodga xat-savod, ilm-hunar o'rgatadi. Hayotda endi kirib kelayotgan, kun sayin bo'y cho'zib, to'lishib, balog'atga yetib, atrofdagi narsa va hodisalarni, tabiat va jamiyat sirlarini bilib olishga zo'r ishtiyoy bilan intilayotgan bola uchun o'qituvchi "eng bilimdon", "eng donishmand" kishi inson kamolotining oliv namunasidir. O'qituvchi-avlodlarni bir-biriga bog'lovchi "tilla halqa", o'qituvchilik esa, boqiy kasbdir.

O'qituvchi jamiyatda juda muhim, ma'suliyatli ish bajaradi. Muallimning mehnati shu bilan qadrlik, u odamni, uning, ma'naviyati, dunyoqarashi, axloqiy e'tiqodini shakllantiradi. O'qituvchidan ta'lim olgan bola hayotda ishchimi yoki davlat arbobi-kim bo'lib yetishmasin, o'zining sevimli muallimini, ta'lim olgan maktabini minnatdorlik hislari bilan eslab turadi.


Nazorat savollari:

- ✓ 1.Xalq pedagogikasida ustoz- shogirt masalalari qanday yoritilgan?
- ✓ 2.O'qituvchini jamiyatda tutgan o'rni qanday?
- ✓ 3.O'qituvchini milliy odob axloqi qanday bo'lishi kerak?
- ✓ O'qituvchi axloqida halollik to'g'rilikni, rostgo'yilikni, mafkuraviyilikni, printsipialligini nima bilan bog'laysiz?
- ✓ 5.O'qituvchi madaniyati boshqalar madaniyatidan farqi nimada?

Topshiriq

Mavzuni o'zlashtirishda qaysi omillar hisobga olindi? Mavzuni o'zlashtirishda qanday omillar hisobga olinmadni? Ro'yxatga yana qanday omillarni kiritish mumkin? Masalaning yana qaysi jihatlariga e'tibor berish zarur?

O'qituvchi mehnatini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillarni "Barcha omillarni hisobga ol!" (BOHO) metodi yordamida aniqlanishi (namuna)



Izoh: talabalar tomonidan tanlangan har bir gugurt donasi yoki oddiy cho‘p bittadan tushunchani ta’riflash shartligini anglatadi. Shunga ko‘ra talaba agarda ikkita gugurt donasini tanlagan bo‘lsa, u holda ikkita tushunchani ajratib ko‘rsatib, ularni ta’riflaydi. Gugurt donalari sonining ortib borishiga ko‘ra tushunchalar soni va ularga beriladigan ta’riflar miqdori ham ko‘payib boradi.

“O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish” mavzusining “Gugurt donalari” strategiyasida yoritilishi

1-guruh	2-guruh	3-guruh)
1. Mehnat – 2. O‘qituvchi mehnati – 3. O‘qituvchi mehnatini tashkil etish – 4. Pedagogik tajriba – 5. O‘z ustida ishlash –	1.O‘z-o‘zini rivojlantirish – 2. O‘z ustida ishlash – 4. Pedagogik tajriba –	1. Pedagogik tajriba to‘plash – 2. Faoliyat – 3. Pedagogik faoliyat – 4. Pedagogik faoliyatni rejalshtirish – 5. O‘zini o‘zi baholash – 6. O‘zini o‘zi tahlil qilish –

Mavzuga oid adabiyotlar:

- Sh. M. Mirziyoyev: “O’zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi” Xalq so’zi. 2017-yil 9-fevral
- Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
- M.Ochilov «O‘qituvchi odobi», Toshkent. O‘qituvchi 1975-yil
- Mirtursunov «Xalq pedagogikasi» Toshkent 1968-yil
- A.K.Munavvarov «Oila pedagogikasi» Toshkent 1994-yil
- O’.Asqarova,M.Xayitboev,M.Nishonov ” Pedagogika”T;Talqin 2008 y
- O.Xaydarova «Xalq pedagogikasi»,Navoiy 2008

14 -MODUL XALQ TARBIYA NAZARIYASIDA TABIATNI MUXOFAZA QILISH VA SOG'LOM TURMUSH MASALALARI

Reja:

1. Xalq tarbiya nazariyasida tabiatni muxofaza qilish va sog'gom turmush masalalari

Tayanch iboralar: *tabiatning shaydosi, go'zallikdan zavqlangan, madaniy samimiy, mezbon, mehmon, tavoz'e, uy, xovli, joylar tozalash, tabiati go'zal, yomon xulq –atvor, ekologik tarbiya , atrof – muxit, munosabat, milliy anana, udum, xayvonlar , o'simlik, «Qizil kitob», bayramlar shakli*

O'zbek xalqi azaldan go'zallikning, tabiatning xaqiqiy shaydosi bo'lgan, uni e'zozlagan va ardoqlagan. Har qanday go'zallikdan zavqlangan, go'zallik yaratishga intilgan.

Bolalarda go'zallik to'g'risidagi tushunchalar ularni o'rabi turgan tevarak atrofdagi turmush olamlari: kiyim – kechak, o'yinchoqlar, oila a'zolarining o'zaro madaniy samimiy munosabatlari, saranjom xovli, gulzor: san'at asarlari musiqa, ashula, rasm asosida tarkib toptiriladi. Oila go'zallikning birinchi mактabi, oila a'zolarining o'zaro munosabati, uyning jixozlari, o'sha narsalarning uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom – sarishtalikning bolaning go'zallikka munosabatini tarbiyalaydi. Masalan : «O'tkan kunlar» romanida Yusufbek xoji yoki Mirzakarim qutidor oilasi, ularning o'zaro munosabatlari, Yusufbek xojining Kumushbibi va Zaynabga bergen nasixatlari, Kumushbibining onasi Oftoboyga yozgan maktublari..... O'lim oldidan Kumushbibining qaynotasidan uyalishi. Bular xammasi kishilar o'rtasidagi munosabat go'zalligi so'zlashish madaniyatini kuraylik. Eri xotiniga «begim» yoki Xotin erigaMasalan, «Yulduzli tunlar» romanida Bobur onasiga, onasi shox o'g'liga «amirzodam» deb, Xonzoda begin ukasiga «amirzodam» deb murojaat qilishadi. So'zlayotgan kishi o'zini «faqir», «kamina» deb, o'zgalarga «mavlono» deb murojaat qilishgan. Vodiyliliklar xatto o'z bolasiga xam «Siz» deb murojaat qilgan. Kiyinish bo'yicha xam o'zbek xalqi o'ziga xos udimga, rasm – rusumga rioya qiladi. O'ziga xos kiyinish madaniyatiga ega. Masalan : To'yga, mehmonga, ishga borganda kiyiladigan kiyimlar, ozoda kiyiladigan kiyimlar.

Mehmon kutish madaniyati: Uy, xovli joylar tozalangan, yangi ko'rpa chalar to'shalib, yangi yostiqlar qo'yilgan, yangi dasturxonlar yozilgan, chiroyli idishlar ishlatilgan, toza sochiq berib, qo'liga suv quyilgan. Mehmonning xurmatini joyiga qo'yib, u uchun xamma qulayliklar yaratilgan. Mehmon xam o'zini kamtar, sipo tutgan. Mezbon mehmonga tavoz'e bilan qo'l qovushtirib, o'ta iltifotli bo'lgan.

Mehmon kutganda xatto mezbon xam yaxshi kiyinib olgan. Mehmon oldida bolalarni urushmagan, ovozini ko'tarmagan, odob doirasidan chiqmagan. Yosh kelinlar o'rnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib sal egilib choy uzatishgan. Mehmonga borganda suqliq, ochko'zlik, beodoblik qilmay, o'zini o'ta sipo tutishgan, ovqatlanish qoidalariga rioya qilishgan. Bular xammasi muloqot, o'zini tutish, ovqatlanish madaniyati, ya'ni go'zalligidir. Anna shu go'zallikdan xalqimiz zavqlangan. SHu zavq bilan kelin tanlashgan, quda – anda bo'lishgan.

Ovqatlanishda yoshi kattalar boshlashgan, dasturxon atrofida xam yoshiga, mavqeiga qarab o'tirishgan. Gapirganda xam yoshlari kattalarni gapini bo'lishmagan, luqma tashlamey, jim turib, navbat kutishgan. SHuning uchun xam dono xalqimiz: Xusn to'yda kerak, aql kunda kerak deyishgan. Yoki: So'z chimildiq, aql kelindir.

Bu haqda sharq mutafakkirlarining fikrlari xam g'oyat ibratlidir.

Masalan: Ibn Sino: Yaxshi va yomon xulqning xammasi sharoit, tarbiya, odatlanish, natijasija vujudga keladi. Ochko'zlik, yaxshi ovqat, ichkilik, xotin xalatga berilishdan o'zini tutish iffat sanaladi.

Kishini qabiq va bemaza ishlarga qadam qo'yishdan tutib turadigan va uni yaxshi ishlarga yo'llashiga hayo deyiladi.

Yordam berishning go'zalligi undan kishining kasallik topishida ko'rindi.

Xulqlarning barchasi o'z tabiatini bilan go'zal, yomon xulq -atvorlarga esa keyin erishilgan bo'ladi. Go'zal xulq atvorlar odatlanishdan yuzaga keladi.

Maxmud Qoshgoriy: O'g'lim, senga meros qilib, ezgu xulq, odobni qoldiraman deydi.

Baxouddin Naqshbandiy: Kam yenglar, ocharchilik qurmasdan boy - badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar mukammalliklarga erishasizlar, kam gapiringlar dono bo'lasizlar. Yoki xofiz Sheroziy go'zallikka shu darajada oshifta bo'ladiki, u:

Agar ul SHeroz go'zali, ko'nglingni ololsa,

Qora xoliga baxsh etgum Samarcand Buxoroni.

Go'zal hislarni tarbiyalashning eng muxim vositasi tabiatdir.

M: X.Olimjon:

Chiroylidir, go'yo yoki kelin,

Ikki daryo yuvar kokilin.

Yoki:

Tog'lardagi qip-qizil lola,

Go'yo bo'lib yoqut piyola...

Go'zallikdan zavqlanishga o'rgatishda san'at va uning turlari, rasm, musiqa va ashula, badiiy adabiyotning ro'li kattadir.

Ekologik tarbiya deganda esa o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. *Ekologik tarbiya* esa insonning atrof – muxitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta'lim - tarbiyadan bosh maqsad yosh avlodda atrof – muxit, uning muommolariga ongli munosabatni shakllantirish.

Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlar tabiat boyliklarini tejab – tergashga, tabiatni muxofaza qilishga o'rgatila boriladi.

Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashning shakllanish negizi oila tarbiyasiga bog'liqdir.

Ajdodlarimiz bolalarga atrof – muxitga xurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish hissini sabot bilan singdirishgan.

Masalan: atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni aloxida chuqurlarga tashlash, xojatxonalarini ariq, soy, buloqsuvlaridan uzoqroq joyda kovlash, yong'in chiqmaslik chorasi ko'rish, ko'karib turgan daraxtni kesmaslik, nixollarni sindirib paymon qilmaslik, qushlarning uyasini buzmaslik kabi odatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib baxra oladi».

Gullab turgan mevani daraxtlarning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing yeysan, «Pishib etilmagan uzumni uzma, agar uzsang kata gunoh shu bo'ladi, chunki unda axli mo'minning nasibasi bor.» deb pand – nasixatlar qilganlar.

Xozir ekologik tarbiya saviyasi past. Mollarni ekinzorlarda (bog'larda) boqishadi. O'tmishda xalqimiz qaramog'idagi xayvonlarga maxsus podachi saqlagan, yoki navbat bilan boqishgan.

Oilaviy dam olishga chiqishganda daraxtlarga, o'simliklarga, xayvonlarga zarar keltirilmagan. Yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy anana va udumlarni qayta ishslashga qatta e'tibor berilmoqda.

Bolalarni ekologik tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining ta'siri katta. Xalq ertaklarida bolalar ajdodlarimizning ekologik xatolari nimalardan iborat ekanligini, ularning ibratli ishlarini o'rganadilar. O'quvchilarga aytildigan ertaklarda xayvonlar va o'simliklarning xususiyatlari, ularning tabiatdagi o'rni ochib beriladi. Xayvon va o'simliklarga bo'lган noto'gri munosabat natijasida juda noyob xayvon va o'simliklarning nomlari «Qizil kitob» ga kiritilgan. Qo'riqxonalar ochilgan.

Milliy tarbiyamizda to'rt narsa: yer, suv, tuproq, xavo muqaddas narsa hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqot qo'yishgan. Har tomchi suvni qadrlab bog' – rog'lar yaratishgan.

Xadisda xam ekologik tarbiyaga alohida e'tibor berishgan.

Masalan: Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do'zaxga maxkum etur. «Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar, dehqonchilik muborak kasbdir. Unda qo'riqchilarni ko'paytiringlar». «Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o'tkazsa, so'ng uning mevasidan qush yoki xayvon esa, uning ekinidan ekilgan har biridan unga saadaqa savobi yoziladi».

Xadis misolida bag'ri kenglik, jonzodlarni asrash zarurligi g'oyasi ulug'lanadi.

Ekmak niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda bexosdan qiyomat qoyim bo'lishi aniq bo'lganida xam ulgursangiz, uni ekib qo'yavering. «Kim suv toshqinini to'xtatsa yoki yong'inni o'chirsa, unga shaxidlik ajri beriladi» kabi xadislarda ekologiya va tabiat muxofazasiga oid tushunchalar bordir.

Demak, ota - bobolarimiz azal – azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatishgan.

Yurtni obod etishgan, ko'chalarni xovlilarni sarishta saqlashgan. Xalqimizning tabiatga munosabati urug' qardash, qovun sayli, suv sayli, uzum sayli, xosil bayrami, gul bayrami, navro'z bayrami, xirmon kabi bayramlarida xam ifodalangan. Bunday tabiat bayramlari ularning hayot tarzlariga aylanib ketgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng bu diyorni obod etish uning atrof – muxitini ozoda saqlash xar bir fuqaroning insoniy burchiga aylandi. Obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xush xulqlik va xushmomilalik xar bir inson uchun, pedogoglar va o'quvchilar uchun xam ekologik manaviy mezondir.

Ekologik tarbiya jarayonida o'quvchilar tabiat haqida tushuncha tabiiy muxit, tabiiy omillar haqida tushunchaga ega bo'lishi zarur. Tabiat boyliklaridan tejab kelgan foydalanish, ularni muxofaza qilishni o'rganishlari zarur. Atrof - muxitni ifloslanishidan saqlashlari lozim. Tabiatni kelajak avlodlari uchun tabiiy xolda goldirishga xarakat qilish kerak.

O'quvchilarni tabiatni muntazam kuzatib borishga, qiziqishga, tabiatni ximoya qilish uchun kurashishga, uning go'zalligini asrab avaylashga o'rgatish lozim.

Qadimgi muqaddas kitobimiz «Avesto»da yer, suv, zamin, xona, badan kiyim – kechak, oziq – ovqatlarni toza tutish va ishlashga aloqida e'tibor berilgan. Unda go'ristonlarni shaxar va qishloqlardan yiroqda joylashtirish, uni o'rab qo'yish, murda tekkan libos, yerlarni qatron qildirish xususida foydali maslaxatlar mavjud. Inson yoki xayvon o'ligi tushgan soy, ariq, xovuz, quduqlarni bir necha qatron qilish takidlanadi.

O't – o'lanlar va mevali daraxtlar ekilgan, suvlari ravon bo'lган zamin eng yaxshi yerdir. Ayol va farzandlari sarson - sargardon yuradigan yer yeng yomon

zamindir. Yerni iflos qilgan va uni saqlash qoidalarini buzgan shaxslar «40 kamchi urush jazosiga» girifton qilingan.

Inson yashayotgan xonada yuvinish va cho'milish qatian man etilgan. «Avesto» da uy jonvorlarini ehtiyot qilishga chaqirish kuchli.

Eng qadimiy davrlardan xalq ommasi ehtiyoji bilan shakllana borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan, muayyan vaqtarda ta'qiqlangan, katta qapama - qarshiliklar, to'siqlarni engib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan rituallar o'zoq va boy tarixga ega.

RITUAL (lotin so'zidan «marosim») - xulq-atvorning tarixiy shakli bo'lib, o'zaro ijtimoiy va madaniy munosabatlarni, qadr-qimmatni anglatuvchi bir maromga keltirilgan harakatlar tizimidir. Bu tushuncha bilan birga, biz, ushbu rituallar haqidagi ma'lumotimizda ritualga juda yaqin bo'lgan an'ana, odat, marosim tushunchalari haqida ham bir oz to'xtalib o'tamiz.

Rituallar eng qadimiy davrlardan boshlab shakllana boshlagan. Asrlar bo'yli avloddan-avlodga o'tib, kamol topib, beba ho merosga aylangan rituallar ko'p. Rituallar din paydo bo'lgunga qadar paydo bo'lgan. Lekin rituallarning ma'lum qismi tarixning qcos~ shamollariq- bosqinchilar va turli tarixiy shaxslar-hukmdorlar tazyiqiga uchrab, noxaq yo'qotilgan, ayrim qarama-qarshiliklarni engib, ko'pgina fazilatlardan ajralsa-da butunlay yo'qolib ketmagan, yana boshqalari esa xalq hayotidan mustahkam o'rinn olib, bizning zamonamizgacha etib kelgan.

Ibtidoiy jamoa davridan boshlab paydo bo'lgan rituallar o'sha davr odamlari tomonidan o'z davrining nafasini, dunyoqarashini, mehnat faoliyati, madaniyati, turli odatlari, marosimlari, ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish va keyingi avlodga etkazish maqsadida yoshlarga o'rgatilgan va ular bizgacha turli kuy, qo'shiq, o'yinlar orqali etib kelgan.

Qadimiy rituallar, asosan, ikki turga bo'lingan: tantanali va motam yoki tantanali-motam yurishlari, tantanali rasmiy ko'zatish va kutib olishlar. Keyinchalik ular takomillashib borib quyidagi turlarga bo'lingan: ijtimoiy, oilaviy, milliy, diniy, harbiy, mehnat, bilan bog'liq, kundalik-hayotiy, o'quv - tarbiya bilan bog'liq va boshqalar.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda ibtidoiy davrda ovchilar o'yinlari, harbiy o'yinlar, diniy, ilohiy o'yinlar, ayiq ovi o'yini va turli hayvonlar o'yinlari ko'plab qo'llanilgan, ularni bajarishning o'ziga yarasha tartib-qoidalari ishlab chiqilgan, ortiqcha harakatlar olib tashlangan, natijada ushbu o'yinlarning o'ziga yarasha marosimlari-rituallari paydo bo'lgan. Keyinchalik dehqonchilik boshlangach, dehqonchilikka bog'liq bo'lgan marosimlar – rituallar paydo bala boshlagan: mehnat o'yinlari, yomg'ir chaqirish, bevaqt sovuq tushsa «Kuyoshga sig'inish», omad kelmaganda «qurbanlik qilish» va boshqalar. SHuningdek,

yoshlarni sog'lom, baquvvat bo'lishlari, o'z yurtlarini vatanparvari bo'lishlari uchun «erkaklikka o'tish», ya'ni turli sinovlardan, qyynoqlardan o'tish, o'zini hayotga tayyorligi, kuchini namoyish etish kabi marosim (ritual)lar kelib chiqqan. Har bir ritual o'zining tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatiga ega bo'lgan. Ularning har biri odamlarning tarbiyasi, bilmi, hayotiy tajribalarini ortishiga yordam bergan. Rituallar yillar davomida charxlanib borgan va aniq xatti-harakatlar bilan belgilangan marosimlarga aylangan.

An'ana - bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rmini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Odat - («urf-odat») - kishilarning turmushiga singib ketgan ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-hapakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikma. Masalan,

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
- erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish;
- mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish;
- bayram arafasida kasal, ojiz, qiynganlardan xabar olish;
- yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.

Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo'lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasini, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida, ya'ni

- kishilar turmushi;
- mehnati;
- xulq-atvori;
- muloqoti;
- oilaviy munosabatlarda ko'proq mavjud bo'ladi.

Marosim bu ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiyoq qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

Masalan,

- ism qo'yish marosimi;
- nikohdan o'tish marosimi;
- dafn qilish marosimi;
- xotiralash marosimi;
- urug' qadash marosimi;
- o'rimga kirish marosimi va boshqalardir.

Odat kundalik hayotning turli vaqtida uchrashi mumkin bo'lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Uning asosiy burilish daqiqalarini (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim kabilarni) qayd etadi, rasmiy lashtiradi.

Marosimning avloddan-avlodga o'tadigan ramziy va rasmiy harakatlari, qoidalari mavjud. Marosimga bo'layotgan voqeaga, «guvoh» sifatida odamlar chaqirilgan, ular dardga yoki quvonchga sherik bo'lishgan, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishgan. Har bir marosimning o'ziga xos umumiyligini qabul qilingan tuzilishi (bosqlanishi, o'rtasi, oxiri) bo'ladi. Ko'pincha an'anening tarkibiy bo'lagi odat, odatning muhim bir qismi marosim bo'ladi. Shu sababli inson hayotida bo'lib o'tadigan yoki bo'lib o'tayotgan muhim voqeani turmushda burilish yasaydigan «nuqtalari»ni nishonlash jarayonida ham an'ana, ham odat, ham marosim sodir bo'lishi mumkin. Masalan, yoshlar voyaga etganda — yigitlar uylanishi, qizlar turmushga chiqishlari kerak. Buni avloddan-avlodga o'tib keladigan an'ana desak bo'ladi. Bir-birini sevgan yigit-qizning oila qurishi uchun nikoh to'yi o'tkaziladi. Bu o'z navbatida insoniyat hayotiga singan, muayyan qoidaga ma'lum tartibda ega bo'lgan urf-odat hisoblanadi (lekin har bir millatda bu urf-odatlar har xil).

Nikoh to'ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinni nikohdan o'tishlaridir. Zamonaviy shakliga ko'ra — mashinada yurish, guvohlar bilan ZAGSdan o'tish, uzuk taqish, ZAGS xodimlarining savollariga javob berish, hujjatlarga imzo chekish. Bu rasmiy va tantanali ravishda o'tadigan marosim.

Yuqorida aks ettirilgan jarayonlar — kelin-kuyov, ularning qarindosh-urug'lari, yoki do'stlari uchun bayramga aylanishi mumkin. To'y kechasini o'tkazilishi, barcha tanishlar va qarindoshlarni taklif etilishi bu bayramga yanada tantanali tus beradi.

«An'ana», «odat», «marosim» tushunchalarining izohi bir-biri bilan bog'liq xodisalar bo'lishi bilan bir qatorda an'analarning tarkibiy qismi esa marosim bo'lishi mumkin.

Masalan, - bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarining ishlab-chiqarishga borib, ish boshlashi, bu odat tusiga kirib qolgan;

- bu muhim voqeaga bag'ishlanib har yili an'anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin; - bu odatning tarkibiy qismi - yoshlarni tantanali ravishda ishchilar safiga qabul qilish o'z-o'zidan marosimga aylanadi.

Marosimlar:

- chigit qadash;
- ishchilar safiga qabul qilish;
- yangi korxona, firma, markaz ochilishi (prezentasiya);
- diplom topshirish;
- pasport topshirish;

- dafn qilish va boshqalar.

«An'ana», «marosim» kabi bayram bilan bog'liq atamalar «standart» tushuncha emas, ularning mazmuniga hayot rivojlanishi va turmush eqtiyojlari ta'sir etishi mumkin.

Ijtimoiy hayot taraqqiy etish bilan uning talabiga javob bermaydigan an'analar va bayramlar, marosimlar asta-sekin unutila boshlanadi.

Marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Marosimning avloddan-avlodga ramziy va rasmiy harakatlari, qoidalari mavjud.

Bu harakatlar va qoidalarning ixchamligi, aniq bir maqsadga yo'naltirilganligi, hatti-harakatlarni bir maromga keltirilgani biz yuqorida aytib o'tgan ritual tushunchasiga tug'ri keladi.

Rituallar haqida gapirganimizda birinchi o'rinda O'zbekiston Respublikasi ramzlariga bo'lgan xurmat ko'rsatish rituallari haqida fikr yuritamiz.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'i, Madhiyasi, Gerbi - bizning asosiy ramzlarimiz hisoblanadi. Ular haqida davlat tomonidan Qonunlar qabul qilingan, ushbu hujjatlarda davlat ramzlariga bo'lgan hurmat, ularga bo'lgan munosabat, ularni ishlatish, caqlash usullari haqida tavsiyalar berilgan. Lekin hayotimizda ko'pchilik rahbarlar, ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchilar bu qonunlardan bexabar bo'lganliklari yoki e'tiborsizliklari tufayli davlat ramzlariga bo'lgan munosabatda ko'pgina siyosiy va qo'pol xatolarga yo'll qo'yemoqdalar. Masalan, Davlat bayrog'ini ko'tarish va tushurishda, uni devorga mix yoki knopka bilan ilib qo'yishda, Davlat madhiyasi ijro etilganda unga hurmat yuzasidan o'rindan turishda, ramzlarni jihozlash ishlarida qo'llashda va boshqalar.

Bunday xatolarga yo'll qo'ymaslik uchun, albatta, Vazirlar Mahkamasining davlat ramzları to'g'risidagi qarorlarini o'qib o'rganib chiqish kerak. O'quvchi yoshlar o'rtasida esa Davlat ramzlariga bo'lgan hurmat va munosabat haqida suhbatlar tashkil etish kerak. Ularni Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tanishtirish lozim. Davlat ramzlariga bag'ishlangan darslar yoki rituallar darslarini tashkil etish kerak.

O'quv muassasalarida o'tkaziladigan rituallar (marosimlar), ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar, tadbirlarni tashkil etishni hamda ularning tizimini to'rt guruhga bo'lish mumkin.

I Yoshlarni Vatanga, o'z xalqiga vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni shakllantirishga qaratilgan rituallar tizimi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Umumxalq, bayramlarini o'tkazish: Mustaqillik bayrami, O'qituvchi va murabbiylar bayrami, Konstitusiya, Yangi yil, Xalqaro xotin-kizlar bayramlari, Navro'z, Xotiralash va qadrlash bayramlari, shuningdek, Ramazon va Qurbon hayitlarining birinchi kunlari kabi bayramlar.

2. Yosh fuqarolar bayrami (pasport topshirish).
3. «Vatanni sevmoq iymondandir» bayram rituali.
4. Davlat ramzlariga hurmat ko'rsatish rituali.
5. Rituallar darsi.
6. Davlat tiliga bag'ishlangan bayram rituali.
7. «Ajdodlarimiz merosi-qadriyatlarimiz asosi» mavzusidagi rituallar.
8. Xotira kuni (tantanali lineyka, gulchambar qo'yish rituallari).

II Yoshlarni fuqarolik burchi, tanlagan kasbiga mas'uliyat hissini shakllantiruvchi rituallar tizimi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchi, talabalikka bag'ishlov rituali.
2. Talabalarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga, guruhdan-rypyhga o'tkazish rituali.
3. Bitiruvchilar tantanasi.
4. Kasb-hunar bayrami.
5. O'quv yurtini tashkil etilganligiga bag'ishlangan an'anaviy bayram rituali.
6. Hafta navbatchilagini qabul qilish, yakunlash va topshirish rituallari.
7. Kundalik hayotni boshlashga bag'ishlangan ritual (saflanish).
8. Kasb sulolasini ulug'lash bayrami rituali.
9. Bitiruvchilarni o'z ilm dargohlariga o'zlari tayyorlagan kasbiy sovg'alarni taqdim etish rituali.

10. »Xomiylarga balli» kechasini o'tkazish rituali.
11. «Birinchi qo'ng'iroq», «Oxirgi qo'ng'iroq» rituallari.
12. Ustozlarga bag'ishlangan «CHin dildan» bayrami rituali.
13. «Quvnoq ustalar o'lkasi» ko'rik - tanlov rituali.
14. «Alpomish avlodimiz» ug'il bolalar bellashuvi va boshqalar.

III YOshlarni axloqiy fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan rituallar tizimiga quyidagilar kiradi:

- I. «Milliy — madaniy, odob-axloq darslariqni tashkil etish (taxminan kuyidagi mavzularda: tashqi qiyofa, salomlashuv, o'zini tuta bilish va boshqara olish, so'zlashuv madaniyati).
2. Mavsumiy sport bayramlarini o'tkazish.
3. Mavsumiy xasharlarni o'tkazish.
4. O'quvchilar o'rtasida bahs-munozara o'tkazish: (taxminiy mavzular: «Ota-onang — toji-taxtini», «Nima savobu, nima gunoh», «Nonni e'zozlang», «Yigit kishiga yetmish hunar oz», «Bepul narsaning baxosi qancha?», «Yo'lbars izidan, yigit so'zidan qaytmas» va boshqalar.
5. «Farzand burchi» ko'rigini o'tkazish.
6. «Odobnoma» choyxonasini o'tkazish rituali.
7. Notiqlik turniri.

8. «Mehmonnoma» davrasi.

9. Topishmoqlar kechasi. (Xalq topishmoqlari).

10. Kulgu kechasi.

YI Kelgusida ritualga aylanishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kasbiy mahorat tanlovlарини о'tkazish (estafeta shaklida).
2. Musiqaviy diskoteka o'tkazish.
3. O'quv yurtining «Faxriy a'zoligiga» qabul qilish rituali.
4. Xalqaro talabalar kuniga bag'ishlangan festivalъ.
5. Mavsumiy sayllar rituallari.

Kitob haftaligi, o'quv predmetlari haftaliklarini o'tkazish tartiblari.

Yuqorida berilgan marosim (rituaplar)dan tashqari har bir o'quv yurtida (sharoitdan kelib chiqqan holda) turli xil tashkiliy tadbirlar ham bo'lishi mumkin, ularga quyidagilarni kirtsa bo'ladi:

1. O'quv yurtining mutaxassisligi yo'nalishi, xususiyatidan kelib chiqqan holda o'quv yurtining madhiyasi, emblemasi, qasamyodi, shaklini tayyorlash.
2. O'quv yurtining o'ziga xos musiqaviy qo'ng'irog'ini tayyorlash.
3. Iqtisodiyot, tadbirkorlik, tejamkorlik va hunarmandlik ruhida tarbiyalashga bag'ishlangan tadbirlar.
4. O'quv yurtida talaba va o'quvchilar uchun tanaffus madaniyatini tashkil etish ritualini ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha marosimlar o'quv yurtida o'tkazilishi shart deb bo'lmaydi, chunki ularning tayyorgarligi, o'tkazilishi, tarbiyaviy ta'siri o'quv yurtining sharoiti, tashkilotchilarning umumiyligi va maxsus tayyorgarligi, bilimi, tajribasiga bog'liqdir.

O'quv yurtlarida O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi kalendarъ bayramlarini o'rghanish, ularni tashkil etib o'tkazish talabalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lardi:

Bu bayram - marosimlar kuyidagilar:

Baxoriy tengkunlikda — «Navro'z» bayrami (21-22 mart).

Ko'zgi tengkunlikda - «Mexrjon» bayrami (22 sentyabrъ).

Qishning eng uzun tuni — «Sada» (Olov) bayrami (22 dekabrъ).

Yozning eng uzun kuni - «Angom xayit» (suv sayli) bayrami (22 iyunъ).

Yuqorida ko'rsatilgan bayramlar o'zbek xalqining qadimiy bayramlari hisoblanadi. Ularning jadval yilnomasi quyidagicha:

O'zbek xalq bayramlarining jadval-yilnomasi

1.

2. 21-22 mart – Navro'z eski maxalliy nomlaridan biri — «Yil boshi»
Bayramning mohiyati, vujudga kelishi.

Qadimgi bahor bayramlari asosida taxminan 28-30 asr muqaddam paydo bo'lган. Tabiat uyg'onishi, kunduz va tun tengligi, dala ishlarining boshlanishi kabi hodisalarни aks ettirib kelgan. «Yil boshi» - yangi yil bayrami sifatida ham mashhur bo'lган.

Bayramning zamonaviy mazmuni va tashkiliy shakllari. Tabiat jonlanishi, bahor kelishi, dalalarda yangi mehnat mavsumi boshlanishiga bag'ishlangan sayllar, tomoshalar, o'yinlar, musobaqalar, xalq ijodi ko'riklarini o'tkazish, maxsus taomlar tayyorlanishi va boshqalar.

2. Gul sayllari (lola sayli, qizil gul sayli, sunbula sayli) Aprel oyining boshi — may oyining oxiri.

Bayramning mohiyati, vujudga kelishi. Qadimiy davrlardan boshlab dalalar, qir-adirlar, tog' yon bag'rida turli tabiiy gullar (boychechak, lola, sunbula, binafsha) ochilishi munosabati bilan o'tkaziladigan sayllar sifatida vujudga kelgan.

Bayramning zamonaviy mazmuni va tashkiliy shakllari, Tabiiy go'zallikni, gullarni, o'simliklarni e'zozlash, saqlash va ko'paytirishga bag'ishlangan tadbirlar, sayllar, tabiiy saylgohlarga dam olishni uyshtirish.

3. Suv sayli 21 iyun — (yoz bayrami) Qadimiy nomi «Angom».

Bayramning mohiyati, vujudga kelishi.

Yuqorida ko'rsatilgan bayramlar o'zbek xalqining qadimiy bayramlari hisoblanadi. Ularning jadval yilnomasi quyidagicha: O'rta Osiyo iqlimi sharoitida suvga bo'lган tabiiy ehtiyoj asosida shakllangan, suv xavzalari bor sharoitda taraqqiy etgan.

Bayramning zamonaviy mazmuni va tashkiliy shakllari

Suvning qadriga etish, e'zozlash tadbirlari, suv xavzalari yonida turli dam olish, sog'lomlashtirish va cho'milish tadbirlarini o'tkazish.

4. Qovun sayli, uzum sayli, anor, anjur sayllari, tabiat va mehnat bayramlari. Avgustning oxiri.

Bayramning mohiyati, vujudga kelishi.

Qadimgi hosil yig'ish odatlari asosida shakllangan. Turli nomi va bog' mahsulotlari pishganda dehqonlar o'z yaqinlari, qo'shnilarini, qarindoshlarini chaqirib, ularni o'z hosillari bilan siylagan, qariyalarning duosini olgan.

Qovun ekkanlar — «Qovun sayli», uzum ekkanlar — «Uzum sayli» o'tkazib kelishgan. Pishiqliq mavsumida hashap va Bog' sayllari xam uyshtirilgan.

Zamonaviy mazmuni va tashkiliy shakllari.

Pishiqlik davrida qishloq, dala-bog'larda boshlanib, shahar bozorlari, maydonlarda va madaniy bog'larda sodir bo'ladigan meva ko'rgazma — savdolari, tomoshalar, sayllar, «Kimning mevasi shirin» nomli ko'rik-konkurslar.

5. Mehrjon - 22 sentyabr - (Kuz bayrami) Bu bayramning qadimiy nomlari: Xorazmda «Chiri-ruj», Sund — Samarqandda — «Nim-sarda».

Bayramning mohiyati, vujudga kelishi.

Eng qadimgi Mitra (quyosh)ga sig'inish odatlari va kuz (hosil) marosimlari asosida taxminan 2-3 ming yil muqaddam vujudga kelgan. U kuzni kun va tun tengligini, hosil yig'ish yakunini, qishga tayyorgarlik ko'ra boshlash kabi hodisalarini aks etgirgan bayram. Tarixda 10-15 acp mobaynida Navro'zdan so'nggi ikkinchi katta bayram hisoblangan, yil yarmo vazifasini ham o'tagan. O'rta asrlarda turli bayramlarga bo'linib ket).

Zamonaviy mazmuni va tashkiliy shakllari.

Xozirgi kunda kuz bayrami, ko'zgi tun va kun tengligi, an'anaviy (eski) «yil yarmi» mehr-shavkat tadbirlari sifatida tabiiy sayllarda, madaniy bog'larda, o'yingohlarda, maydonlarda turli ko'rgazmalar, ko'riklar, tomoshalar, musobaqalar, sayllar kabi shakllardan foydalanib utkazilsa bo'ladi.

SADA --22 dekabr — (qish bayrami)

Bayramning mohiyati, vujudga kelishi.

Bu bayram qadimdan olov kashf etilgan kun deb qabul qilingan. U qadimiylardan qishda olov (isinish)ga bo'lган ehtiyojlari asosida taraqqiy etgan.

Otashparastlik davrida «Sada» eng katta bayramlarning biri bo'lgan. Islom istilosidan so'ng (o'rta asrlarda) bu bayram yo'qola borgan. Biroq uning ko'pgina qoldiqlari saqlanib qolgan.

Zamonaviy mazmuni va tashkiliy shakllari.

Xozirgi kunda uni qish bayrami sifatida hamda dunyodagi eng katta kashfiyotlardan biri — olov mo'jizalariga, yildagi eng uzoq tun («Yaldo kechasi») va qisqa kunga, qishki chilla boshlanishiga bag'ishlab, turli ochiq maydonlarda, zallarda gulxanlar yoqib, tomosha — sayllar qilib, rang- barang musobaqalar bilan uyuştirsa bo'ladi.

Biz taklif etgan marosimlar (ritual)larning barchasi katta tayyorgarlik, o'quvchi-talabalarning qiziqishi hamda ularni tashkil etishga bog'liq bo'lib ularning har biri ustida alohida fikr yuritish, o'ylash, shuningdek, ularni o'tkazish uchun ishchi yoki ijodiy guruhlar tuzish kerak bo'ladi, shu bilan birga marosimlarni tayyorlash va o'tkazish vaqtida ko'ppoq o'quvchilarning tashabbusiga, ularning qiziqishiga hamda fikrlariga diqqat-e'tiborni qaratish kerak.

Har bir o'tkazilgan marosim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi va o'quvchilarning tarbiyasiga ta'sir etadigan bo'lishi kerak.

Biz quyida turli mavzulardagi ritual marosimlar ro'yxatini sizlarga havola qilamiz:

Zamonaviy bayramlar tasnifi

1. *Tabiat bayramlari.*

— Zamonaviy navro'z.

- Yangi yil bayrami.
- Tabiatsevarlar bayrami
- Gul va qush bayramlari.
- Mexrjon bayrami.
- Mustaqillik bayrami va boshqalar

3. Mehnat bayramlari.

1. Qishloq xujalik xodimlarining Mehnat bayramlari.
 - «Urug’ qadash» va «Birinchi gul» tantanalar.
 - Hosil bayrami, sabzavot va mevalar sayllari.

2. Sanoat ishchilarining mehnat bayramlari.

4. Madaniyat bayramlari:

- Ma’rifiy bayramlar.
- «San’at bayrami».
- Folklor bayramlari.
- Badiiy sport bayramlari.
- Xalqaro do’stlik bayramlari.

4. Oilaviy - xususiy bayramlar:

- Ism qo’yish marosimi
- Tug’ilgan kunlar va muchal yoshini nishonlash marosimi.
- Beshik to’yi
- «Birinchi qadam» bayrami.
- Sunnat to’yi
- Maktab yoshidagi bolalar bayramlari.
- O’zbek to’ylari. Nikoh to’ylari.
- Kumush, oltin va olmos to’ylar.
- Pensiyaga kuzatish va qariyalar bayramlari va boshqalar.

5. Ijtimoiy — siyosiy bayramlar:

- Umumxalq bayramlari (Mustaqillik, O’qituvchi va murabbiylar, Konstitusiya, Xotira va qadrlash, xotin-qizlar) va kasb bayramlari.

6. Diniy bayramlar:

- Ro’za va Qurbon hayitlari

7. Xar xil shakl, mavzu va ko’rinishdagi marosimlar: Choyxona «ODOBNOMA», Topishmoqlar kechasi (Xalq topishmoqlari), «MEXMONNOMA» davrasi, Og’zaki jurnal (O’zbekiston, Navro’z, Mehrjon, Bahor mavzularida), «Odam ko’rki-libos» konkurs — kecha, «Otangga raxmat»

suhbat- munozara, milliy o'yinlar kechasi (raqslar va bolalar o'yinlari) va boshqalar.

Nazoat savollari

- ✓ Xalq pedagogikasida tabiatni muxofaza qilish tarbiyasini shakllantiruvchi vositalar?
- ✓ Xalq pedagogikasida ekalogik tarbiyani tarkib toptiruvchi usullar nimalar?
- ✓ SHarq mutafakkirlarining asarlarida tabiatni ardoqlash tarbiyaning ifodalanishi.

Topshiriq

"Xalq pedagogikasida tabiatni muxofaza qilish "mavzusida Qanday?metodi orqali turi vamohiyatini belgilash

Ish qog'ozি

	Turlari	Mohiyati
D	Qanday?	Qanday?
a	Qanday?	Qanday?
r	Qanday?	Qanday?
s	Qanday?	Qanday?
t	Qanday?	Qanday?
	Qanday?	Qanday?

Mavzuga oid adabiyotlar.

- S.S.Bulatov. O'zbek xalq Amaliy san'ati. Toshkent.O'qituvchi. 1993
- S.A.Nishonov. Ilm-fan taraqqiyoti, tabiat va inson. Toshkent1984 yil
- S.A.Nishonov. Tabiatni qo'riqlash va tabiiy resurslardan unumli foydalanish. O'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent 1983 yil.
- Qur'oni Karim. Xadis. Toshkent1991 yil.
- Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Toshkent 1993 yil.
- Tuliboev M. Xalq ma'naviy boyliklaridan foydalanish yo'llari. Jizzax 1994 yil.

G L O S S A R Y

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydale harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Nazorat (ta'lim jarayonida) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lhash va baholash jarayoni.

Nafosat didi - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi.

Nafosat madaniyati - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Nafosat ongi - go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarни voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiyl turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'naliishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Oligofreniya (yunoncha «olygos» – kam, «phren» - aql) - bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oliy ta'lim - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo'naliislari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta'lim bosqichi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim - jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, ad'yunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta'lim bosqichi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiyligi qonuniyatlarini, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogika tarixi – ta'lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o'rinni egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o'rganadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'naliislarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik paradigma (yunoncha «paradeigma» - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami; ta'limning kontseptual modeli.

Pedagogik talab - turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o’rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi – o’qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo’nalishlarda faoliyat ko’rsatuvchi to’garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat – ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo’llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o’quvchi amal qilishi zarur bo’lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag’batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko’ngilini ko’tarish va uni qo’llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o’sishida namoyon bo’ladigan miqdor va sifat o’zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang’ich qoidasi; boshqaruvchi g’oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o’stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o’qituvchi va o’quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo’naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo’yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo’l) – tarbiya maqsadiga erishish yo’li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg’ulari va xulqiga ta’sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o’rganadi.

Tafakkur (ijtimoiy voqeа-hodisalarning ongda to’laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tashhis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta’lim – o’quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan jarayon.

Ta’lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta’lim vositalari – ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ob’ektiv (darslik, o’quv qo’llanmalari, o’quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komp’yuter va boshqalar) va sub’ektiv (o’qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta’lim jarayoni – o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.

Topshiriq - o’quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko’nikmalarini shakllantirish maqsadida qo’llaniladigan usul.

Tushuntirish - o’quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To’garak - o’quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki mакtabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo’shimcha ta’lim shakli.

Umumiy pedagogika – mакtab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o’rganadi.

Umumiy o'rta ta'lim - o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlargaga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlash ko'nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Universitet - kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

Usul - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Fuqaro – fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxs.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik assosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong - tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarining ongdagi ifodasi.

Ekologik madaniyat - o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya - o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik ta'lif - o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzlusiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'lifiy jarayon.

Ekologik faoliyat - ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

E'tiqod - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

O'z-o'zini baholash - mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari - o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullar.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish - o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

O'rgatish - tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O'qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'naliishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyoragarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulotda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Hisobga olish – ta'limning muayyan davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallahsga bo'lган ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongini shakllantirish jarayoni

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Vosita - (a. "vosidat" – chora, tadbir, usul, o'rta, o'rtadagi) – muayyan maqsadga erishish yoki ma'lum ish-harakat, faoliyatni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan narsa, quroq; ma'lum harakat, faoliyatnini amalga oshirishda foydalaniladigan narsa; o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob'yekt; egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi;

Gender pedagogikasi – turli yoshdagi shaxs (tarbiyalanuvchi, o‘quvchi, talaba)larning ta’lim muassasalarida o‘zlarining erkin, qulay sezishlari, ularning erkak va ayol sifatida ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishlariga yordam ko‘rsatuvchi yondashuvlarni, genderlik xususiyatlarining rivojlanishiga salbiy etuvchi omillarni tadqiq etadigan fan.

Davolash pedagogikasi – turli shishlar, jarohatlanishlar, qandli diabet, bronxial astma, yurak-qon tomir, skolioz, autizm va boshqa kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni maxsus o‘qitish samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlash asosida yuzaga kelgan davolash nazariyasi va amaliyotining sohasi.

Davra stoli- fikrlar almashinuvi qandaydir tegadigan nuqtalarini topishga imkon beradi, chunki ularning keyingi faoliyatida umumiy xulosani yo’naltirishga – ilmiy haqiqat yoki siyosiy turg’unlikka erishishga xizmat qiladi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar.

Maslahat (konsultatsiya) – O‘MKHT va OTMda sessiya yoki imtihonlar oldidan pedagog va talabalar o‘rtasidagi dialog ko‘rinishida tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotining shakli.

Xalq pedagogikasi (Etnopedagogika) – etnomadaniy an'analar, xalqning poetik va badiiy ijodiyotiga asoslangan og‘zaki bilimlar, tarbiyaviy (faoliyat) ko‘nikmalar majmui, bolalarning bir-birlari va kattalar bilan qiladigan muloqotining barqaror shakllarini o‘zida namoyon etuvchi fan.

Xususiy metodika (xususiy fanlarni o‘qitish) – tegishli fanni o‘qitishning o‘ziga xos, xususiy qonuniyatları, tamoyillari, yondashuvlari, texnologiyalari, shakllari, metodlari va vositalarini o‘rganadigan fan.

Qiyosiy pedagogika – ta’limning jahon, mintaqa, davlat miqyosidagi rivojlanishining umumiy va alohida tendentsiyalari, qonunlari va qonuniyatlarini o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganadi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlarini, milliy pedagogik madaniyatlar almashinuvining shakl va usullarini aniqlaydi.

Hamkorlik pedagogikasi – turli fanlar yoki mutaxassislik asoslarining ta’lim beruvchi hamda oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot asosida samarali o‘rganish mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalarini ko‘rsatib beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.«Axloq-odobga oid hadis namunalari». – Toshkent: Fan, 1990, – 72 b.
- 2.A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) –Toshkent: O’qituvchi, 1992. 160 b.
- 3.Inomova K.M. «Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi» –Toshkent: Fan, 1999, – 151 b.
- 4.Yo’ldoshev J.G’. Xasanov S. «Avestoda axloqiy-ta’limiy qarashlar». – Toshkent: O’qituvchi 1992, – 28 b.
- 5.Kaykavus. «Qobusnomा». – Toshkent: O’qituvchi 1986, – 118 b.
- 6.Musurmonova O. «Oila ma’naviyat-milliy g’urur». – Toshkent: O’qituvchi. 1999, – 200 b.
- 7.Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». – T.: O’qituvchi, 1994, – 112 b.
- 8.Ochilova M. Ochilova N. «O’qituvchi odobi». – Toshkent: O’qituvchi, 1993\7. – 136 b.
9. Ochilova M. «Axloqiy tarbiya». – Toshkent: O’qituvchi, 1979, – 232 b.
10. Farobiy A.N. Fozil odamlar shahri. T.: A.Qodiriy, 1993.
11. Safo Ochil. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. T.: “O’qituvchi”, 1995.
12. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: “Fan”, 1994.
13. Milliy istiqlol g’oyasi, huquq va ma’naviyat asoslari //Falsafa fak-ti bakalavriyat bosqichi talabalari uchun 3-blokdagи yangilangan dasturlar majmuasi. Mas’ul muhar. A.O’tamurodov. Tuzuvchilar: Q.Nazarov va boshq. – T.: M.Ulug’bek nomidagi O’zMU, 2004. – 132 b.
14. Avesto. / A.Mahkam tarjimasi. T.: SHarq, 2001. – 385 b.
15. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim: (Din, falsafa, hayot, ma’naviyat va ma’rifat saboqlari). – T.: Movaraunnahr, 2002. – 720 b.
16. Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug’ati. – Xo’jand: Rahim Jalil nomidagi Davlat nashriyoti, 1997. – 95 b.
17. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan). – T.: Meros, 1991. – 47 b.
18. Aliev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiyat (Vatan fidoiylari). – T.: Akademiya, 2000. – 630 b.
19. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at. – T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. – 88 b.
20. Axmedova M. Pedagogika tarixini o’qitishda talabalarning ma’naviy sifatlarini tarbiyalash: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2008. – 156 b.
21. Babashev F.A. Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalarining ma’rifiy-axloqiy qarashlari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 1999. – 149 b.
22. Bozorova N.SH. Talabalarda ekologik madaniyati shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. – T., 2007. – 176 b.
23. Buyuk muhaddislar: Imom Ismoil al-Buxoriy. Imom Iso At-Termizi. – T.: O’zbek milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 1998. - 63 b.
24. Buyuk siymolar, allomalar (O’rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). K.2. /Nashrga tayyor. va mas’ul muhar. M.M.Xayrullaev. - T.:

- A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1996. - 120 b.
25. Jabborov I. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 221 b.
26. Jo'raev N. Agar ogoh sen ... - T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1998. - 254 b.
27. Jo'raev N. Uyg'oq nigoh. - T.: O'zbekiston, 1995. - 152 b.
28. Ziyomuhamedov B., Ziyamuhamedova S., Qodirova S. Ma'naviyat asoslari. –T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
29. Zunnunov A., Tolipov O'. Milliy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish. – T.: SHarq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri, 2006. – 94 b.
30. Iskandarov B. O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-ciyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. – T.: O'zbekiston, 1993. – 109 b.
31. Ismoilov S.T. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o'rni: Falsafa fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2006. – 26 b.
32. Kaldibekova A., Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 80 b.
33. Karim T. Milliy tafakkur taraqqiyotidan ("Avesto" zamonlaridan to XXI asr boshlarigacha). – T.: "CHo'lpon" nashriyoti, 2003. – 160 b.
34. Qurbonboev M. Talabalar ma'naviy-ijtimoiy faoliyklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (jamoalar asosida): Dis. ... pedagogika fanlari nomzodi. – Toshkent, 1998.- 155 b.
35. Mamatqulova R. Milliy ma'naviy meros asosida universitet talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 1995. – 220 b.
36. Mardonov SH.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006. – 232 b.
37. Mardonov SH. Pedagogik ta'lim tizimida ta'limiy qadriyatlardan foydalanish. // Xalq ta'limi. – T., 2005. - №6. – B.24-28.
38. Mardonov SH., Egamberdieva N. SHarq allomalari merosi – pedagog mutaxassislar tayyorlash asosi. // Xalq ta'limi. – T., 2004. - №2. – B.25-
39. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. - T.: Fan, 1994. – 134 b.
40. Mahkamov U. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. - T.: Fan, 1996. - 200 b.
41. Mahmudova N.D. «Avesto»da ta'limiy-axloqiy qarashlar: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2005. – 145 b.
42. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 63 b.
43. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat //O'zR Prezidenti I.Karimov asarlari asosida. – T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 2001. – 160 b.
44. Mahmudov T. "Avesto" haqida. – T.: SHarq, 2000. – 63 b.
45. Musurmonova O., Baubekova G. O'zbek xalq pedagogikasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. – 64 b.
46. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 1993. – 364 b.
47. Muxsieva A. Oilada milliy tarbiyani tashkil etishning metodik asoslari. –

T.: Fan, 2009. – 116 b.

48. Muhiddinov M.K. Alisher Navoiy va uning salaflari ijodida inson kontseptsiyasi (“Xamsa”larning birinchi dostonlari asosida): Filologiya fanlari doktori. ... diss. Avtoref. – T., 1995. – 60 b.
49. Nosirov K. IX-X asrlarda O’rtta Osiyo mutafakkirlarining axloqiy tarbiya haqidagi g’oyalari (Al-Buxoriy va al-Forobiy asarlari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. - T.: 2000. - 135 b.
50. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o’quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2000. – 305 b.
51. Otamurodova R. Talaba-yoshlarning ma’naviy tarbiyasi //Xalq ta’limi j., 2000. 6-son. – 26-28 b.
52. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000. – 79 b.
53. Ochilov M., Ochilova N. O’qituvchi odobi. – T.: O’qituvchi, 1997. – 132 b.
54. Ochilov.M. Muallim – qalb me’mori. – T.: O’qituvchi, 2001. – 429 b.
55. Ochilov S. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. - T.: O’qituvchi, 1995. – 208 b.
56. Pedagogika tarixidan xrestomatiya //Ped. oliy bilimgohlari talabalari uchun o’quv qo’ll. Tuzuvchi-muallif: O.Hasanboeva. – T.: O’qituvchi, 1992. – 208 b.
57. Ro’zieva D. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida milliy iftixor tuyg’usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2007. – 255 b.
58. ituvchi, 1999. – 480 b.
59. Temur tuzuklari. / Forschadan A.Sog’uniy va X.Karomatov tarjimasi. – T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. – 34 b.
60. Tulenov J., Yusupov K., G’afurov 3. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo’nalishlari. - T.: O’zbekiston, 1993. – 48 b.
61. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O’zbekiston, 1998. – 72 b.
62. Tulenov J. Hayot falsafasi. – T.: O’zbekiston, 1993. – 319 b.
63. la Qodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 408 b.
64. Xarlamov I.F. Pedagogika v voprosax i otvetax. – M.: Gardariki, 2001. – 256 s.
65. Xarlamov I.F. Formirovanie lichnostnykh kachestv v protsesse vospitaniya// Pedagogika. – M., 2003.- № 3. – S.52-59.
66. Xorazm Ma’mun akademiyasi. – T.: Fan, 2005. – 279 b.
67. SHayxova X., Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviy kamolot. – T.: O’zbekiston, 1992. – 115 b.
68. SHayxova X., Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviy kamolot. – T.: O’zbekiston, 1992. – 115 b.
69. SHamsutdinov R., Karimov SH., Ubaydullaev U. Vatan tarixi (XVI – XX asr boshlari): K.2. – T.: SHarq, 2003. – 352 b.
70. Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika

oliy ta’lim muassasalari misolida): Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2010. – 332 b.

71. Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. – T.: Ma’naviyat, 1999. – 239 b.

72. Yuldasheva S.T. Badiiy qadriyatlarga estetik ehtiyojlar omili sifatida talabalar qiziqishlarini faollashtirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2007. – 165 b.

73. Yusupov E. Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o’rni. – T.: Universitet, 1996. – 6-b.

74. O’zbek pedagogikasi tarixi // A.Zunnunov tah.ostida. – T.: O’qituvchi, 1997. – 272 b.

75. O’rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar // Zunnunov A., Xayrullaev M., Hotamov N., SHodiev D. - T.: Fan, 1996. – 243 b.

76. 1999. – 193 b.

77. Quronov M. O’zbekiston umumiyl o’rta ta’lim mакtablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 1998. – 316 b.

78. Quronov M., Qurban niyozova Z. Ijtimoiy pedagogika – T.: RTM, 2002. – 134 b.

79. Quronboev Q.Q. Talabalarning ma’naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (yoshlar tashkilotlari misolida): Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2000. – 155 b.

80. Qur’oni Karim. O’zbekcha izohli tarjima /Tarjima va izohlar muallifi: A.Mansur. – T.: SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1992 yil. – 494 b.

81. G’oyibov N. Amir Temur davri ma’naviyati. – T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – 48 b.

82. Habibullaev A. Navoiy pandnomasi: “Mahbub-ul-qulub”. – T.: Fan, 1996. – 82 b.

83. Hadis. IV. Al-jome’ as-sahih (Ishonarli to’plam) /Arabchadan A.Abdulloh tarj. – T.: Qomuslar Bosh tahririyyati, 1992. – 527 b.

84. Haydarova O. Pedagogik kasbga tayyorlik samarasi. // Xalq ta’limi. – T., 2004. - №2. – B.31-33.

85. Xayrullaev M.M. O’rta Osiyoda ilk uyg’onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994. – 80 b.

86. Xalq pedagogikasi //”Zarautsoy-98” Xalqaro simpoziumning ilm.ma’r.to’pl. - T.: Universitet, 1998. – 342 b.

87. Hamidov H., Hasanboeva O., Hasanboev J. Pedagogika tarixi //O’quv qo’ll. – T.: O’qituvchi, 1997. – 248 b.

88. Hasanboev J., Hasanboeva O., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: O’qituvchi, 1997. – 186 b.

89. Hasanov S. Xorazm ma’naviyati darg’alari. – T.: Adolat, 2001. – 233 b.

90. Hasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari //Met.qo’ll. – T.: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 112 b.

91. Hasanboeva O., Hasanboev J. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: O’qituvchi, 2000. – 112 b.

92. Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 184 b.
93. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. – T.: SHarq, 2004. – 208 b.
94. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 488 b.
95. Hoshimov K., Safo Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 464 b.
96. Xrestomatiya po pedagogicheskoy aksilogii. / Sost. V.A.Slastenin, G.I.CHijakova. – M.: NPO «MODEK», 2005 . – 456 s.